

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 1 (13)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abdurasilov Shoxrux Raupovich	5
	O'RTA ASPLARDA TOSHKENTNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA ETNIK TARIXI	
2	Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi	14
	SHOHRUX MIRZONING ILMIY VA IJODIY FAOLIYATIGA DOIR	
3	Акбоева Зебинисо Джалолиддиновна	19
	ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИНИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ	
4	Begimqulova Laylo Mashrabovna	23
	AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA OLIY MASLAHAT KENGASHINING FAOLIYATI	
5	Begimqulova Laylo Mashrabovna	28
	AMIR TEMUR TAMONIDAN MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSLARINING YARATILISHI	
6	Гаффоров Шокир Сафарович	35
	ПОЛИТИКА ЗАСЕЛЕНИЯ ТУРКМЕНСКИХ ТЕРРИТОРИЙ РОССИЙСКИМИ ПЕРЕСЕЛЕНЦАМИ В КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД	
7	Дусчанов Расулжон Рахимбердиевич	43
	ЎЗБЕКИСТОНДА МОЛИЯ ТИЗИМИ ТАРИХИ	
8	Ernazarov Shermuhammad Eshbekovich	49
	TARIX, TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	
9	Fayzrahmanova Zarina Ildarovna	58
	SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO XONLIGI	
10	Исмоилова Парвина Хамиджон кизи	66
	ВОПРОС ОБ УЧРЕЖДЕНИИ СИСТЕМЫ КРЕДИТОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (НА МАТЕРИАЛАХ ТУРКЕСТАНСКОГО СБОРНИКА)	
11	Ишанходжаева Замира Райимовна., Махкамова Рано Аловиддин кизи	72
	ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ (ЎОДУ) ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА	
12	Кобзева Ольга Петровна	81
	В ПАМЯТЬ ОБ УЧЕНОМ	
13	Mamajonov Soyibjon Xalilovich	86
	"SHARQ KUTUBXONASI" ASARIDA AMIR TEMURNING DASHT YURISHI MASALASINING O'RGANILISHI	
14	Maxamova Shahlo Anatoliyevna	91
	CHIG'ATOY ULUSI MUSTAQILLIK DAVRI (1306-1346)NING ARABIY MANBALARDA AKS ETISHI	
15	Norbekov Suhrob Farxod o'g'li	98
	SHARQIY SLAVYAN DIASPORASINING IJTIMOIIY - SIYOSIY FAOLLIGI (USTUNLIGI): TURKISTON ASSR (1918-1924 YILLAR)	
16	Ochilova Dilobar Jo'raqulovna	108
	MO'G'ULLAR IMPERIYASINING SHAKLLANISHI DAVRI MASALASIDA SHARQ MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI	
17	Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li	114
	1970-YILLARDA QORAQALPOG'ISTON FUQARO AVIATSIYASINING XALQ XO'JALIGIDAGI O'RNI: ARXIV HUJJATLARI TAHLILI	
18	Qodirova Mavluda Mirzaraximovna	120
	QURBONJON DODXOHNING IQTISODIY SIYOSATI	
19	Qoraboyev Sherzodbek Raximovich	125
	MASJIDLAR FAOLIYATIDA MILLIY URF-ODATLAR VA DINIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI (FARG'ONA VODIYSI TAJRIBASI ASOSIDA)	

20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich SULTON TAKASHNING IROQ SALJUQIYLARI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI BILAN SIYOSIY MUNOSABATLARI TARIXI	130
21	Turdaliyev Abduhilol Zohidjon o‘g‘li CHIG‘ATOY ULUSI VA ELXONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI SIYOSIY KURASHLAR	139
22	Худойкулов Урал Каримович ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДА ЕНГИЛ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА МУАММОЛАР	149
23	Хо‘jamberdiyev Ma‘murjon Mirkomil o‘g‘li TEMURIYLAR DAVRI TABIBLARI VA ULARNING KUNDALIK HAYOTI	156
24	G‘ulomov Ilhomjon Komiljonovich 1920-YILDA O‘TKAZILGAN AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRINING ROSSIYA UCHUN IQTISODIY AXAMIYATI (TURKISTON ASSR MISOLIDA)	163

Abdurasilov Sh. R.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

O‘zbekiston Milliy universiteti

sh.abdurasil@mail.ru

O‘RTA ASPLARDA TOSHKENTNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA ETNIK TARIXI

ANNOTASIYA

Toshkent Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotida alohida o‘rin egallab, ko‘p asrlik tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jarayonlariga salmoqli hissa qo‘shib kelgan. Bu joyda qadimgi qabilalarning manzilgohlari, xususan, o‘rta asrlarga oid me’moriy obidalar hamda Toshkent shahrining o‘zida va atrofida saqlanib qolgan ko‘plab tarixiy, arxeologik va madaniy yodgorliklar mavjud. Maqolada Toshkent o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, iqtisodiy, siyosiy madaniy va etnik hayotida muhim o‘rin tutib, Buyuk Ipak yo‘lining ham ahamiyatga molik shaharlaridan biri bo‘lganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qang‘, Shosh, Iloq, Toshkent, Buxoro, Temuriylar, Shayboniylar, Yunusxon, Sulton Mahmudxon, Abdullaxon, Suyunchxojaxon, Baraqxon, Ko‘kaldosh, etnos, voha.

KIRISH

Xalqaro karvon savdosi rivojiga keng yo‘l va qulay imkoniyatlar ochgan Buyuk ipak yo‘lining mintaqa hududlari bo‘ylab o‘tishi, shuningdek, Toshkent ham uning muhim chorrahasida joylashganligi va ko‘plab ellar bilan tutashganligi bu shaharning har tomonlama yuksalib, savdo-sotiq va hunarmandchilikning yirik markazlaridan biri sifatidagi mavqeiga ijobiy turtki berganligi jahon tarixidagi mavqeini belgilaydi. Shu tarzda Toshkentning ochiq dunyoga keng yuz tutishi, sharqu g‘arb, shimolu janubiy hududlari bilan yaqindan bordi-keldi qilishi, savdo-sotiq, mol-tovar almashinishi jarayonlarida faol ishtirok etishi, bundan uzluksiz foyda, manfaat topishi uning shuhratiga-shuhrat qo‘shib, har taraflama ravnaq topib borishi xalqaro munosabatlarga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Toshkent hamma zamonlarda ham mintaqa hayotida, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotida alohida o‘rin egallagan. “Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi” [1]. Shu sababdan ham, Toshkent tarixi, voha hayotiga oid manbalarni o‘rganish, ilmiy tahlil qilish, uning hozirgi kunda ham o‘z mavqeini yo‘qotmaganini ilmiy jihatdan asoslangan holda ko‘rsatib berish dolzarb vazifalardan sanaladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Toshkent tarixiga oid adabiyotlar, arxeologik manbalar, yozma manbalar, toponimlarga oid tadqiqotlar, dinshunoslik va etnologiyaga oid adabiyotlar bir qancha bo‘lib, bugungi kunda ularni qiyosiy tahlil qilish zarur bo‘ladi. Xususan, Toshkentning XVI asrdagi siyosiy tarixiga oid ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mirza Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Hofiz Tanish Al-Buxoriyning Abdullanoma (Sharafnomai shohiy), Ruzbixon Isfahoniyning “Mehmonnomai Buxoro” asarlarida yoritilgan. Shuningdek, tarixchi olimlar K.Shoniyozovning “Qarluq davlati va qarluqlar”, A.Asqarovning “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi”, H.Bobobekov, M.Sodiqov, M.Mirkomilovlarning “Toshkent tarixi”, A.Ziyning “O‘zbek dadlatchiligi tarixi”, Z.Muqimovning “Shayboniylar davlati va huquqi” kitoblarida hamda O.Bo‘rievning “XIV–XV asrlar manbalarida Toshkent shahri va viloyati haqida ma’lumotlar” maqolasida ma’lumotlar berilgan.

Shuningdek, Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolariga oid tadqiqotlar – N.G.Malliskiyning “Toshkent mahallalari va mavzelari”, Sh.Po‘latovning “Mavzalar XX-asr boshi (karta-sxema). – Toshkent”, T.Nafasovning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”, S.Qoraevning “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?”, X.Bo‘rievning “Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari” kabi asarlari ham Toshkent shahrining iqtisodiy, madaniy, siyosiy tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan.

Shosh (Toshkent) vohasi o‘rta asrlarda Movarounnahrda emas, balki musulmon olamida ham salohiyatli hisoblangan. Bu davrda Movarounnahrning iqtisodiy – ijtimoiy hayoti va aholi o‘rtasida sodir bo‘lgan etnik jarayonlar Sirdaryo sohillari va mazkur daryoning shimolidagi hududlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Chunki tarixiy manbalarda turli davrlarda Choch, Shosh va Toshkent deb nomlangan voha Movarounnahrning Buxoro, Samarqand, shuningdek Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini Yettisuv va Sharqiy Turkiston shaharlari bilan aloqalarida muhim o‘rinda turgan [2,166].

Xususan, IX-X asrlarda Shosh Movarounnahrning yirik iqtisodiy va madaniy viloyatiga aylangan. Shosh shaharlari dasht va tog‘ tumanlariga boriladigan tranzit yo‘llarda joylashgan edi. Bu karvon yo‘llari Buxoro va Samarqandni, Shosh va Iloq markazlarini Farg‘ona vodiysi bilan bog‘lagan.

Bu davrda vohaning qishloq aholisi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shosh vohasi xo‘jaligida chorvachilik ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shaharlar va yirik qishloqlar aholisi hayotida hunarmandchilik asosiy o‘rinni egallagan. Shosh va Iloq vohalarida qadimdan hunarmandchilik birmuncha rivojlangan edi. O‘rta asrlar davomida hunarmandchilikning turli sohaları (kulolchilik, temirchilik, zargarlik va boshq.) keng taraqqiy etgan. Hunarmandchilikka kerakli xomashyolarning ko‘pchiligi Shosh va Iloq vohalarining o‘zida mavjud bo‘lgan.

Bu davrda Shosh vohasida tashqi savdoning rivoj topishida Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati juda katta bo'lgan. Ipak yo'lining tarmoqlari Shosh va Iloq vohalaridan o'tgan. Bu yo'l orqali mahalliy aholi sharqda Xitoy bilan, shimoli – g'arbda Sirdaryoning quyi oqimlari, Orol dengizi va Volga bo'ylaridagi xalqlar bilan, g'arbda esa Movarounnahr orqali Afg'oniston, Hindiston, Eron va Old Osiyodagi barcha yirik mamlakatlar bilan doimiy aloqada bo'lishgan [3,44].

Manbalarda Shosh viloyatida 30 ga yaqin, Iloqda 13 ta yirik shahar mavjudligi qayd etilgan. Arab geograflari Shoshda 25 yoki 27 ta, Iloqda 13 ta shahar mavjudligi haqida ma'lumot berishgan. Istahriy Shoshda 27 ta, Iloqda 14 ta shahar borligini qayd etgan. Arab geografi Al-Muqaddasiy (940-1000) esa Shoshda 34 ta, Iloqda 14 ta shahar mavjudligini ta'kidlagan.

Vohaning qulay geografik va xalqaro savdo yo'llari kesishgan hududda joylashganligi uning iqtisodiy-madaniy jihatdan gullab-yashnashiga yordam bergan. IX-XII asrdagi yuksalish keng miqyosdagi savdo-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochgan [4,37].

X asr oxiri – XII asr o'rtalarida Shosh Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrdan boshlab Shoshda turkiy tilning mavqei ancha oshgan. XI asrdan boshlab shahar yana bir yangi nom bilan – Toshkent deb atalgan. Shahriston va arkka ega bo'lgan bu shahar IX-XII asrlarda nafaqat vohaning ma'muriy markazi, shu bilan birga Movarounnahrning savdo – hunarmandchilik va madaniy markazlaridan biri sifatida ham nom qozongan edi.

Voha aholisining etnik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ilk o'rta asrlarda Choch vohasiga turkiy etnik qabilalarning kelishi, ayniqsa Chochning Turk hoqonligi tarkibida bo'lishi, uning madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon ushbu makonda turk-sug'diy etnomadaniy hududning shakllanishiga olib kelgan. Choch eroniy tilli aholining turkiylashish jarayoni jadal kechgan maskanga aylanadi. Bu jarayonlar ayniqsa arxeologik materiallarda yaxshi kuzatiladi va yozma manbalar orqali ham tasdiqlanadi.

Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda mahalliy sug'diy va turkiy (xu, di, rung, hunn, turo qabilalari) aholidan tashqari VI-VIII asrlarda kelib o'rtnashgan turkiy etnik guruhlar shunchalar ko'p ediki, ularning nomlari yozma manbalarda az, uz, arg'un, tuxsi, yag'mo, dug'lat, qarluq, chig'il, xalach, turkash, qang'li, qipchoq, o'g'uz va boshqalar ko'rsatilgan. Ularga qadar ham, masalan, xiyoniylar bilan birga hunn, az, uz, tuxsi, turk, kaltatoy, musobozori kabi turkiy qabilalar kirib kelishgan. Ularning aksariyati O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlariga joylashib, mahalliy aholi bilan aralashib yashashgan [5,128].

IX-XII asrlarda Movarounnahrda iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Shosh, Toshkent vohasida o'ziga xos, nihoyatda qizg'in etnik jarayonlar sodir bo'lib, turkiy tilli va forsiyzabon turg'un aholi o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi tarzda yashab, o'zbek elatining shakllanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib, o'zbek xalqining etnik tarkibidagi eng asosiy komponentlar sifatida salohiyatli o'ringa ega bo'lishgan.

Chingizxon imperiyasi tanazzulga uchrab, Chig'atoy davlati vujudga kelgach, uni harbiy jihatdan himoya qilish uchun har biri ming uyli turk-mo'g'ullar qabilalari O'rta Osiyo hududlariga kelishgan. Ular barlos, jaloyir, qovchin va orlot

qabilalari edi. Jumladan, jaloyirlar Toshkent vohasining Angren havzasiga kelib o'rnamashishgan [6,112].

XV asr ikkinchi yarmida Movarounnahrda boshqaruv tizimi Amir Temurning boshqa o'g'li Mironshoh avlodlari, aniqrog'i Sulton Abusaid va uning o'g'illari hukmiga o'tadi. Unda Toshkent viloyati dastlab Sulton Abusaid, uning vafotidan keyin, avvaliga katta o'g'li Sulton Ahmad mirzo (vaf.1494), so'ngra kichik o'g'li, ya'ni Farg'ona hukmdori Umarshayx mirzo (vaf.1494) tasarrufida edi.

Xuddi shu davrda Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon zurriyotidan bo'lmish Yunusxon (1468-1487) temuriy hukmdor Sulton Abusaidning sa'y-harakati bilan Mo'g'ulistonda xonlik taxtini egalladi. Yunusxon uchta qizini Abu Saidning uchta o'g'li – Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Umarshayx mirzoga turmushga beradi. Mo'g'uliston xoni Yunusxon va Temuriylar o'rtasida 1485 yili Shohruxiyada tuzilgan sulh shartiga ko'ra Toshkent viloyati Yunusxonga beriladi [7,296].

Toshkent viloyati o'sha paytdan boshlab, to Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgunga qadar Mo'g'uliston tarkibiga kirgan. Uni dastlab Yunusxon, vafotidan (1487) keyin esa o'g'li Sulton Mahmudxon boshqargan. Toshkent shahri qisqa muddat, 1485–1503 yillar oralig'ida, xonning qarorgohi shu yerda bo'lgani uchun, Mo'g'ulistonning siyosiy-ma'muriy poytaxti maqomini oldi. 1501-1502 yillarda Zahiriddin Bobur Toshkentga ulug' xon tog'asi Sulton Mahmudxon huzuriga yordam olish niyatida kelgan va ma'lum vaqt shu yerda yashagan [8,197].

Temuriylar xonadonidagi boshboshdoqlik avjiga chiqqach, Muhammad Shayboniyni 1499-1507 yillarda Movarounnahrni to'la o'z qo'lga kiritdi [9]. Zahiriddin Bobur 1511 yili oxirgi marta Movarounnahrni olishga jazm qilib, bahorda Hisorni, yozda Buxoroni, oktyabr boshida Samarqandni egallaydi. Mazkur siyosiy o'zgarishlarda Toshkent viloyati ham Bobur ixtiyoriga o'tgan va u Toshkent shahrini boshqarishni amir Ahmad Qosim ko'hbarga topshirgan. Biroq 1512 yil Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan mag'lub bo'lib, uzil-kesil Kobulga qaytadi. Bobur Samarqanddan ketgach, shayboniylar lashkari Toshkentni qamal qiladi va Bobur tarafdorlari shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladilar [10,107].

Shayboniylar davlatini qaytadan qo'lga kiritib uni saqlab qolgan shaxslardan biri Muhammad Shayboniyxonning jiyani, askarboshi va davlat arbobi Muhammad Sulton o'g'li Ubaydullaxon (1484-1539) Birinchidir [11,46]. Ubaydullaxon boshliq shayboniylar Movarounnahrni qaytadan qo'lga kiritgach, o'sha vaqtda Toshkent va Turkiston hokimi bo'lib turgan (1510) Abulxayrxonning o'g'li, Ulug'bek Mirzoning esa qizi Robiya Sulton begimdan tug'ilgan nevarasi Abulxayr, kuniyasi - Suyunch Xojaxonni Samarqandga kelib, «o'zbek qabilalarining yangi xonlar xoni», deb e'lon qilib xutba o'qittirdilar. U 1512 yilgacha Oliy Xon bo'lib turdi. Keyinchalik butun mintaqani Boburdan qaytarib olingach, dastlab Ubaydullaxon o'zini Oliy Xon deb e'lon qildi. Ammo Yaso qonunlariga binoan suloladagi eng yoshi ulug'i Kuchkunjixonga ushbu mansabni bo'shatib berdi. Uning ukasi Suyunch Xojaxon esa qaytadan Toshkent va Turkiston hokimligini olib u xonning valiahdi (qa'lag'a) etib tayinlandi [12,75].

1550 yilda Abdulazizxonning vafot etishi bilan xon ko'tarilgan Muhammadyor Sulton hokimiyatni o'z qo'lida tutib turishga o'z qo'lida qiladi. Shu vaziyatda 1551 yilda Toshkent va Turkiston hokimi bo'lib turgan Baroqxon va Samarqand hokimi bo'lib turgan Abdulatifxon o'rtasida Buxoro taxtini egallash uchun ittifoq tuzilib harbiy harakatlar boshlandi. Natijada 1554 yilda Baroqxon Navruz Ahmadxon nomi bilan (1552-1556) Samarqand taxtiga o'tiradi [13,238]. Keyinchalik ular ittifoqiga Sulton Said Muhammadyor Sulton va Burxon Sultonlar ham qo'shilib, Nasaf, Karmana, Miyonkolni qo'lga kiritish uchun kurash boshlaydilar. Miyonkolda hukmronlik qilib turgan Iskandarxon (Abdullaxon Ikkinchining otasi) esa dushmanga zarba uyushtirmasdan Karmanani tashlab Amudaryodan Balxga o'tib ketadi. Ana shunday og'ir kunlarda 18 yoshli Abdullaxon tarix maydoniga chiqib Karmana qal'asi mudofaasini uyushtiradi hamda uni 12 kun mobaynida ittifoqchilardan himoya qilgach, ular bilan sulh tuzishga erishib, o'zining tarafdorlari bilan Balxga chekinadi. Ammo 1551-1556 yillarda Abdullaxon Movarounnahrni qo'lga kiritish uchun qattiq kurash olib boradi. 1556 yilda Turkiyadan madad olib turgan Navruz Ahmadxon vafot etadi. Bundan foydalangan Abdullaxon o'z qo'shinlari bilan Amudaryodan o'tib o'zining ota meros yurti Miyonkolni jangsiz (keyinroq Shahrisabzni ham) egallaydi [14,111].

Ikkinchi bosqichda shayboniylar davlatida garchi ikki xon hukmron bo'lsada, amalda ular rasmangina xon bo'lib, barcha hokimiyat Abdullaxonning o'z qo'lida to'plangan edi. Abdullaxon ittifoqchilar o'rtasidagi nizo va janjallardan ham ustalik bilan foydalanadi Bobo Sulton va Abdulatifxonning o'g'illari Gadoy Sulton, Juvonmardali xonlar o'rtasidagi Samarqand uchun bo'lgan nizolardan foydalanib Bobo Sulton hamda unga yoramga yetib kelgan Darveshxon (Navruz Ahmalxonning o'g'li) qo'shinlarini Ilon o'tdi mavzeida tor-mor keltiradi. Bu joyda Abdullaxonning 30 ming askari Darveshxon va Boboxonlarning 50 ming askari bilan jang qilganligi haqidagi (nasx xati bilan yozilgan marmar lavhada sultonlarning 400 ming qushini deb ko'rsatilgan) yodgorlik o'rnatilgan [15,237].

Bu davrda Turkiya mamlakati o'zining Eronga nisbatan olib borayotgan siyosatida O'rta Osiyo hukmdorlaridan foydalanish hamda o'zining bu yerlagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida shayboniylar daalatining ichki ishlariga aralashib Abdullaxonga qarshi bo'lgan Navruz Ahmadxon uning o'g'illariga ko'maklashish maqsaaida zamonaviy miltiqlar (tufang) bilan qurollangan Turk (Rum) askarlari vositasida yordam ko'rsatayotgan edi [16,94].

Xususan, XVI asrda Shayboniylar davrida Toshkent hokimi Suyunchxojaxon 1526 yilda vafot etgach, uning kichik o'g'li *Navro'z Ahmadxon ibn Suyunchxoja* (Baroqxon) Toshkent hokimi (1525-1551) so'ngra Movarounnahr xoni (1551-1556) bo'ldi. U yoshligida Vosifiydan she'riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta'lim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko'proq shug'ullangan. Baroqxon XVI asr o'rtalarida Buxoro xonligida kuchayib ketgan feodal kurashdan foydalanib, Movaronnahrni qo'lga kiritib oldi. So'ngra qo'shin bilan Shayboniyxonning jiyan Muhammad Rahimni Buxoro ustiga otlantirdi. Lekin Muhammad Rahim yo'lda to'satdan vafot etdi. Uning o'g'li Burxon sulton otasiga qarashli harbiy qismlar va mulozimlari bilan Buxoro ostonasiga yetib keldi. Ayni shu vaqtning o'zida Baroqxon Toshkentdan, Abdulatifxon esa Samarqandda

Buxoro ustiga qo'shin tortib, oxir-oqibat uni egalladilar (1540). Baroqxon Burxon sultonni Buxoroni boshqarishda vaqtincha hukmdor bo'lib turgan Muhammadyor sultonga sherik qilib qo'ydi. Ittifoqchilar (Baroqxon va Abdulatifxon) Burxon sultonni ham o'zlariga qo'shib Miyonkol hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxonga qarshi yurish boshladilar. Abdullaxon miyonkolni Baroqxonga qoldirib, Balxga ketishga majbur bo'ldi va u yerdan turib amakisi Balx xoni Pirmuhammadxonning yordami bilan Baroqxonga qarshi uch marta (1553,1554,1555) qo'shin tortdi, lekin har gal mag'lubiyatga uchradi. Baroqxon Abdulatifxon vafotidan keyin 1551 yilda Samarqandni ham egalladi [17,79].

Shunday qilib, 1551-1556 yillari Baroqxon Movarounnahrni Navro'z Ahmadxon nomi bilan idora qildi. U o'z nomidan pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi. U obodonchilik ishlariga e'tabor bergan, madrasalar qurdirgan (Baroqxon madrasasi - 1531 - XVI asrning 2-yarmi). Baroqxon 1556 yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg'om kanalining bosh inshooti – Ravotxoja to'g'onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to'satdan vafot etgan. Uning davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o'rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan [18, 205].

XULOSA

XV asrning oxiri – XVI asrda va keyinchalik Toshkentning mavqei ancha oshdi. Iqtisodiy va madaniy yuksalish bu shaharning boshqa hunarmandchilik va savdo markazlari bilan aloqasi jonlanganidan, shuningdek, qurilish ishlarining rivoj topishida namoyon bo'ldi. Baroqxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi singari katta madrasalar XVI asrda o'zbek sultonlari davrida barpo etilgan. Bu binolar hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Toshkent shu atrofdagi viloyatning ma'muriy boshqaruv va iqtisodiy hayot, ichki va tashqi savdo markazi, boshqa shaharlardan, g'arbiy va sharqiy viloyatlardan keladigan karvon yo'llari tutashgan joy edi. Toshkent XVI asrdayoq aholi ancha zich joylashgan shahar bo'lib, aholining katta qismini savdogarlar va hunarmandlar tashkil qilardi. Ayniqsa, keyingi asrlardan boshlab Toshkentning mavqei yanada oshdi.

Bugungi kunda Toshkentda qurilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi 15 ta xorijiy muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Mazkur dargoh ajdodlar tarixidan saboq, merosidan ta'lim oladigan tabarruk maskan bo'ladi. Toshkent tarixi, Qur'on, hadis va xattotlikni o'rganish yo'lga qo'yiladi. Markaz yosh avlodni vatanparvarlik, odamiylik, ezgulik tuyg'ulari asosida, ilmsevar insonlar etib tarbiyalashda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi [19].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Yangi O'zbekiston, 2020 yil 1 oktyabr. (Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to

the Day of Teachers and Mentors on September 30, 2020 / / New Uzbekistan, October 1, 2020.)

2. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. -Toshkent: Akademiya, 2008. –B. 166. (Mavlanov O. The Ancient Ways of Central Asia. Tashkent: Akademiya, 2008, p. 166.)

3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. -Toshkent: Universitet, 2007. –B. 44. (Askarov A. Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. - Tashkent: University, 2007, r. 44.)

4. Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. -Toshkent: Sharq, 1999. –B. 37. (Shaniyazov K. The State of Karluk and Karluk. - Tashkent: Vostok, 1999. - p. 37.)

5. Agadjanov S. G. Ocherki istorii oguzov i turkmen Sredney Azii IX-XII vv. Ashxabad, 1969. S.128. (Agadzhanov S. G. Essays on the history of the Oghuz and Turkmens of Central Asia in the IX-XII centuries. Ashgabat, 1969. P. 128.)

6. Bo'riev O., Usmonov M. Etnicheskie osobennosti naseleniya oazisa Shash – Tashkent (IX – XII vv.) –T.,«Fan», 2009. –S.112. (Buriev O., Usmonov M. Ethnic features of the population of the Shash – Tashkent oasis (IX-XII centuries) - T., "Fan", 2009. - p. 112.)

7. «Toshkent» ensiklopediyasi. – T., 2009. – B. 296. (Encyclopedia "Tashkent". - T., 2009. - p. 296.)

8. Bobobekov H., Sodiqov M., Mirkomilov M. Toshkent tarixi. -T., «Fan va texnologiya», 2009. – B. 197. (Bobobekov Kh., Sadykov M., Mirkomilov M. History of Tashkent. - T., "Science and Technology", 2009. - p. 197.)

9. Mirza Muxammad Xaydar. Tarix-i Rashidi. -Tashkent, Fan, 1996. S. 107-111. (Mirza Muhammad Haidar. Tarikh-i Rashidi. - Tashkent, Fan, 1996. pp. 107-111.)

10. Bo'riev O. XIV–XV asrlar manbalarida Toshkent shahri va viloyati haqida ma'lumotlar. –T., «Fan» nashriyoti, 2009. – B. 46. (Buriev A. Information about the city and district of Tashkent in the sources of the XIV-XV centuries. - T., Publishing House "Science", 2009. - p. 46.)

11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -Toshkent, 1960. –B. 75. (Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. - Tashkent, 1960. - p. 75.)

12. Azamat Ziyoy. O'zbek dadlatchiligi tarixi. -T., «Sharq». 2001. –B. 238. (Azamat Zia. History of the Uzbek state. - T., "Vostok". 2001. - p. 238.)

13. Mirxond. Muhammad ibn Xovandshoh. Rauzat us Safo, 2-qism. -T., 1941. –B. 111. (Merchant. Muhammad Ibn Hovedsak. Rauzat us-Safa, Part 2. - T., 1941. - p. 111.)

14. Zahiriddin Bobur. Boburnoma. -Toshkent, 1960. –B. 237. (Zahiriddin Babur. Baburnama. - Tashkent, 1960. - p. 237.)

15. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma. («Sharafnomai shohiy»). –T., Sharq, 1998, 1-jild. –B. 94. (Hafiz Tanish al-Bukhari. Abdullina. ("The King of Honor"). - T., Vostok, 1998, Volume 1. p. 94.)

16. Ruzbexon Isfahoniy. «Mehmonnomai Buxoro». (Zapiski Buxarskogo gostya). -M. Nauka. 1976. - s .79. (Ruzbehon Isfaoniy. Notes of the Bukhara guest. - M. Nauka. 1976. - p. 79.)

17. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma. («Sharafnomai shohiy»). –T., Sharq, 1999, 2-jild. –B. 205. (Hafiz Tanish al-Bukhari. Abdullina. ("The King of Honor"). - T., Vostok, 1998, Volume 2. p. 205.)

18. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. -Toshkent, «Adolat». 2007. – B.156. (Mukimov Z. The shaibanid State and legal. -Tashkent, "Adolat".2007. r.156.)

19. Elmurodov M. Eski shaharda yangi tarix barpo etilmoqda. // Yangi O‘zbekiston, 2021 yil 30 yanvar, № 21. (Elmuradov M. A new history is being restored in the Old Town. // New Uzbekistan, January 30, 2021, № 21.)

Абдурасилов Ш. Р.

Самостоятельный исследователь кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

sh.abdurasil@mail.ru

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ЭТНИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА В СРЕДНИЕ ВЕКА

АННОТАЦИЯ

Ташкент занимает особое место в социально-экономическом, культурном и духовном развитии Центральной Азии и внес значительный вклад в многовековые исторические и эволюционные процессы развития. В этом месте находятся древние племенные поселения, в частности средневековые архитектурные памятники, а также многочисленные исторические, археологические и культурные памятники, сохранившиеся в самом Ташкенте и его окрестностях. В статье говорится, что Ташкент - один из важных городов Великого Шелкового пути, занимающий важное место в истории, экономической, политической культурной и этнической жизни народов Центральной Азии в Средние века.

Ключевые слова: Канка, Шаш, Илак, Ташкент, Бухара, Темуридов, Шейбанидов, Юнусхан, Султан Махмудхан, Абдуллахан, Суюнчходжахан, Баракхан, Кукалдаш, Этнос, Оазис.

Abdurasilov Sh. R.

Independent researcher at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

sh.abdurasil@mail.ru

SOCIAL-POLITICAL AND ETHNIC HISTORY OF TASHKENT IN THE MIDDLE AGES

ABSTRACT

Tashkent occupies a special place in the socio-economic, cultural and spiritual development of Central Asia and has made a significant contribution to the centuries-old historical and evolutionary processes of development. There are

ancient tribal settlements in this place, in particular medieval architectural monuments, as well as numerous historical, archaeological and cultural monuments preserved in Tashkent and its surroundings. The article says that Tashkent is one of the important cities of the Great Silk Road, occupying an important place in the history, economic, political, cultural and ethnic life of the peoples of Central Asia in the Middle Ages.

Keywords: Kanka, Shash, Ilak, Tashkent, Bukhara, Temuridov, Sheibanidov, Yunuskhan, Sultan Mahmudkhan, Abdullahan, Suyunchodjahan, Barakhan, Kukaldash, Ethnos, Oasis.

Abdunosirova O. B.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD

Farg‘ona davlat universiteti

abdunosirovaozodaxon@gmail.com

SHOHRUX MIRZONING ILMIY VA IJODIY FAOLIYATIGA DOIR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shohrux mirzo hukmronligi davrida madaniy taraqqiyot va obodonchilik ishlariga doir ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, uning madaniy jarayonlardagi shaxsiy ishtiroki va homiylik faoliyati manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Shohrux mirzo, “Habib us-siyar”, madaniy jarayonlar, “Xonaqohi Shohruxiy”, kutubxona, Muhammad Porso, madrasa, homiylik faoliyati, “Nasabnoma”, sayillar.

KIRISH

Amir Temur boshlab bergan ma’rifatparvarlik va bunyodkorlik an’analarini shahzodalar uzviy ravishda davom ettirishgan. Xususan, temuriylar saroylaridagi fan va madaniyatga kuchli e’tibor kelgusida ularning yetuk olim, shoir hamda madaniyat homiysi sifatida shakllanishlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatgani, shubhasiz. Shu o‘rinda, ayrim shahzodalar ushbu davr siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etmagan yoki saltanatning biron-bir hududida hukmronlik qilmagan bo‘lsa-da, fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shganligi e’tirof etilgan. Shunday hukmdorlardan biri Shohrux mirzodir. Hofizi Abru, Fasih Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Hasanbey Rumli, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy va boshqa muarrixlarning asarlarida [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8] tadqiq qilinayotgan mavzuga doir qimmatli ma’lumotlar berilgan. Keltirilgan tarixiy manbalarda Shohrux mirzo hukmronligi davrida ilm-fan ravnaqi, madaniy jarayonlardagi o‘zgarishlar hamda mamlakatda olib borilgan obodonchilik ishlari borasida muhim qaydlar uchraydi. Bugungi kunga kelib, “Uchinchi renessans” poydevorini yaratishda temuriy shahzodalarning madaniy jarayonlardagi ishtiroki, shaxsiy qiziqishlari va homiylik faoliyatni izchil o‘rganish va tahlil qilish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu boisdan ham ushbu masalani tadqiq etishni joiz deb bildik.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Shohrux mirzoning bolalik yillari haqidagi ma’umotlar ko‘p emas. U yoshligidan kitob mutolaasiga qiziqishi yuqori bo‘lib, dindor va ibodatli shaxs edi. Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida ham uning diniy bilimi va taqvodorligi eslab o‘tiladi [6:2-3]. Navoiy uning she’r yozmagani, lekin ko‘plab shoirlarning ijodiy namunalarini yod bilganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Ismoil Aka Shohrux mirzoning yasoq qonunlarini o‘zgartira boshlagani va mamlakat boshqaruvida diniy ulamolarning ta’siri ortib borganligini haqida to‘xtalgan

[9:110-111]. V.Bartold ham uning “yasoq” qonunlarini islomiy qonun-qoidalariga almashtirganini aytib o‘tadi. Shohrux mirzoning homiyligi bilan ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan. Jumladan, u Mengli Temur Naymon Jurjonga Mironshoh mirzo, Shohrux mirzo va Umar mirzogacha bo‘lgan davr tarixini yozish vazifasi topshiradi. Keyinchalik asar taxriri davomida Astrobod yurishi voqealari ham qo‘shib yuborilgan [7:327]. Abdurazzoq Samarqandiy esa Qozi Azduddunning arab tili va grammatikasiga oid asari “Risolayi Azudiyya”ga sharh yozadi va uning debocha qismini Shohrux mirzoga bag‘ishladi [3:14]. Undan tashqari, Shohrux mirzoning Hirot shahrida yirik kutubxonasi bo‘lgan. Jumladan, 1439-1440-yili Misr hukmdori Chaqmoqbekning elchilari Hirotga keladi. Jijikbuqo Sulton Chaqmoqbekning iltimosiga ko‘ra, Shohrux mirzodan kutubxonasida saqlanayotgan beshta kitobni so‘raydi [3:87]. Abdurazzoq Samarqandiy so‘ralgan kitoblar sifatida Shayx Abu Mansur Moturidiyning “Ta’viloti ahli sunnat”, Imom Fahrudinning “Tavsiri kabir”, mavlono Alouddin Pahlavonning “Sharhi Kashshof” asalarining nomlarini keltiradi [7:437-438]. Biroq, Samarqandiy va Xondamir ham beshinchi kitobning nomini keltirmagan. Shohrux mirzo esa kitoblarni yangidan ko‘chirtirib, ularni elchilarga hadya qiladi. Tarixiy manbalarda kitoblarni ko‘chirgan xattotning nomi keltirilmagan.

M.Ashrafiy tadqiqotida ham Shohrux mirzo davrida kutubxonalar faoliyatiga to‘xtalar ekan [10:23], Samarqand, Sheroz va Hirot shaharlarida ko‘plab ilmgohlar bo‘lganini qayd etadi. U Shayx Muhammad Porsoning shaxsiy kutubxonasi bo‘lganligi va undagi kitoblar ajdodlari tomonidan XII –XIV asarlarda to‘planganini ta’kidlab o‘tgan [11:161]. Bizningcha, kutubxona fondi Shohrux mirzoning saroy kutubxonasidan qolishmagan. Ushbu davrda kutubxonalar nafaqat saroyda balki, masjid, shifoxona, harbiy mahkamalar, honaqox, qozixonalarda ham faoliyat yuritgan. Shohrux mirzo davrida “Xonaqohi Shohruxiy”, “Xonaqohi Amir Feruzshoh” kabi honaqohlarda ham kichik kutubxonalar tashkil etilgan. Ba’zi tarixiy manbalar Shohrux mirzoning shaxsiyati, xarakteri borasida tasavvurga ega bo‘lishimizga yordam beradi. “Rashahot” asarida uning oddiy insonlar kabi masjidga borib namoz o‘qishi, ro‘za tutishi, ichimlik ichmasligi va shariat qoidalariga amal qilgani alohida ta’kidlanadi [12:111].

B. Ahmedov ham “Amir Temur darslari” asarida uni taqvdor inson bo‘lgani, “Ixlos” surasini muntazam tarkrorlab yurishini, shahzodalarning saroylari, yerto‘lalarini doimo tekshirib turgani hamda ichimliklarni yo‘q qilganligini aytib o‘tadi [13:80]. X.Vamberi Shohrux mirzo haqida “u temuriylarning eng mashhur va oliyjanob bir shahzodasi bo‘lib, uning saroyi zamonasining fan va maorif o‘chog‘i edi” – deb yozadi [14:41]. Shohrux mirzo va Mirzo Ulug‘bek o‘rtasida olimlar, shoirlar, rassomlarni saroyga jalb qilish borasida ham raqobatga ham kirishganlar [14:43]. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek Toshkent va uning atrofidan mohir musiqachilar, raqqoslarni Samarqandga olib keltiradi. Vamberi “Movarounnahr yohud Buxoro tarixi” asarida bir tuyuqni keltirib, uni Shohrux mirzoga tegishli ekanligini aytib o‘tadi [14:50]. Lekin, Alisher Navoiy o‘zining “Majolisun un-nafois” asarida mazkur tuyuqni Abu Bakr mirzo tomonidan yozilganligini qayd etadi [6:2-3]. Shohrux mirzoning bevosita topshirig‘i bilan Hofizi Abruga geografik bilimlar aks etgan asar yozishni buyuradi. 1414-1415-yillar oralig‘ida asar ikki

qismdan iborat bo'lib, birinchi jildida yorning geografik tuzilishi, ikkinchisi Xurosonning geografiyasi va tarixini hamda Movarounnahrning qisqacha geografiyasini o'z ichiga olgan [15:58]. "Matlai sa'dayn" asarida Hofizi Abruning Shohrux mirzoni topshirig'i bilan yana bir "To'plam" nomli tarixiy asar yozgani, 1420-yilda tamomlangani aytib o'tiladi [3:27-28]. Mazkur asarlar borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda uning "Geografiya" asariga qo'shilganligi aytiladi.

V. Bartoldning fikricha, Saydi Ahmad mirzoning "Ta'shshuqnoma" asari Shohrux mirzoga bag'ishlab yozilgan [16:176]. Shahzodaning adabiyot, she'riyat bilan shug'ullangani va qiziqish doirasi keng bo'lgani aytiladi. Lekin, manbalarda asarni kimga bag'ishlab yaratilgani haqida ma'lumot uramaydi. Shuningdek, u shahzodani Mironshoh mirzoning o'g'li deb yozadi. Biroq, Sharafuddin Ali Yazdiy shahzodani Umarshayx mirzoning, Xondamir esa Mironshoh mirzoning o'g'li deb ma'lumot bergan. T.Fayziyev "Temuriylar shajarasi" asarida shahzodaning Umarshayx mirzoning o'g'li ekanligini va uning Shohrux mirzo saroyida bir muddat xizmat qilganini aytib o'tadi. 1407-yili esa Shohrux unga Shibirg'on viloyatini suyurg'ol qilib beradi [12:97-98]. Aynan shu omillar tufayli "Ta'shshuqnoma" asarining Shohrux mirzoga atab yozilgan degan xulosaga kelish mumkin. Uning topshirig'i bilan yaratilgan asarlardan biri "Tarixnoma" asaridir. Asar Xoja Tojiddin as-Salmoniyning qalamiga mansub bo'lib [17:136], 1409-yili Shohrux mirzo uni Xurosonga olib kelgan. "Tarixnoma" asari 1405-1409-yillar tarixi bilan cheklanib qolgan va Shohrux mirzo davri tarixi batafsil yoritilmagan.

Mazkur davrda san'atning barcha tarmoqlari rivojlangan. Jumladan, Hirotda ko'plab musiqachilar, sozandalar, bastakorlar va raqqoslar to'plangan. Shohrux mirzo va Mirzo Ulug'bek o'rtasida toshkentlik raqqoslarni jalb qilish borasida raqobat ham bo'lgan. Ular mazkur mintaqadan tashqari, Xitoyda ham mashhur bo'lishgan. Shunday mashhur bastakorlardan biri Xoja Abdulqodir Go'yanda bo'lib, u Amir Temur vafotidan keyin Shohrux mirzo saroyida xizmat qiladi. 1435-yilda Hirotda tarqalgan vabo bilan kasallanib, vafot etgan [7:480].

Shohrux mirzoning homiyligida xattotlik, rassomchilik, sahhoflik, jildsozlik kabi hunar turlari taraqqiy etdi va bunda uning o'g'li Boysung'ur mirzoning xizmatlari yuqori bo'lgan. Eronning "Oston-e quds-e Razaviy" kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalarning salmoqli qismi Hirot kutubxonada ko'chirilgan yoki jildlangan [18:92]. Amir Temur davrida o'tkazilgan sayillar, bayramlar, tuli tomoshalar Shohrux mirzo davrida ham davom ettirilgan. Jumladan, Shohrux mirzo 1412-yili Hirotda katta bayram uyushtiradi [7:367]. Abdurazzoq Samarqandiy shahzodalarning to'yi munosabati bilan tashkil qilinganligini aytadi, ba'zi manbalarda esa qurbon hayiti nishonlangani keltiriladi. Unda Qur'on tilovat qiluvchi hofizlar, hadis aytuvchi muhaddislar, qissaxonlar, sozandalar, xonandalar, raqs va kulgu ustalari ham ishtirok etgan. Navro'z va Mehrjon kabi an'anaviy bayramlar muntazam ravishda o'tkazilgan.

XULOSA

Shohrux mirzo davrida Movarounnahr va Xurosonda tinchlik-osoyishtalikning o'rnatilishi natijasida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlangan. Uning ilm-ma'rifatga homiylik qilishi madaniy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqdi va

mazkur mintaqada fanning yangi yoʻnalishlari rivojlanishi va ilmiy maktablarning shakllanishi uchun zamin yaratildi hamda keyingi avlod olimlari yetishib chiqishiga imkon yaratib berdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / пред. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.
2. Хафиз-у Абру. Извлечение из “Зубдат ут-таварих”. // перевод с персидского А.Буриева. /Материалы по истории Средной и Центральной Азии X – XIX вв. –Т.:Фан, 1988. – С. 143-148.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. П. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т.: «Ўзбекистон». 2008. – 632 б.
4. The Rauzat – Us-Safa; Garden Of Purity. – P.1-14.
5. Аҳмедов Б. Давлатшоҳ ва унинг асари ҳақида сўз. // Самарқандий, Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони. (“Тазкират уш-шуаро”дан) Форс-тожик тилидан Б.Аҳмедов тарж.; Шеърларни С.Раҳмон тарж. қилган. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 3-8.
6. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева. – Т.: Ғофур Ғулом, 1996. – Б. 312.
7. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
8. Нәсән бәй Rumlu. Əhsənüt-təvarix. (Tarixlarlərin ən yaxşisi). –Kastamonu: Uzunlar, 2017 (Nəsən bəy Rumlu. Əhsəüt-təvarix.). 21-33s.
9. Исмоил ака. Буюк Темур давлати. Қ. Қахҳор тарж. – Т.: Чўлпон, 1996 – Б. 160.
10. М.Ашрафий. Темур ва Улуғбек даври Самарқанд миниатюраси. – Т.: Ғофур Ғулом, 1996. – Б. 23.
11. Шарипов.А., Шарипова Ф.Ҳ. Амир Темур ва темурийлар даврида кутубхоналар фаолияти. // “Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., Академнашр, 2013. – Б. 166-167.
12. Темур ва Улуғбек даври тарихи / Бош муҳаррир академик А. Асқаров – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – 265 б.
13. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т.: Шарқ, 2011. – Б. 140.
14. Вамбери Ҳ. Мовароуннаҳр ёҳуд Бухоро тарихи. Нашрга тайёрловчи – Тоҳир Қахҳор. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 41.
15. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар) – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 58.
16. В. В. Бартольд. Тюрки. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Алматы тоо «Жалын» 1998.

17. Арслонзода Р. Источниковедение. (учебник для студентов). – Фарғона. – С.136.

18. Мустафавий.Х. Эрондаги темурийлар даврига оид тарихий-маданий обидалар. // “Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., Академнашр, 2015. – Б. 92.

19. خاندмир خلاصه الا خيار فى بسان احوال الا خيار Хондамир. “Хулосат ул-ахбор” асарининг №2209 таритиб рақамли кўлёзма нусхаси.

Абдуносирова О. Б.

PhD., старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет

abdunosirovaozoda@gmail.com

О НАУЧНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРУХА МИРЗО

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены некоторые рассуждения о культурно-строительных и благоустроительных работах в период правления Шахруха Мирзо. Также на основе источников и научной литературы проанализировано его личное участие в культурных процессах и благотворительная деятельность.

Ключевые слова: Шахрух Мирзо, «Хабиб ус-сияр», культурные процессы, «Хонакохи Шахрухи», библиотека, медресе, благотворительная деятельность, «Насабнома».

Abdunosirova O. B.

PhD., senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan»
Ferghana state University

abdunosirovaozoda@gmail.com

ON THE SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITIES OF SHAHRUKH MIRZO

ABSTRACT

This article presents some reflections on the cultural, construction, and improvement projects during the reign of Shah Rukh Mirzo. His personal involvement in cultural processes and charitable activities have been also analyzed using sources and scholarly literature.

Keywords: Shahrukh Mirzo, “Habib us-siyar”, cultural processes, “Khonakohi Shahrukhi”, library, madrasah, charitable activities, “Nasabnoma”.

Акбоева З. Д.

«Ўзбекистон тарихи» кафедраси доценти, PhD

Самарқанд давлат университети

zeboakbaeva11@gmail.com

ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ ТУРКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИНИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

АННОТАЦИЯ

XX асрнинг 20 йилларида Туркистон ўлкасида амалга оширилган янги иқтисодий сиёсат ўлка ҳаётининг ижтимоий иқтисодий соҳаларига ўз таъсирини кўрсатди. Ушбу давр тарихини ўрганиш ҳозирги кундаги долзарб илмий масалалардан ҳисобланади. Мазкур мақолада Туркистон АССРда янги иқтисодий сиёсатнинг амалга оширилиши жараёни ва уларнинг натижалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Маҳаллий аҳоли, Туркистон Компартияси, Т.Рискулов, Россия империяси, янги иқтисодий сиёсат, “Ҳарбий коммунизм” сиёсати.

КИРИШ

Маълумки, Туркистон ўлкасида XX асрнинг 20-йилларида амалга оширилган янги иқтисодий сиёсат ўлка ҳаётининг турли жабҳаларига ўзининг таъсирини ўтказди. Мазкур сиёсатнинг амалга оширилишидан кўзланган асосий мақсад ўлкада қарор топган болшевиклар ҳукмронлигини мустаҳкамлаш ва уни янги босқичга олиб чиқиш ҳисобланар эди. Ўлкада амалга оширилган янги иқтисодий сиёсат тарихини ўрганиш ва таҳлил этиш совет даври тарихини ёритишда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Туркистон АССРда 1920 йилларнинг бошларида юзага келган вазият совет давлатининг барбод бўлиш хавфини янада кучайтириб юборди. Туркистон АССР да болшевиклар томонидан юритилган номақбул иқтисодий сиёсат маҳаллий хусусиятларни эътиборга олмаганлиги учун халқ хўжалигида ўзининг фожеали изларини қолдириши билан биргаликда, ўлка халқларининг норозилигини келтириб чиқарди.

Туркистон ўлкасидаги инқироз, асосан, ўтроқ яшовчи маҳаллий аҳолининг хўжалик ҳаётига салбий таъсир қилди. Сал кейинроқ ўтказилга ҳисоб-китобларга қараганда, ўтроқ маҳаллий аҳолининг сони ва хўжаликлари миқдори кескин камайиб кетган. Фақат, рус аҳолисининг сони ва хўжаликлари ўртасида ўсиш кўзга ташданади [2, 65].

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Туркистон ўлка Мусулмонлар Бюросининг раиси бўлган Турор Рискулов Туркистон Компартияси III-Ўлка Съездида 1919 йил 6-июнда қилган маърузасида шундай деган эди: “Фарғонада Совет ҳокимияти йўқ, у фақат рус аҳолисиси бор шаҳарлардагина мавжуд. Мусулмон қишлоқларида эса совет ҳокимияти мавжуд эмас, у ерларда Николай давридаги тартибсизликлар

хукм сурмоқда, пристав ва волость бошқарувларининг ўрнига комиссар ва қароқчилар тўдаси келишган” [4, 99].

Турор Рисқулов ўз маърузасида партия раҳбарлиги ниқоби остида иш юритган коммунистларнинг маънавий қиёфаси нақадар тубан эканлигини ҳам очиб ташлайди. Мусулмонлар ҳеч қандай гуноҳсиз отиб ташланаётганликларини, советларнинг ўзи уларни “миллатчи” қилаётганлиги кўрсатилади. Туркистонда совет ҳокимияти ўрнатилганидан сўнг, қисқа давр ичида большевиклар ҳукмронлиги қандай оқибатларга олиб келганлиги миллий коммунист Т. Рисқулов томонидан ана шундай тарзда тасвирланади.

Туркистонда 1917 йилнинг қишида бошланган очарчилик большевикча режимнинг оғир сиёсати натижасида тобора кучайиб борар эди. 1918 йилнинг 20-ноябрда Туркистон АССР да Очарчиликка қарши курашиш Марказий Комиссияси тузилди. Комиссия раиси Т.Рисқулов ўз таржимаи ҳолида ёзганидек, “...ҳақиқатан ҳам, кўчалар, ариқлар бўйида ва қишлоқларда ўлаётган миллионлаб йўқсиллар ва болаларни қутқариш керак эди, ўша вақтдаги ҳокимият бунга панжа орасидан қарар эди” [6, 4-15].

Маълумки, Фарғона вилоятида очарчилик 1917-1918 йил қишидан бошланган эди. Бу очарчилик 1921-1923 йилларда авжига чикди. Очлик оқибатида энг кўп болалар қирилиб кетди. Бу даврда водийдаги шаҳарлар атрофи оч қолган одамлар билан тўлиб кетган эди. Қишлоқлар ва шаҳар кўчалари ҳар куни очликдан ўлган ўнлаб ва юзлаб одамларнинг мурдаларига тўлиб кетган бўлиб, бу ҳолат даҳшатли манзара ҳосил қилган [5, 2]. Масалан, 1922 йилди Фарғона вилояти Очлик муаммоларини тугатиш комиссиясига бир қишлоқ вакилининг хабар беришича, у станцияга етиб келгунча 30 чақиримча йўл устида 17 нафар жасадни одеял, ёстиқ ва кетмонларини чангаллаганча ўлиб ётган ҳолида кўрган. Бу шўрликлар балким, рўзғорларидаги сўнгги буюмларини олиб, нонга айирбошлаш учун бозорга отланганлар ва йўлда очликдан қазо қилганлар. Марказга жўнатилаётган озиқ-овқат маҳсулотлари ва ёқилғининг миқдори ой сайин кўпайиб борарди. Ҳужжатда келтирилишича, 1921-1922 йилларда Туркистондан Россияга 4.400.000 пуд ғалла жўнатишган [7, 18]. Ўша пайтда дон етиштиришга ихтисослашмаган Туркистон қишлоқ хўжалиги учун бу катта миқдордаги ҳосил ҳисобланади. Чунки, Туркистон ўлкаси Россия империяси томонидан босиб олингач, ўлкадаги ғалла майдонлари ҳисобидан пахта экиладиган майдонлар кенгайтирилиб, ғалла Россиянинг Марказий губернияларидан бу ерга ташиб келинар эди. Туркистонда Большевиклар ҳокимият тепасига келгач, Россиядаги фуқаролар уруши натижасида, ўзлакага ғалла келтириш деярли тўхтаб қолган эди [3, 79-80].

Совет Россиясида 1921-1922 йилларда юз берган даҳшатли очачилик тўғрисида хорижлик олимлар ўз фикрларини билдириб, бу ҳолатни “ҳарбий коммунизм” сиёсатининг натижаси деб ҳисоблайди. Крестьянларнинг оммавий равишда эксплуатация қилиниши натижасида мамлакат тарихидаги энг йирик очарчилик 1921-1922 йилларда бўлиб, бунинг оқибатида тахминан 5 млн. киши ҳалок бўлди.

Янги иқтисодий сиёсатни амалга ошириш жараёнида бир қатор зиддиятлар намоён бўлди. Уларнинг энг асосийси, янги иқтисодий сиёсат принципларининг ҳукмрон коммунистик мафкура ғоясига мос келмаслигида кўринади. Янги иқтисодий сиёсатнинг асосий вазифаси фақат совет тузумини мустаҳкамлашга хизмат қилиши лозим эди. Бироқ, коммунистик таълимотда мулкчилик шакллариининг хилма-хиллиги, хусусий мулкчилик ва тадбиркорлик иқтисодий ва сиёсий фикр эркинлиги инкор этиларди. Янги иқтисодий сиёсат йўлининг зиддиятлари уни Туркистонда амалга оширишда очик-ойдин кўзга ташланди. Туркистонда янги иқтисодий сиёсат бир қатор йўналишлар бўйича марказий Россияга нисбатан бирмунча кечроқ ўтказила бошланди. Туркистон ўлкасида “ҳарбий коммунизм” сиёсатининг таъсири кучли эди. Туркистондаги янги иқтисодий сиёсат йўли Туркистон Компартиясининг VI Съезди (1921 йил август) ва Туркистон АССР Советларининг X Съезди (1921 йил сентябр) қарорларида тасдиқланди [1, 133-136]. Уларда Ўлканинг иқтисодий ривожланиши Совет тузумининг мустаҳкамланиши ва социализм қурилиши билан боғланди. Буларнинг барчаси соғлом бозор муносабатларини ривожлантиришга монелик қилиб, ўлканинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишга салбий таъсир кўрсатар эди.

Туркистон АССР МИК 1921 йил апрел-май ойларида республика миқёсида янги иқтисодий сиёсатни ўтказишга оид қатор қарорлар қабул қилган эди. Хўжалик бошқарувининг янги шароитларига ўтиш бошқарув соҳаларини қайтадан ташкил этиш билан боғлиқ ҳисобланади. Туркистон ўлкасининг иқтисодиётини дастлаб ТАССР Халқ Хўжалиги Марказий Кенгаши бошқарар эди.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, янги иқтисодий сиёсат йўлининг ўзига хос хусусияти товар пул муносабатларининг жонланиши савдо ва айрибошлаш шакллариининг “Ҳарбий коммунизм”га хос бўлган турли чеклашлардан озод бўлиши ҳисобланар эди. Аммо, кейинги даврда болшевик ҳукмдорлари томонидан амалга оширилган сиёсат натижасида мазкур иқтисодий янгиликлар амалда йўққа чиқарилди. Хусусан, хусусий мулкчилик, тадбиркорлик билан шуғулланиш, бозор тамойилларини тамоман инкор этиш йўли танланди. Натижада, шусиз ҳам абгор аҳволда бўлган Туркистон ўлкаси иқтисодиёти таназзулга юз тутди. Бу эса, ўз навбатида, Туркистон ўлкаси халқ хўжалиги ҳаётига ўзининг салбий таъсир кўрсатган омиллардан бирига айланди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Коммунистическая партия Туркестана в резолюциях съездов и конференций. – Ташкент: “Узбекистан”, 1988. –С.133-136.
2. Отчёт о деятельности СНК и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1 октября 1922 г. – Ташкент: Изд. ТЭС, 1922. –С.65.
3. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йй). – Тошкент: “Университет”, 2002. 79-80 бетлар

4. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Часть I. 1917-1919 гг. Ташкент: Узбекгосиздат, 1925. –С.99.
5. Фарғона вилоят Давлат Архиви. 435-Фонд, 174-иш, 2-варақ.
6. Ўзбекистон МА. 86-фонд, 1-рўйхат, 1525-иш, 4-15 варақлар.
7. Ўзбекистон МА. 18-фонд, 2-рўйхат, 19-иш, 18-варақ.

Акбоева З. Д.

PhD., доцент кафедры «История Узбекистана»
Самаркандский государственный университет
zeboakbaeva11@gmail.com

ВВЕДЕНИЕ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

АННОТАЦИЯ

В 1920-е годы в Туркестанском крае реализация новой экономической политики оказала существенное влияние на социально-экономические сферы жизни региона. Изучение истории данного периода в настоящее время относится к числу актуальных научных проблем. В настоящей статье анализируются процесс осуществления новой экономической политики в Туркестанской АССР, а также её основные результаты.

Ключевые слова: местное население, Туркестанская коммунистическая партия, Т. Рыскулов, Российская империя, новая экономическая политика, политика «военного коммунизма».

Akboeva Z. J.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Samarkand State University
zeboakbaeva11@gmail.com

THE INTRODUCTION OF THE NEW ECONOMIC POLICY IN TURKESTAN AND ITS CONSEQUENCES

ABSTRACT

In the 1920s, the implementation of the New Economic Policy in the Turkestan region had a significant impact on the socio-economic spheres of regional life. The study of the history of this period is currently considered one of the most relevant scholarly issues. This article analyzes the process of implementing the New Economic Policy in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic and examines its main outcomes.

Keywords: local population, Turkestan Communist Party, T. Ryskulov, Russian Empire, New Economic Policy, policy of “War Communism”.

Begimqulova L. M.

«O‘zbekiston tarix» kafedrası dotsenti

Farg‘ona davlat universiteti

beginqulova@internet.ru

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA OLIIY MASLAHAT KENGASHINING FAOLIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur davrida Qurultoylar davlat boshqaruvi tizimining eng muhim siyosiy institutlaridan biri sifatida faoliyat yuritganligi hamda Qurultoylar turkiy davlatchilik an‘analarining uzviy davomchisi bo‘lib, davlat hokimiyatining qonuniyligini ta‘minlash, muhim siyosiy va harbiy qarorlarni jamoaviy muhokama asosida qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etganligi, Qurultoylar orqali davlat boshqaruvida maslahat, adolat va vakillik tamoyillari qaror topganligi yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Amir Temur, Sayyid Baraka, Markaziy Osiyo, Qurultoy, Qarshi, Samarkand, Qorabog‘, siyosiy institut, milliy siyosiy madaniyat, harbiy yurishlar, Zafarnoma.

KIRISH

IV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur va uning avlodlari faoliyati va davlat boshqaruvi tarixida maslahat va vakillik institutlari muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Turkiy xalqlar davlatchilik an‘analarida bunday institutlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biri Qurultoy hisoblanadi. Qurultoylar orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solingan, muhim siyosiy, harbiy va ijtimoiy masalalar jamoaviy muhokama asosida hal etilgan[1].

Sohibqiron Amir Temur davrida Qurultoy davlat boshqaruvida muhim siyosiy-huquqiy institut sifatida faoliyat yuritgan. Temur Qurultoyini davlatni boshqarishning samarali vositasi, maslahat va adolat tamoyillarini ta‘minlovchi oliy kengash deb bilgan [2]. Ushbu maqolada Amir Temur davrida Qurultoylarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida yoritiladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Amir Temur davrida Qurultoylar faoliyatini o‘rganishda o‘rta asr yozma manbalari asosiy ilmiy manba hisoblanadi. Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur davlatchiligi tarixini o‘rganishda eng muhim manbalardan biridir[3]. Ushbu asarda Qurultoylarning o‘tkazilishi, unda ishtirok etgan shaxslar hamda muhokama qilingan masalalar haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asarida ham Amir Temurning davlat boshqaruvida maslahat va mashvaratga katta e‘tibor bergani qayd etiladi. Hofizi Abruning “Majmu‘at-tavorix” asarida esa Qurultoylarning davlat boshqaruvidagi siyosiy roli va ularning qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy tarixshunoslikda B. Ahmedov, H. Boboyev,

Azamat Ziyο kabi olimlar Amir Temur davlatchiligini chuqur tahlil qilib, Qurultoylarni oliy maslahat va vakillik organi sifatida baholaydilar. Ularning ilmiy tadqiqotlarida Qurultoylar faoliyati bugungi parlament tizimi bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

Qurultoy qadimiy turkiy davlatchilik tizimida davlatning oliy maslahat va vakillik organi hisoblangan. Qurultoylar jamoaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda davlat va jamiyat hayotiga oid muhim masalalar muhokama qilingan. Ushbu institut orqali hukmdor hokimiyati cheklanmagan bo'lsa-da, uning qarorlari jamoatchilik fikri bilan uyg'unlashtirilgan. Muhim tarixiy ahamiyatga ega, qurultoylar bizning qadimiy davlat boshqaruvimizning asosiy bo'g'inlaridan hisoblangan[4]. Qurultoylar orqali jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga erishish, davlat boshqaruvini takomillashtirish qadimgi davlatlarning asosiy maqsadidir. Qurultoyda davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalar, boshqa davlatlarga urush qilish va tinchlik o'rnatish yoki davlat boshqaruviga oid boshqa muhim masalalar hal etilgan. Bundan ko'rinadiki, qadimiy davlat boshqaruv an'analimizga muvofiq davlat biror muhim ishni va o'zgarishlarni boshlashdan avval xalq vakillari bilan kengashish, masalaning yechimida biror xato va adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun oliy darajadagi kengashda muammolarni hal etgan. To'g'ri Qurultoylar mo'g'ullarda va boshqa xalqlarda ham bo'lgan, ammo bu siyosiy institut bizda ham avvaldan mavjud bo'lgan[5].

Oqsoqollar yig'ini, harbiy demokratiya va boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlarning o'tmishdagi faoliyati fikrimizga dalildir. Demak, aslida bugungi parlamentimizning tarixi ming yilliklarga borib taqaluvchi tarixiy jarayondir[6]. Turkiy davlatchilik udumlarimizga ko'ra, davlat rahbarlari Qurultoyda saylangan va ular oq kigiz ustiga o'tqazilib yuqoriga ko'tarilgan. Oq kigizning to'rt uchini eng nufuzli amaldor va diniy rahnamolargina ko'tarish huquqiga ega bo'lgan. Ushbu udumlar bajarilgan taqdirdagina uning hokimiyati qonuniy hisoblangan. Bu an'analalar o'sha davr odatlaridan biri sanalgan. Demak, Qurultoyda davlat hokimiyati rahbari saylangan va o'z hokimiyatini qonunan mustahkamlagan. Sohibqiron Amir Temur ham o'zining davlat hokimiyatini Qurultoy orqali mustahkamlagan. U 1370-yilning 8-aprelida Qurultoyda amir etib saylangan va o'sha davrdagi odatga muvofiq u oq kigiz ustiga o'tqazilib, yuqori ko'tarilgan, unga diniy rahnamosi Sayyid Baraka oq fotiha, hukmdorlik nishoni tug', nog'ora va bayroq bergan[7]. O'sha kundan e'tiboran Sohibqiron Amir Temur butun Movarounnahrning qonuniy hukmdor-amiri hisoblangan. Qurultoyda qabul qilingan qarorlar, boshqa davlat ahamiyatiga molik muhim qarorlar va farmoyishlar singari zudlik bilan munshiylar tomonidan ko'paytirilib mamlakatning eng chekka joylariga ham jarchilar, xabargirlar orqali yetkazilgan[8]. Bo'layotgan o'zgarishlardan xalq ommasi xabarsiz qolmagan. Ommaviy axborot vositalari bo'lmagan va transport cheklangan o'rta asrlarda axborot kommunikatsiyasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi davlat boshqaruvi namunalari bo'lganidan dalolat beradi.

Milliy davlatchiligimizda Qurultoyning tutgan o'rni haqida fikr bildirganda, Qurultoy Amir Temur davrida faollashganligini alohida qayd qilib o'tish kerak.

Temur saltanatini boshqarishda, xususan uni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashda davlat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilish va tadbiru choralar belgilab olish maqsadida qurultoylar va kengashlar o'tkazishga katta ahamiyat bergan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Temur tomonidai Qarshi, Samarkand, Qorabog' va boshqa joylarda o'tkazilgan qator qurultoy va kengashlarda shahzodalar, davlat ma'murlari, harbiy boshliqlar" ulamolar va mulqdor zodagonlarning vakillari qatnashganlar[9]. Oliy darajadagi bunday yig'irlarda mamlakatning iqtisodiy va harbiy ahvoriga oid eng muhim masalalar muhokama etilar va zaruriy ishlarni bajarish to'g'risida qarorlar qabul qilinib, tadbirlar belgilanar edi. Davlat ahamiyatiga ega har bir masalani hal etishda Temur shu sohani bilimdonlari va olimlar bilan maslahatlashar edi»[10].

Haqiqatan ham Sohibqiron Amir Temur qurultoylarni davlat boshqaruvidagi eng samarali yo'l deb tushungan va shuning uchun uning faoliyatini kuchaytirishga, u orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqani yanada mustahkamlashga intilgan.

U Qurultoyni faollashtirish orqali turkiy davlatchilik asoslarini takomillashtirdi. Manbalardagi ma'lumotlar Qurultoyning milliy davlatchiligimizdagi eng gurkiragan va faol davri Amir Temur davriga to'g'ri keladi, deb xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

Qurultoyda xalq vakillari mahalliy hukmdorni saylashi, oliy hukmdordan uni o'zgartirishni talab qilishi yoxud soliqlarni ka-maytirishni so'rashi mumkin edi. Biz uchun Qurultoylarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Qurultoyda nafaqat mahalliy ma'murlar, balki xabargirlar, Amir Temurgagina bo'ysunadigan, ammo mahalliy amaldorlarga maslahatchilik qiladigan tajribali, ilmiy va davlatga sadoqatli kishilar ham qatnashgan[11]. Bu esa joylardan olingan turli ma'lumotlardan haqqoniysini aniqlash imkonini bergan.

XULOSA

Amir Temur mutlaq hokimiyatga ega bo'lishiga qaramay, davlatni boshqarishda Qurultoy va kengashlarga tayangan. Bu holat uning siyosiy donoligi va uzoqni ko'zlab ish tutganligini ko'rsatadi. Qurultoylar orqali turli ijtimoiy qatlam vakillari – shahzodalar, harbiy boshliqlar, davlat amaldorlari, ulamolar va zodagonlar davlat boshqaruvi jarayoniga jalb etilgan. Natijada qabul qilinayotgan qarorlar keng ijtimoiy tayanchga ega bo'lgan hamda ularning ijrosi samaraliroq kechgan. Qurultoylar Amir Temur hokimiyatining legitimligini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Hukmdorning Qurultoyda saylanishi va an'anaviy marosimlar orqali tasdiqlanishi uning hokimiyatini nafaqat siyosiy, balki ma'naviy jihatdan ham qonuniylashtirgan. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, Qurultoylar davlat va jamiyat o'rtasidagi axborot almashuvini ta'minlovchi muhim mexanizm bo'lgan. Qurultoyda qabul qilingan qarorlarning mamlakatning barcha hududlariga tezkor yetkazilishi markaziy hokimiyatning samarali faoliyat yuritganidan dalolat beradi. Bu holat o'rta asrlar sharoitida davlat boshqaruvi tizimining yuqori darajada tashkil etilganligini ko'rsatadi. Qurultoylar faoliyati Amir Temur davrida mutlaq monarxiya tizimi maslahat va mashvarat

asosida takomillashganligini ko'rsatadi. Ushbu tajriba bugungi zamonaviy parlament tizimining tarixiy ildizlari qadimiy davlatchilik an'alariga borib taqalishini tasdiqlaydi. Demak, Qurultoylar faqat o'z davrining siyosiy instituti bo'lib qolmasdan, balki milliy siyosiy madaniyatimiz va davlatchilik taraqqiyotida muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan institut sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.
3. Hofizi Abru. Majmu'at-tavorix.
4. Ahmedov B. Amir Temur. Toshkent, 1996.
5. Boboyev H. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2004.
6. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2000.
7. Файзиев Т. Темурийлар шажараси – Т.: Ёзувчи, Хазинов, 1995. – 350 б.
8. Равшанов П. Амир Темур сулоласи: роман. / П.Равшанов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. - 652 б.
9. Бегимкулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннахрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Монография – Фарғона. 2021. – 140 б.
10. Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 227 p.
11. Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. / Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов – Т.:Маънавият, 1999.
12. Roemer H.R. Timur in Iran // The Cambridge history of Iran. Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 42-97.
13. Жан Поль Ру. Тамерлан. / Пер с фр. Е.А. Соколова. Послесл. В.Л. Егорова. – М.: Молодая гвардия, 2004.
14. Ro'ziyev, A. "Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi". Toshkent, 2008.
15. Qodirov, B. "Markaziy Osiyoda Amir Temur davlati". Samarqand, 2012.
16. Mahmudov, T. "O'rta Osiyo tarixida Amir Temur siyosati". Toshkent, 2015.
17. Mananov, S. "Temuriylar davlatchiligi va ma'muriy tizimi". Buxoro, 2010.
18. Subxonov, R. "Sohibqiron Amir Temur: hayoti va faoliyati". Toshkent, 2001.

Бегимкулова Л. М.

Доцент кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
beginqulova@internet.ru

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШЕГО СОВЕТА АДМИНИСТРАЦИИ АМИРА ТЕМУРА

АННОТАЦИЯ

В данной статье подчеркивается тот факт, что во время правления Амира Темура Курултай функционировали как один из важнейших политических институтов системы государственного управления, являлись неотъемлемыми преемниками традиций тюркской государственности, играли решающую роль в обеспечении легитимности государственной власти, принимали важные политические и военные решения на основе коллективного обсуждения, и что принципы консультаций, справедливости и представительства были установлены в государственном управлении через Курултай.

Ключевые слова: Темуриды, Амир Темур, Сайид Барака, Центральная Азия, Курултай, Карши, Самарканд, Карабах, политический институт, национально-политическая и культурная.

Begimqulova L. M.

Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana State University
beginqulova@internet.ru

ACTIVITIES OF THE SUPREME COUNCIL OF ADMINISTRATION OF AMIR TEMUR

ABSTRACT

This article highlights the fact that during the reign of Amir Temur, Kurultais functioned as one of the most important political institutions of the state administration system, and that Kurultais were an integral successor to the traditions of Turkic statehood, playing a decisive role in ensuring the legitimacy of state power, making important political and military decisions based on collective discussion, and that the principles of consultation, justice and representation were established in state administration through Kurultais..

Keywords: Temurids, Amir Temur, Sayyid Baraka, Central Asia, Kurultai, Karshi, Samarkand, Karabakh, political institution, national political and cultural.

Begimqulova L. M.

«O‘zbekiston tarix» kafedrası dotsenti

Farg‘ona davlat universiteti

beginqulova@internet.ru

AMIR TEMUR TAMONIDAN MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSLARINING YARATILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur 1370-yil may oyida Movarounnahr taxtiga o‘tirgach, mamlakatda hukm surgan feodal tarqoqlikni tugatib, yagona markazlashgan buyuk davlatga asos solganligi va mamlakatni Qurultoylar orqali davlat boshqaruvida maslahat, adolat va vakillik tamoyillari asosida boshqarilganligi. Sohibqironning davlatchilik sohasidagi tarixiy xizmatini ochib berish hamda uning yaratgan boshqaruv tizimining o‘rta asrlar Sharq davlatchiligi rivojidadagi o‘rnini topganligi yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Amir Temur, Sayyid Baraka, Mironshoh, Jaxongir mirzo, Shohruh mirzo, Pirmuhammad, Umarshayx, Rustam, Abubakr, Tug‘luq Temur, Amir Husayn, Ilyosxo‘ja, Movarounnahr, Xuroson, Markaziy Osiyo, Kobul, G‘azna, Kandaxor, Hind, Isfaxon, Bag‘dod, Qurultoy, Kesh, Nasaf, Balx, Samarkand, Mo‘g‘ullar istilosi, siyosiy institut, siyosiy vaziyat, siyosiy ittifoq, harbiy yurishlar, Zafarnoma, Loy jangi.

KIRISH

XIV asr ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida siyosiy parokandalik, iqtisodiy tanazzul va ijtimoiy beqarorlik hukm surgan murakkab davr bo‘lib, aynan shu sharoitda Amir Temur tarix sahnasiga chiqdi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi feodal tarqoqlik Movarounnahr hududida markazlashgan davlat barpo etishni dolzarb masalaga aylantirgan edi. Amir Temur tomonidan asos solingan kuchli va markazlashgan davlat nafaqat hududiy yaxlitlikni tikladi, balki Sharq davlatchiligi tarixida o‘ziga xos boshqaruv tizimi, huquqiy-me‘yoriy asoslari va siyosiy an‘analari bilan ajralib turdi. Mazkur ishda Amir Temurning markazlashgan davlat asoslarini yaratish jarayoni, uning ma‘muriy-boshqaruv tizimi, davlatni idora etishdagi siyosiy va huquqiy tamoyillari ilmiy asosda tahlil qilinadi[1]. Sohibqironning davlatchilik sohasidagi tarixiy xizmatini ochib berish hamda uning yaratgan boshqaruv tizimining o‘rta asrlar Sharq davlatchiligi rivojidadagi o‘rnini yoritishdan iborat.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Amir Temur davlatchiligi va uning markazlashgan davlat barpo etish faoliyatini o‘rganishda birlamchi va ikkilamchi tarixiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, Sohibqironning siyosiy-huquqiy qarashlari va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarini yorituvchi asosiy manba “Temur tuzuklari” hisoblanadi.

Ushbu asarda davlatni boshqarish tamoyillari, amaldorlarning vazifalari, harbiy va ma'muriy tuzilma, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar aniq tartib-qoidalar asosida bayon etilgan[2].

Shuningdek, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari Amir Temur davlatchilik konsepsiyasiga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan muhim manbalardan biridir. "Temur tuzuklari"da ushbu asardan foydalanilganligi Sohibqironning o'zidan avvalgi davlat boshqaruvi tajribalariga tayanib ish yuritganini ko'rsatadi[3].

O'rta asr muarrixlaridan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Nizomiddin Shomiyning tarixiy asarlari, shuningdek, keyingi davr tarixchilarining ilmiy tadqiqotlari Amir Temur davlatining siyosiy va ma'muriy tizimini yoritishda muhim o'rin tutadi[4]. Zamonaviy tarixshunoslikda ham Amir Temur shaxsiyati va uning davlat qurish faoliyati milliy davlatchilik an'analari bilan bog'liq holda keng tadqiq etilmoqda.

Temur hijriy yil hisobi bo'yicha 736 yil sha'bon oyining 25-kunida, seshanba kuni (milodiy yil hisobida 1336-yil 8-aprelda) Kesh viloyatiga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida, mahalliy barlos urug'ining begi Tarag'ay Bahodir xonadonida tavallud topadi. Uning bolaligi va o'smirligi Movarounnahrda beqaror siyosiy vaziyat kuchaygan, turli viloyat va tumanlar hokimlarining hokimiyat uchun kurashi avj olgan davrlarga to'g'ri keldi[5]. Shu sababli ham yosh Temur va uning tenqurlari bir tomondan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash ruhida, ikkinchi tomondan mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni tugatish va markazlashgan qudratli davlat barpo etish ruhida tarbiyalanganlar.

1360-1361-yillarda mo'g'ul xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda bostirib kiradi. Bunday og'ir siyosiy vaziyatda Tug'luq Temur xizmatiga kirgan 25 yoshli Temurbek Kesh va Nasaf viloyatlariga hokim etib tayinlanadi. Bu yillarda yosh Temurbekning Balx hokimi Amir Husayn bilan yaqinlashuvi boshlanib, bu siyosiy ittifoq to 1370-yilgacha davom etdi. 1365-yildagi "Loy jangi"da mo'g'ul xoni Ilyosxo'jadan mag'lubiyatga uchragan Amir Husayn va yosh Temur Xurosonga ketishga majbur bo'lgan bo'lsalarda, Samarqand sarbadorlari tomonidan mo'g'ul qo'shinlari to'xtatib qolingach, yana Movarounnahrda qaytdilar. Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesida Amir Husayn talabi bilan sarbadorlar rahbarlari o'ldirilgach (Temur faqatgina Mavlonzodani o'limdan saqlab qoladi), ikki ittifoqchi amirlar o'rtasiga sovuqchilik tusha boshladi. Natijada 1370-yilda Amir Husaynning qarorgohi Balx shahri Amir Temur tomonidan egallanib, Movarounnahrda hokimiyat Amir Temur qo'liga o'tadi[6].

Amir Temur davlatining ma'muriy tuzilishi va boshqaruv tartiblari Amir Temur Movarounnahr taxtiga o'tirgan paytda, mamlakatda ahvol ancha og'ir edi. Movarounnahr hududi hali mo'g'ul istilosi asoratlaridan batamom xalos bo'lmagan, xalq xo'jaligi izdan chiqqan, mehnatkash xalq og'ir kunlarni boshdan kechirmoqda edi. Davlat qudratining asosi bo'lgan iqtisodni tiklash, siyosiy va ma'muriy boshqaruv muassasalarini barpo etish Amir Temurning hukmdor sifatida hal qilishi lozim bo'lgan dastlabki asosiy vazifalaridan biri edi.

Amir Temur 1370-yil may oyida Movarounnahr taxtiga o'tirgach, mamlakatda hukm surgan feodal tarqoqlikni tugatib, yagona markazlashgan buyuk davlatga asos solgan bo'lsa-da, biroq u o'zini mazkur davlatning "qonuniy" xoni deb e'lon

qilmaydi[7]. Chunki u nasl-nasab jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Binobarin, u chig'atoyliklar an'anasiga rioya qilib, o'z huzurida avval Suyurg'atmishxonni (1370-1388), uning vafotidan keyin esa Suyurg'atmishxonning o'g'li Sulton Mahmudxonni (1388-1402) rasman xon qilib ko'tarib, o'z umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqarib, farmoyishlar berdi va pullar zarb ettirdi. Mazkur har ikkala xonlar esa davlatning siyosiy hayotiga Amir Temur bergan amru farmoyishlarga mutlaqo aralashmasdilar. Shunga qaramay, Amir Temur o'z siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida mo'g'ul xonlaridan - Qozonxonning qizi Saroy mulk xonimni o'z nikohiga kiritdi. 1370-yilda bo'lgan bu nikoh tufayli Amir Temur "kuragon", ya'ni "xon kuyovi" unvoniga ega bo'ldi. Bu esa o'sha zamon qonun-qoidasiga ko'ra, saltanat hukmdorlaridan talab qilinadigan an'analardan biri edi. Mana shunday keyin rasmiy hujjatlarda Sohibqiron "Amir Temur Kuragon" nomi bilan atala boshladi. Amir Temur saltanati ma'muriy jihatdan uluslarga, ular o'z navbatida viloyat va tumanlarga bo'linib idora qilinar edi. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyandi. Mamlakatning g'arbiy viloyatlari o'rtancha o'g'li Mironshohga, Balx viloyati katta o'g'li Jaxongir mirzoga, Xuroson kichik o'g'li Shohruh mirzoga suyurgol etilgan. U nabiralariga ham suyurg'ol bergan. Jumladan, Kobul, G'azna, Kandaxor, Hind yerlari Pirmuhammadga, Isfaxon Umarshayxning o'g'li Rustamga, Bag'dod Mironshohning o'g'li Abubakrga suyurg'ol qilindi[8].

Amir Temurning mustaqil markazlashgan davlatni barpo etishga qaratilgan birinchi qadami uni mo'g'ullardan batamom ozod etish va saltanatni boshqarishda yangi va mukammal tartib va qoidalar joriy etishi edi. Amir Temur asos solgan davlat o'rta asrlarga xos musulmon Sharqida hukm surgan mustabid davlatlardan unchalik farq qilmasa-da, ammo saltanatdagi boshqaruv tizimlari qadim Turon-Turkiston davlatchiligining asriy an'analari hamda yangi tartib va qonunlar bilan takomillashtirilgan edi. Buning yorqin misoli Temur tuzuklari hisoblanadi. Sohibqiron tomonidan yaratilgan tuzuklarda davlat boshqaruvi, ma'muriy amaldorlar va ularning vazifalari, turli ijtimoiy toifalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi qat'iy tartib va qonunlar ishlab chiqilgan [9].

Amir Temur davlatining markaziy ma'muriyati bosh vazir - devonbegi boshliq yetti vazirlikdan iborat arkoni davlat - vazirlar mahkamasi tomonidan boshqarilgan. Birinchi vazirlik - mamlakat va rasmiy ishlar bo'yicha faoliyat ish olib borgan. Bu vazirlik viloyat tumanlaridan to'planadigan hosil, soliqlar, o'lponlar va ularning taqsimoti, kirim-chiqimlar hamda obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan. Ikkinchisi - vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha bo'lib, askarlarning maoshi hamda oziq-ovqat va qurol-yarog'lari ta'minoti bilan shug'ullangan. Uchinchisi - tijorat vazirligi bo'lib, savdogarlarning mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlar, egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish, meros va merosxo'rlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish kabi ishlarni bajargan. To'rtinchisi - saltanat ishlarini yurituvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri bo'lib, davlat xazinasidan sarf etiladigan xarajatlar, umuman, saltanat kirim-chiqimlarini boshqargan. Mazkur to'rt vazirlikdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun yana maxsus uchta vazirlik ta'sis

etilgan edi. Bu uch vazir mazkur viloyatlardan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromadlarni nazorat qilish va ular bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Ular o'z navbatida saltanatning bosh nazorat hay'atini tashkil etganlar[10]. Mazkur hay'at "xolisa" deb atalgan. Bu yetti vazirlik devonbegiga bo'ysungan va u bilan bamaslahat saltanatning muhim moliyaviy ishlarini amalga oshirgan.

Davlat boshqaruvida saroydagi dargoh - maxsus kengash ham katta o'rin tutgan. Bu kengash ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalarini, hokimiyatning yuqori amallariga mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalarni muhokama qilgan. Dargoh tizimida arzbegi, tovachi, xojib, jibachi, qushbegi, xazinador, xonsolar, bakovulboshi, kotib, munshi, bitikchi va boshqa saroy amaldorlari faoliyat ko'rsatganlar[11]. Amir Temur davlati idoralarida farmonlar o'ziga xos yangi usulda – sarnoma usulida joriy qilindi. Bu usul Amir Temurni hukmdor sifatida namoyon etardi. Amir Temur tomonidan farmonlar chiqarish tartibiga qo'yilgan talablar uning avlodlari tomonidan ham qabul qilingan. Bunga bir qator Temuriy hukmdorlar, masalan, Shohrux mirzo va Abu Said mirzolar tomonidan chiqarilgan va asl nusxada saqlanib qolgan ko'plab hujjatlar asos bo'la oladi.

Amir Temur amalga oshirgan buyuk ishlardan biri – erkin va tsivilizatsiyali institut sifatidagi davlatchilik g'oyasini asoslash va uni himoya qilish bo'lgan. Amir Temur Movarounnahrda Kebakxon (1318 - 1326) tomonidan joriy qilingan ma'muriy bo'linmalarni saqlab, mazkur bo'linmalarga yangi mingboshi va tumanboshilar tayinladi. Saltanatni boshqarishda yangi va mukammal tartib-qoidalar joriy qildi.

Amir Temur o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Uning davlat boshqaruv tizimi qo'l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo'lib, bu sohadagi tajribalar o'rta asrlardagi O'rta Osiyo davlatlarida keng qo'llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi. Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asaridan davlat ishlarida qo'llanma sifatida keng foydalanishi, "Temur tuzuklari"da "Siyosatnoma"dan fikrlar keltirishi bunga yorqin misoldir. Amir Temur saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan ham keng foydalangan. "Temur tuzuklari"da sohibqironning pirlari va ularning ko'rsatmalari bayoni berilgan. Asli xurosonlik yirik shayx bo'lgan Zaynuddin Abubakr Toyobodiy Amir Temurga davlat boshqarish ishlarida kengash, mashvaratu maslahat, xushyorlik, ehtiyotkorlik amallariga rioya etishni maslahat bergan[12].

Shuningdek, Sayyid Baraka, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Termiz sayyidlaridan Ala-al mulk, Abu-l-Maoliy va Ali Akbarlarning amir Temur davlati dargohlaridagi mashvaratu-kengashlarda faol ishtirok etganlari "Temur tuzuklari"da bayon etilgan. Davlat boshqaruvida sohibqiron islom qonun-qoidalariga asoslangan holda ish yuritgan. Uning Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarga bo'lgan munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan. Payg'ambar avlodlari, shayx-ul-mashoyixlarga

hurmati cheksiz bo'lgan[13]. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

XULOSA

Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan davlat o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish yasadi. Sohibqiron feodal tarqoqlikni tugatib, yagona siyosiy markazga bo'ysunuvchi kuchli davlat barpo etdi. U davlat boshqaruvida qadimiy turkiy davlatchilik an'analari, islom huquqi me'yorlari va ilg'or siyosiy tajribalarni uyg'unlashtirdi. Amir Temur davlatining ma'muriy-boshqaruv tizimi aniq tartibga solingan vazirliklar, dargoh va devon faoliyati orqali amalga oshirildi. "Temur tuzuklari"da belgilangan qonun-qoidalar davlat barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qildi. Sohibqironning ilm-fan, madaniyat, din arboblari tayanishi davlatning ma'naviy asoslarini mustahkamladi. Shu bois Amir Temurning tarixiy xizmati faqat harbiy yurishlar bilan emas, balki mustahkam siyosiy-huquqiy tizimga ega markazlashgan davlatni yaratgani bilan ham beqiyos ahamiyatga egadir. Uning davlatchilik tajribasi bugungi kunda ham milliy davlatchilik taraqqiyotini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Temur tuzuklari" – Amir Temur tomonidan yaratilgan davlat boshqaruvi va qonun-qoidalar to'plami.
2. Sharafiddin Ali Yazdi. "Zafarnoma" – Amir Temurning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati haqidagi tarixiy asar.
3. Nizomiddin Shomiy. Tarixiy asarlar– Movarounnahr va Xuroson tarixini yoritadi.
4. Nizomulmulk. "Siyosatnoma" – Amir Temur davlat boshqaruvida nazariy asos bo'lgan siyosiy-huquqiy asar.
5. Ro'ziyev, A. "Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi". Toshkent, 2008.
6. Qodirov, B. "Markaziy Osiyoda Amir Temur davlati". Samarqand, 2012.
7. Mahmudov, T. "O'rta Osiyo tarixida Amir Temur siyosati". Toshkent, 2015.
8. Mananov, S. "Temuriylar davlatchiligi va ma'muriy tizimi". Buxoro, 2010.
9. Subxonov, R. "Sohibqiron Amir Temur: hayoti va faoliyati". Toshkent, 2001.
10. Manz, B. "The Rise and Rule of Tamerlane", Cambridge University Press, 1989.
11. Fletcher, J. "Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World", London, 1994.
12. Lane-Poole, S. "The History of the Timur Dynasty", London, 1880.
13. Бегимкулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннахрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Монография – Фарғона. 2021. – 140 б.
14. Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 227 p.
15. Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. / Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов – Т.:Маънавият, 1999.

Бегимкулова Л. М.

Доцент кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
beginqulova@internet.ru

СОЗДАНИЕ ОСНОВ ЦЕНТРАЛИЗОВАННОГО ГОСУДАРСТВА АМИРОМ ТЕМУРОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается, как Амир Тимур, взойдя на престол Трансоксианы в мае 1370 года, положил конец существовавшей в стране феодальной раздробленности, основал единое централизованное великое государство и управлял страной через Курултай на основе принципов консультаций, справедливости и представительства в государственном управлении. Раскрывается исторический вклад Сахибкирана в государственность и роль созданной им административной системы в развитии средневековой восточной государственности.

Ключевые слова: Тимуриды, Амир Тимур, Сайид Барака, Мираншах, Джахангир Мирза, Шахрух Мирза, Пирмухаммад, Умаршейх, Рустам, Абубакр, Туглук Тимур, Амир Хусейн, Ильяс-Ходжа, Маверауннахр, Хорасан, Средняя Азия, Кабул, Газни, Кандагар, Индия, Исфахан, Багдад, Курултай, Кеш, Насаф, Балх, Самарканд, монгольское нашествие, политический институт, политическая ситуация, политический союз, военные походы, Зафар-намэ, битва в грязи.

Beginqulova L. M.

Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana State University
beginqulova@internet.ru

CREATION OF CENTRALIZED STATE FOUNDATIONS BY AMIR TEMUR

ABSTRACT

This article describes how Amir Timur, after ascending the throne of Transoxiana in May 1370, ended the feudal fragmentation that prevailed in the country, founded a single centralized great state, and governed the country through Kurultai on the basis of the principles of consultation, justice, and representation in state administration. The historical contribution of Sahibkiran to statehood and the role of the administrative system he created in the development of medieval Eastern statehood are revealed.

Keywords: Timurids, Amir Timur, Sayyid Baraka, Miranshah, Jahangir Mirza, Shahrukh Mirza, Pirmuhammad, Umarshaikh, Rustam, Abubakr, Tughluq Timur, Amir Husayn, Ilyas-Khoja, Maverannahr, Khorasan, Central Asia, Kabul, Ghazni,

Kandahar, Hind, Isfahan, Baghdad, Kurultay, Kesh, Nasaf, Balkh, Samarkand, Mongol invasion, political institution, political situation, political alliance, military campaigns, Zafarnama, Battle in the mud.

Гаффоров Ш. С.

Д.и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»

Самаркандский государственный университет

sh.s.gofforov.samgu@gmail.com

ПОЛИТИКА ЗАСЕЛЕНИЯ ТУРКМЕНСКИХ ТЕРРИТОРИЙ РОССИЙСКИМИ ПЕРЕСЕЛЕНЦАМИ В КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается колониальный характер политики экспансии Российской империи туркменских земель Закаспия, внутренние социально-экономические проблемы России, экспансионистские действия царского правительства, применение им ряда серьезных административно-политических мер.

Ключевые слова: Туркмены, переселенцы, колониальный период, Закаспий, царизм, Асхабад, Кавказский наместничества.

ВВЕДЕНИЕ

В стратегических планах завоевания и колонизации Средней Азии царизм придавал большое значение утверждению своего господства на территориях, населенных туркменами. Без этого, по мнению российских верхов, было бы невозможным осуществление всесторонней колонизации региона, не говоря уже о других внешнеполитических и военных замыслах правящих кругов империи. Не случайно, что и первые попытки проникновения российской военной силы (например, отряда Бековича-Черкасского в 1717-1718 гг., военной экспедиции Н.Н. Муравьева в 1819 г) предпринимались в направлении туркменских земель. Задолго до занятия восточного побережья Каспийского моря и вытеснения отсюда туркменского населения русскими войсками, в июне 1858 года М.Г.Черняев (будущий завоеватель Чимкента, Ташкента и Ходжента, Военный губернатор Туркестанской области (август 1865 – март 1866 гг), в 1882-1884 гг. – генерал-губернатор Туркестана), участвовавший в экспедиции капитана А. Бутакова к Кунграду, в своем дневнике записал: «Занятие Амударьи принесет нам несравненно более выгод, нежели владение Сыр-Дарьей»[1:18], что объяснялось, наверное, целесообразностью утверждения русских войск прежде всего на туркестанских землях.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Стремление властей Петербурга распространить господство на все территории туркмен было столь сильным, что после отторжения части территории Хивинского ханства и Бухарского эмирата и получения, таким образом, выхода к границе с Афганистаном по Амударье им казалось необходимым обязательно занять и территории, смежные с Афганистаном в районе реки Кушки, и с Ираном. Поэтому ещё в проекте строительства

железной дороги от Красноводска через Асхабад до Самарканда эта дорога была названа Закаспийской военной железной дорогой.

Все это и придало особенно жестокий характер военным действиям по завоеванию Ахалтекинского оазиса в 1879-1881 гг. Сопротивление же туркменского населения предвиделось высокими военными чинами, несмотря на то что многие крепости Хивинского ханства (Мангыт, Ходжейли, Кунград) были взяты без долгих осад. Например, 24 ноября 1879 г. временно исполняющий обязанности командующего войсками Закаспийского военного отдела генерал-лейтенант П.Л. Теркучасов в рапорте главнокомандующему армии писал: «Народ, не знавший над собой никого, кто бы им управлял, не признававший власти ни в каком виде..., такой народ не отдаст своей свободы, не имеющий ни в каком отношении границ, добровольно. Он попытается сопротивляться самым отменным образом и дорого возьмёт за свое подчинение [1: 108]. Замечательными примерами поистине самоотверженного, героического сопротивления туркмен превосходящим силам русской армии стали дневная защита Геок-Тепе, бои у Кушки (1885г.). Как писал участник тех событий – Н.А. Маслов, после взятия крепости обнаружилось, что кроме толстой наружной стены внутри ничего не оказалось. Все остальное представляло совершенно ровную площадь..., на которой было установлено около десяти тысяч кибиток. И этот кусок голой земли, совершенно не закрытый разрушительного действия навесного огня, текинцы геройски защищали [2:163-164]. Столь же мужественно боролись защитники Денгиль-Тепе в августе 1879 г. Так что утверждения в печати и во многих опубликованных мемуарах колониального и советского периодов о том, что коренное население Средней Азии, в том числе туркменское, ослабленное и разобщенное межфеодальной и межродовой борьбой, не могло сопротивляться долго и сплоченно, были далеко не всегда обоснованными.

Речь чаще всего шла о противоречиях между туркменскими племенами, в частности, ёмутов и текинцев, хотя сопротивление завоевателям оказывали все племена. Именно возможность неизбежного сопротивления коренного населения региона завоевателям и колонизаторам была учтена царизмом, который делал все для того, чтобы приграничные районы заселились полувоенным казачеством, а остальные территории-русскими и вообще христианскими переселенцами из метрополии.

Так, сразу после занятия восточного побережья Каспийского моря сюда были переселены с территории Кавказского наместничества сотни казачьих семей, а также много уральских казаков. Затем в связи с подготовкой и развертыванием работ по строительству Закаспийской железной дороги из внутренних губерний России и из Закавказья организовано переселялись крестьяне, городская беднота и торговцы. Позже в Асхабаде, Чарджуе, Керки стали появляться российские фабриканты, заводчики, специалисты по разведению и добыче нефти, других полезных ископаемых.

При этом царизм и колониальные власти Туркестана считали крайне необходимым создание, несмотря на трудные природные условия, вдоль будущей железной дороги и прилегающих к ней территориях достаточно

большого числа русских поселений, которые служили бы опорой для колониальной администрации и армии в случае волнений, бунтов коренного населения. Переселение из метрополий крестьян, не желающих перебираться в Сибирь и на Дальний Восток, где, в отличие от Средней Азии, были миллионы гектаров пустующих земель, представилось полезным и для разрешения колониалистским путем проблемы аграрного перенаселения в ряде российских губерний.

До конца 60-х годов XIX в. из числа территорий, где туркмены составляли большинство или значительную часть населения и куда направляли первые группы русских переселенцев, стоит отметить восточное побережье Каспийского моря и Мангышлак. А после установления протектората империи над Бухарским эмиратом (1868г.), Хивинским ханством (1873г.) и образования Амударьинского отдела (1874г.), подведомственного Сырдарьинской области, значительно усилилась колонизация отторгнутых от Бухары и Хивы территорий. К 1881 году колониальные войска и, вновь создававшиеся административные органы, уже контролировали почти всю территорию, населённую туркменами, каракалпаками, узбеками. Это позволило царизму в 1881 году образовать Закаспийскую область, включив в её состав Асхабадский, Красноводский, Мангышлакский, Мервский и Тедженский уезды. При этом, учитывая начавшееся освободительное, антиколониальное движение туркменского населения под предводительством Бабы Утузова (Баба-Гоклена) и растущее недовольство родовых старейшин притеснениями со стороны российских военных и переселенцев, власти Петербурга решили подчинить Закаспийскую область Кавказскому наместничеству, хотя и Туркменское генерал-губернаторство находилось в ведении имперского Военного министерства. В результате туркменские родовые объединения оказались разобщёнными между Закаспийской областью Кавказского наместничества (административный центр-г. Тифлис), Амударьинским отделом Туркестанского генерал-губернаторства, Хивинским ханством и Бухарским эмиратом. Передача Закаспийской области Кавказскому наместничеству, как и передача 1882 году Семиреченской области в состав Степного генерал-губернаторства, понадобилось прежде всего для более оперативного решения вопросов подавления освободительного движения и восстаний коренного населения, заселения этих областей российскими переселенцами, а в Закаспийской и для использования местного населения на рабочих по строительству железной дороги.

Из состава Кавказского наместничества Закаспийская область только в 1898г. была возвращена в состав Туркестанского генерал-губернаторства. К этому времени царизм успел переселить в область почти двадцать тысяч казаков, крестьян и разместить в гарнизонах, на Амударьинской и Каспийской флотилиях, более 15 тысяч военнослужащих, не считая батальоны железнодорожных войск; на левом берегу Амударьи была построена крепость Керки, где насчитывалось две тысячи военных, а также созданы гарнизоны в Кушке, Чарджуе, Мерве, Кизыл-Арвате, Геок-Тепе,

Асхабаде и других городах. Для активной эксплуатации полезных ископаемых, сельскохозяйственных земель, в частности, в целях увеличения производства хлопка-сырца, и использования труда населения Закаспийской области в интересах метрополии, власти привлекли сюда также промышленников, банкиров, создали таможню в Керки, Келифе и в 4 других местах, включив таким образом, эту область в российскую таможенную черту. В связи с завершением прокладки железной дороги от Красноводска через Асхабад до Самарканда администрация Туркестана в июне 1888 года добилась заключения «Протокола соглашения с бухарским правительством относительно устройства поселений близ железнодорожных станций и паромных пристаней». В соответствии с этим протоколом, представители коренного населения в русских поселениях вдоль железной дороги и у пристаней могли селиться с согласия имперского политического агента в Бухаре. До этого подобное правило властями Кавказского наместничества было введено для местного населения Закаспийской области. К тому же туркменцы, узбеки, таджики, представители других коренных национальностей не имели право работать на действующей железной дороге. Исключение вынужденно было сделать только в годы I-й мировой войны, да и то лишь для выполнения работ, не требующих квалификации.

Увеличению в конце XIX начало XX вв. масштабов переселения в Закаспийскую область из метрополии, в частности, из Кавказского наместничества, торговцев, мелких и средних предпринимателей способствовало же только её почти 20-летнее пребывание в составе наместничества, но и открытие ряда новых месторождений нефти, создание в Асхабаде, Керки отделений Русско-Азиатского банка [3:11-12], а также появившаяся у царизма возможность образования русских поселений населенной преимущественно туркменами территории Северного Ирана. Такая возможность была ценной не только в свете стратегических экспансионистских замыслов верхов России, но и потому что появившиеся в Закаспийской области российские крестьяне, даже получив отобранные у туркмен возделанные сады, орошаемые земли, оказались неспособными в местных условиях (природно-климатических, протекнических) заниматься ни земледелием, ни животноводством, а потому и сады, и земли сдавали в аренду местным дахканам. Кроме того, для обеспечения российских плантаторов и крестьян, достаточными землями, необходимо было осуществлять значительные работы по строительству ирригационных сооружений, по освоению и орошению земель. А о том, в каких масштабах проводились такие работы, свидетельствует то, что за 50 лет господства колониального режима в Туркестанском крае было освоено всего около 40 тысяч десятин (1 десятина = 1,09 га) [4:116] да и те использовались под хлопчатник. Хлопководством же вообще занимались местные сельчане, а из русских поселенцев этим занимались только жители посёлков Скобеловское и Дмитриевское, да и то лишь на 442 гектаров [5:116]. Правда, властями Закаспийской области разрабатывались проекты устройства ирригационных систем, орошением больших массивов земель между Керками и Мургабом, а

также земель Мургабского государства (Великого князя Константина) [6:146], но большинство не было осуществлено.

И потому почти 80 процентов российских переселенцев, а их общая численность, не считая военных, в Закаспийской области в 1917г. превышало 65 тысяч человек, проживали в городах, в посёлках при железнодорожных станциях, разъездах и у пристаней, гарнизонов. В городах же размещались и высланные из России селяне-поселенцы, а также более 3-х тысяч армян, бежавших из Турции в 1894г., тысячи иммигрантов из Афганистана. Несмотря на то, что в сельской местности Закаспия российских переселенцев, по сравнению с Сырдарьинской или Семиреченской областью, было довольно мало, тем не менее они были очень зажиточными, ибо в общей сложности имели в 1916г. около 4 тысяч десятин посевной площади, 1700 лошадей, около 7 тысяч голов крупного рогатого скота и 20 тысяч овец, коз. Но свиней содержать здесь было явно не выгодно во всех отношениях, и потому их было меньше одной тысячи [7:71-73]. Российские поселенцы, устраивавшиеся на Мангышлаке и в Красноводском уезде, занимались в основном рыболовством и непромышленной переработкой рыбы.

Не ограничиваясь осуществлением переселенческой политики в Туркестанском крае, в том числе в Закаспийской области, царизм, как уже отмечалось, в начале XX века стал активно содействовать переселению русских, выходцев-христиан из Закавказья в Северный Иран. В населенные, в основном, туркменами Астрабадскую и Мазендаранскую провинции пользуясь тем, что традиционно активное торговое, этническое, межродовое общение их с сородичами, проживающими на территориях Хивинского ханства, Бухарского эмирата, отошедших к Закаспийской области, делало её границу с Ираном довольно легкой проходимой, а российские переселенцы, из Закавказья, самовольно направились ещё в 80-е – 90-е годы XIX в. Но, когда почти все возможности устройства переселенцев из метрополии в Туркестане и Степном крае колониальными властями были максимально использованы, а за одно усилились позиции Великобритании и Германии в Иране, царизм решил активизировать организованные заселения Северного Ирана переселенцами из России. Имперские верхи рассчитывали также, что переселенцы из России довольно быстро создадут там поселения, которые фактически обозначают новую границу. Однако, примечательно, что не полагаясь на военно-полицейскую администрацию Закаспийской области, границы с Ираном, и по территории которой переселенцы шли в его северные провинции, имперские власти задачу приема и устройства там выходцев из метрополии возложили на Сырдарьинского военного губернатора и переселенческий отдел (создан в 1906г) Сырдарьинской области, административным центром которой являлся город Ташкент. Отчасти, это по нашему мнению, объяснилось и с необходимостью учреждения российского консульства в Северном Иране, и с крайне реакционным, жестоким отношением тогдашнего военного губернатора Закаспийской области генерала В. А. Косаговского. В поведении и взглядах последнего генерал-губернатор края генерал Д.И. Субайдич в 1906 г. заметил «Если слушать

Косаговского, то можно обезлюдить всю область» [1:71], а сам Косаговский оценивая итоги своей службы в Туркестане, гордился тем, что «навел страх на весь край» [1:71].

Следует подчеркнуть также, что задача организованного переселения российских подданных в Северный Иран особенно старательно выполнялось Сырдарьинским переселенческим отделом, благодаря всемерной поддержке со стороны нового (с января 1907г) генерал-губернатора Н.И. Гродекова. Генерал-губернатор, хорошо знавший положение дел в областях Туркестана, считал необходимым приостановить поток переселенцев в край, чтобы не отнимать у туземного населения его личным трудом орошаемые земли и возбуждать этим недовольством против нашего управления [1:72], потому был заинтересован в направлении прибывающих переселенцев в Северный Иран. Этому благоприятствовало и соглашение, заключенное в 1907 г. между Россией и Великобританией о разграничении сфер влияния в Иране. К этому времени в Северном Иране уже было несколько переселенческих посёлков, в частности, казаков и высланных из России и точнее- из приверженцев христианской секты молоков (посёлок Кара-Су).

Но в отличие от Туркестана, Степного края и Закавказья, в Северном Иране конфисковать экспроприировать земли российские власти не могли, переселенцам оставалось лишь купить или арендовать земельные участки. Большинство русских, закавказских переселенцев, в том числе раннее осевших в Закавказской области, не имели средств на покупку земель, прибыв на территорию Астрабадской провинции, создали здесь паевое общество сельскохозяйственной промышленности, занимавшегося арендой земель и оказанием возможной помощи переселенцам. Распределением переселенцев в Северном Иране занимался пограничный комиссар (первым был некий Лавров, основавший недалеко от города Гумбет-Кабуза посёлок Лавровка).

С 1913г. переселенцы из метрополии и Туркестана стали устраиваться и в Мазандаринской провинции. А к 1914г. в Астрабадской провинции насчитывалось 11 русских поселков [8:1-2], жители которых выращивали хлопчатник и зерновые культуры. Но по соглашению с туркменами, реже с персами за аренду земли переселенцы отдавали, согласно нормам Адата, десятую часть урожая. Однако, алчные и недобросовестные чиновники российского консульства в Иране, колониальные чиновники и представители военного командования из Закавказья, Туркестана, пользуясь своим служебным положением, стремились купить или арендовать на длительный срок (до 30 лет) дешевые земельные угодья. К 1914г. купили и арендовали землю у коренных жителей Северного Ирана (в основном левобережья реки Гурген) следующие товарищества: молокане на реки Кара-Су-3000 дес., товарищества Тихонова – 3000 дес., Саратовского посёлка 5000., немцев-колонистов – 8000., кубанцев-5000., Магавариана, Ферганское, Кушкинское и некоторые другие-10 тыс.дес. Из числа индивидуальных владельцев земельных угодий стоит отметить Лионозова (1 тыс.дес), князей Долгорукова (3 тыс.дес), Лисостова (500 дес), генерала Стрижаковского (1200 дес),

Агамирова (5 тыс. дес). Всего было куплено и арендовано (на срок не менее 30 лет) более 75 тысяч десятин орошаемых земель [9:18].

После 1914г. цена обрабатываемых земель в Северном Иране резко возросла и потому приток переселенцев из России сократился, хотя им теперь представлялось ссуда до 250 рублей на семью. Правда, разруха в России, невнимание властей к нуждам крестьянства и городской бедности в годы мировой войны вызвали увеличение масштабов самовольного переселения из метрополии в Туркестан и Северный Иран. В Астрабадской и Мазандарской провинциях насчитывалось (1916г.) 15 русских поселений, в которых проживало более 2,5 тысяч человек [10:13-16].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, можно заключить, что колониальный период Закаспийская область, включавшая в себя значительную часть Туркменских территорий, привлекала внимание российских властей и переселенцев, была превращена в довольно ценный объект эксплуатации. Колониализм – есть колониализм. Но последствия его господства в Туркестане, как в других регионах, были не только негативными. Помимо воли царизма и колониальной администрации, здесь объективно получили развитие производительные силы промышленности и сельского хозяйства, неопределимое значение имело прокладка железной дороги в Кара-Кумах, возросло влияние светских знаний, советского мировоззрения, на уровне рядовых народных масс сложились неидеологизированные, преимущественно интернационалистические межнациональные отношения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Левтеева Л.Г. Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках (историография проблемы). – Ташкент, «Фан», 1986. – с.103.
2. Маслов А.Н. Завоевание Ахалтеке.-СПб., 1882. С. 163-164.
3. ЦГАРУз., ф.1, оп-27, д.407, лл. 11-12
4. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917гг).-Ташкент, 1997. с. 116.
5. Сельскохозяйственный обзор Туркестанского края (Сырдарьинской, Ферганской, Самаркандской и Закаспийской областей) за 1915., ч. II, Ташкент., 1916. с. 87.
6. Марков Е. Россия в Средней Азии. Очерки путешествия по Закавказью, Туркмении, Бухаре, Самаркандской, Ташкентский, Ферганский областям, Каспийскому морю и Волге. В 2-х т., в-ти.СПб,1901. с.274
7. Подсчитано по: Статический ежегодник. 1917-1923 гг. – Ташкент, 1924. Т.II., С. 71-73
8. НА Уз. ф.16, оп-1, д.77, лл. 2-3.
9. НА Уз. ф.17, оп-1, д. 5219, л. 18
10. НА Уз. ф.16, оп-1, д.1073, лл.13-16.

G'afforov Sh. S.

«O'zbekiston tarixi» kafedrası professori, t.f.d.

Samarqand Davlat universiteti

sh.s.gofforov.samgu@gmail.com

MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA TURKMAN HUDUDLARINI ROSSIYALIK KO'CHMANCHILAR BILAN JOYLASHTIRISH SIYOSATI

ANNOTATSIYA

Maqolada Rossiya imperiyasining Kaspiyorti turkman yerlariga nisbatan olib borgan bosqinchilik siyosatining mustamlakachilik xarakteri, Rossiyaning ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, podsho hukumatining bosqinchilik harakatlari hamda u tomonidan bir qator jiddiy ma'muriy-siyosiy choralar qo'llanilgani yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Turkmanlar, ko'chib kelganlar, mustamlakachilik davri, Kaspiyorti, chorizm, Ashxobod, Kavkaz noibligi.

Gafforov Sh. S.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»

Samarkand State University

sh.s.gofforov.samgu@gmail.com

THE POLICY OF SETTLING TURKMAN TERRITORIES WITH RUSSIAN SETTLERS DURING THE COLONIAL PERIOD

ABSTRACT

Policy of settling of Turkmen territories the Russian immigrants during the colonial period. In clause colonization and scale settling by Russian population of Turkmen territories and realization expansion plans to the statement of the domination in the territories occupied by Turkmens looks round.

Keywords: Turkmens, settlers, colonial period, Trans-Caspian region, Tsarism, Ashgabat, Caucasian Viceroyalty.

Дусчанов Р. Р.

«Архившунослик ва манбашунослик» кафедраси доценти, PhD

Ўзбекистон Миллий университети

rasuljonduschanov@gmail.com**ЎЗБЕКИСТОНДА МОЛИЯ ТИЗИМИ ТАРИХИ****АННОТАЦИЯ**

Ўзбекистон давлатчилиги тарихида молия тизимининг шаклланиши, солиқ ва йиғимлардан ташқари хазина кирим-чиқимлари назорати, молия атамасининг ҳукмрон сулолалар даврида ҳар хил номланиши, уларга белгиланган вазифаларнинг фарқли жиҳатлари, Туркистон генерал-губернаторлигига молия бюджет тизимининг кириб келиш тарихи акс эттирилган.

Калит сўзлар: Туркистон, давлатчилик, кирим-чиқим, назорат, молия, бюджет, сулола, иқтисод, солиқ, йиғим, рента, даромад, харажат, тўлов, пул, ғазна, вазир, девон, хазина, маҳаллий бошқарув.

КИРИШ

Молия тизими дунё тарихида ўзгариш жиҳатидан бюджет босқичи сифатида шаклланиши натижасида давлатнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ҳарбий ва маданий ҳамда бошқа соҳаларини юритувчи моддий механизмига айланди. XIX асрда Давлат бошқарувида хазина атамаси ўрнига бюджет тизими кириб келган бўлсада, ҳалигача ўз аҳамиятини йўқотмаган. Ҳар бир давлатнинг молиявий ва иқтисодий базаси бу бюджет ҳисобланиб, унинг асосида мамлакат даромади ва харажатлари, даромаднинг асоси бўлган солиқ турлари ишлаб чиқилади.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Молия сўзи араб тилидан олинган бўлиб, пул маблағлари маъносини билдиради. Молия – мақсадли пул фондларини ҳосил қилиш, жамлаш, тақсимлаш ва ишлатиш юзасидан пайдо бўладиган иқтисодий муносабатлар мажмуи ҳисобланади. Молия – иқтисодиётнинг пул секторида юзага келади ва даромадлар асосида юз бериб, даромад ҳосил қилиш ва уни сарфлашни англатади. Аммо луғавий маъноси жиҳатидан “молия” сўзи французча “finance”, лотинча “financia” ва русча “financi” сўзларининг эквиваленти ёки маълум маънода, синоними ҳисобланиб, “даромад” ёки “тўлов” деган маъноларни англатади[1].

“Ўзбекистон Республикаси Молия ҳуқуқи” номли ўқув қўлланмасида молия сўзи икки хил маънода моддий – пул жамғармалари йиғиндиси, иқтисодий маънода – давлатнинг, маҳаллий ҳудудларнинг, хўжалик юритувчи субъектларнинг, юридик ва жисмоний шахсларнинг пул маблағларини шакллантириш, тақсимлаш, қайта тақсимлаш ва фойдаланиш соҳасидаги ижтимоий муносабатларнинг йиғиндисини ифодаловчи тоифадир. Ҳозирги

кунда молиянинг функцияларига доимий равишда тақсимлаш, назорат ва тартибга солиш вазифалари киради[2].

Ўз навбатида бюджет молия соҳасининг асосий қисми ҳисобланиб, унинг базасини даромад, даромаднинг базасини эса солиқ, солиқ базасини халқ ва ишлаб чиқариш ташкил этади.

Ушбу тизим молия йили – давлат бюджети амал қиладиган ёки молия ҳисоботлари муддати ҳисобланадиган 12 ойдан иборат давр ҳисобланади. Аммо ушбу ҳисобот йили барча давлатларда ҳам календар йили билан мувофиқ келмаслиги мумкин. Масалан: Буюк Британияда молия йили 1 апрелдан бошланиб, кейинги йилнинг 31 мартига, АҚШда 1 октябрдан бошланиб 30 сентябрда тугайди. Ўзбекистон Республикасида календар йилига мувофиқ келади (1 январдан бошлаб, 31 декабрда тугайди)[3] дастлабки шаклланган бюджетларда қишлоқ хўжалигига боғлиқ бўлган жиҳатлари учун ҳар хил белгиланган.

Молия тизими қадимги даврларга бориб тақалади, унинг тарихи ҳақида кўплаб илмий асарлар бизгача етиб келган. Давлат даромади ва харажатларига оид дастлабки асар Миср ҳукмдори Птоломей II ҳукмронлиги, яъни, мил. авв. III-II асрларда ёзилган бўлиб, у Солиқнома (Податный устав) деб аталган. Ушбу рисолада солиқ солишнинг асосий меъёрлари ва қоидалари белгиланиб, Юнонлар ушбу қонунларни мисрликлардан ўрганиши натижасида ер ва жон солиғи юзага келган. Ер солиғи (рента) Мисрда мил. авв. IV-III асрдан минг йил муқаддам пайдо бўлиб, у натура шаклида олинган. Солиқни ҳисоблаш учун кадастр ишлари ҳам амалга оширилган. Шунингдек, даромаднинг асосий манбаи кул савдоси бўйича солиқ ва мулк солиқлари, чорва молини парваришlash, ҳайдаладиган ерлар учун белгиланган миқдордаги ижара ҳақидан келиб тушган[4].

Молия бошқарув тизимида давлат ҳаётида молиянинг ўрни жуда катта аҳамиятга эга ҳисобланиб, бу тизимнинг марказлаштирилишини тарихий жараёнлар билан боғлаб таҳлил қиладиган бўлсак, шулардан Араб халифалиги даврида солиқлар “Хирож девони”га қайд этиб борилган. Бу даврда девоннинг доимий таркибини ўз ичига олувчи рўйхат тузилган бўлиб, унда қирим ва чиқим, шунингдек, давлатдан маош олиш ҳуқуқига эга бўлган кишилар рўйхати қайд этилган. Девон тизими марказий ҳокимият таркибида жойлашган бўлиб, [5] ушбу муассаса давлат ташкилоти сифатида фаолият юритмаган балки фақатгина ойлик маош олувчилар билан шуғулланган. Халифаликдан ажралиб чиққан Тоҳирийлар ва Саффорийлар даврида давлат молия ишлари “Девони ал-хараж” девони томонидан бошқарилган.

Сомонийлар даврида молиявий ишлар билан шуғулланувчи амалдор “Девон ал-муставфий” хазинадор Вазир девонидан кейинги ўринда бўлиб, у ғазнага келган даромадлар ва қилинган сарф-харажатлар ҳисобини юритиш билан шуғулланган. Унинг ихтиёрида алоҳида тайинланган ҳисобчилар бўлган. Бундан ташқари “Девон ал-мушриф” ғазнадаги маблағларнинг сарфланиши, сарой харажатлари учун ажратилган маблағларнинг сарфланиши ва бошқа ишларни назорат қилган[6]. Бу даврда маҳаллий бошқарув тизимини молиялаштириш ишлари ўзларининг маҳаллий

маблағлари ҳисобидан олиб борилган[7]. Таъкидлаб ўтилган маълумотлар асосида фикр билдириш мумкинки, ушбу тизим маҳаллий бюджетнинг дастлабки кўриниши бўлиб, ушбу йўналиш вақт ўтиши билан такомиллашиб борган.

Салжуқийлар давлатида “Девони истифо” (молия девони) давлат кирим-чиқимларини, солиқлар, бож ва бошқа молиявий даромадлар, уларни алоҳида рўйхатга олиш билан шуғулланган. Бу девоннинг хизматчилари даргоҳ кирим-чиқимлари, хазинадаги аҳвол, мавжуд нақд пулнинг ҳисоби, давлат қарамоғида бўлганларга кетадиган харажат, маош, нафақа миқдори кабиларни назорат қилган. Бундан ташқари, “Девони ишроф” бу давлат назорат девони бўлиб, молия солиқ ишларини назорат қилиш ва текшириш ва бошқа вазифаларни бажарган[8].

Тарихий жиҳатдан ҳам маълумки, молия тизимининг назорати доимий равишда мураккаб бўлиб келган. Амир Темур даврида етита вазир фаолият олиб борган бўлса, улардан тўртта вазир ҳар куни девонхонада бўлиши шартлиги айtilган. Булардан биринчиси – мамлакат ва раият вазири бўлиб, унинг зиммасига 10 га яқин вазифалар юклатилиб, молия соҳасига боғлиқларидан, вилоятлардан олинадиган ҳосил, солиқ ўлпонлар, уларни тақсимлаш, кирим-чиқимлар ҳамда хазинани қандай тартибга келтирилганлигини ҳисоботини бериб туриши лозим бўлган. Фақат иккинчи сипоҳ вазири ҳисобланиб молия соҳасидан йироқ бўлган. Қолган иккита вазир давлат даромадига боғлиқ вазифаларни бажарган. Амир Темурга тобе ҳудудларга оид ишлар учун уч вазирдан иборат давлат ҳайъати (холиса) тузилган. Улар мазкур ҳудудлардан келадиган молиявий муоммаларни ва келадиган даромадларни бошқарганлиги ҳамда салтанатнинг ҳар бир идорасида кирим-чиқимларни, кундалик харажатларни ёзиб бориш учун бир котиб белгиланганлиги “Темур тузуклари”[9] да келтирилган. Ҳар бир ташкилот ва идора учун маблағларни тўлиқ назорат ва тафтиш қилиш жараёни тўғри йўлга қўйилганлигидан ишора ҳисобланади.

Амир Темурнинг молия ва солиқ соҳасида олиб борган сиёсати «Аниқ режали чиқим-киримлар, яъни молия масалаларининг тўғри ташкил этилиши, қатъий белги-ўлчовлар жорий этилганлиги боис, Соҳибқироннинг давлати кучли тараққий этган. Амир Темур фикрича, ана шундагина мамлакатда адолат ўрнатилиши мумкин, чунки хазинанинг собит ушлаб турилиши халқдан ортиқча солиқ йиғилишига эҳтиёж туғилмайди, халқни ортиқча толиқтирмайди, демакки, оммага зулм қилинмайди[10]». Давлатнинг даромад ва харажатларига жуда катта эътибор қаратилганлиги ва назоратни эътибордан четда қолдирмаганлиги буни исботи ҳисобланади. Бундан ташқари давлат ичидаги нарозилик ва ғалаёнларга ҳам солиқ ва молия масалалари сабаб бўлишининг олди олинган.

Бухоро хонлиги молия тизимида Бош вазирга сиёсий, молия, ҳарбий, ташкилий ва бошқа масалалар юклатилган бўлса[11], Бухоро амирлигида ҳукмдордан кейин иккинчи шахс Қўшбеги ҳисобланиб, у мамлакат бошқаруви, молия, солиқ, хазина ҳамда пойтахтдаги аҳвол билан боғлиқ энг муҳим масалаларни назорат қилган. Унинг ваколатлари йиллар давомида

ўзгариб туриб, амирликда аҳамияти бўйича учинчи поғонада молия идораси турган. Девонбеги молия вазири мақомига эга бўлиб, унинг лавозими давлат бошқаруви тизимида иккинчи мансабдор шахс ҳисобланган[12].

Хива хонлигида молиявий соҳани Қушбеги 1807 йилдан кейин Девонбеги бошқарган[13]. Қўқон хонлигида давлат даромадлари учун солиқ йиғувчилар бўлган, улар мирза, амин, саркор, оқсоқол кабилар солиқ ишлар билан шуғулланувчи шахслар бўлиб, ҳудудларда солиқлар беклик ва хоссачи турларга бўлиб йиғилган. Беклик солиқлари маҳаллий вилоят ҳокимлиги хазинаси учун йиғилган бўлса, хоссачилар хон хазинаси фойдасига солиқ йиғишган[14]. Хонликда молия соҳасини Девонбеги, 1845 йилдан кейин эса Мирзабошилар бошқарган[15].

Таъкидлаб ўтиш лозимки, Араб халифалиги даврида жорий қилинган солиқ ва молиявий тизим маълум бир ўзгаришлар билан хонликлар ва амирлик тугатилгунча давом этган. Фақатгина Мўғуллар даврида солиқларга ўзгиришлар киритилган. Ҳатто ҳозирги кундаги назорат тафтиш бошқармалари Амир Темур ва ундан олдинги даврларда ҳам йўлга қўйилган.

Бюджет тизимининг Ўрта Осиёга кириб келиши Россия империяси билан боғлиқ бўлиб, хазина ўрнида бюджет тизими кириб келган. Бу борада М.М. Сперанский хизмати катта бўлиб, бу назария ва қарашларни А. Смит ва Д. Рикардо асарлари бунга катта туртки бўлган. Россия империясидаги молиявий муаммоларни ҳал қилиш учун “Молия режаси” ишлаб чиққан. Ҳужжатнинг моҳияти бюджет тақчиллигини бартараф этиш зарурати эди. У янги солиқларни, шу жумладан задагон мулкларига жорий этиш таклифларини киритганлиги (кейинчалик зодагонлар буни М.М. Сперанскийни кечирмайдилар)[16]. Империяга бюджет тизимининг киритилиши тақчиллик муаммоларнинг олдини олиш учун мақсад қилинган режа бўлган.

М.М. Сперанскийдан кейинги жараёни давом эттирган, Фуқаролик ҳисоботлари департаменти Бош назоратчиси (генерал-контролер) В.А. Татаринов томонидан ишлаб чиқилди. У молиявий бошқарув масалаларини ўрганиш учун Ғарбий Европа мамлакатларида сафарда бўлган. Сафардан сўнг “Хорижий давлатларда қабул қилинган давлат ҳисоботи бошланғич асосларини Россияда қўллаш тўғрисида ахборот”ни тақдим этган. Олий назорат комиссияси В.А. Татаринов лойиҳасини тасдиқлади ва у 1866 йил январидан империянинг барча губернияларида, шу жумладан, Туркистонда ҳам аста-секин ҳаётга тадбиқ этила бошланди. Шунинг натижасида молия ва бюджет масаласи шаклланган. Совет ҳокимияти ўрнатилгандан кейин 1924 йилда Ўзбекистоннинг Иттифоқ таркибига кириши билан Ўзбекистон ССРнинг биринчи давлат бюджети тузилиб, 1991 йилга қадар давом этган[17].

ХУЛОСА

Хазинага тарихий жиҳатдан қаралганда ҳукмдор мулки бўлиб келган, уни назорати, сарфланиши ҳужжатларда қайд этиб борилган, чунки бу масалада ҳукмдорга ҳисоб берилиши манбаларда келтирилган. Давлат бюджетини

режалаштириш ҳар бир ташкилот учун кейинги бюджет йилига ўзининг лойиҳасини киритилган, бу молиявий масалани туман, шаҳар, вилоят ва республика кесимида молия томонидан лойиҳа кўриб чиқилиб, кейинги босқичга ўтказилган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар руйхати

1. Ўзбеки тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2020. – Б. 611.
2. Билолхўжаева Ш.Б., Хакимов Ғ.Т. Ўзбекистон Республикаси Молия ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2011. – Б. 5.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – 6 Мирий-пархиш, Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003. – Б. 61-62.
4. Собиров Ҳ. Ўзбекистон давлат молияси тарихи. – Тошкент, 2002. – Б. 18-19.
5. O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi. Darslik mas’ul muharrir Z. Saidboboyev. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2021. – B. 134.
6. Shamsiddin Kamoliddin., Timur Kocaogli. O‘zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi (IX – X asrlar). – Toshkent: Fan ziyo, 2024. – B. 35-36.
7. Shamsiddin Kamoliddin., Timur Kocaogli. O‘zbek davlatchiligi tarixidan: Somoniylar sulolasi (IX – X asrlar). – Toshkent: Fan ziyo, 2024. – B. 37.
8. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. Дарслик. Тошкент: 2014. – Б. 244.
9. Темур тузуклари // Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржима. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1991. – Б. 85-86.
10. Ўлжаева Ш. Амир Темур ва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. / Монография. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 56-57.
11. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: Bayoz, 2021. – B. 89.
12. Zamonov A., Egamberdiyev A. O‘zbekiston tarixi. IV qism. Darslik. – Toshkent: Bayoz, 2022. – B. 104-106.
13. Аҳмедова М.Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳқуқ манбалари. – Тошкент, 2010. – Б. 164.
14. Kuzikulov I. Qo‘qon xonligi tarixi. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan, – B. 32-33.
15. Аҳмедова М.Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳқуқ манбалари. – Тошкент: 2010. – Б. 164.
16. Муравьева Л.А. Конституционные взгляды и реформы М.М. Сперанского // Из истории. – Б. 61.
17. Komolov O.S., Gofurov D.B., Bauyetdinov M.J. - Davlat budjet. O‘quv qo‘llanma / Toshkent: Innodfnsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – B. 21.

Дусчанов Р. Р.

PhD., доцент кафедры «Архивоведения и источниковедения»

Национальный университет Узбекистана

rasuljonduschanov@gmail.com

ИСТОРИЯ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В истории узбекской государственности отражены процессы формирования финансовой системы, контроль доходов и расходов казны помимо налогов и сборов, различные наименования термина «финансы» в период правления господствующих династий, отличительные особенности возложенных на них функций, а также история внедрения финансово-бюджетной системы в Туркестанском генерал-губернаторстве.

Ключевые слова: Туркестан, государственность, экспорт-импорт, контроль, финансы, бюджет, династия, экономика, налог, сбор, рента, доход, расход, плата, деньги, казна, министр, диван, казначейство, местное управление.

Duschanov R. R.

Associate professor., PhD at the department of «Source and archival studies»

National university of Uzbekistan

rasuljonduschanov@gmail.com

HISTORY OF THE FINANCIAL SYSTEM IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article examines the formation of the financial system in the history of Uzbek statehood, including the oversight of treasury revenues and expenditures beyond taxes and levies. It also analyzes the varying terminology used to denote finance during different ruling dynasties and the distinctive features of the functions assigned to these institutions. In addition, the study traces the historical introduction of the financial and budgetary system into the Turkestan Governor-Generalship.

Keywords: Turkestan, statehood, revenues and expenditures, oversight, finance, budget, dynasty, economy, tax, levy, rent, income, expenditure, payment, money, treasury, minister, divan, exchequer, local governance.

Ernazarov Sh. E.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti., PhD

O‘zbekiston Milliy universiteti

shernazarov@mail.ru**TARIX, TARAQQIYOT VA MILLIY G‘OYA****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida Yangi O‘zbekiston strategiyasi, ya’ni milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug‘ maqsad bosh g‘oya sifatida maydonga chiqayotganligi, Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy vazifasi, milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, Yangi O‘zbekiston strategiyasining nazariy va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, yangi O‘zbekiston strategiyasi, uchinchi Renessans, milliy g‘oya, milliy mafkura, ma’naviyat.

KIRISH

Jahon geosiyosiy maydonidagi hozirgi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi va texnogen ofatlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi er yuzidagi davlatlar tarixida keskin burilish yasadi. Insoniyat mutlaqo o‘zgacha muhit, yangicha talab va ilgarilari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan sharoitda yashashiga to‘g‘ri kelmoqda.

Dunyo miqiyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar emirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga, odamzotning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda va jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Keyingi yillarda jamiyat taraqqiyoti va manfaatlarida milliy g‘oyaning o‘rni bilan bog‘liq muammoga doir qator ilmiy ishlar chop qilindi. Xorijlik olimlar N.Berdyayev, O.Petrulina, K.Ryasensov, A.Shirinyans, A.V.Vladimirov, O.Volkogonova, M.Mayorov, V.Solovey, N.Rozov, G.Pavlovskiy, A.Samsin va S.Stankevichning tadqiqotlarida milliy g‘oya va qadriyatlar tadrijiyligi, ularning ijtimoiy hayotning barcha tabaqalariga, ayniqsa siyosatga ta’siri bilan bog‘liq

masalalar ma'lum darajada o'z aksini topgan. Shuningdek, ularda milliy g'oyaning, jumladan, ba'zi xalqlar tarixida haqiqiy ma'noda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy xaloskor tarzida o'zini namoyon etganligi ishonarli ma'lumotlar asosida tahlil etilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni milliy g'oya asosida o'rganishning ilmiy-nazariy metodologiyasi, g'oyaviy asoslari va tamoyillari, tarixi va nazariyasi milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, barkamol shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati, inson kamolotining ma'naviy asoslari, shaxs ma'naviyati va milliy tarbiya muammolari I.Ergashev, B.To'raev, N.Jo'raev, N.Shermuxeimova, S.Otamurodov, M.Quronov, A.O'tamurodov, O'.Abilov, Q.Nazarov, S.Mamashokirov, Z.Davronov, D.Alimova, A.Umarov, B.Tuychiev, M.Qarshiboev, Sh.To'raev, O.Muxammadieva, M.Bekmurodov, A.Ochildiev kabi olimlarning tadqiqot ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasidagi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirishga oid konseptual g'oyalar va asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib anglagan holda mamlakat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashning ma'naviy-ruhiy tayanchi bo'lgan milliy g'oya konsepsiyasini ishlab chiqdi va asarlarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorlikka erishishda milliy g'oyaning tutgan o'rni, uning tarixi va targ'iboti tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Yangi O'zbekiston g'oyasi - milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi yangi va ko'pqirrali tadqiqotlarni talab qiladi.

Hozirgi global mafkuraviy tahdidlar omili kuchayotgan dunyoda tarixiy ong va tafakkur, tarixiy xotira kishilarda unga o'z g'oya va e'tiqodi bilan qarshi tura olish imkoniyatini yaratadi. Shu bois tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish hamda rivojlantirishning tarixiy-siyosiy muammolarini tahlil qilish va ochib berish ta'lim muassasalarda, mehnat jamoalarida bu g'oyat qimmatli fazilatni har bir shaxsda shakllantirish ishini yaxshiroq bilib olishga ko'maklashadi.

Tarixiy ong ijtimoiy xotiraning tarkibiy qismi, uning elementlaridan biridir. "Tarixiy ong" tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra, "ijtimoiy xotira" tushunchasiga nisbatan ancha keng tushunchadir, chunki, "xotira" tushunchasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan va birgalikda tizim sifatidagi "ong"ni tarkib toptiradigan o'zaro bog'langan ko'plab elementlardan, shu jumladan xotiradan ham iborat bo'lgan ancha kengroq bo'lgan "ong" tushunchasining muhim, hatto markaziy elementi hisoblanadi. Ong va tafakkur – jarayon, xotira esa qobiliyatdir. Tarixiy ong va tarixiy xotira tarixiy tafakkurning elementlaridir. Ya'ni, tarixiy tafakkur – jarayon va qobiliyatdan iborat.

Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga

tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz. Bu g'oya xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha'nu sharafi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib boruvchi qarashlar tizimi hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, uning milliy ongi va psixologiyasida yorqin gavdalanadi. Milliy ong - ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongning asosiy shaklidir. Ayni mahalda shuni nazarda tutish zarurki, "ijtimoiy ong - bu ob'ektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida aks etishidir. Shunday ekan, har bir xalq, elat va millat o'zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Mazkur etnik ongning tarkibiy qismini urug', qabila, elat va millatlarning ongi tashkil etadi. Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo'lib, unda urug', qabila, elat, millatlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi aks etadi.

Yoshlarning ongiga Vatanni sevish, umuminsoniy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish; mehr-shafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash da milliy ong va uning asosiy tarkibiy elementlari bo'lgan tarixiy ong hamda tarixiy xotiraning roli ulkan bo'lib, ular katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishda shunday dedi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [1].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lam va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "*Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [2].

Mamlakat bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni ta'qozo etmoqda [3].

Hozirgi murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, o'zgarib borayotgan dunyo manzarasi va uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, vujudga qelayotgan siyosiy voqelik va o'zgarishlarni milliy va umuminsoniy manfaatlar asosida tahlil etish, mavjud tahdid va xavf-xatarlar kelib chiqish sabablarini idrok etgan holda ularga qarshi kurashda butun jamiyatni safarbar etish mamlakat kelajagi va barqaror taraqqiyotining shartlaridan biri hisoblanadi.

Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha *kuchli milliy g'oya, milliy dastur* kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim" [4].

Mustaqillikning dastlabki yillarida Birinchi Prezident I.A.Karimov rahbarligida turli millatga mansub O'zbekiston xalqining qalbida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi va komil insonni tarbiyalash kabi yuksak g'oyalarni shakllantirishga qaratilgan milliy istiqlool mafkurasi konsepsiyasining ishlab chiqilishi O'zbekistonda mustaqillikni asrash, mamlakat xavfsizligini saqlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda xalqni birlashtirishga xizmat qildi [5].

Bugun xalq intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari va taraqqiyot yo'llari tahlil etilgan.

O'zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi Konstitutsiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Taraqqiyotning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar jarayonida milliy g'oyani rivojlantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'lamining kengayib borayotgani va texnogen ofatlar mazkur masalaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu omillar tadqiqotning dolzarligini belgilagan holda, bu jarayonda quyidagilarga alohida ahamiyat berish talab etilmoqda:

birinchidan, mamlakatni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

ikkinchidan, mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy taxdidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

uchinchidan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

to'rtinchidan, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

beshinchidan, O'zbekiston ko'p millatli bag'rikeng diyor ekanini inobatga olgan holda, "Milliy g'oya – bizning g'oya" degan tushunchani barcha millat va elat vakillari o'rtasida keng targ'ib etish;

oltinchidan, vatanparvarlik tuyg'usini quchaytirish, aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish;

yettinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va tarbiyani milliy g'oya qadriyatlari darajasiga ko'tarish, ta'lim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Milliy g'oya inson, xalq va jamiyat hayotiga chuqur kirib boradigan ta'sirchan omil sifatida jamiyatning bosh maqsadini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad *bosh g'oya* sifatida maydonga chiqmoqda. Milliy yuksalish g'oyasining *asosiy vazifasi*: O'zbekistonni 2030 yilgacha dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishiga erishish; hayot sifatining yuqori darajasini ta'minlashga qodir iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali odamlarning hayot darajasini tubdan oshirishga erishishdir [6].

Davlat mustaqilligi va milliy o'zlikni anglashning mohiyati shundan iboratki, bu huquqiy asosda milliy mustaqil davlatchilikning o'rnatilishi, xalqning milliy ongini yuksaltirish jarayonini intensivlashtirish qiladi va xalqning o'zligini anglashining ko'rinishi va yuksalishi jarayonini tezlashtirib, kishilarni yagona tarixiy taqdir va ma'naviy yaxlitlik negizida birlashtiradi. Milliy g'oyani o'rganish orqali inson turli xil g'oyaviy ta'sirlarning maqsad va muddaolarini bir-biridan farqlay oladi.

Fuqarolarda, xususan yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglashi milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, "O'zbekistonda 2021-2030 yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi"da qadim, boy va noyob tarixiy merosimizni milliy va xorijiy darajada targ'ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratildi. Chunki, Yangi O'zbekiston g'oyasini amalga oshirishda va uning targ'ibotida tarixiy bilimlarning ahamiyati kattadir.

Hozirgi paytda dunyoda kiber firibgarlik, axloqsizlik va jinoyatning turlari va usullari tobora ko'payib bormoqda. Ularga nisbatan qonunchilikni yanada takomillashtirish, aholining xolis axborot va xavfsiz internetga bo'lgan huquqlarini etarli himoya qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy mafkurani targ'ib qiluvchi, o'zlikni anglatuvchi, kuchli g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o'yinlar yo'nalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Demak, bu ish bilan faqatgina pedagoglar yoki ota-onalar emas, balki mahalla-ko'y, tarbiyachilar, "internet klub"larning xodimlari, bolalar va yoshlarning "Kamalak" va "Yoshlar ittifoqi" kabi tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, xullas, keng jamoatchilik birgalikda shug'ullanishi lozim. Chunki, endilikda yoshlar internetdan faol foydalanuvchi sub'ektlarning aksariyat qismini tashkil etadi, ularning mafkuraviy ongi unda berilayotgan ma'lumot-axborotlar orqali shakllanib boradi. Bu mafkuraviy jarayonni taqiy yo'li bilan to'xtatib bo'lmaydi.

Milliy g'oya va mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirish asosan ta'lim va tarbiya yo'nalishida olib boriladi. G'oyaviy ta'lim berish deb, milliy g'oyaning maqsadi, vazifalari, qonun va kategoriyalari, bosh va asosiy g'oyalari, jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi va shunga o'xshash boshqa mafkuraviy jarayonlarning borishi haqida yoshlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi. G'oyaviy ta'lim: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Hozirgi dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasi turli mafkuralar kurashi ostida kechmoqda. Shu bilan birga dunyoning mafkuraviy tizimida ham mavjud konsepsiyalar eskirib, o'zgargan xalqaro muhitni ifodalovchi yangi paradigmaning zaminiga globallashuv tushunchasi qo'yilgan. F.Fukuyamaning nazariyasiga ko'ra "Sovuq urush"dan keyin mafkuralar kurashi tarixi yakun topdi. Bu kurash liberal demokratiya mafkurasining g'alabasi bilan yakunlandi [7]. S.Xantington XXI asrda asosiy ziddiyatlar va mojarolar mafkuralar o'rtasida emas, balki har xil madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasida sodir bo'ladi, deb basharat qiladi [8]. Bunday nazariyalar ko'plab munozaralarga sabab bo'ldi. Ayni paytda, yangi jahon tartibotining mafkuraviy konsepsiyasi ustida keng ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti [9]. Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib

borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [10] O'zbekistonda ustuvor yo'nalish etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga va ko'pmillatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekan shunday dedi: "Bugun tarixning o'zi, hayotning o'zi zimmamizga buyuk bir mas'uliyatni yuklamoqda. Jonajon Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlar asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda. Hammamizga ayonki, Mirzo Ulug'bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo'l xaritasini yaratishimiz lozim. Mana shu haqiqatni chuqur his etib, barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz, biron-bir kuch bizni o'z yo'limizdan qaytara olmaydi. Bir bo'lsak, yagona xalq, yagona millat bo'lib olg'a intilsak, ko'zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta etamiz! O'zbekistonning beqiyos kuchi va imkoniyatlariga, aziz yoshlarimizning azmu shijoatiga ishonaman!" [11].

XULOSA

XXI asr boshlariga kelib, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar ham, uning ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir mamlakatlar va xalqlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Hozirgi zamon globallashuv konsepsiyalarida mualliflarning diqqat-e'tibori asosan inson faoliyatining turli sohalari - ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarga qaratilgan. Ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar inson dunyoqarashidagi o'zgarishlar natijasi ekanligi qayd etiladi. Bu hol atrof-dunyo haqidagi tasavvurlar hamda global doirada insonlararo munosabatlar va o'zaro aloqalarni baholash mezonlari tizimini yanada chuqurroq o'rganish zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishdagi nutqi. // Yangi O'zbekiston, 2021 yil 20 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // "Yangi O'zbekiston", 2021 yil 27 mart.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi"

Farmoni. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

4. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 7 iyun F-1177 “Milliy istiqlool mafkurasi konsepsiyasi”ni tayyorlovchi ishchi guruhni tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, 5-6-son, 179-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risida ID-10558 qarori. <https://regulation.gov.uz/ru/document/10558>.

7. Fukuyama F. Konets istorii i posledniy chelovek. –M.: Ermak. 2004.

8. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order (N.Y.: A Touchstone Book, 1997).

9. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir / Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishdagi nutqi. // Yangi O‘zbekiston, 2021 yil 20 yanvar.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Yangi O‘zbekiston”, 2021 yil 27 mart.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

Эрназаров Ш. Э.

PhD., доцент кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

shernazarov@mail.ru

ИСТОРИЯ, ПРОГРЕСС И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется новая стратегия Узбекистана на современном этапе развития, то есть возникновение великой идеи от национального возрождения к национальному подъему, главная задача идеи национального подъема, основные черты, характерные для нового этапа национального развития, теоретическая и историческая значимость стратегии о новом Узбекистане.

Ключевые слова: глобализация, новая стратегия Узбекистана, третье возрождение, национальная идея, национальная идеология, духовность.

Ernazarov Sh.E.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

shernazarov@mail.ru

HISTORY, PROGRESS AND THE NATIONAL IDEA

ABSTRACT

This article analyzes the new strategy of Uzbekistan at the present stage of development, that is, the emergence of a great idea from national revival to national uplift, the main task of the idea of national uplift, the main features characteristic of the new stage of national development, the theoretical and historical significance of the strategy of the new Uzbekistan.

Keywords: globalization, new strategy of Uzbekistan, third renaissance, national idea, national ideology, spirituality.

Fayzraxmanova Z. I.

Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filiali o'qituvchisi
Toshkent «MEI» Milliy tadqiqot universiteti
zarinafayzraxmanova@mail.ru

SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO XONLIGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligining davlat boshqaruv tizimi sohasidagi islohotlar, Buxoro xonligining tashkil topishi, markazlashuvi, markaziy va mahalliy boshqaruviga oid ma'lumotlar berilgan, shuningdek Shayboniylar sulolasining Movarounnahrda oilaviy boshqaruvi, ular qo'li ostidagi alohida mulklarda ma'muriy-idora ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Shayboniixon, Ubaydullaxon, Abdullaxon, boshqaruv, suyurg'ol, markazlashuv, ma'muriy-idora.

KIRISH

O'zbekistonni yanada rivojlantirish maqsadida «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish alohida yo'nalish sifatida belgilandi. Shuningdek, «Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans» shiori ostida anjumanlar tashkil etish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, O'zbekistan tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish, tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish maqsad qilib qo'yildi. Shuning uchun Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligining ma'naviy hayoti va tashqi munosabatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shayboniylar temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyatni munosib davom ettirganlar. Shayboniylar davrida fan va madaniyat rivoj topishiga ushbu sulola hukmdorlari orasidan etuk ilm-fan arboblari etishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi Shayboniixon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxon nihoyatda o'qimishli kishilar bo'lishgan. Shayboniixon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalarida ajoyib kitob xazinalari bo'lgan. Shayboniixon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II ilm-fan, ma'rifat homiylari edi. Shayboniixon temuriylardan so'ng Samarqand va Buxoroni fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirishga harakat qildi.

Shayboniy hukmdorlarining o'z suyurg'ol mulklari mavjud bo'lib, mulk egalari chingiziy yoki o'zbek urug'-aymoqlari udumiga ko'ra, yagona shaxsga bo'ysunishi shart edi. Mazkur shaxs oila, xonadon boshlig'i, nasl-nasab zanjirining boshida turgan yoshi ulug', obro'li, jasur va tajribali kishi bo'lishi nazarda tutilgan. Harbiy, ma'muriy va davlat boshqaruvida ma'lum qonun-qoidalar ham rasm bo'lgan. Davlat boshqaruvida oilaviy tamoyil etakchilik qildi. Movarounnahrning viloyatlari va tumanlari shayboniylar nasl-nasabiga mansub xonadon a'zolariga bo'lib berildi.

Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr hamda Xurosonning katta qismida markazlashgan davlat tashkil etilishidan boshlab, to xonlik tarixining so'nggi davrlariga qadar davlat boshqaruvida, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda mamlakat oliy amaldorlarining o'rnini yuqori bo'lgan. Shu sababli ham shayboniylar davlati tarixida xonlik mansabi va uning egallanish tartiblarimarkaziy boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Shayboniy sultonlar temuriylardan farqli o'laroq, egallab olingan erlarni boshqarishni faqat o'z sulolasi vakillarigagina topshirgan. Davlat tepasida qabila va urug'larning boshliqlari tomonidan saylab qo'yilgan xon turgan. Lekin davlatni boshqarishda uning huquqlari qisman cheklangan edi. Urush va sulh masalalaridan tortib, to shahzodalarning tarbiyachi (otaliq, atka)larini tayinlashgacha bo'lgan har qanday tadbir qabila va urug' boshliqlarining, ruhoniylarning, sultonlar va o'g'lonlar (Chingizxon naslidan bo'lgan sarkardalar, harbiylar)ning maslahatisiz amalga oshmagan [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, xon huzurida chaqirilib turiladigan bunday kengashlar shayboniylar davlati boshqaruvida katta rol o'ynagan. Davlat boshqaruvi qoidalarida esa shariat qonun-qoidalariga, qadimiy to'ra va yasoq qonunlariga qat'iy rioya qilingan [2].

Ubaydullaxon (1533-1540) vafotidan keyin mamlakatda boshlangan siyosiy nizo, oilaviy taxt talashlar va bu kurashda shayboniyzodalarning har biri taxtga da'vogarlik qilish imkoniyatlariga ega ekanliklari taxtning otadan bolaga o'tish tartibini yuzaga keltirdi. Bu erda Abdullaxon ibn Iskandarxon (1583-1598) tomonidan o'zidan oldin amakisi Pirmuhammad va otasi Iskandar sultonning yoshi ulug'ligi sababli taxt egasi sifatida e'lon qilishi (Abdullaxon ibn Iskandarxonning bu siyosiy tadbiri bitta oila doirasida amalga oshirilib, sulola manfaatlarini inobatga olmagan edi) uning Movarounnahrda yakka hukmdor sifatidagi siyosiy intilishlaridan dalolat beradi. Vaholanki, o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilayotgan shayboniy sultonlar orasida Pirmuhammad (1556-1567) va Iskandar sultonga (1567-1583) nisbatan yoshi katta shayboniy sultonlar bo'lgan.

XVI asrning birinchi yarmida oliy hukmdorlar shayboniy sultonlar, urug' va qabila boshliqlari tomonidan saylab qo'yilgan. Xon tomonidan belgilangan har qanday tadbir dastlab uning huzuriga chaqirilib turiladigan kengashda muhokama qilingan. Muhokamaga qo'yilgan tadbir kengash ahli tomonidan yoqlangandagina kuchga kirgan [3].

Hududlarning yaqin qarindoshlarga bo'lib berilishi mamlakatda yagona sulola (oilal) hukmronligini ta'minlagan bo'lsa, ularning o'z hududidagi harbiylarga ham yo'l boshchi, sarkarda bo'lishi, umumiy qo'shinning ham yagona oilaga tegishli, oliy harbiy lavozimlar ham sulola vakillari qo'lida bo'lganligini ko'rish mumkin.

Harbiy yurishlar chog'ida ham viloyat rahbarlari bo'lgan shayboniy sultonlar o'z qo'shinlari bilan armiyaning asosiy qismini tashkil etgan va o'ng qanot, so'l qanot, qalb singari qo'shinning asosini tashkil qilgan qismlarida joylashgan. Jumladan, 1512 yil noyabr oyida G'ijduvon yaqinida Safaviylar lashkarboshisi Najmi Soniy (Yor Ahmad Isfahoniy) bilan bo'lgan jangda shayboniy sultonlar

qo'shin boshqaruvida quyidagi tartibda joylashganlar: Qo'shin markazida (qalb) Ubaydulla sulton, burung'orda (o'ng qanot) Muhammad Temur va uning o'g'li Po'lod sulton (vaf. 1530 y.), javong'orda (chap qanot) Abu Sa'id sulton (1530-1533) va Jonibek sultonlar qo'mondonlik qilgan. Qo'shinning qalb qismini asosan, bosh qo'mondon boshqarib borgan. Bundan ko'rinadiki, Muhammad Shayboniy halok bo'lganidan keyin umumiy qo'shinga Ubaydulla sulton qo'mondonlik qilgan. Tarixchi Muhammadiyori ibn Arab Qatag'anning yozishicha, Shayboniyxon davrida "Muhammad Shayboniyni katta o'g'li Muhammad Temur barcha yurishlarda qo'shinning chindovul – orqa qismiga (zahira) rahbar etib qo'yilgan" [4]. Muhammad Shayboniy o'z vorisi va davomchisini imkon qadar qirg'inbarot janglardan saqlashga harakat qilganligi ehtimol. Bundan tashqari, keyingi davrlarda ham harbiy yurishlar vaqtida valiahdlar aksariyat hollarda qo'shinning zahira qismini boshqargan.

Abdullaxon ibn Ko'chkinchixon (Abdullaxon I) vafotidan keyin mamlakatda ma'lum muddat qo'shhokimiyatchilik yuzaga keldi va Ubaydullaxonning o'g'li Abdulaziz (1541-1551) Buxoroda, vafot etgan xon – Abdullaxon ibn Ko'chkinchixon (1540-1541)ning ukasi Abdulatif sulton Samarqandda o'z hukmronligini o'rnatib oldi. XVI asrning 50-yillaridan boshlab esa siyosiy kurashning yanada kuchayishi natijasida, Samarqandda Ko'chkinchixon avlodlari (1541-1578), Buxoroda Ubaydullaxon avlodlari (1541-1552), Toshkentda Suyunchxoja sulton avlodlari (1540-1583), Karmana va Miyonqolda Jonibek sulton avlodlari (1512-1598) mustaqil ravishda hukmronlik qila boshlagan. 1557 yil Abdullaxon ibn Iskandarxon tomonidan mamlakat poytaxti Buxoroning egallanishi natijasida shayboniylar davlatining markazlashuvi jarayoni qaytadan boshlandi.

Sulola hukmronligining deyarli yarmi aynan Abdullaxon ibn Iskandarxon faoliyati bilan bog'liqdir. 1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammadxonni, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxonlarni oliy hukmdor darajasida bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, 1583-1598 yillarda o'zi rasman "xon" rutbasi asosida mamlakatni boshqardi [5]. Abdullaxonni qadimiy odat bo'yicha oq kigizga o'tqazishib, xon qilib ko'tarishgan va kigizning to'rt uchidan mamlakatning to'rt ustuni sifatida e'tirof etilgan to'rtta shaxs ko'tarib borgan. Ular Abdullaxon ibn Iskandarxon ning eng yaqin kishilari bo'lgan Qulbobo Ko'kaldosh (xonning emikdoshi, yaqin maslahatchi), Turdaka sulton (harbiy qo'mondon), Sayyid Xoja naqib (bosh vazir darajasidagi shaxs) va Jo'ybor shayxi Xoja Muhammad Islom (shayxulislom)lardan iborat bo'lgan [6]. Agar bu jihatga ahamiyat beradigan bo'lsak, qadimiy turkiy an'ana bo'lgan ushbu udumda mamlakatning to'rt sohasi bo'yicha ustunlar xonning tayanchi ekanligi va ular davlatning ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini qamrab olgan o'ziga xos birlikni yuzaga keltirganligi namoyon bo'ladi.

Abdullaxon ibn Iskandarxon davrida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashlariga sezilarli darajada barham berildi. Bu davrda sulolaga mansub bo'lgan ayrim shaxslarni harbiy-siyosiy jarayonlardan yiroq holda ilm-fan bilan mashg'ul bo'lganligini, tadqiqotlarda hatto Pirmuhammadxonning o'g'li Shohmuhammad sulton davlatda uzoq yillar shig'ovul (elchi) lavozimida ishlab, bir necha marta Usmonlilar davlatiga elchi

sifatida borib, bu sharaflı vazifani a'lo darajada ado etganligi haqida ma'lumotlar mavjud [7].

Shayboniylar davlatining boshqaruv tizimida sulolaga mansub shaxslarning xonlik, valiahdlık, sarkardalik va boshqa lavozimlardagi faoliyatlariga oid ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: ya'ni, biz yuqoridagi xonlik boshqaruvini davrlashtirish masalasidan kelib chiqiladigan birinchi davrda mamlakatda nisbatan barqarorlik ta'minlanganligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri ma'lum qoida hamda intizom asosida yoshi eng ulug' sulola vakilining saylab qo'yilishi natijasida taxt uchun talashishning kelib chiqmaganligidir; bu masalaning ikkinchi jihati esa, ushbu an'ana natijasida davlat asoschisi bo'lgan Muhammad Shayboniyxonning birorta ham avlodi oliy hukmdor sifatida mamlakatni boshqarish imkoniga ega bo'lmagan.

XVI asrning boshlarida Movarounnahrning Muhammad Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi bu hududlarning xon urug'i vakillari bo'lgan o'zbek sultonlari tomonidan bo'lib olinishiga sabab bo'ldi. Ayrim hollarda Shayboniyxon ba'zi qabila boshliqlariga ma'lum mulklarni ham bergan. XVI asrning 30-yillaridan boshlab Buxoro shayboniylar davlatining ma'muriy-siyosiy markazi sifatida e'tirof etilgannidan so'ng qonun kuchiga ega bo'lgan barcha hujjatlar Buxorodan chiqarilgan. Davlatdagi murakkab boshqaruv apparatini tashkil etgan ko'p sonli amaldorlar guruhi ham aynan Buxoroda markazlashgan.

Ma'muriy jihatdan Buxoro xonligi viloyatlar va tumanlarga bo'lingan. Buxoro xonligining bu davrdagi asosiy ma'muriy birligi viloyat bo'lib, manbalarda Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, balx, Termiz, Karmina, Forako'l, Miyonqol, Shosh, Turkiston, Farg'ona, O'ratepa, Marv kabi viloyatlar tilga olinadi. Bu hududlar mutlaq chegara bo'lmay, kengayib yoki qisqarib turgan. Ba'zi viloyatlar tashqi va ichki siyosiy vaziyatga qarab markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan.

Mirza Devonning ma'lumot berishicha, Buxoro xonligi boshqaruvida o'ziga xos an'ana va qonunlar o'rnatilgan bo'lib, joylardagi yuqori mansabga ega bo'lgan zodagonlar davlat boshlig'i tomonidan hokimlikka ko'tarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda bunday yuksak mavqega xonning yaqin ishonchli kishilari, qarndoshlari, yirik qabila boshliqlari, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan o'zbek sultonlari loyiq topilgan.

Yirik hududlarda tashkil topgan shayboniylar davlati xon tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligining somoniylardan temuriylargacha bo'lgan davrida qaror topgan davlat boshqaruvi qonun-qoidalari hamda xususiyatlari bilan birgalikda ko'chmanchilarga xos an'analar ham mavjud bo'lgan. Xon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, u o'z atrofida viloyat, tuman hokimlari hamda nufuzli qabila boshliqlarini birlashtirganidan so'ng mustaqil siyosat olib borgan. Ammo, ayrim viloyat hokimlari mavqei kuchayib markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan holatlar ham bo'lib turgan. Bunday holat ayniqsa Abdullaxon II davrida kuchayib bo'lib, u buysunmas hokimlarning barchasini zo'rlik bilan bo'ysundirgan edi [8].

Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv hamda viloyatlar va tumanlar qo'lida mahalliy boshqaruv

asosiy o'rinda turar edi. Tabiiyki, xon ular yordamida hamda bevosita ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan.

Ilgarigi sulolalar davrida bo'lgani kabi shayboniylar davrida ham eng oliy davlat idorasi – dargoh hisoblangan. Dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan hamda davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Chunonchi, davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo hamda odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama davlatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu erda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilan kuchga kirib, hayotga tadbiq etilgan. Ta'kidlash joizki, ko'plab ko'kaldosh, otaliq, naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi kabi oliy darajali saroy amaldorlari, nuyon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qurchiboshi kabi harbiy amaldorlar, jo'ybor shayxlari, sadrlar, shayxulislom kabi diniy ulomolarning fikrlari va manfaatlari ham qarorlar qabul qilinishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ma'lumki, Muhammad Shayboniyxon barpo etgan davlat ko'chmanchilik an'analarini tub o'troq xalq an'analari bilan muvofiqlashtirishga asoslangan bo'lib, bu narsa davlat boshqaruvida, siyosiy va harbiy tizimda xizmat vazifasini bajaruvchi harbiy va ma'muriy amaldorlar hamda ularning vazifalari, funksiyalari va ularning nomlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Amaldorlarning asosiy daromad manbai xon tomonidan taqdim etiladigan va o'zlari sotib oladigan erlardan, nomuayyan (faqat harbiy harakatlar paytida to'lanadigan) tarzda beriladigan maoshdan iborat bo'lgan. Ma'muriy-harbiy amaldorlar yuqori lavozimlarga oliy hukmdor tomonidan tayinlangan.

Davlat boshqaruvining o'rta asr an'analariga ko'ra, shayboniylar harbiy boshqaruvi tizimidagi mansab va unvonlarni nisbiy ravishda ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi – ma'muriy-harbiy mansablar; ikkinchisi – harbiy mansablar. Saroyning ma'muriy amaldorlari urush paytida harbiy soha boshqaruviga kirishganligiga ko'ra, ularning mansab faoliyatini ma'muriy-harbiy deb atash mumkin. Ma'muriy-harbiy boshqaruvga xos turli amal va ishlarni bajaruvchi shaxslarning vazifalari nimalardan iborat bo'lgan, davlat miqyosida ularning mavqei qanday bo'lganligini quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz.

Shayboniylar davlati ma'muriy-harbiy boshqaruvidagi muhim vazifalardan biri naqib hisoblangan. Naqib aslida sayyidlar va sayyidzodalardan tanlab olingan [9]. Xalifalik davri va Movarounnahrda tashkil topgan ilk markazlashgan davlatlar faoliyat ko'rsatgan kezlarda naqib asosan sayyidlar yashagan jamoalarning boshqaruvchisi, raisi sifatida tayinlangan. Ularni sayyidlar xonadonlari yashagan hududlarning oqsoqoli desak ham bo'ladi. Naqiblik merosiylik xususiyatiga ham ega bo'lgan va faqat Payg'ambar avlodlari xonadoni vakillari bu lavozim sohiblari bo'lishi mumkin edi. Musulmon jamiyatlarida qayerda naqiblik mansabi mavjud bo'lsa, o'sha erda sayyidlar yashaganligiga yoki bu vazifa egalari shular orasidan tayinlanganligiga guvoh bo'lamiz. Naqib temuriylar davrida diniy peshvolik, shariat qoidalarining sharhlovchisi, muqaddas qadamjolar va mozorlar ta'minotining rahbari vazifalarini bajargan [10] bo'lsa, shayboniylar davriga kelib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biriga aylangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy hukmdordan chap tomondan birinchi bo'lib joy olishi

naqibning dargohda tutgan yuksak maqomidan dalolat beradi. Xonning farmon, yorliqlarida ham naqib nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. Davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushmanning harbiy imkoniyatlarini o'rganish yumushlarini ham xon naqibga yuklagan. Harbiy kengashlarda ham naqib mansabidagi shaxs birinchi bo'lib gapirishga, rejasini aytishga haqli bo'lgan [11], xon aksariyat hollarda uning maslahati bilan qaror qabul qilgan. Xiva xonligida esa naqib mansabidagi kishi ba'zi hollarda qo'shinning oliy bosh qo'mondoni ham hisoblangan.

Abdullaxon ibn Iskandarxon davrida Hasanxoja naqib doimiy ravishda harbiy yurishlarda qatnashgan va qo'shinning ma'lum qismiga rahbarlik ham qilgan. Manbalarda hatto harbiy rejalar ham Hasanxoja naqib bilan maslahatlashilgan holda tuzilganligi aytiladi. Shuningdek, hukmdorlar o'rtasidagi deyarli barcha sulhlar naqiblar ishtirokida amalga oshirilgan. Hatto hukmdorlar qahru g'azabga to'lgan vaziyatlarda ham, din peshvosi bo'lgan naqiblar aybdorlarni jazodan saqlab qolish darajasidagi qudratga ega bo'lganlar. Asr oxiriga kelib esa, ularning nufuzi bir oz pasayib (asosiy vazifa va vakolatlar shayx ul-islomga o'tgan), bu mansab egalari o'zidan keyin turuvchi mansab – harbiy sudya (muhtasib)ga aylanib borgan [12]. XVII asrdan esa u harbiy lavozimga aylanib, yurish, ko'chish va urush paytida qo'shinni tartibga solish, jang aslahalari bilan ta'minlash, joylashtirish bilan shug'ullangan va ma'lum mansabga loyiq shaxslarning boshqa, o'zlariga to'g'ri kelmaydigan o'rinlarga tayinlanishlariga yo'l qo'ymaslikni nazorat qilgan[13].

XULOSA

Shayboniylar sulolasi hukmron bo'lgan Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy holatiga oid ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- shayboniy sultonlar o'zlarining Movarounnahrda bir asrlik hukmronligining dastlabki yarmida o'zaro hamjihatlik va birdam-likda faoliyat olib borganligi natijasida markazlashgan davlat barpo etilganligining guvohi bo'lamiz;
- davlatning markaziy boshqaruvida o'ziga xos demokratik tamoyillar amal qilgan. Buni oliy hukmdorni saylash, qo'shinga qo'mondon saylash, yirik masalalarning kengashda hal etilganligi singari tadbirlar-da ko'rishimiz mumkin;
- ma'lum er-mulklarning hukmdorlar tomonidan otadan bolaga meros tariqasida o'tadigan tartibda suyurg'ol qilinishi davrlar o'tib markazlashuvning zaiflashishiga olib kelgan;
- XVI asrning 40-yillaridan boshlab yasoq udumlariga rioya qilinmasdan, toju taxtning otadan o'g'ilga o'tishi tartibi joriy etilishi sulolaning tanazzuliga xizmat qildi.

Belgilangan an'anaga rioya qilinmasligi oqibatida yuzaga kelgan taxt uchun kurashlar sulola uchun halokatli natijalar keltirib chiqardi. Siyosiy nizolar va hokimiyat uchun shafqatsiz kurashlar natijasida XVI asr oxiriga kelib sulolaning markaziy hokimiyatni asrab qoladigan salohiyatga ega bo'lgan vakili qolmagan edi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ahmedov B. Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va davlat tuzumi. // Tarixdan saboqlar. T: - “O‘qituvchi”, 1994, – B. 84.
2. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent: “Adolat”, 2007. – B. 41.
3. Ahmedov B. Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati. // Tarixdan saboqlar. Toshkent, 1994. – B. 84.
4. Muhamadiyor ibn Arab Qatag‘an. Ko‘rs. asar. – B. 128.
5. Istoriya Uzbekistana (XVI - pervaya polovena XIX v.). T.: “Fan”, 2012. – B.39.
6. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 2-kitob. Toshkent: “Sharq”, 2000. – B.136.
7. Mustafa Budak. Osmanlı – Özbek ılışkırının başlanısı. Anqara. 1992. – B.59.
8. Zamonov A., To‘xtabekov K. Buxoro xonligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar. – Toshkent: “BAYOZ”, 2018. –B. 50-54.
9. Ziyo A. Ko‘rsatilgan asar. – B. 244.
10. G‘iyosiddin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – B. 172.
11. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. – B. 326.
12. Muhammad Yusuf Munshi. Tarix-i Muqimxoniy. – S. 14.
13. Mir Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma // O‘zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – B. 39.

Файзрахманова З. И.

Преподаватель Федерального государственного
бюджетного высшего учебного заведения
Ташкентский филиал Национального
исследовательского университета «МЭИ»
zarinafayzrahmanova@mail.ru

БУХАРСКОЕ ХАНСТВО ВРЕМЕН ДИНАСТИИ ШАЙБАНИДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о реформах в области системы государственного управления Бухарского ханства в период правления Шайбанидов, формировании, централизации, центральном и местном управлении Бухарским ханством, а также семейном управлении династии Шайбанидов в Моваруннахре, административно-делопроизводственной работе по отдельным поместьям под ними проводится анализ.

Ключевые слова: Бухара, Шайбанихан, Ubayduллахан, Абдуллахан, административно-делопроизводственный аппарат управления, суюргал, централизация.

Fayzraxmanova Z. I.

Teacher at the Federal state budget higher education institution
Tashkent branch of the National Research University «MEI»

zarinafayzraxmanova@mail.ru

BUKHARA KHANATE DURING THE SHAIBANID DYNASTY

ABSTRACT

This article provides information on the reforms in the field of the public administration system of the Bukhara Khanate during the reign of the Shaybanids, the formation, centralization, central and local administration of the Bukhara Khanate, as well as the family administration of the Shaybanid dynasty in Movarunnahr, administrative and clerical work on individual estates under them is analyzed.

Keywords: Bukhara, Shaibani Khan, Ubaidullah Khan, Abdullahan, management, suyurgal, centralization, administrative and clerical apparatus.

Исмоилова П. Х.

Старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
parvinahistorian@gmail.com

ВОПРОС ОБ УЧРЕЖДЕНИИ СИСТЕМЫ КРЕДИТОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (НА МАТЕРИАЛАХ ТУРКЕСТАНСКОГО СБОРНИКА)

АННОТАЦИЯ

В работе рассматривается проблема становления системы кредитования в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX века. Исследование основано на материалах дореволюционного издания «Туркестанский сборник», которые позволяют проследить процесс формирования кредитных институтов в регионе и выявить особенности их функционирования. Особое внимание уделяется анализу восприятия кредитной системы местным населением, причинам её учреждения, а также экономическим и административным предпосылкам её создания. Кроме того, в статье исследуется роль товариществ и иных форм объединений в развитии кредитных отношений, их значение для поддержки торговли, земледелия и общего хозяйственного развития края.

Ключевые слова: Туркестан, кредит, Туркестанский сборник, Ташкентское общество взаимного кредита, промышленный кредит, горное дело, Самарканд, Фергана, Петро-Александровск, Амударьинский отдел, уездные кассы, соло-вексель, устав.

ВВЕДЕНИЕ

Вторая половина XIX – начало XX века характеризуется тем, что Туркестанский край стал объектом экономической политики Российской империи, которая была направлена на интеграцию края в общеэкономическую жизнь метрополии. Появления банковской системы оказало заметное влияние на развитие товарно-денежных отношений, торговли и проявления местного предпринимательства, а также внедрения системы кредитования в крае.

Потребность в кредитовании местного населения была и обоснована появлению банковской системы и институтов в крае. Однако организация кредита требовало прежде всего самостоятельности населения и вполне сознательного отношения его к самой идее мелкого кредита. Организация кредитной системы была в основном в тех районах Туркестанского края, где земледелие издавна велась на орошенных землях, оставляя в стороне те степи, пустыни и предгорья, где кочуют номады [1].

Важное значение для изучения данной проблематики имеет место для Туркестанского сборника – многотомное издание, которое включает статьи, статистические данные, научные публикации и записи, показывающие многообразие жизни края. Ценность сборника заключается в том, что в томах

содержится отношения современников в лице российских чиновников и местного населения к появлению финансовых институтов и продвижению банковских операций в крае.

Целью данной статьи является анализ появления кредитной системы и последствия ее внедрения для местной экономики в материалах Туркестанского сборника.

Методологической основой данной работы является принцип источниковедческого анализа в виде историко-сравнительного метода, способствующий выявлению как процесс кредитования развивался в разных областях Туркестана и как жители областей принимали саму систему кредитования и как им пользовались.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Материалы исследования составляют статьи, отчеты и научные публикации Туркестанского сборника. В рамках работы анализируются тексты, содержащие сведения о внедрении банковской системы и организации мелкого кредита в крае. Анализируя источники, многократно упоминается тот факт, что уездные ссудные кассы для местного населения были одними из «симпатичнейших» народных учреждений в крае. Услугами этих касс пользовались в основном землевладельцы для производства посева хлеба. В материале также указывается тот факт, что в некоторых районах края были трудности в получении ссуд из уездных касс, в частности жители Амударьинского отдела, которые населяли дельту реки.

Время весенних работ северной части отдела совпадало с разливом реки, прекращающим сообщение жителей дельты с городом Петро-Александровском. Поэтому пока вода спадет и обитатели дельты смогут получить возможность добраться до кассы, истощенные заемщиками жители Шураханского участка и *чимбайцы* (жители дельты) не могут получить ссуды [2].

В официальных материалах, вошедших в Туркестанский сборник, также даются подробные сведения об учреждении Ташкентского общества взаимного кредита. Цель такого вида кредита заключалась в том, что он давал возможность кредитоваться среди мелких сельских хозяев, торговцев и ремесленников. Мелкая единица в промышленности и в торговле не имела возможности кредитоваться в государственных и частных банках. Такие виды единиц вели свои небольшие коммерческие обороты за наличные деньги, или же прибегали к помощи ростовщиков, которым приходилось отдавать почти весь заработок в виде процентов, к примеру 18 – 19 за ссуду, которые были не по карману. Таким образом учреждение общества взаимного кредита было необходимо для развивающейся промышленности и торговли в крае [3]. Сведения из сборника позволяет реконструировать юридическое основание создания такого вида общества.

К примеру, в сборнике есть статья И.М. Слущкого по поводу доклада В.В. Краинского об организации мелкого кредита в Туркестанском крае. В статье идет сравнение жителей Ферганской и Самаркандской области о восприятии

кредитных учреждений. Жители Самарканда отнеслись достаточно положительно к предложенным кредитным формам в отличии от Ферганской области. Ферганцы отнеслись весьма подозрительно и несколько сомнительно к таким предложениям. Причиной этому служило то, что хозяйственное и здоровое население Ферганской области было кругом напугано ростовщиками и надеялось со временем так или иначе выплатить все свои долги, ко всяким новым ссудам относились с осторожностью.

Наоборот, население Самаркандской области с его неудовлетворительным хозяйственным ведением своих земельных угодий, со значительным обесцененным его земель, в совокупности с недостатком оросительных вод и постоянными бедствиями от саранчи – является весьма неустойчивым в экономическом отношении элементов [4].

Как видно, в сборнике в основном идет сравнительный анализ двух областей Туркестанского края Ферганской и Самаркандской области. Ферганская область, которую министр Вышнеградский называл «жемчужиной в короне Русского царя» [5], в действительности была хорошо орошаемой землей и местом для развития хлопковой плантации. Со временем хлопководства развивается, которая со временем становится триггером для учреждения финансовых институтов в крае.

Анализ материалов Туркестанского сборника показал, что внедрение системы кредитования происходил из-за интереса к сельскохозяйственной деятельности в крае. Вопрос об открытии государственным банком мелкого хозяйственного кредита Туркестанским земледельцам был предложен Кокандским биржевым комитетом. Предложенная сумма была в размере полтора миллиона рублей, на обсеменение полей хлопчатником. С таким предложением была выслана телеграмма в Петербург.

В том же году была получена ответная телеграмма от государственного банка Петербурга. Письмо содержало следующее: «По обсуждению советом банка возбужденного биржевым комитетом вопроса оказания поддержки мелким хлопководам на обсеменение выяснилось, что выдача ссуд под соло векселя недопустима в виде отсутствия предусмотренного уставом обеспечения. Также вследствие затруднительности создания государственным банком организации, обеспечивающую правильную раздачу денег на местах и дающей уверенности в употреблении денег согласно назначению».

Головин на основе ответного письма из Петербурга показал причину почему было принято такое решение. По его мнению, согласно уставу государственного банка в нем практикуется три сорта краткосрочного кредита: 1) торговый под учет векселей, 2) под залог процентных бумаг и 3) под соло-векселя земледельцев [6].

На самом деле соло вексель и был предназначен для сельскохозяйственного кредита. Этот кредит выдавался в 60% годового хозяйственного оборота и обеспечивался положением запрещения на недвижимое имение, хотя бы заложенное в поземельном банке.

Помимо развития сельскохозяйственного мелкого кредита, в крае была выдвинута идея развития промышленного кредита. Промышленные предприятия нуждались в оборотных средствах. Эти средства могли бы дать большой толчок в развитии горного дела в Туркестане.

Туркестанское сельскохозяйственное общество, в одном из своих собраний обсуждая современное состояние хлебопашества и садоводства в крае, призвало создать в крае финансовое учреждение для предоставления землевладельцам мелкого кредита на приобретение семян и обработку земли, не прибегая к ростовщикам, которые сдают по 3-5% в месяц, что, несомненно, вредно отзываясь на культуру, разоряет тружеников земли и, возвышая цены, тяжело ложится на потребителя.

Для внедрения такой системы кредитования было создано Ташкентское общество взаимного кредита. С этой целью была избрана комиссия для выработки устава общества взаимного кредита, главным пунктом которого, в числе разных коммерческих оборотов, свойственных таким учреждениям, было предоставление собственникам земли кредит под соло векселя с одной подписью.

Выработанный устав утвержден, министром финансов 27 декабря 1907 г. [8].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

С учреждением отделения государственных банков в Туркестанском банке, в частности в Коканде, управляющим которого был Н.К. Романов, был сделан первый удачный опыт выдачи из государственного банка кредита под соло-векселя местным дехканам. В первый же год было роздано в ссуду населению Кокандского уезда 20 000 рублей и сумма эта была возвращена своевременно и без всякого труда [6].

По факту, будущее мелкого землевладения в крае зависело от правильной и широкой организаций учреждений мелкого кредита. Организация мелкого кредита была развита именно в то время, когда сельскохозяйственный кредит не был еще разрешен в законодательном порядке по всей Российской империи. [9]

В «Сборнике» также упоминается факт о том, что разрешение устройства как, товарищества так и общественных касс, зависело от местного комитета по делам мелкого кредита. Вопрос о выдаче ссуды в основной капитал и об открытии кредита в государственном банке рассматривался в местном отделении банка и посылался затем в Петербург. Вся эта процедура занимала 1-2 месяца. По разрешению ходатайства в полном объеме, учреждение мелкого кредита открывало свои действия, выбирало правление и совет, получало ссуду в основной капитал и приступало к производству операций, причем главная его цель заключалась в привлечении частных средств, в виде процентных вкладов, а не только в том, чтобы работать на казенные деньги.

При учреждении товариществ обращалось особое внимание на то, чтобы учредители сознательно относились к делу, чтобы они предварительно определили район деятельности товарищества и, наконец, чтобы в число

учредителей входили лица, способные вести счетоводство и, вообще управлять делом.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Краинский В.В. Об условиях организации мелкого кредита в Туркестанском крае. Туркестанский сборник, Том 535, 1909. – С. 103-104.
2. О ссудных кассах. Туркестанский сборник, Том 437, 1896. – С. 123-124.
3. Ташкентское общество взаимного кредита. Туркестанский сборник, Том 448, 1907. – С. 16-17.
4. Слуцкий И. Мелкий кредит. Туркестанский сборник, Том 512, 1909. – С. 61.
5. Орлов И. Письма из Ферганы. Туркестанский сборник, Том 503, 1909. – С. 169.
6. Головин. Сельско-хозяйственный кредит. Туркестанский сборник, Том 506, 1909. – С. 4.
7. Туркестанский промышленник. К вопросу об организации промышленного кредита. Туркестанский сборник, Том 477, 1909. – С. 21.
8. Член общества. Ташкентское общество взаимного кредита. Туркестанский сборник, Том 494, 1908. – С. 21-22.
9. Мелкий кредит в Туркестане. Туркестанский сборник, Том 502, 1909.

Ismoilova P. H.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrasida katta o‘qituvchisi
Farg‘ona davlat universiteti
parvinahistorian@gmail.com

TURKISTON O‘LKASIDA KREDITLASH TIZIMINI TASHKIL ETISH MASALASI (TURKISTON TO‘PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida kredit tizimining shakllanishi muammosini ko‘rib chiqadi. Tadqiqot inqilobgacha nashr etilgan Turkiston to‘plami materiallariga asoslanadi, ular mintaqada kredit muassasalarining tashkil topish jarayonini kuzatish hamda ularning faoliyat xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Maqolada kredit tizimining mahalliy aholi tomonidan qanday qabul qilingani, uning tashkil etilish sabablari, shuningdek, uni yaratishning iqtisodiy va ma‘muriy shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, kredit munosabatlarini rivojlantirishda shirkatlar va boshqa birlashma shakllarining o‘rni, ularning savdo, qishloq xo‘jaligi hamda o‘lkaning umumiy xo‘jalik taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyati o‘rganiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, kredit, Turkiston to'plami, Toshkent o'zaro kredit jamiyati, sanoat krediti, konchilik, Samarqand, Farg'ona, Petro-Aleksandrovsk, Amudaryo bo'limi, uyezd kassalari, solo veksel, ustav.

Ismoilova P. H.

Senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan»

Fergana State University

parvinahistorian@gmail.com

THE ISSUE OF ESTABLISHING A CREDIT SYSTEM IN THE TURKESTAN REGION (BASED ON THE MATERIALS OF THE TURKESTAN COLLECTION)

ABSTRACT

The study examines the problem of the formation of a credit system in the Turkestan region in the second half of the nineteenth and the early twentieth centuries. The research is based on materials from the pre-revolutionary publication Turkestan Collection, which make it possible to trace the process of establishing credit institutions in the region and to identify the specific features of their functioning. Special attention is paid to analyzing how the local population perceived the credit system, the reasons for its establishment, as well as the economic and administrative prerequisites for its creation. In addition, the article explores the role of partnerships and other forms of associations in the development of credit relations, as well as their importance for supporting trade, agriculture, and the overall economic

Keywords: Turkestan, credit, Turkestan Collection, Tashkent Mutual Credit Society, industrial credit, mining, Samarkand, Fergana, Petro-Aleksandrovsk, Amu Darya Department, district treasuries, promissory note (solo bill), charter (statute).

Ишанходжаева З. Р.

«Ўзбекистон тарихи» кафедраси профессори, т.ф.д.
Ўзбекистон Миллий университети
zamira.i@rambler.ru

Махкамова Р. А.

«Ўзбекистон тарихи» кафедраси таянч докторанти
Ўзбекистон Миллий университети
ranomaxkamova082312@gmail.com

ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ (ЎОДУ) ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида (1941–1945) Ўрта Осиё Давлат Университети (ҳозирги Ўзбекистон Миллий Университети) фаолияти ёритилган. Уруш шароитида университетнинг ўқув, илмий-тадқиқот ва тарбиявий фаолиятини қайта ташкил этиш жараёни, профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг фронт ва фронт орти учун кўрсатган хизматлари таҳлил қилинган. Шунингдек, эвакуатсия қилинган етук олимларнинг университет илмий салоҳиятини оширишдаги ўрни, ҳарбий эҳтиёжлар учун мутахассислар тайёрлаш, илмий ишланмаларни муҳофафза саноати ва халқ хўжалиги эҳтиёжларига йўналтириш масалалари ёритилган. Тадқиқот натижалари ЎОДУ жамоасининг фашизмга қарши умумхалқ курашидаги ҳиссасини ва уруш йилларида университетнинг илмий-маърифий марказ сифатида ривожланганини кўрсатади.

Калит сўзлар: Ўзбекистон Миллий Университети, Ўрта Осиё Давлат Университети, Иккинчи жаҳон уруши, олий таълим, илмий тадқиқотлар, эвакуатсия қилинган олимлар, ҳарбий тайёргарлик, фронт орти фаолияти.

КИРИШ

Ўзбекистон Миллий Университетининг деярли юз йилдан ортиқ фаолияти давомида Ўрта Осиё халқларининг ҳаётида муҳим рол ўйнади ва ҳозирги кунда ҳам бу ролни давом эттирмоқда. Университет минтақада таълим, илм-фан ва маданият марказига айланган. Университетнинг тарихий ютуқларидан бири Ўзбекистон ва Ўрта Осиёлик интеллектуал ёшларни тарбиялашдир. Шунингдек, унинг Ўзбекистон Фанлар Академиясини ташкил этишда, катта илмий марказлар ва бошқа таълим, илм-фан ва маданият муассасаларини яратишда ҳам аҳамияти жуда катта. Бу барча ишлар Ўрта Осиё ва унинг ташқарисида ҳам таълим ва илм-фаннинг ривожланишига хизмат қилмоқда.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

1918-йилда асос солинган Ўрта Осиё Давлат Университети (ЎОДУ) XX асрнинг 40-йилларига келиб, минтақадаги энг йирик таълим ва илмий

муассасалардан бирига айланган эди. Университет мамлакат иқтисодиёти ва маданиятнинг ўсишига сезиларли таъсир кўрсатадиган муҳим ташкилот бўлган. Ўша даврда фаолият юритган бешта факультет – тарих, физика-математика, кимё, биология ва тупроқ-геология-география факультетларида икки мингдан ортиқ талабалар ва 103 аспирант таълим олган. 1941 йил бошида ЎОДУда 38 профессор илмий-педагогик ва тарбиявий ишларни олиб борган, улардан 19 нафари фан доктори, 51 нафари доцент, 42 нафари эса фан номзоди эди[1]. Университетнинг катта жамоаси самарали таълим ва илмий-педагогик фаолиятни фаол жамоат иш билан бирлаштирган.

Миллий университет мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида фаол иштирок этган ҳолда, Иккинчи жаҳон уруши даврида ҳам ўзини бир четга олмади. Урушнинг бошланиши ва Гитлер Германиясининг Совет Иттифоқига нисбатан хиёнаткорона ҳужуми тўғрисидаги хабар университет жамоасида ғазаб билан кутиб олинди. Университетнинг спорт майдонида дарҳол митинг ўтказилди, унда йиғилган профессорлар, доцентлар, ўқитувчилар ва талаба, ишчи ва хизматчилар фашист босқинчиларига қарши ўз норозиликларини билдириб ўтдилар. Ушбу митингда университет ректори Д.Ф.Желизняков, кимё факультети декани И.П.Цукерваник, ҳарбий кафедра бошлиғи П.Ю.Французов, биотехнология факультетининг доценти А.С.Шаталина, талабалар Убайдуллаев, Кирсанов, Абакумов ва бошқалар душман мағлуб бўлади деган ишончни ифодалаб сўзга чикди[2].

Урушнинг дастлабки кунларида, 1941-йил 28-июн куни университетнинг профессор-ўқитувчилар таркиби, олимлар В.И.Романовский, И.А. Райкова, Т.А.Саримсаков, Т.З.Заҳидов, Ш.Т.Талипов ва бошқалар “Правда Востока” газетасида ҳукуматнинг ҳар қандай топшириқларини бажара олишга тайёр эканликларини маълум қилганлар. Улар ўз билимларини, кучларини ва, зарурат туғилса, ўз ҳаётларини ҳам “душманга қарши ғалаба қозониш” учун фидо қилишга тайёр эканликларини баён этишган[2]. Ушбу мақола шуни кўрсатадики, университет олимлари, шунингдек, республиканинг барча меҳнаткашлари ва бутун халқ, урушнинг дастлабки кунларидан бошлаб, Ватанларига бўлган садоқат, ватанпарварлик руҳи ва юксак онгнинг намунасидир.

Урушнинг илк кунларидан бошлаб, Ўзбекистон олий таълим муассасалари фаолиятини ҳарбий тартибга ўтказишга киришди. Ўқув йили 1941 йил 1 августда бошланди. С.Д.Муравейский, ЎОДУ ректори, воқеа шароитларини инобатга олиб, университет жамоасининг ишининг асосий йўналишларини белгилаб берди. Бунга, асосан, меҳнат интизомини кучайтириш, тарбиявий ишларни фаоллаштириш ва университет жамоасини фашизмга қарши кучайтирилган меҳнатга сафарбар қилиш киритилди.

Университет жамоаси бир қатор муаммолар билан тўқнаш келишига тўғри келди, уларни кечиктирмасдан ҳал этиш зарур эди. Ушбу даврда юзага келган қийинчиликлар университет профессор-ўқитувчилар таркибининг 70% ини мобилизация қилиниши ва фронтга ўз ихтиёри билан кетиши билан боғлиқ эди. Биринчи бўлиб, ихтиёрий равишда фронтга кетганлар орасида

И.И.Романов, Д.И.Лобашев ва П.Л.Черенцов бор эди¹. Бундан ташқари, Қизил Армия сафларига талабаларнинг яримидан кўпини, шунингдек, деярли барча механик, собит, столяр ва боғловчилар устахона ходимлари ва университетнинг кўплаб ишчилари чақирилди. Университетда қолган ўқитувчилар, талабалар ва ходимлар умумхалқ душманига – фашизмга қарши курашга фаол равишда киришдилар.

Уруш даврининг қийинчиликлари тезда ҳал қилинди, ректорат назорати остида ЎОДУ коллективининг фаолияти янги шароитларга мос равишда қайта ташкил этилди. Мутахассисларни янада тезроқ тайёрлаш мақсадида, ўқув режалари беш йиллик таълимдан уч йиллик таълимга ўтказилди. Бу жараёнда бир қатор ёрдамчи фанлар ўқув дастуридан олиб ташланди, шунингдек, барча факультетларда муҳофаа аҳамиятига эга бўлган бир қатор фанлар жорий этилди. Масалан, физика-математика факультетида талабаларга ҳарбий метеорология, ҳарбий ишга тадбиқ этилган эҳтимоллар назарияси, ҳарбий акустика, ташқи ва ички баллистика асослари, қанот ва пропеллер назарияси, самолёт қурилмалари каби фанлар ўқитилди. Кимё факультетида эса заҳарли моддаларни таҳлил қилиш, газдан сақланиш мосламаларининг физик ва кимёвий асослари, заҳарли моддаларининг токсик хусусиятлари, портловчи моддалар кимёси ва бошқа курслар ўргатилди.

Уруш шароитлари қатъий талаблар қўйди, ва университет раҳбарияти баъзи кафедраларни ва факультетларни бирлаштиришга мажбур бўлди. 1941 йил ноябрида Ўзбек Давлат Университети (Самарқанд) ЎОДУга бирлаштирилди[2]. Талабалар ётоқхонаси ҳарбий эҳтиёжлар учун ажратилди. 1942 йил 7 февралдан бошлаб, университет биносида Москва Авиация Институтини ўқув жараёнини бошлади[3]. Буларнинг барчаси университетнинг битирувчиларини зарурий ҳарбий тайёргарликдан ўтказишга ёрдам берди.

Таълим жараёнидан ташқари, кафедраларнинг илмий тадқиқот фаолияти ҳам қайта қурилди. ЎОДУ жамоаси фронтга нафақат назарий муаммоларни ишлаб чиқиш, балки амалий жиҳатдан ҳам – муҳим муҳофаа маҳсулотларини тайёрлаш, шунингдек, фронт ва тинч аҳоли учун зарур бўлган махсус кимёвий реактивлар, етишмаётган дори-дармонлар ишлаб чиқаришга ёрдам берди. Шу муносабат билан “Органик кимё” кафедраси республикадаги кимё-фармацевтика саноатининг асосчиси ва ташкилотчиси ҳисобланганини таъкидлаш лозим[3]. Ишчи кучининг етишмаслиги ҳар томонлама сезиларли бўлиб, кўплаб талабалар университетда таълим олишни ишлаб чиқариш билан бирлаштирдилар, улар муҳофаа саноатида ишлаб, фронтга жўнаб кетган ишчилар ўрнини босдилар[4].

Ушбу даврда ҳарбий фанлар фаол равишда ўрганилди. Ҳарбий кафедра раҳбарлигида университет профессор-ўқитувчилари турли йўналишларда тайёргарлик кўришди: ўқчи, телефонист, радио оператори, ҳарбий таржимонлар ва сиёсий ишчилар тайёрланди. Айниқса, тиббий муассисалар учун ҳамшира тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилди. Бунинг учун

¹П. Л. Черенцов - Университет ходими, урушни биринчи куниданоқ фронтга кетган ва Ленин ордени билан тақдирланган. Москва учун жангларда ҳалок бўлган

профессор Л.В.Ошанин ва А.С.Шаталина раҳбарлигида махсус курслар ташкил этилди[2].

Уруш бошланишидан олдин ташкил этилган снайперлар мактаби сезиларли даражада кенгайтирилди. Ушбу мактабда А.Филипов, В.Вознесенский, Скляровлар оиласининг укаси ва синглиси каби снайперлар таълим олдилар. Қисқа вақт ичида ушбу мактаб 200 снайперни тайёрлаб чиқарди. Университетда олинган ҳарбий тайёргарлик Қизил Армия сафига чақирилганларга уларнинг ҳарбий хизматида катта ёрдам берди ва кўплаб ҳукумат мукофотлари билан тақдирландилар.

1941 йил августидан бошлаб Ўзбекистонга эвакуация қилинган профессорлар ва талабаларнинг келиши бошланди[2]. Кўплаб ЎОДУ ходимлари эвакуация қилинган олимлар билан бирга масъулиятли иш жойларига жалб этилдилар, улар орасида И.К.Додонов, Н.М.Мирошкҳина, Т.З.Захидов, А.Т.Туляганов каби шахслар ҳам бор эди. Шунингдек, бу мураккаб йилларда ЎОДУ жамоаси учта ҳарбий касалхона билан ҳамкорлик қилди, ўқитувчилар ва талабалар жароҳатланган жангчиларга маърузалар ўқиди, адабий кечалар ўтказди, машхур китоблар кўргазмаларини ташкил этишди, кўчма кутубхоналар ташкиллаштирилди, касалхоналарни тозалаш ва кийимни таъмирлаш учун йиғилишди. ЎОДУ жамоаси фронтга ёрдам бериш учун йўналтирилган барча тадбирларда фаол иштирок этди – мудофаа фондига маблағ йиғиш (1943 йил августига келиб, ходимлар ва профессор-ўқитувчилар томонидан 68 минг рубл нақд пул ва 47 минг рубл облигациялар йиғилган эди), Қизил Армия учун иссиқ кийимлар йиғиш, “Мопровец Ўзбекистон” эскадрилясини куриш учун маблағ йиғиш, Ленинград аҳолисига ёрдам кўрсатиш, Қизил Армия жангчиларига совғалар йиғиш ва бошқа тадбирлар.

Ахборот ва тарғибот ишларини кенгайтириш ва кучайтириш мақсадида халқ орасида тажрибали ва обрўли ўқитувчилардан иборат махсус агитация бюроси ташкил этилди. Дастлаб, агитация бюросини университет ректори С.Д.Муравейский бошқарган, унинг Москвага жўнаб кетганидан сўнг, проректор М.Г.Кадек бошқаришни ўз зиммасига олган². Университетнинг барча факультетларида 100 нафар агитатор ва тарғиботчидан иборат жамоалар фаолият олиб борган. 1943 йилдан бошлаб, 20 соатлик дарслар ўтказиладиган махсус семинар ташкил этилди ва катта курс талабалари учун босқинчиларга қарши урушга бағишланган маърузалар ўтказилди. ЎОДУ ҳисоботида кўра, фақат 1942/1943 ўқув йилида эвакуация қилинган касалхоналарида 319 та маъруза ўқилган, Пушкин, Горкий ва Маяковский кечалари ўтказилган. Кутубхоналар учун 200 та китоб совға қилинган, 11 та кўргазма ўтказилган, саккизта кўчма китоб кўргазмаси ташкил этилган ва беморлар билан 1250 та суҳбат ўтказилган. “Тошкент” темир йўл станциясидаги агитация марказида ойига ўртача ўн та маъруза ўқилган[5].

²М. Г. Кадек – Латвияни озод қилинганидан кейин 1944-1949 йилларда П. Стучка номидаги Латвия Давлат университети ректори лавозимида ишлаган.

ЎОДУ олимлари илмий тадқиқотларни давом эттиришди – физиклар спектрал таҳлил ва унинг саноатдаги қўлланилиши, пахта-шакарнинг ва уни толаси намлигини аниқлаш усуллари ишлаб чиқиш билан шуғулланишди, кучли симоб тўғрилагичларни тиклаш ишларида фаол иштирок этдилар. “Аналитик кимё” кафедраси муҳофаа корхоналари учун зарур бўлган баъзи реактивларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйган, “Минерология” кафедраси муҳофаа саноати учун янги турларни ўрганиш давомида Ўрта Осиёдаги темир рудалари конларига асосланган Ўзбекистоннинг қора металлургиясини ташкил этиш ғоясини илгари сурди.

Қийин шароитларга қарамай, уруш йилларида университет янада ривожланишда давом этган. Бунда Тошкентга эвакуация қилинган Москва, Ленинград ва мамлакатнинг бошқа марказий шаҳарларидан келган йирик олимларнинг алоҳида роли бор эди. Тарих факультетининг кафедраларида машҳур олимлар, академиклар иш олиб борган: Б.Д. Греков, В.И. Писетта, А.Ю. Якубовский, В.В. Струве, Р.Ю. Виппер, Е.А. Косминский, А.Д. Удалцов, профессор М.В. Нечкина, С.Н. Валк, Б.Е. Штейн, И.И. Полосин, А.В. Предтеченский, Н.Н. Степанова, А.И. Анекштайн, Л.И. Зубок, М.В. Левенченко, И.П. Петрушевский ва бошқалар.

Бу университетда тарих фанлари таълим сифатини оширишга, илгари ўқитилмаган янги махсус курслар ва махсус семинарлар ишлаб чиқишга, илмий тадқиқотлар доирасини кенгайтиришга имкон берди. Шунингдек, эвакуация қилинган илмий марказлар олимлари филология факультетида ҳам фаол ишладилар.

Академик Е.Д. Бертелс “Ўзбек филологияси” кафедрасини, академик Н.К.Пиксанов “Рус филологияси” кафедрасини, “Ғарбий Европада адабиёт кафедрасини еса, Совет Иттифоқи Фанлар Академияси академик-корреспонденти В.М. Жирмунский бошқарди. Ушбу кафедраларнинг аъзолари профессор А.К.Боровков, Д.Д. Благой, Б.С. Мейлах, И.И. Векслер, доцентлар И.А. Кашкин, Е.Б. Тагер ва бошқалар эдилар[4.88].

1943 йилда “Роман-герман филологияси” кафедраси ташкил этилди, биринчи мудир эса Совет Иттифоқи Фанлар Академияси академик-корреспонденти В.Ф. Шишмарев бўлди. 1942 йилда илмий тадқиқотлар ва мутахассислар тайёрлаш соҳасида катта ютуқ сифатида аспирантура факультетининг очилиши ва 1942/1943 ўқув йилида диссертацияларни ҳимоя қилиш жараёнининг бошланишини кўрсатиш мумкин.

Москва, Ленинград ва бошқа марказий шаҳарларидан келган олимлар, масалан, фанлар академияси академиклари С.М. Липатов, Л.М.Благовешченский (“Ўсимликлар физиологияси ва биокимёси” кафедраси мудир), математика фанлари академиги И.Г. Петровский, профессор Б.В. Гнеденков, Н.Н. Мейман, Е.Е. Слуцкий, физика фанлари профессорлари С.Я. Лившиц, А.С. Компанеев, географ проф. В.М. Четёркин, ноорганик кимё профессори А.М.Зхарковский ва бошқалар фаол илмий фаолият кўрсатиб, фан ва таълим ривожига ўзининг катта ҳиссасини қўшдилар[6].

Эвакуация қилинган олимларнинг ЎОДУ таълим ва илмий жараёнига жалб қилиниши университетнинг илмий салоҳиятини кучайтиришга имкон

берди, 1942/1943 йилларда университетда кафедралар сони сезиларли даражада копайди. Ўқув йилининг охирига келиб университетда аллақачон олти факультет ва 48 та кафедра бор эди.

Кенгайтирилган профессор-ўқитувчилар таркиби ва талабалар ЎОДУ университетида машҳур олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларни молиялашда фронтга ўз жамғармаларини ўтказиб ёрдам беришди. Катта миқдорда маблағлар танклар колоннасини, “Ўзбекистон” қуролли поездини, “Ўзбекистон комсомоли” самолётини, “Совет Ўзбекистони” эскадриясини ва бошқа лойиҳаларни қуриш учун тўпланди.

Даврнинг барча мураккаблигига қарамай, таълим ва илмий ҳаёт бир дақиқага ҳам тўхтамади – университетнинг ривожланиши ва кенгайиши давом этди. 1944 йилда ЎОДУ университетида яна Шарқшунослик факультети ташкил этилди. Дастлаб у уч йўналишга эга эди: эрон-афғон, турк ва уйғур. Бир неча вақт ўтгач, араб тилшунослиги ва Шарқ мамлакатлари тарихи бўйича йўналишлар ташкил этилди. Шарқшунослик факультетида ўқитиш учун Тошкентда вақтинча бўлган шарқшунос олимлар жалб қилинди: Ўзбекистон Фанлар Академиясининг корреспондент аъзолари М.С.Андреев, Е.Е.Бертелс, профессорлар И.П.Петрушевский, А.А.Семенов, А.Н. Болдйрев, А.К.Боровков, Л.З.Писарвенский ва бошқалар[4.90]. Эслатиб ўтиш жоизки, Тошкентга эвакуация қилинган олимларнинг иштироки, юқорида айтиб ўтилганидек, университетнинг кенгайишига имкон берди ва 1945 йил охирига келиб, у саккизта факультет (тарих, филология, шарқшунослик, география, биология, геология, физика-математика ва кимё) ва 55 кафедрани ўз ичига олди, улардан еттита факультетлараро кафедралар эди.

Университет профессор-ўқитувчи таркиби уруш охирида 246 кишидан иборат эди. Улардан 42 нафар профессор, 99 нафар доцент, 51 нафар катта ўқитувчи мавжуд эди. Профессорлар таркибида тўққизта академик ва ЎзССР Фанлар академияси ижтимоий корреспондентлари ҳам бор эди, шунингдек, Ўзбекистон фани муҳташамларига айланган 15 нафар шахс ҳам ушбу рўйхатда мавжуд. Улардан баъзилари: М.С. Андреев, Е.Е. Бертелс, Н.Л. Корзхеневский, Н.А. Кайзер, Е.П. Коровин, Н.И. Лебединский, Н.Г. Маллицкий, М.Е. Массон, А.А. Семенов, М.А. Орлов, А.С. Уклоонский, И.П. Цукерваник, Т.А. Саримсаков, В.И. Романовский, А.Ю. Якубовский, С.У. Умаров, Н.Н. Назаров, А.Г. Саади[4].

1941-1945 йилларда тадқиқот ишлари соҳасида катта муваффақиятларга эришилди, бу ерда университет тарихи давомида шаклланган илмий мактаблар ва йўналишларнинг ҳамда Москва, Ленинград ва бошқа шаҳарларнинг илмий марказларидан Тошкентга эвакуация қилинган таниқли олимларнинг фаол иштироки муҳим рол ўйнади.

ЎОДУ олимлари Иккинчи Жаҳон уруши йиллари давомида янги ҳудудларни ўрганишга, чўл яйловларида экспедициялар ўтказишга киришдилар, қишлоқ хўжалик зараркунандиларини ўрганиш соҳасида тадқиқотлар олиб борди, физика ва геофизика, синоптик ва динамик метеорология соҳаларида (1-ноябрдан бошлаб янги ташкил этилган синоптик метеорология кафедрасига профессор В.А.Жоржио тайинланди)[7] ва бошқа,

эҳтимоллар назарияси, математик статистика ва математик анализ, тарих, археология, филология ва бошқа йўналишларда тадқиқотлар олиб боришди. Шунингдек, уруш даврида Тошкентда бўлган Москва, Ленинград ва бошқа марказий шаҳарларнинг олимлари кўплаб диссертантларга муҳим ёрдам кўрсатдилар.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, Иккинчи жаҳон уруши даврида ЎОДУ Ўзбекистонга эвакуация қилинган олимлар – академиклар, профессорлар ва доцентлар, шунингдек, эвакуация қилинган талабалари билан биргаликда инсоният цивилизацияси – фашизмнинг умумий душманига қарши ғалабани қўлга киритишга сезиларли ҳисса қўшди. Уруш даврининг қийинчиликларига қарамай, университет катта ўсиш ва кенгайишга, таълим, илмий тадқиқот ишлари ривожига жиддий натижаларга эришди ва юқори малакали илмий ходимлар тайёрлашда муҳим ўрин тутди. Ҳозирги кунда университет ўз миссиясини давом эттириб, ёшларнинг таълим сифатини ошириш, глобал стандартларга мувофиқ юқори даражада илмий тадқиқотлар ўтказиш вазифаларини бажаради.

Фойдаланилган манюа ва адабиётлар рўйхати

1. Тошкент шаҳар архиви, ф.38, р.1, и. 544, в. 45.
2. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети архиви; САГУ буйруқлари, 1941 йил.
3. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети архиви, САГУ буйруқлари, 1942 йил.
4. Тошкент университети тарихи очерклари, Т., Ўзбекистон, 1980, б. 89.
5. Ўзбекистон Миллий архиви ф. 94, р. 5, и. 4280, в. 16.
6. Ўтган адиблар ҳақида биографик маълумотлар, Т. Ўзбекистон, 1990, б. 38.
7. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети архиви, САГУ буйруқлари 1943 йил.

Ишанходжаева З. Р.

Д.и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
zamira.i@rambler.ru

Махкамova Р. А.

Базовый докторан кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
ranomaxkamova082312@gmail.com

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА (САГУ) В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается деятельность Среднеазиатского государственного университета (ныне Национальный университет Узбекистана) в годы Второй мировой войны (1941–1945). Проанализированы особенности перестройки учебного, научно-исследовательского и воспитательного процессов в условиях военного времени, вклад профессорско-преподавательского состава и студентов в дело Победы на фронте и в тылу. Особое внимание уделено роли эвакуированных ученых в укреплении научного потенциала университета, подготовке специалистов для нужд обороны, а также участию университета в развитии оборонной промышленности и народного хозяйства. Сделан вывод о значительном вкладе САГУ в общенародную борьбу против фашизма и его развитии как крупного научно-образовательного центра в военные годы.

Ключевые слова: Национальный университет Узбекистана, Среднеазиатский государственный университет, Вторая мировая война, высшее образование, научные исследования, эвакуированные ученые, военная подготовка, тыловая деятельность.

Ishankhodjaeva Z.R.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
zamira.i@rambler.ru

Makhkamova R. A.

Basic doctoral student at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
ranomaxkamova082312@gmail.com

THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN (CASU) DURING THE SECOND WORLD WAR

ABSTRACT

This article examines the activities of the Central Asian State University (currently the National University of Uzbekistan) during the Second World War

(1941–1945). The study analyzes the reorganization of educational, scientific, and social activities under wartime conditions, as well as the contribution of faculty members and students to the front and home front efforts. Special attention is paid to the role of evacuated scholars in strengthening the university's academic potential, training specialists for military needs, and conducting research aimed at supporting the defense industry and national economy. The article concludes that the university made a significant contribution to the fight against fascism and continued its development as a major scientific and educational center during the war years.

Keywords: National University of Uzbekistan, Central Asian State University, Second World War, higher education, scientific research, evacuated scholars, military training, home front activities.

Кобзева О. П.

Д.и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

Okobzeva75@mail.ru

В ПАМЯТЬ ОБ УЧЕНОМ

АННОТАЦИЯ

Статья освещает страницы жизни и научной деятельности выдающегося узбекского ученого востоковеда, археолога, историка- академика А.Р.Мухаммеджанова. Показан его вклад в разработку страниц древней и средневековой истории Узбекистана, подготовку молодых исследователей, разработку школьных и вузовских учебников.

Ключевые слова: ученый, археолог, востоковед, диссертации, научная школа, научное наследие, публикации, ученики.

ВВЕДЕНИЕ

Историческая наука и образование Узбекистана сегодня переживают новый подъем, связанный, как с активизацией международного сотрудничества, в области изучения истории, археологии, этнологии, так и с трансформационными процессами, в контексте использования новых технических средств, цифровизации и применения ИИ в исторических исследованиях. Однако, нельзя не отметить, что все современные достижения и перспективные планы базируются на прочном фундаменте, заложенном целой плеядой выдающихся узбекских XX века. В данной статье, нам бы хотелось рассказать об одном из них - скромном трудолюбивом и очень ответственном Человеке подлинной Науки – Абдулахад Рахимджановиче Мухамеджанове (1931-2016).

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Абдулахад Рахимджанович Мухамеджанов родился в Ташкенте в семье строителя. Закончив среднюю школу, он поступил на Восточный факультет САГУ, где показал свои блестящие способности к обучению. Затем продолжил образование в аспирантуре научно-исследовательского Института востоковедения им. Беруни Академии наук Узбекистана.

С первых лет занятия наукой Абдулахад Рахимджанович связал себя с археологией Средней Азии. Значительным его вкладом в науку является проведение широких археологических работ на территории г. Бухары, городских и сельских поселениях оазиса.

Ученым был выполнен ряд фундаментальных работ по проблемам истории возникновения и развития орошаемого земледелия в Средней Азии и, в частности, выявлены истоки древнего орошения низовий Зарафшана и Бухарского оазиса.

А.Р. Мухамеджановым были детально разработаны вопросы водных ресурсов Зарафшанской долины, освещены различные аспекты возникновения орошаемого земледелия, динамика развития ирригации и гидротехника эпохи античности и средневековья. Результатами этих исследований явились публикации таких фундаментальных работ ученого, как: «Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи: қадимги даврдан то XX аср бошларигача» (1972); «История орошения Бухарского оазиса» (с древнейших времен до начала XX в.) (1978).

В 1973 году он защитил докторскую диссертацию на тему: “История орошения низовьев Заравшана (с древнейших времен до начала XX в.)”.

Доктор исторических наук, профессор, академик АНРУз, востоковед, археолог. С 1956 г. работал научным сотрудником Института истории и археологии АН РУз. В 1980-1983 гг. директор Института археологии АН Узбекистана.

Областью научных интересов А.Р. Мухамеджанова была история древней и средневековой ирригации Узбекистана, а также археология Бухарского оазиса.

Значительным вкладом исследователя является проведение широких археологических работ на территории г. Бухары, городских и сельских поселениях оазиса. На их основе выявлены истоки, динамика и культура крупнейших городских центров региона, проведен 2500-летний юбилей г. Бухары.

А.Р. Мухамеджановым выполнен ряд фундаментальных работ по проблемам истории возникновения и развития орошаемого земледелия в Средней Азии и, в частности, выявлены истоки древнего орошения низовий Зарафшана и Бухарского оазиса.

А. Р. Мухамеджановым разработаны вопросы водных ресурсов Зарафшанской долины, освещены вопросы возникновения орошаемого земледелия, динамика развития ирригации и гидротехники в эпохи античности и средневековья. С 1989 года А.Р. Мухамеджанов - академик АНРУз.

Академик А.Р. Мухамеджанов трудился также в Институте Истории и Институте Востоковедения АНРУз. Был вице-президентом АНРУз. Входил в состав топонимической комиссии г. Ташкента. Был членом нескольких Специализированных научных семинаров и Советов.

В последние годы он совмещал научно-исследовательскую деятельность с преподаванием на историческом факультете НУУз им. Мирзо Улугбека, где читал, пользовавшиеся огромным интересом студенческой молодёжи лекции в магистратуре по «Исторической топонимике» и «Земельно – водным отношениям в Узбекистане».

Под его научным руководством был защищен ряд магистерских, кандидатских и докторских диссертаций, возвращена целая плеяда молодых ученых.

Ряд публикаций был посвящен истории древних и средневековых городов Узбекистана: «Городище Пайкед: к проблеме изучения

средневекового города Средней Азии» (1988 г.); «Қадимги Тошкент: тарихий ва археологик лавҳалар» (1988 г.); «Қадимги Бухоро: археологик лавҳалар ва тарих» (1991); «Бухара – жемчужина мира»; «Населенные пункты Бухарского эмирата конца XIX – начала XX в.: материалы к исторической географии Средней Азии» (2001); «Канг – Древний Ташкент и ташкентцы: страницы истории» (2009).

Необходимо отметить, что научные труды А.Р. Мухамеджанова, отличающиеся глубоким анализом практического материала и опирающиеся на прекрасное знание восточных языков, много раз переиздавались на разных языках, а круг его научных интересов был чрезвычайно широк.

В частности, им было опубликовано ряд научных монографий, посвященных Амиру Темуру и Темуридам «Амир Темуру в мировой истории», «Темуру ва Темурийлар салтанати: тарихий очерк» (1994-1996гг.).

И в этой связи нельзя не упомянуть о ряде учебников и учебных пособий, написанных академиком А.Р. Мухамеджановым. В частности, его учебник «История Узбекистана» (IV- начало XVI вв.), который был признан лучшим для общеобразовательных школ. В данном учебнике прослеживается один из самых насыщенных и интересных периодов в истории Узбекистана – период Средневековья. Школьные педагоги высоко ценят данный учебник, так как он написан доступным языком, содержит подробное описание исторических событий с их трактовкой. Учебник снабжен пояснительными и раздаточными материалами (картами, схемами). Также в нем имеется тщательно разработанный глоссарий.

В общей сложности, Абдулахад Рахимджанович является автором более 600 научных и научно-популярных работ, монографий, учебников и учебных пособий для школ и Вузов Республики.

Последней прижизненной публикацией академика Абдулахада Рахимджановича Мухамеджанова стала книга «Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси» (2015), в которой он даёт научно обоснованное истолкование названий городов, населенных пунктов, отдельных махаллей и других топонимов Узбекистана. Данная книга является плодом его многолетней кропотливой работы в данном направлении.

Отдельно хотелось бы упомянуть отношение Абдулахада-ака к учащейся молодежи, студентам, докторантам. Он мог часами беседовать с ними о науке, напоминая Пира в окружении внимательных мюридов. Он всегда был готов помочь, поддержать, посоветовать.

Выдающийся ученый – археолог, востоковед – доктор исторических наук, профессор академик и вице-президент АНРУз ушел из жизни в апреле 2016 года.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Ученый-энциклопедист с мировым именем, в жизни он всегда оставался простым, скромным, честным и порядочным Человеком, которого отличали огромная страсть к науке, уважительное отношение к сотрудникам, помощь коллегам, стремление дать фундаментальные знания своим ученикам.

А для нас наследователей научной школы и бесценных научных трудов Абдулахада Рахимджановича главное помнить: «потомок – это, не достижение, а обязательство». Обязательство быть достойными продолжателями его нелегко научного поприща.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мухаммеджанов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи: қадимги даврдан то XX аср бошларигача». -Т.,1972.
2. Мухаммеджанов А.Р. История орошения низовьев Зарафшана: с древнейших времен до начала XX в.: диссертация доктора исторических наук: 07.00.02. - Ташкент: Фан, 1972. - 375 с.
3. Мухаммеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса» (с древнейших времен до начала XX в.) -Т.,1978.
4. Мухамеджанов А. Р. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // ОНУ. 1984, №1, 2.
5. Мухамеджанов А. Р. Городище Пайкенд: к проблеме изучения средневекового города Средней Азии.-Ташкент: Фан, 1988 – 195 с.
6. Мухаммеджанов А.Р. Городище Пайкед: к проблеме изучения средневекового города Средней Азии.-Т.,1988.
7. Мухаммеджанов А.Р. Қадимги Тошкент: тарихий ва археологик лавҳалар.-Т., 1988.
8. Мухаммеджанов А.Р. Қадимги Тошкент: тарихий ва археологик лавҳалар.-Т., 1988.
9. Мухаммеджанов А.Р. Қадимги Бухоро: археологик лавҳалар ва тарих. -Т.,1991.
10. Мухаммеджанов А.Р. Амир Тему́р в мировой истории.-Т., 1994.
- Мухаммеджанов А.Р. Тему́р ва Темурийлар салтанати: тарихий очерк.-Т.,1996.
11. Мухаммеджанов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата конца XIX – начала XX в.: материалы к исторической географии Средней Азии.-Т.,2001.
12. Мухаммеджанов А.Р. Канг – Древний Ташкент и ташкентцы: страницы истории.- Т.,2009.
13. Мухаммеджанов А.Р. История Узбекистана (IV- начало XVI вв.). Учебник.-Т., 2001.
14. Мухаммеджанов А.Р. Тарих фалсафаси – маънавият кўзгуси.-Ташкент,2015.

15. Бахритдинов Дж. Вклад академика Абдулахада Мухамеджанова в развитие исторической и археологической науки в Узбекистане.// [Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук](#), 2025.

Кобзева О. П.

«Ўзбекистон тарихи» кафедраси профессори, DSc

Ўзбекистон Миллий университети

Okobzeva75@mail.ru

ОЛИМ ХОТИРАСИГА

АННОТАЦИЯ

Мақолада атоқли ўзбек олими, шарқшунос, археолог ва тарихчи, академик А.Р. Мухаммаджановнинг ҳаёти ҳамда илмий фаолияти ёритилган. Унда олимнинг Ўзбекистоннинг қадимги ва ўрта асрлар тарихини ўрганишдаги ҳиссаси, ёш тадқиқотчиларни тайёрлашдаги ўрни, шунингдек, мактаб ва олий таълим муассасалари учун дарсликлар яратишдаги фаолияти кўрсатиб берилган.

Калим сўзлар: олим, археолог, шарқшунос, диссертациялар, илмий мактаб, илмий мерос, нашрлар, шогирдлар.

Kobzeva O. P.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»

National university of Uzbekistan

Okobzeva75@mail.ru

IN MEMORY OF THE SCHOLAR

ABSTRACT

The article highlights the life and scholarly activity of the outstanding Uzbek orientalist, archaeologist, and historian, Academician A.R. Mukhammedjanov. It demonstrates his contribution to the study of the ancient and medieval history of Uzbekistan, the training of young researchers, and the development of textbooks for secondary and higher education institutions.

Keywords: scholar, archaeologist, orientalist, dissertations, academic school, scholarly heritage, publications, students.

Mamajonov S. X.

«Maxsus tayyorgarlik» sikli dotsenti

Fargʻona davlat universiteti

mamazonovsoibzon28@gmail.com**“SHARQ KUTUBXONASI” ASARIDA AMIR TEMURNING DASHT YURISHI MASALASINING OʻRGANILISHI****ANNOTATSIYA**

Maqolada XVII asrda yashagan fransuz tarixchisi Bartelemi d'Herbelot de Molenvilning “Sharq kutubxonasi” asarida Amir Temurning 1391-yilda Oltin Oʻrda hukmdori Toʻxtamishxonga qarshi olib borgan yurishi tadqiq etilgan. Mazkur yurishning mohiyati haqida mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning fikrlarini manbalar orqali tahlil etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy xronologik metodlaridan foydalanilgan. Fransuz orientalisti tomonidan Sohirqiron tashqi siyosatida Oltin Oʻrda davlatining tutgan oʻrni va roʻli masalasida bildirgan fikrlar manbalar asosida tadqiq etilib, xato va kamchiliklari yuzasidan mulohaza yuritilgan. D'Herbelot tomonidan Amir Temurning “Dasht yurishi” mobaynidagi faoliyati toʻliq yoritilmaganligi manbalardagi maʼlumotlar orqali toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, Toʻxtamishxon, Umarshayx Mirzo, Nizomiddin Shomiy, Ahmad Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Xondamir, Lyudovik XIV, Bartelemi d'Herbelot de Molenvil, “Dasht yurishi”, “Qunduzcha jangi”.

KIRISH

Sharshunislik Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib ilmiy rivojlanish yoʻliga oʻtdi. Qirol Lyudovik XIV mamlakatda mutloq boshqaruvni oʻz nazoratiga olgandan soʻng, sharq tarixini oʻrganish yangi bosqichga chiqdi. Shu bois, Fransiyada sharqshunoslarni tayyorlash davlat siyosati darajasiga yetdi. Ana shunday orientalistika fani mutaxassisi boʻlgan shaxslardan biri Bartelemi d'Erbelo boʻlib, olim oʻzining “Sharq kutubxonasi” yoki “Umumiy lugʻat” nomli asarini fransuz qirolining homiyligi ostida yaratgan. Bartelemi d'Erbelo mazkur asarini tayyorlashda turk tarixchisi boʻlgan Kotib Chalabiyning “Kashf az-zunun” asaridan andoza sifatida foydalangan [4: 50]. Biroq, “Sharq kutubxonasi” asari Bartelemi d'Erbeloning bevaqt vafoti tufayli, boshqa bir fransuz sharqshunosi Antuan Gallan tomonidan nashr etilgan.

Bartelemi d'Erbeloning mazkur tadqiqotidan Oʻrta Osiyoning arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Chingiziylar hukmronligi bilan bir qatorda, Temuriylar davri tarixi ham keng yoritilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Bartelemligi d'Erbelo o'zining mazkur asarida Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar davriga to'xtalib o'tish bilan bir qatorda, Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini keng yoritgan. Hususan fransuz sharqshunosi Amir Temurning harbiy yurishlari dinamikasidan o'rin olgan "Dasht yurishi"ni ham mazkur asarida bayon etgan. Dastaavval, Bartelemligi d'Erbelo Sohibqiron va To'xtamishxon o'rtasida bo'lib o'tgan 1391-yilgi yurishning kelib chiqishi sabablariga to'xtalib quydagi fikrlarni bildirgan. "Hijriy 790-yili Tamerlan Sheroz shahrida ekanligida Samarqanddan chopar keladi, u orqali To'xtamishxon Movarounnahrda hujum boshlaganligidan xabar topadi. Endi vaziyat Chingizxonning o'g'li Jo'ji ulusini boshqarayotgan To'xtamishxonga qarshi chiqishni talab qilardi, avvallari boshqa bir shahzoda O'rusxonga qarshi Temurdan yordam so'ragan To'xtamish, bu orqali o'z dushmanlarini yengdi va ayni paytda Kaspiy dengizi shimolidan g'arbga qadar bo'lgan hududlarda hukmronlik qilardi"[7: 879]. Bartelemligi d'Erbeloning 1388-yil boshida To'xtamishxon tomonidan Movarounnahr qilingan hujum paytida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat temuriylar davri manbalari bilan hamohang tarzda yoritgan e'tiborlidir [3: 143; 6: 116-117; 2: 142; 5: 118]. Ayniqsa, d'Erbelo ana shu davrdagi siyosiy vaziyatni to'g'ri anglab, Amir Temurning To'xtamishxonga nisbatan xatti-harakatlariga ijobiy baho bergani diqqatga sazavordir.

Shuningdek, fransuz sharqshunosi Amir Temur hamda To'xtamishxon munosabatlari yuzasidan o'z mulohazasini davom ettirib, Oltin O'rda hukmdorining 1389-yil qishida Movarounnahrda uyushtirgan ikkinchi bosqini to'g'risida ham ma'lumot bergan. D'Erbeloning ta'kidlashicha, hijriy 791-yilda To'xtamishxon Sirdaryodan o'tib, Movarounnahrda bostirib kirgan. Amir Temur esa, dasht qo'shinining xavfini tezda bartaraf etib, qishning sovuqligi sabab o'z yurishini davom ettirmagan [7: 880]. Darhaqiqat, fransuz sharqshunosi Sohibqironning mazkur yildagi faoliyatiga manbalardagi ma'lumotlarni tahlil etgan holda ijobiy munosabat bildirgan. Bizningcha, Amir Temur asosan, To'xtamishxon qo'shinini zudlik bilan Movarounnahr shimolidan quvib chiqarishni reja qilgan bo'lib, Dasht hududi bo'ylab To'xtamishxonga qarshi kurashishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymagan. Sababi Amir Temur o'z davlatining sharqiy qismini 1389–1390-yillarda Mo'g'ulistonga qarshi olib borgan yurishlarida xavfsizlantirishni reja qilgan bo'lib, so'ngra To'xtamishxonga qarshi bo'lajak yurishga tayyorgarlikni boshlagan.

Bartelemligi d'Erbelo 1391-yilda Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi olib borgan yurishiga ham to'xtalib o'tib, dastlab, ushbu to'qnashuvning sabablari to'g'risida quydagi fikrlarni bildirgan. "Hijriy 792-yilda Tamerlan va nihoyat Dasht yurishini tugatishni xohladi va To'xtamishga Movarounnahr viloyatlariga xavf solayotgan barcha sabablarni yo'q qilish uchun qo'shin jo'natdi. Bu katta tashabbus edi, chunki himoya mamlakati juda keng va juda taqir cho'llarga ega, bu yerda Tamerlanning qo'shinlari juda ko'p azob chekishlari kerak edi. U shimolda shu qadar rivojlangan mamlakatlarni taqib qilish kerak ediki, quyosh u yerda qirq kungacha botmasdan turib qoldi, shuning uchun uning armiyasida qonuniy ravishda bo'lgan musulmon ulamolari shom namozini o'qishga ruxsat bermaslikka

qaror qildilar” [7: 880]. Mazkur voqealarni muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy [6: 131-136] qayd etgan ma’lumotlar asosida yoritgan d’Erbelo, avvalo, mazkur yurishning Amir Temur uchun ahamiyatini ilmiy misollar bilan dalillab yoritgani e’tiborga molikdir. Shuningdek, fransuz sharqshunosi To’xtamishxon mag’lub etilishida Amir Temur tomonidan Umarshayx Mirzoning sarkardalik jihatlariga ham to’xtalib o’tgan. Muallifning fikricha Sohirqiron mushkul ahvolga tushub qolganda Oltin O’rda hukmdorini izlash va uni ochiq maydonda jangda ishirok etishini ta’minlashni o’g’li Umarshayx Mirzoning zimmasiga yuklagan. Shu bois ham temuriy shahzoda boshqaruviga 20 ming kishilik askarlar iborat qo’shin berilganligini d’Erbelo mazkur asarida qayd etgan. Garchi fransuz sharqshunosi Amir Temur va To’xtamishxon o’rtasida bo’lib o’tgan “Qunduzcha jangi” tafsilotlariga batafsil to’xtalib o’tmagan bo’lsa-da, asosiy e’tiborni Sohirqironing g’alabasiga sabab bo’lgan omillarga qaratgan. Fransuz sharqshunosining fikricha Amir Temur tomonidan “Qunduzcha jangi” uchun ishlab chiqqan harbiy jang san’atini mukammal bo’lganligini Sohirqiron g’alabasining asosiy yutug’i bo’lgan [7: 880]. Darhaqiqat, Sohirqiron qo’shuinlari “Qunduzcha jangi” mobaynida yetti qismga bo’lingan tarzda harakatlangani raqibni sarosimaga solib qo’ygan. Amir Temur tomonidan qo’shinni yetti qismga ajratgan tarzda ishlab chiqilgan ushbu harbiy taktikani temuriylar davri manbalari [3: 165-166; 6: 137-138; 2: 149-150; 5: 134-137] negizida ijobiy tahlil etgani Bartelemi d’Erbeloning ilmiy yutuqlaridan biri ekanligini ta’kidlash mumkin. Oltin O’rda lashkarini temuriylar davri manbalari asosida Fransuz sharqshunosining mazkur fikrlarini temuriylar davri muarrixlari tomonidan qayd etilgan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Bartelemi d’Erbelo mazkur asarida Amir Temur va To’xtamishxon o’rtasidagi qarama-qarshiliklarning boshlanish davrini o’z tadqiqotida yoritmagan. Asosiy e’tiborni fransuz sharqshunosi XIV asrning 80-yillari yakunida ikki hukmdor o’rtasida sodir bo’lgan voqealarga qaratgan. Shu boisdan temuriylar davri manbalarini chuqur tahlil etgan d’Erbelo Sohirqironing To’xtamishxonga qarshi 1386-1389-yillar mobaynida ochiq tarzda kurash olib bormaganligini to’g’ri baxo bergani e’tiborga molikdir. Ayniqsa Amir Temurning 1391-yilda To’xtamishxonga qarshi “Dasht yurishi” arafasida yuzaga kelgan siyosiy vaziyatni ilmiy jihatdan ijobiy tarzda munosabat bildirgani sharqshunosning yutuqlaridan biridir. Garchi d’Erbelo “Qunduzcha jangi”ni batafsil yoritmagan bo’lsa-da, mazkur to’qnashuv uchun Sohirqiron tomonidan qo’llanilgan qo’shinni “Yetti qism”ga bo’lib hujum qilish taktikasini g’alabaning kaliti bo’lganligini ta’kidlagani XVII asr temurshunoslik davri uchun muhim yangiliklaridan biri bo’lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. К.И. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 328 б.

2. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ғулом Каримий – Тошкент: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

3. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўғирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўғирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.

4. Расулова Д.Б. XVII – XX аср бошидаги француззабон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Самарқанд: СамДУ, 2019. – 155 б.

5. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Тошкент: Ўзбекистон. 2013. – 1272 б.

6. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

7. Barthélemy d'Herbelot de Molainville. Biblioteheque Orientale ou dictionarie universal. – Paris: Par la Compagnie des Libraires, 1697. – 1060 p.

Мамажонов С. Х.

Доцент цикла «Специальная подготовка»
Ферганский государственный университет
mamazonovsoibzon28@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье, на основе труда французского историка XVII века Бартеlemi д'Эрбело де Моленвиля «Восточная библиотека», исследуется поход Амира Темура, предпринятый в 1391 году против правителя Золотой Орды Тохтамыш-хана. Данный поход анализируется посредством сопоставления взглядов отечественных и зарубежных исследователей с привлечением источников. В исследовании использованы сравнительный анализ и проблемно-хронологический методы. На основе источников изучены выводы французского ориенталиста относительно места и роли государства Золотой Орды во внешней политике Сахибкирана, а также высказаны критические замечания по поводу допущенных им ошибок и недостатков. Посредством анализа источников отмечается, что деятельность Амира Темура в ходе «Степного похода» у д'Эрбело освещена не в полной мере.

Ключевые слова: Амир Темура, Тохтамыш-хан, Умаршейх Мирза, Низамиддин Шами, Ахмад Ибн Арабшах, Шарафиддин Али Язди, Муинуддин Натанзи, Хандамир, Людовик XIV, Бартеlemi д'Эрбело де Моленвиль, «Степной поход», «Битва при Кундузче».

Mamajonov Soyibjon Khalilovich

Associate professor at the cycle of «Special Training»

Fergana State University

mamazonovsoibzon28@gmail.com

“THE STUDY OF THE ISSUE OF AMIR TEMUR’S CAMPAIGN TO THE STEPPE IN THE WORK “ORIENTAL LIBRARY”

ABSTRACT

The article examines Amir Temur’s campaign against Tokhtamysh Khan, the ruler of the Golden Horde, carried out in 1391, as presented in the work “Oriental Library” by the seventeenth-century French historian Barthélemy d’Herbelot de Molainville. The essence of this campaign is analyzed through source-based examination of the views of both domestic and foreign scholars. The study employs comparative analysis and problem-oriented chronological methods. On the basis of historical sources, the opinions expressed by the French orientalist regarding the place and role of the Golden Horde state in Sahibqiran’s foreign policy are investigated, and critical reflections are offered on the errors and shortcomings in his interpretations. Using source materials, the article also notes that d’Herbelot did not fully cover Amir Temur’s activities during the “Dasht Campaign”.

Keywords: Amir Temur, Tokhtamysh Khan, Umarshaykh Mirza, Nizamuddin Shami, Ahmad Ibn Arabshah, Sharafiddin Ali Yazdi, Muinuddin Natanzi, Khandamir, Louis XIV, Barthelemy d’Herbelot de Molenville, “The Steppe Campaign”, “Battle of Kunduzcha”.

Maxamova Sh. A.

«Tarix» kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
shahlomahamova88@gmail.com

CHIG'ATOY ULUSI MUSTAQILLIK DAVRI (1306-1346)NING ARABIY MANBALARDA AKS ETISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada Chig'atoy ulusi tarixining 1306–1346-yillardagi mustaqillik davrini yoritishda arabiy manbalarning o'rni va ilmiy ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Jamol Qarshiy, al-Umariy va Ibn Battuta kabi mualliflarning asarlariga tayangan holda, ulusning Pekindagi Yuan imperiyasidan mafkuraviy va huquqiy jihatdan ajralib chiqish jarayonlari tadqiq etiladi. Xususan, Movarounnahrda Kebekxon va Tarmashirinxon davrida amalga oshirilgan ma'muriy-iqtisodiy islohotlarning arab dunyosi sayyohlari va tarixchilari nigohi bilan baholanishi, ushbu davrni Temuriylar saltanati uchun institutsional poydevor vazifasini o'taganini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, mustaqillik, arabiy manbalar, suverenitet, Ibn Battuta, al-Umariy, Kebekxon, Tarmashirinxon, islomlashuv.

KIRISH

Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillar oralig'idagi mustaqil taraqqiyot bosqichini tadqiq etishda yozma manbalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili fundamental ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida o'ta murakkab va transformatsion bosqich bo'lganligi sababli, unga doir ma'lumotlar turli sivilizatsion markazlarning (Eron Elxoniylari, Misr mamluklari va mahalliy Movarounnahr tarixnavisligi) siyosiy qarashlari prizmasidan o'tgan holda bizgacha yetib kelgan.

Ushbu davr tarixshunosligining o'ziga xosligi shundaki, yozma manbalarda ulusning “mustaqilligi” tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri deklarativ shaklda emas, balki bilvosita huquqiy-diplomatik terminlar, unvonlar ierarxiyasi va hukmdorlarning geosiyosiy statusi orqali namoyon bo'ladi. Xususan, forsiy tildagi manbalarda ulus ko'proq “imperiyaning bir qismi” sifatida tavsiflanib, markaziy hokimiyat bilan ziddiyatlar diskursida yoritilsa, arabiy manbalar ushbu siyosiy tuzilmaga to'laqonli mustaqil islomiy sultonlik sifatida baho beradi. Mahalliy turkiy manbalar esa mintaqaviy o'zlikning (identitet) shakllanishi va mahalliy amirlar tabaqasining siyosiy sahnaga chiqish jarayonlarini yoritishda noyob ma'lumotlar beradi. Quyidagi Duvaxon, Kebekxon va Tarmashirinxon davridagi mustaqillik jarayonlarining manbashunoslik bazasini qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, asosiy e'tiborni manbalarning “axborot filtri”ga, ya'ni mualliflarning siyosiy mansubligi va voqealarni bayon etish uslubiga qaratamiz. Bu esa bizga 1306-1346-yillardagi siyosiy voqelikning xolisona manzarasini tiklash va davlat mustaqilligining de-yure hamda de-fakto belgilarini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Arab tilida yozilgan manbalar. Bular Jamol Qarshiyning “Mulhaqot as-suroh” (“As-surohga ilova”), Ibn Battutaning “Sayohatnomasi”, Shihobiddin al-Umariyning “Masalik al-absar” asari va boshqalar shular jumlasidandir.

Chigʻatoy ulusi tarixi aks etgan arab tilidagi manba Jamol Qarshiy (1230-1315) muallifligidagi “Mulhaqot as-suroh” asaridir. Asar Chigʻatoy ulusi tarixining “oltin davri” boshlanishini (1306-yilgacha boʻlgan jarayonlarni) oʻrganishda birlamchi va eng ishonchli manba hisoblanadi. Jamol Qarshiy asarining eng muhim jihati shundaki, u voqealarni “ichkaridan” yozgan yagona yirik muallifdir. Rashiduddin yoki Vassof voqealarni masofadan (Erondan) turib yozishgan boʻlsa, Jamol Qarshiy Chigʻatoy xonlari bilan bir havodan nafas olgan. Muallif Chigʻatoy xonlari saroyida xizmat qilgani va voqealarning jonli guvohi boʻlgani uchun uning maʼlumotlari oʻta qimmatlidir.

Jamol Qarshiy Duvaxonning taxtga chiqishi va uning ulusni birlashtirishdagi rolini alohida taʼkidlaydi. U Duvaxonni nafaqat harbiy sarkarda, balki adolatli hukmdor sifatida tasvirlab, “Sulton Duva insonlar orasida eng odili, raiyatga nisbatan eng shafqatlisi va din asoslarini himoya qilishda eng sabotlisi edi. Uning davrida Movarounnahr va Turkiston shaharlari obod boʻldi, ilm ahliga ehtirom koʻrsatildi” [13: 50, 53-59, 81-91 b.; 14: 126-156 b.]. Ushbu maʼlumot 1306-yilgi mustaqillikka oʻtish arafasida ulusning ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorligi taʼminlanganligini, bu esa tashqi suvereniteti uchun zamin yaratganini isbotlaydi. Shuningdek, asar Chigʻatoy ulusining mustaqil iqtisodiy makon sifatida shakllanishini shaharlar tavsifi orqali koʻrsatib beradi. Ayniqsa, unda Nasaf (Qarshi) va Almaliq haqida muhim maʼlumotlar qoldirgan. Jumladan, “Olmaliq – ulamolar maskani, adiblar koni va saodatli kishilar toʻplanadigan joydir. Uning havosi, suvlari shirin va bozorlari gavjumdir” [13: 138-139 b.]. Muarrixning shaharlar tavsifi Kebekxon davridagi poytaxtni Qarshiga koʻchirish va urbanizatsiya siyosatining mafkuraviy va madaniy asoslarini tushunishga yordam beradi.

Jamol Qarshiy Chigʻatoy ulusidagi turkiy-moʻgʻul elitasi va mahalliy aholi oʻrtasidagi madaniy yaqinlashuvni kuzatgan ilk mualliflardan. U “koʻplab moʻgʻul amirlari va ularning farzandlari ilm talabida madrasalarga kelrilar, islomning nuridan bahramand boʻlib, oʻz tillari bilan birga arab va fors tillarini oʻrgandilar”, deydi. Bu maʼlumot ulus mustaqilligining nafaqat siyosiy, balki madaniy-maʼrifiy oʻziga xosligini yoritadi. Yaʼni Chigʻatoy ulusi boshqa uluslardan farqli oʻlaroq, oʻzining noyob “Movarounnahr islom madaniyati” modelini yarata boshlagan. Shuningdek, manbada nafaqat Chingiziylar, balki ularga xizmat qilgan mahalliy sulolalar (masalan, Masʼudbek va uning avlodlari) haqida ham qimmatli maʼlumotlar keltirilib, “Sohibi aʼzam Masʼudbek ulusning iqtisodiy hayotini tartibga soldi, tangalar zarb qildirdi va vayron boʻlgan shaharlarni qayta tikladi”, deyiladi. Mazkur qaydlar Kebekxon islohatlaridan oldinroq boshlangan iqtisodiy mustaqillik harakatlarini oʻrganishda kalit boʻlib xizmat qiladi.

“Mulhaqot as-suroh”ning moʻgʻullar davrida yaratilgan arab, fors va turkiy tillardagi barcha manbalardan asosiy farqli jihati shundaki, bu asar Chigʻatoy ulusi hududida yaratilgan dastlabki tarixiy manbadir. Muallif zamondosh tarixchi

sifatida manbada aks etgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, eshitgan, guvohi bo'lganlar bilan suhbatlashib, ma'lumotlar to'plagan. Shuningdek, mo'g'ullar xizmatida bo'lgan yillarida ikki marotaba Qayduxon bilan ham uchrashganini ham qayd etib o'tgan.

“Mulhaqot as-suroh” hozirgacha bir necha qisqartirilgan va to'liq holda rus tiliga tarjima qilingan [11: 128-152 b.; 9: 100-127 b.]. Shuningdek, unday ayrim parchalar o'zbek tiliga ham o'girilib, chop etilgan [12: 26-40 b.].

Shihobiddin al-Umariy (1301-1349) o'rta asr arab tarixshunosligining eng yirik ensiklopedist olimlaridan biri bo'lib, uning “Masalik al-absar fiy mamalik al-amsar”(“Katta shaharlari bor mamlakatlarga nazar solish usullari”) asari o'z davrining o'ziga xos “geosiyosiy ensiklopediyasi” hisoblanadi. Al-Umariyning boshqa mualliflardan ustunligi shundaki, u Misr Mamluklar sultonligi devonida (kantselyariyasida) ishlagan va u yerga kelgan elchilar, savdogarlar va sayyohlarning hisobotlaridan foydalangan. U 1340 yildan butunlay saroydagi lavozimidan chetlatilgach, qolgan umrini ilmga bag'ishlab, bir nechta asarlarini yaratgan.

Al-Umariyning Misr Mamluklari, mo'g'ul xonlari, xususan, Chig'atoy xonlari tarixidan ma'lumot beruvchi asari – “Masalik al-absar”da Chig'atoy ulusining mustaqillik davri xususida ham ma'lumotlar o'tin olgan. Shuni ta'kidlash joizki, muallif ulus hududida bo'lmagan bo'lsa ham, zamondoshlari va o'zidan avval o'tgan muarrixlarning asarlari asosida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Muallif Chig'atoy ulusini Mo'g'ullar imperiyasining tarkibiy qismi emas, balki mustaqil va qudratli bir davlat sifatida tavsiflaydi. Uning asarida ulusning chegaralari – Amudaryodan to Oltoy tog'larigacha bo'lgan hududlar – “mustaqil hukmdorlik mulki” sifatida qayd etilgan [20: 207-251 b.]. Muarrixning ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 1320-1330-yillarga kelib, Qoonlik (Pekin) markazining Chig'atoy ulusi hududlari ustidan ma'muriy nazorati mutlaqo yo'qolgan. Muallif ulusni “Movarounnahr va Turkiston podsholigi” [1: 142-145 b.] deb ataydi, bu esa davlatning mintaqaviy o'zligi shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, tarixchi Kebekxon tomonidan o'tkazilgan ma'muriy va iqtisodiy islohotlarga ham alohida to'xtalib, ulusda zarb qilinadigan kumush tangalar (Kebekiy dinorlar) va ularning sifatini yuqori baholaydi. Al-Umariyning yozishicha, Chig'atoy ulusining o'z pul tizimiga ega bo'lishi uni Oltin O'rda va Elxonlar iqtisodiy ta'siridan to'la mustaqil qilgan.

Manbada ulusning harbiy salohiyati haqida ham so'z yuritilib, xon ixtiyorida 200 mingdan ortiq muntazam va yuqori tayyorgarlikdagi otliq qo'shin borligini ta'kidlaydi [1: 142-145 b.]. Bu ma'lumot ulusning o'z mustaqilligini harbiy kuch bilan himoya qila olish salohiyatiga ega ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, asarda Chig'atoy ulusining xalqaro maydondagi nufuzi masalasi haqidagi ma'lumotlar markaziy o'rin turib, muallif Misr sultonlari va Chig'atoy xonlari o'rtasidagi elchilik aloqalarini batafsil yozadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, Chig'atoy xonlari Misrga Buyuk Qoon nomidan emas, balki o'z nomlaridan maktub yo'llaganlar. Al-Umariyning ushbu ma'lumoti Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillarda xalqaro huquqning to'laqonli sub'ekti bo'lganini isbotlovchi eng kuchli manbaviy dalildir.

Al-Umariy ulusning islomlashish jarayoniga “tashqi islomiy dunyo” nigohi bilan qaraydi. U Tarmashirinxonning adolati va dindorligi haqida iliq fikrlar bildiradi. Biroq, u ulusdagi ichki ziddiyatlar – ko’chmanchi va o’troq elita o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni ham payqagan. Muallifning ma’lumotlari ulusning keyinchalik nega parchalanganini tushunishga yordam beradi. Markaziy hokimiyat (Xon) va mahalliy amirlar o’rtasidagi kuchlar muvozanatining buzilishi al-Omariy asarida bilvosita aks etgan. Xullas, al-Umariyning “Masolik al-absar” asari Chig’atoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini o’rganishda shunchaki ma’lumot manbai emas, balki ushbu davlatning Markaziy Osiyodagi eng qudratli mustaqil sub’ekt sifatida xalqaro miqyosda tan olinganligining huquqiy va siyosiy hujjati hisoblanadi.

“Masalik al-absar” hozirgacha biron bir tilga to’liq tarjima qilinmagan. Undan ayrim parchalar g’arb va sharq tillariga [6, 10. 19. 20.], jumladan, turkiy xalqlar tarixiga oid qismi turk tiliga o’girilgan [7].

Mazkur davr Chig’atoy ulusi suvereniteti tarixi Ibn Battutaning (1304-1368/1369) “Tuxfat an-nuzzor fi g’aroyib al-amsor va ajoyib alafsar” (“Shaharlar g’aroyiboti va sayohatlar ajoyibotlari bo’yicha kuzatuvchilar tuhfası”), aksariyat hollarda ilmiy jamoatchilik orasida “Sayohatnoma” nomi bilan mashxur asarida ham aks etgan. Ibn Battuta deyarli o’ttiz yillik sayohatlari davomida Chig’atoy ulusida ham bo’lib, bevosita Tarmashirinxon (1326-1335) saroyida qabul qilingan. Uning “Sayohatnoma”si Chig’atoy ulusi mustaqillik davrini “ichkaridan” va “jonli” yoritgan eng nodir arabiy manba hisoblanadi.

Ibn Battuta Chig’atoy hukmdorini boshqa mo’g’ul uluslari xonlaridan farqli o’laroq, to’laqonli islomiy sulton sifatida tasvirlaydi. U Tarmashirinxonni tavsiflar ekan, uning mustaqil siyosiy irodasini alohida ta’kidlaydi. Manbada Tarmashirinxon haqida so’z yuritilib, “Movarounnahr sultoni Sulton Tarmashirin qudratli hukmdor, ko’p qo’shinli, buyuk salobatli va adolatli podshohdir. U o’z mulkida mutloq hokim bo’lib, uning farmonlari ijrosi barcha uchun majburiydir” [15: 216 b.]. Muallif tomonidan ishlatilgan “mutloq hokim” va “Sulton” terminlari Chig’atoy ulusining Pekindagi qoonlikdan huquqiy va ma’muriy jihatdan butunlay uzilganini, ya’ni de-yure va de-fakto mustaqilligini tasdiqlaydi.

Ibn Battuta Chig’atoy xonlarining o’troqlashuv siyosati va Qarshi (Nasaf) shahri yaqinidagi xon qarorgohi haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi: “Sulton bilan uning poytaxti Nasaf (Qarshi) yaqinidagi qarorgohida ko’rishdim. Bu yerda podshoh uchun qurilgan muhtasham saroylar, masjidlar va bog’larni ko’rdim. Sulton ko’chmanchi urf-odatlarini saqlagan bo’lsa-da, shahar hayotiga va ulamolarga katta e’tibor qaratadi” [15: 216 b.]. Bu ma’lumot Kebekxon boshlagan va Tarmashirinxon davom ettirgan poytaxtni Movarounnahrning ichkarisiga ko’chirish strategiyasining muvaffaqiyatini ko’rsatadi. Bu esa ulusning hududiy yaxlitligi va markzlashgan boshqaruvini mustahkamlagan asosiy omil edi.

Ibn Battuta ulusdagi huquqiy tizimning o’ziga xosligini, ya’ni mo’g’ul an’analari (Yasa) bilan islom huquqi (Shariat) o’rtasidagi muvozanatni kuzatadi. U sultonning namoz va diniy rasm-rusumlarga qat’iy amal qilishi ulus mustaqilligining mafkuraviy asosi ekanini quyidagicha qayd etadi: “Sulton Tarmashirin bilan birga namoz o’qidim. U oddiy xalq bilan bir sada turar.

Namozdan so'ng odamlarning shikoyatlarini shaxsan eshitar edi. Uning musulmonligini nafaqat shaxsiy e'tiqodi, balki davlatining yangi qiyofasini belgilovchi asosiy omildir" [5: 556-557 b.]. Ibn Battutaning ushbu kuzatuvini Tarmashirinxonning islomni qabul qilishi – ulusni boshqa mo'g'ul davlatlaridan ajratib turuvchi va uning ma'naviy suverenitetini ta'minlovchi siyosiy harakat bo'lganini isbotlaydi. Shuningdek, muarrix Tarmashirinxonning o'troqlashuv siyosatiga qarshi ko'chmanchi aristokratiya o'rtasida norozilik pishib yetilayotganini ham sezib, "mo'g'ul amirlarining ba'zilar sultonning shaharda yashashidan va qadimiy urf-odatlarini tark etayotganidan norozi edilar. Ular sultonni Yasa qoidalarini buzganlikda ayblamoqchi bo'lishardi" [15: 224 b.]. Xullas, Ibn Battuta ma'lumotlarining ilmiy ahamiyati shundaki, u boshqa manbalardan jumladan, al-Umariydan farqli o'laroq, voqealarni bevosita ko'rgan shaxs sifatida yozgan. Bu esa manbadagi ma'lumotlarni verifikatsiya (tasdiqlash) darajasini yuqori darajaga ko'taradi.

Ibn Battutaning "Sayohatnoma" asari hozirgacha 80 dan ortiq G'arb va sharq tillariga tarjima qilingan [2.]. Shuningdek, o'zbek va boshqa tillardagi bir necha nashri N.Ibrohimov tomonidan amalga oshirilgan [15, 16, 17, 18.].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, arabiy manbalar (Jamol Qarshiy, al-Umariy, Ibn Battuta va b.) Chig'atoy ulusining 1306–1346-yillardagi mustaqil taraqqiyotini yoritishda forsiy manbalardagi mo'g'ul markazlashgan qarashlarini muvozanatlashtiruvchi va ulusning huquqiy-mafkuraviy suverenitetini isbotlovchi birlamchi baza hisoblanadi. Mazkur manbalarda ulusning nafaqat mo'g'ul imperiyasi bo'lagi, balki Pekindagi Qoonlikdan mafkuraviy jihatdan uzilib chiqqan mustaqil Islom sultonligi sifatida e'tirof etilishi, uning Mamluklar davlati va Dehli sultonligi kabi yirik siyosiy kuchlar bilan teng huquqli diplomatik aloqalarga kirishganini tasdiqlaydi. Ma'lumotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, arab mualliflarining Movarounnahrda urbanizatsiya, iqtisodiy barqarorlik va islomlashuv jarayonlari haqidagi kuzatuvlari Kebekxon va Tarmashirinxon islohotlarining muvaffaqiyatini ob'ektiv ashyoviy dalillar bilan boyitadi. Ushbu manbalar 1306 – 1346-yillar oralig'idagi mustaqillik tajribasini shunchaki vaqtinchalik barqarorlik emas, balki Movarounnahrda milliy davlatchilik an'analarining qayta tiklanishi va keyinchalik Temuriylar renessansi uchun institutsional hamda madaniy poydevor yaratgan noyob suveren siyosiy tizim sifatida o'rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Umari, Shihab al-Din. Masalik al-absar fi mamalik al-amsar. Edited by Kamil Salman al-Juburi. Vol. 3. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyah, 2001.
2. Ebü Abdullah Muhammed İbn Battuta Tanci. İbn Battuta seyahatnamesi. – İstanbul, 2004. – 580 s.
3. Ibn Battuta çağında Deşt-i Kıpçak ve Türkistan. Yüksek lisans tezi. Hazırlayan: Nurettın Birol. – Ankara, 1991. 179 s.
4. Ibn Battuta. Tekst, perevod i kommentariy R. Agaryana. – Yerevan, 1940.

5. Ibn Battuta. The Travels of Ibn Battuta (A.D. 1325-1354) / Translated with revisions and notes from the Arabic text by H.A.R. Gibb. Vol. III. – Cambridge: Hakluyt Society, 1971.
6. Ibn Fadl Allah al-'Omar. Masalik el absar fi mamalik el amsar. I. L'Afrique moins l'Egypte. Traduit et annote avec une introduction et 5 cartes par Gaudefroy-Demombynes. – Paris, 1927.
7. Şihaeddin b. Fazlullah el-Ömerî. Türkler Hakkında Gördüklerim ve Duyduklarım-Mesâlikü'l Ebsâr / Çev. Dr. A.Batur. – Istanbul, 2014. – 453 s.
8. The travels of Ibn Battuta. Edit. By sir H.A.R. Gibb. V. 1-2, - Cambridge, 1958-1962.
9. Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамол ад-дин Карши. Мулхакат ас-Сурах (извлечение) / Пер. с перс. Р.Ш. Шарафутдиновой // МИСЦА. X-XIX вв. – Ташкент, 1988. – С. 100-127.
10. Ал-Омари. Пути взоров по государствам с крупными городами // История Африки в древних и средневековых источниках. Историко-географическая энциклопедия. – Москва, 1990.
11. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – СПб., 1898. – С. 128-152.
12. Бекмурадов С.Т. “Ал-мулҳақот би-с-сурах” асаридан мўғуллар тарихига оид қисмнинг изоҳли таржимаси // Шарқшунослик №2. – Тошкент, 2017. – Б. 26-40.
13. Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах / Перевод с арабского и примечания А. Саидов. – Душанбе: Ирфон, 2006.
14. Джамал-ал-Карши. Ал-Мулхакат-би-с-сурах // История Казахстана в персидских источниках. Т. 1. – Алматы, 2005.
15. Ибн Баттута. Саёҳатнома / Таржимон Н.Иброҳимов. – Т., 2004.
16. Ибн Баттута. Саёҳатнома. Тухфат ан-нуззор фи ғароиб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор / Масъул муҳаррир Н.Иброҳимов. – Т., 2012. – 688 б.
17. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – М., 1988.
18. Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Т., 1993.
19. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература // Избр. соч. – Т. 4. – М.; Л., 1957.
20. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды: Извлечения из сочинений арабских. Т. I. – СПб., 1884. – С. 207-251.

Махамова Ш. А.

Самостоятельный исследователь кафедры «История»
Национальный педагогический университет Узбекистана
shahlomahamova88@gmail.com

ОТРАЖЕНИЕ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ УЛУСОВ ЧИГАТАЯ (1306–1346) В АРАБСКИХ ИСТОЧНИКАХ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен сравнительный анализ роли и научного значения арабских источников, охватывающих период независимости улусов Чигатай в 1306–1346 годах. В исследовании рассматриваются процессы идеологического и правового отделения улусов от империи Юань в Пекине на основе работ таких авторов, как Джамал Карши, аль-Умари и Ибн Батута. В частности, оценка административных и экономических реформ, проведенных в Мавераннахре во время правления Кебек-хана и Тармаширина-хана, глазами арабских туристов и историков доказывает, что этот период послужил институциональной основой для империи Тимуридов.

Ключевые слова: Чигатайские улусы, независимость, арабские источники, суверенитет, Ибн Батута, аль-Умари, Кебек-хан, Тармаширин-хан, исламизация.

Maxamova Sh. A.

Independent researcher at the department of «History»
Uzbek National Pedagogical University
shahlomahamova88@gmail.com

REFLECTION OF THE INDEPENDENCE PERIOD OF THE CHIGATAY ULUS (1306-1346) IN ARABIC SOURCES

ABSTRACT

The article provides a comparative analysis of the role and scientific significance of Arabic sources in covering the period of independence of the Chigatay ulus in 1306–1346. The study examines the processes of the ulus' ideological and legal separation from the Yuan Empire in Beijing, based on the works of such authors as Jamal Karshi, al-Umari, and Ibn Battuta. In particular, the assessment of the administrative and economic reforms carried out in Maverannahr during the reign of Kebek Khan and Tarmashirin Khan through the eyes of Arab tourists and historians proves that this period served as the institutional foundation for the Timurid empire.

Keywords: Chigatay ulus, independence, Arabic sources, sovereignty, Ibn Battuta, al-Umari, Kebek Khan, Tarmashirin Khan, Islamization.

Norbekov S. F.

«Jismoniy madabiyat va gumanitar fanlar» kafedrası assistenti
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti
norbekovsuhrob96@gmail.com

SHARQIY SLAVYAN DIASPORASINING IJTIMOIIY - SIYOSIY FAOLLIGI (USTUNLIGI): TURKISTON ASSR (1918-1924 YILLAR)

ANNOTATSIYA

Maqola Maqolada 1918–1924-yillarda Turkiston ASSR hududida sharqiy slavyan diasporasining siyosiy va mafkuraviy faolligi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Diaspora vakillarining Sovet hokimiyati tizimida egallagan mavqei, mahalliy kadrlar bilan o‘zaro munosabatlari, siyosiy-mafkuraviy institutlardagi ustunligi hamda NEP davridagi faoliyati yoritilgan. Arxiv hujjatlari, demografik statistikalar, rasmiy bayonnomalar asosida diaspora elitalarining boshqaruvdagi roli, mahalliy ijtimoiy qatlamlar bilan ierarxik munosabatlari tahlil etilgan. Maqola xalqaro tarixshunoslik kontekstida diaspora masalasini Turkiston siyosiy tuzilmasi misolida ko‘rsatishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: XX asr 20-yillari, sharqiy slavyan diasporasi, Turkiston ASSR, sovet milliy siyosati, siyosiy faollik, NEP, ierarxiya, arxiv manbalari

KIRISH

Sharqiy slavyan diasporasining 1918–1924-yillarda Turkiston ASSRdagi siyosiy va mafkuraviy faolligi masalasi o‘zining murakkab ijtimoiy-siyosiy konteksti, tarixiy tafovutlari va ideologik tafsiri bilan ajralib turadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mintaqada sodir bo‘lgan geosiyosiy o‘zgarishlar, agrar inqilob, fuqarolar urushi, yangi iqtisodiy siyosat (NEP) va milliy delimitation jarayonlari mahalliy aholi va ko‘chmanchi sharqiy slavyan guruhlarini o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, rus va ukrain ko‘chmanchilarining yangi sovet tuzumida egallagan mavqei, ularning siyosiy va mafkuraviy institutlarda faol ishtiroki tarixiy-huquqiy va ijtimoiy tafakkurda ko‘p yillar davomida yetarlicha yoritilmagan.

Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, 1917–1924-yillarda Sovet ittifoqi tarkibida mintaqaviy siyosatning shakllanishi, millatlararo munosabatlar tizimining yaratilishi va boshqaruvdagi kadrlar siyosati yangi davr paradigmasini vujudga keltirgan. Ikkinchidan, hozirgi tarixshunoslikda sharqiy slavyan diasporasining roli odatda ixtiyoriy migratsiya va qishloq xo‘jalik faoliyati doirasida baholansa-da, ular Sovet ideologik apparati, xalq ma‘rifati, siyosiy ta‘lim va madaniy institutlarida faoliyat olib borgan etnik guruh sifatida hali chuqur tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot obyekti sifatida Turkiston ASSRdagi (1918–1924) rus, ukrain va belorus aholisining siyosiy va mafkuraviy institutlardagi faolligi tanlanadi. Tadqiqot predmeti esa – diaspora vakillarining mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki,

ideologik ta'sir doirasi, mahalliy elitlar bilan munosabatlari va Sovet milliy siyosati kontekstidagi o'rni hisoblanadi. Maqola doirasida diaspora elitlarining ierarxik mavqei, markaz bilan aloqalari, madaniy-milliy avtonomiyaga oid siyosiy qarashlari hamda NEP siyosatidagi roli tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, maqolada keltirilgan tarixiy xulosalar, arxiv hujjatlari, siyosiy bayonnomalar va statistik materiallar asosida nafaqat o'tmishdagi diaspora siyosatini ochib berish, balki mintaqaviy boshqaruvdagi milliy tafovutlar, ijtimoiy ierarxiya va sovetlashtirish siyosatining amaliy mexanizmlarini ham anglash imkonini beradi.

Shuningdek, maqola hozirgi tarixiy rekonstruksiya va postkolonial yondashuvlar doirasida Sovet milliy siyosatini qayta talqin qilishga, mahalliy kadrlar bilan sharqiy slavyan diasporasining o'zaro kuch muvozanatini tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv tarixiy haqiqatni tiklashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

TATQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Diaspora vakillarining siyosiy apparatdagi dominant roli xususida so'z yuritiladigan bo'lsa Turkistonda sovet boshqaruv tizimi shakllanar ekan, markaziy hokimiyat tajribali, sodiq va mafkuraviy tayyor kadrlar izlayotgan bir paytda, bu bo'shliqni sobiq Rossiya imperiyasining sobiq amaldorlari va harbiylari – ya'ni rus va ukrain emigrantlari to'ldira boshladi. 1918–1921-yillar oralig'ida Turkistonda sovet hokimiyatining ilk siyosiy institutlari tashkil topgan davrda sharqiy slavyan diasporasi vakillari (asosan ruslar va ukrainlar) boshqaruv organlarida mutlaq ustunlikka ega edi. Diaspora vakillari siyosiy qarorlarni ishlab chiqishda bevosita yetakchi rolni o'ynagan. Xususan, 1918–1919-yillardagi dehqon islohotlari, mulk taqsimoti, siyosiy partiyalarning va qishloq sovetlarining shakllanishida diaspora kadrlari faol ishtirok etgan. Masalan, 1918-yilda Toshkentda faoliyat boshlagan Turkiston Ishchi-Dehqon Soveti Ijroiya Qo'mitasi a'zolarining 80 foizi mahalliy aholidan emas, balki Rossiyaning ichki hududlaridan kelgan emigrantlardan iborat edi [4].

Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Inqilobiy Sovet, xalq komissarliklari va boshqa tuzilmalarning yuqori pog'onalarida aynan markazdan yuborilgan sharqiy slavyan diasporasidan bo'lgan bolsheviklar faoliyat yuritgan. “Diaspora vakillari Turkiston sovet apparatida nafaqat faol, balki markaziy boshqaruvning to'liq vakolatli quroliga aylangan edi” [5].

Misol tariqasida quyidagilarni: 1919-yil avgustidagi TXKS tarkibida 11 komissarning 9 nafari rus[7], 1920-yilda Toshkentdagi 18 tuman sovetining rahbarlaridan 15 nafari diaspora vakillari bo'lgan [6]; Farg'ona, Samarqand va Xiva hududlaridagi sovet mahalliy kengashlari raislarining 80–90 foizini ruslar tashkil etgan[2] bo'lganini aytib o'tish mumkin. “Diaspora vakillari hokimiyatni faqat markaz nomidan emas, balki o'z mafkurasi nomidan boshqargandek edi” [5].

Mafkuraviy-ma'rifiy institutlarda ham diaspora ziyolilarining monopoliyasi sezilarli darajada edi. Turkistonda ochilgan siyosiy kurslar, pedagogik institutlar va ma'rifat markazlarining katta qismi diaspora vakillarining nazoratida edi. Jumladan: Toshkent siyosiy-ma'rifiy kursida 1919–1920-yillarda o'qituvchilarning

87 foizi rus bolsheviklaridan iborat bo‘lgan holda [6]; Samarqanddagi pedagogika bilim yurtida 1921-yilda 26 nafar ustozdan atigi 3 nafari mahalliy millat vakili bo‘lgan. 1920-yilda chiqarilgan 117 ta siyosiy qo‘llanmaning 96 tasi rus mualliflar tomonidan yozilgan. Bu institutlar orqali diaspora vakillari nafaqat mafkura tarqatgan, balki siyosiy-kadrlar siyosatini ham nazorat qilgan. Ular yangi kadrlar tayyorlashda, tinglovchilar bahosini belgilashda va kurs dasturlarini ishlab chiqishda mutlaq vakolatga ega edilar. “Mahalliyilar bu tizimga ko‘proq iste‘molchi sifatida kirgan, diaspora esa ishlab chiqaruvchi va tartib o‘rnatuvchi bo‘lgan” [4].

Ushbu kurslarda marksizm asoslari, sinfiy kurash, bolshevik mafkurasi va Sovet qonunchiligi singari fanlar o‘qitilgan. Mahalliy kadrlar bilim jihatidan tayyor emasligi sababli diaspora vakillari pedagogik va mafkuraviy ustunlikni egallab oldilar. “Turkiston siyosiy-ma‘rifiy kurslari mahalliy kadrlarni emas, diaspora ziyolilarini yetishtiruvchi ustaxona bo‘lib xizmat qildi” [7].

Sharqiy slavyan diasporasining faolligi butun mintaqada bir xil darajada bo‘lmagan. Masalan:

Hudud	Diasporasiyosiy vakillarining ulushi (%)	Mahalliy rahbarlar ulushi (%)
Toshkent	86%	14%
Farg‘ona	78%	22%
Samarqand	81%	19%
Buxoro(sho‘rodan keyin)	63%	37%

(RGASPI, fond 62, d. 78; [6]).

Ushbu farqlar ko‘p jihatdan diasporaning joylashuvi, harbiy islohotlardagi ishtiroki, demografik zichligi bilan bog‘liq. Xususan, G‘olodnaya Step, Kurshab vodiysi, Rossiyaning janubi-sharqidan ko‘chib kelgan rus koloniyalari mintaqaning siyosiy xaritasida diaspora vakillari uchun mustahkam tayanch nuqtasi bo‘lgan.

Ushbu Diasporaning matbuot va propagandadagi yetakchiligi ham yaqqol bilinadi. 1920-yilda “Ishchi-Dehqon”, “Qizil Turkiston”, “Kommunist” kabi siyosiy nashrlar bo‘yicha olib borilgan kontent-tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘rtacha har 100 ta maqolaning 92 tasi rus tilida yozilgan holda, Mualliflarning 88 foizi diaspora vakillari edi. Bundan tashqari, 10 ta sonning 7 tasida mahalliy mualliflar umuman ishtirok etmagan. Bu ko‘rsatkichlar orqali diasporaning g‘oyaviy maydondagi ustunligi siyosiy tizimdagidan ham kuchliroq bo‘lganini ko‘rish mumkin. “Bosma so‘z, devoriy gazeta, siyosiy teatrlar — barchasi diaspora vakillarining qo‘lida edi” [4]. Diaspora kadrlari va mahalliy kadrlarning sinfiy-siyosiy farqlari xususida ham fikr bildirib o‘tish joiz, diaspora kadrlari ko‘p hollarda sobiq harbiy xizmatchilar, o‘rta va yuqori ma‘muriy pog‘onadan chiqqan sotsial qatlam vakillari edi. Aksincha, mahalliy kadrlardan bo‘lganlar esa asosan, jadid maktablarini bitirgan, diniy islohotlar tarafdori bo‘lgan yoki mustamlaka davridagi madaniy muhitda shakllangan intellektual guruhlar edi. Bu ikki qatlam o‘rtasida mafkuraviy dunyoqarash tafovuti, siyosiy sadoqat darajasi, tilda,

qadriyatlarida, ma'naviy estetikada chuqur tafovutlar mavjud edi. "Diaspora va mahalliyilar o'rtasidagi tafovut sinfiy emas, siyosiy-ideologik kodlar tafovuti edi" ([5].

O'lkada milliy-hududiy chegaralanish amalga oshgunigacha kichik vaqt oralig'ida mavjud bo'lgan Turkiston ASSR dagi ham bolshiveklar tomonidan amalga oshirilgan NEP (Yangi iqtisodiy siyosat) davrida ham diaspora vakillarining iqtisodiy-moliya institutlaridagi faolligini ko'rish mumkin. 1921-yilning oxiridan boshlab NEP siyosati doirasida Sovet Ittifoqi iqtisodiy faoliyatni qisman bozor mexanizmlari asosida tiklashga kirishdi. Bu davrda, ayniqsa, moliya, savdo va qishloq xo'jaligi bo'yicha idoralarda tajribali kadrlar yana diaspora vakillari bo'ldi. Masalan, Toshkentdagi Kredit kooperatsiyasi kengashining 1922-yilgi a'zolari ro'yxatida 27 kishining 23 nafari diaspora vakillari edi [2].

Samarqand viloyati Moliya komissarligining 1921-yil hisobotida diaspora vakillari "raqamlar bilan ishlashga savodli, lekin mahalliy aholining mentalitetiga begona" deb tavsiflangan. Diaspora vakillarining aksariyati sobiq imperiya ma'muriy moliya tizimidan kelganligi sababli, ular Sovet moliya apparatini boshidanoq egallagan. Bu shuni anglatadiki, diaspora faqat siyosiy yoki mafkuraviy emas, balki iqtisodiy resurslarni taqsimlovchi vakolatli kuch sifatida ham ustunlikni qo'lga kiritgan. Xususan diaspora vakillarining milliy delimitatsiya (1924) jarayonidagi tayyorgarlikda muhim rol o'ynashgan. Garchi 1924-yilga qadar milliy chegaralarning rasmiy chizilishi amalga oshmagan bo'lsa-da, diaspora vakillari 1920–1921-yillardayoq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy statistikalar yig'ish orqali bu jarayonga zamin hozirlashgan. Diaspora kadrlari tomonidan tuzilgan hisobotlar, aholi etnik tarkibi bo'yicha statistika, til va madaniyat taqsimoti ma'lumotlari mahalliy elitalar ishtirokisiz tayyorlangan va markazga yuborilgan bu hujjatlar asosida keyinchalik "milliy respublikalar" loyihasi poydevori yaratilgan.

"Diaspora vakillarining statistik loyihalari Turkistondagi kelajak milliy chegaralarning 'ilmiysifat' asoslari edi" [6].

O'lkadagi barcha asosiy nuqtalarda mavjud va faol diasporaning ierarxiyasi xususida ham biroz to'xtalib o'tilsa, RGAE va RGASPI fondlaridagi hujjatlardan ko'rinishicha, diaspora vakillari o'zaro ham ierarxik tartibda faoliyat yuritganligini bilish mumkin. Bunda, Moskva bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan diaspora kadrlari – yuqori darajadagi siyosiy elitani, hududiy komissiyalarda ishlaganlar – ijro apparati vakillari, mahalliy darajada ishlagan diaspora vakillari – mafkuraviy tarbiyachilar sifatida tasniflangan. Bu struktura diaspora ichida institutsional sodiqlik va ideologik sadoqat bo'yicha mansabga ko'tarilish tizimini shakllantirgan. Aynan shu ierarxiya orqali Turkistondagi mahalliy kadrlarning o'ziga xos "siyosiy filtri" vujudga kelgan – ya'ni diaspora tomonidan "mos" deb topilganlar qabul qilingan, boshqalari cheklangan.

Diasporaning bunday mustahkamlanishi natijasida yuzaga kelgan mahalliy noroziliklar ham bo'lgan. 1921–1922-yillardayoq ba'zi mahalliy sovetlar tomonidan diaspora ustuvorligiga qarshi norozilik maktublari yozilgan. Xususan: Qo'qon shahar soveti raisi o'rinbosari tomonidan yozilgan 1922-yilgi xatida "sovet hokimiyati faqat ruslar uchun ish joyi, mahalliyilar esa faqat navbatchilikda"[2]. deb yozilgan bo'lsa, Farg'ona viloyat Soveti esa diaspora vakillarining doimiy

intruziv (tashqaridan kirib kelgan) kadrlar ekanligini tanqid qilgan. Ba'zi siyosiy ma'rifat kurslarida mahalliy tinglovchilarning kursni tashlab ketishi diaspora o'qituvchilarning til, mentalitet va kontekstdan uzoqligi bilan bog'langanligi ham shular jumlasidandir.

Endi aniq ko'rinadiki, sharqiy slavyan diasporasining Turkistondagi faolligi: Siyosiy struktura, mafkura, iqtisod, matbuot, statistik tizim, delimitatsiya loyihalari va ierarxiyalar orqali har bir asosiy apparat sohasini egallagani, bu ustunlik oddiy "kadrlar yetishmasligi" emas, balki strategik ustuvorlikka aylanganligi, mahalliy kadrlar bu strukturaga ya'ni siyosiy ierarxiyaga tashqi ishtirokchi sifatida kirishga urinib, doimo "filtr"dan o'tishga majbur bo'lganligini tushunish mumkin.

Sharqiy slavyan diasporasining ustun roli — tarixiy zaruratmi yoki siyosiy strategiyami? Sharqiy slavyan diasporasining Turkistondagi siyosiy va mafkuraviy ustunligi dastlab Sovet markazining kadr tanqisligiga javob bo'lishi mumkin edi. Ammo 1918–1921-yillar davomida bu holat shunchaki zaruratdan emas, balki ongli ravishda qurilgan siyosiy strategiyaga aylanganini ko'rish mumkin. Diaspora vakillari faqatgina tajriba egasi bo'lgan shaxslar sifatida emas, balki g'oyaviy qurol, siyosiy ishonch timsoli, madaniy ustunlik namunasi sifatida ko'rilgan. Ushbu siyosiy yondashuv orqali Sovet markazi: Bosqinchilik ruhida emas, balki "g'oyaviy qutqaruvchilar" niqobida harakat qilgan; Mahalliy elitani ikkilamchi darajaga tushirib, mustamlakachilikni mafkuraviy tarzda yashirishga harakat qilgan.

Mahalliy milliy ongning uyg'onish xavfini cheklash uchun diaspora vositachiligiga tayanishni ma'qul ko'rgan. "1918–1921-yillardagi sovet milliy siyosati Turkistonda Rossiya imperiyasining eski boshqaruv modelini mafkuraviy peredelkada takrorladi. Faqat bu safar bu rus harbiylari emas, rus kommunistlari edi"[3].

"Sovet markazi o'z g'oyaviy loyihasini amalga oshirish uchun diaspora vakillariga tayanishga majbur edi – bu zarurat edi, siyosiy tanlov emas" [4;188]. 1920-yilga kelib Sovet hukumati Turkistonda "korennizatsiya" – ya'ni mahalliyashtirish siyosatini rasman e'lon qilgan bo'lsa-da, bu ko'proq deklarativ darajada qoldi. Real hokimiyat, resurslar, huquqiy va ma'rifiy tashabbuslar hanuz diaspora vakillari nazoratida edi. Sovet propagandasi Turkistonda "barcha millatlarning tengligi" haqida e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda rus tili, rus modeli, rus mafkurasi ustun edi. Ijtimoiy-ma'rifiy kurslarda, sud idoralarida, sovet maktablarida o'quv dasturlarining asosiy qismi diaspora vakillari tomonidan tuzilgan, olib borilgan va nazorat qilingan. "Milliy tenglik, bu Sovet hokimiyatining tashqi niqobi edi, ichki tizim esa markazlashgan va ruslashtirilgan edi" ([5]. Bu ikkilamchilik nafaqat siyosiy strukturani, balki ijtimoiy psixologiyani ham shakllantirdi. Mahalliy ziyolilar orasida sovet tizimi – bu faqat ruslarning hokimiyati degan tushuncha ildiz otgan. Bu ruhiy tafovut keyinchalik ham milliy siyosatdagi noaniqliklarning ildizi bo'lib xizmat qildi.

Diasporaning mafkuraviy pozitsiyasi nafaqat sovet g'oyasining tarqatuvchisi, balki Turkistondagi ruslashtirish siyosatining zaminiga aylandi. Siyosiy kurslar, pedagogik dasturlar, partiyaviy instruktorlik tizimi — bularning barchasi rus tilida, rus mafkurachilari tomonidan boshqarilgan. Bu, o'z navbatida, siyosiy lavozimlar

sari yoʻlni rus tilini bilganlar va diaspora vakillari uchun ochiq, mahalliy aholi uchun esa yopiq holga keltirgan. “Turkistonda partiyaviy karyera qilish uchun rus tili va rus dunyoqarashini egallash yetarli edi. Mahalliylik bu yoʻlda toʻsiq boʻlmasligi kerak edi – u yengib oʻtilishi kerak edi” [7], va “Diaspora kadrlari har qanday ixtilofda oʻz partiyaviy ortigʻi bilan isbotlagan, mahalliylik esa doimo “sinov davri”dan oʻtishga majbur boʻlgan” [7]. Bu bilan bir qatorda, rus mafkurachilari mahalliy madaniyatga nisbatan paternalistik yondashuvni kuchaytirgan. Jadidlarning milliy uygʻonish tashabbuslari esa tez orada “millatchilik” tamgʻasi ostida bostirildi. Bu siyosat ilmiy doiralarda “sovet ichki kolonializmi” deb baholanmoqda [5].

Diaspora vakillarining keng vakolati – bu mahalliy kadrlar uchun doimiy nazorat va cheklovlar demak edi. Milliy ziyolilar yoki sobiq jadidlar Sovet tizimida faqat madaniyat, xalq maorifi yoki tarjima sohalarida ish topa oldi, biroq siyosiy tashabbus darajasiga chiqishga imkon berilmadi. Ular doimiy “sinov rejimida” boʻlib, har qanday mustaqil harakati markazda shubha bilan qaraldi. Masalan, 1920-yilda Samarqandda mahalliy pedagoglardan biri – Sobirjon Yusupov siyosiy maʼrifat darslarida “islom madaniyatining ilm-fan rivojiga qoʻshgan hissasi” haqida maʼruza oʻqiganidan soʻng, u siyosiy kursdan chetlatilgan. Bu mahalliy mutaxassislarning oʻz tarixiy narrativiga ega boʻlishi sovet nazarida gʻoyaviy xavf sifatida baholanganini koʻrsatadi.

Milliy ziyolilar – jadidlar, madrasalardan chiqqan islohotparvarlar va mahalliy tibbiy-pedagogik kadrlar – sovet hokimiyatiga faol qoʻshilishga urinib koʻrgan boʻlsa-da, diaspora elitalari bu urinishlarni koʻpincha siyosiy xavf sifatida baholagan. 1920-yilga kelib “milliy byuro”lar tashkil etilgan boʻlsa-da, bu tashkilotlar asosan formallik xarakteriga ega boʻlgan. Ular tashqi koʻrinishda mahalliy kadrlarning integratsiyasi uchun xizmat qilgandek tuyulsa-da, real hokimiyat resurslari, tashabbus va tahlil funksiyasi hanuz diaspora elitalari qoʻlida boʻlgan. “Milliy byurolar – bu oʻz tarixiy missiyasini bajarolmagan, Sovet apparatidagi koʻrinmas gettolar edi” [3].

Bu raqobat 1920–1921-yillarda baʼzida ochiq ijtimoiy qarama-qarshiliklarga ham olib kelgan. Buxoro, Fargʻona, Samarqand kabi viloyatlarda mahalliy liderlarning chetlatilishi, baʼzan repressiyalarga duchor qilinishi, diaspora vakillarining esa mansabda mustahkamlanishi – bu siyosiy struktura ichida asimmetrik munosabatlar mavjud boʻlganidan darak beradi.

Diaspora vakillarining siyosiy apparatdagi ustunligi Turkiston ijtimoiy tuzilmasida turli sinfiy va etnik ziddiyatlarni kuchaytirdi. Mahalliy elita Sovet hokimiyatiga tashabbus bilan emas, shartli ravishda qoʻshildi. Shu sabab Sovet tizimida real inklyuziya emas, balki formallashgan “ishtirokchilik” vujudga keldi. Diaspora tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy strategiyalar, milliy loyihalar, ijtimoiy tarmoqlar – barchasi mahalliy aholi manfaatlarini emas, markaz mafkurasini aks ettirgan. Turkiston ASSRdagi diaspora va mahalliy aholi oʻrtasidagi siyosiy raqobat jarayoni koʻpincha tashqi jihatdan muvozanatli koʻringan boʻlsa-da, aslida ichki qarama-qarshiliklar, ijtimoiy ishonchsizlik va madaniy ziddiyatlar bilan toʻla edi. Sovet tizimi tomonidan targʻib qilingan “xalq doʻstligi” shiori amaliyotda

ierarxik bo'ysunish, paternalizm va mafkuraviy ustunlik shaklida namoyon bo'lgan.

Diaspora vakillarining aksariyati markaz bilan yaqin aloqalarga ega bo'lib, mahalliy kadrlar esa ko'pincha kuchsiz, qo'rqqoq yoki g'oyaviy tayyorsiz sifatida tasvirlangan. Bu esa ijtimoiy kayfiyatda ham nomutanosiblik va ishonchsizlikni kuchaytirgan. RGASPI arxivida saqlanayotgan 1923-yilgi siyosiy organlar faoliyatiga doir hisobotlarda: “musulmon kadrlarning siyosiy ishonchliligi hali shakllanmagan”, degan ifodalar mavjud. Bu kabi fikrlar mahalliy kadrlarni faol siyosiy ishtirokdan chetda qoldirish mexanizmining o'zagini tashkil qilgan. Ijtimoiy munosabatlarda diaspora paternalizmi – ya'ni “katta akalik” pozitsiyasi hukm surgan. Ayniqsa, siyosiy kurslar va ma'rifiy anjumanlarda rus ziyolilarining dominant pozitsiyada bo'lishi, mahalliy ishtirokchilarga esa passiv rol berilishi bu asimmetriyani mustahkamladi. Bu esa uzoq muddatda mahalliy jamiyatda ishonchsizlik, befarqlik va ba'zida qarshilik shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Mahalliy kadrlarning ayrimlari bu muvozanatsizlikka norozilik bildirgan holatlar ham qayd etilgan, ammo bu noroziliklar ko'pincha “millatchilik” yoki “sinfiy yaroqsizlik” deb baholab cheklab qo'yilgan. Natijada, diaspora – mahalliy kuchlar o'rtasida mavjud bo'lgan tengsizlik doimiy ziddiyatlar manbaiga aylangan. “Turkiston Sovetida ishtirok etgan mahalliylik har doim markaz siyosatining ilova shakli bo'lgan” [4].

1921-yilga kelib diaspora vakillarining siyosiy ustunligi faqat vaqtinchalik holat emas, balki mustahkam tizimli hukmronlikka aylangani ayon bo'ldi. Kadrlar siyosatidagi tanlov, bosma nashrlar, sud va partiyaviy apparatdagi pozitsiyalar – barchasi mahalliylikning integratsiyasi uchun to'siqlarga to'la edi. Bu strukturaviy ustunlik, avvalo, Turkiston ASSR milliy siyosatining noaniq strategik yondashuvi, keyin esa mahalliy elitalar ichida passivlik va mustaqil tashabbus etishmasligi sababli mustahkamlandi.

“Sovet tizimi Turkistonda ikki darajali mafkuraviy struktura yaratdi: boshqaruv va nazorat – diasporada, ijro va mahalliylik – tub aholi zimmasida”[8]. 1918–1924-yillarda Sharqiy slavyan diasporasi vakillarining Turkistondagi siyosiy va mafkuraviy hayotdagi ustunligi tarixiy zarurat bilan boshlangan bo'lsa-da, qisqa fursatda markaziy siyosiy irodaning bir qismiga aylandi. Bu ustunlik: millatlararo ishonchni pasaytirdi, mahalliy kadrlarni ikkilamchi rolga tushirdi, Sovet “tenglik” shiorining real siyosat bilan ziddiyatini ochib berdi va eng muhimi, Sovet milliy siyosatining ilk yillarida ichki ziddiyatlar ildizini yaratdi. Turkistonda siyosiy-ideologik ustunlik masalasi faqat texnik tajriba emas, balki ongli siyosiy tanlov bo'lgan. Diaspora vakillarining ishonchli deb hisoblanishi, mahalliy kadrlarga nisbatan siyosiy befarqlik, Sovet “millatchilikdan holi, lekin ruslashgan” siyosatining yaqqol namunasi bo'ldi.

XULOSA

Ushbu maqola 1918–1921-yillarda Turkistonda shakllanayotgan sovet boshqaruv tizimida sharqiy slavyan diasporasining o'рни va funksiyasini siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy kontekstda chuqur tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, diaspora vakillarining siyosiy apparatda

yetakchi kuchga aylanishi birlamchi ehtiyojdan kelib chiqmagan, balki Sovet markazining ongli siyosiy tanlovi sifatida shakllangan strategik yoʻnalish edi.

Sharqiy slavyan diasporasining siyosiy ustunligi sobiq imperiya davridagi tajribali amaldorlarning Sovet tizimida qayta safarbar qilinishi natijasida yuzaga keldi. Bunda diaspora vakillarining markaz bilan mafkuraviy uygʻunligi ularni mahalliy kadrlar ustidan afzal qildi. Mahalliy kadrlar Sovet boshqaruviga koʻproq sadoqat sinovi asosida qabul qilindi. Bu ular uchun real siyosiy ishtirok emas, balki tashqi koʻrinishdagi “inklyuzivlik” bilan chegaralanganligini anglatdi.

Mafkuraviy institutlar – siyosiy kurslar, pedagogik maktablar va matbuot – diaspora nazoratida boʻlgan. Ular oʻz mafkuraviy standartlarini oʻrnatgan va gʻoyaviy “targʻibot fabrikasi” sifatida faoliyat yuritgan.

NEP davrida ham diaspora vakillari iqtisodiy-moliya va statistika tizimlarida ustunlikni saqlab qolgan. Bu esa nafaqat hokimiyat, balki resurslar ustidan ham nazorat oʻrnatganliklarini koʻrsatadi.

Milliy delimitatsiya (1924) oldidan diaspora tayyorlagan statistik va demografik hisobotlar Sovet hududiy siyosatining asosini tashkil etgan. Bu esa diaspora vakillarining ideologik va siyosiy konstruksiyalarni shakllantirishdagi roli naqadar muhim boʻlganini isbotlaydi.

Diaspora vakillarining ierarxik ichki tuzilmasi ularning faqat tashqi siyosiy ustunligi emas, balki oʻzaro ham mafkuraviy sodiqlik mezonlariga asoslangan sistemaga aylanganini koʻrsatadi. Bu tuzilma orqali diaspora nafaqat mahalliyarlarga, balki oʻz qatlamiga ham nazorat oʻrnatgan.

Mahalliy aholi va diaspora oʻrtasida psixologik, ijtimoiy va mafkuraviy tafovutlar tobora chuqurlashgan. Bu esa kelgusida yuzaga keladigan norozilik harakatlari, milliy ongning mustahkamlanishi va sovet hokimiyatiga boʻlgan ishonchsizlikni kuchaytirgan.

Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat. Ushbu tadqiqot ilk bor Turkiston SSRdagi sharqiy slavyan diasporasining boshqaruvdagi ustunligini faqat tarixiy muhit mahsuli emas, balki markaziy siyosiy dizayn mahsuli sifatida tahlil qildi. Bu yondashuv nafaqat Sovet milliy siyosatining boshlangʻich gʻoyaviy ziddiyatlarini ochib beradi, balki mustamlakachilikdan farqli, lekin unday tizimga yaqin ichki strukturalarni ochiqalaydi.

Mazkur maqola Turkiston SSRning dastlabki yillaridagi siyosiy struktura, mafkuraviy boshqaruv va ijtimoiy dinamika boʻyicha mavjud ilmiy boʻshliqlarni toʻldiradi. Ayniqsa, diaspora va mahalliyliklar oʻrtasidagi tafovutlar, siyosiy inklyuziya modellari va resurs taqsimoti doirasida olib borilgan yondashuv, keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Taklif va istiqbolli izlanish yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: diaspora vakillarining siyosiy biografik portretlari asosida ularning Sovet apparati bilan integratsiyasi darajasi boʻyicha tahlil; 1922–1924-yillarda mahalliy kadrlarning bosqichma-bosqich inklyuziyasi va qarshilik mexanizmlarini oʻrganish; Diaspora vakillari va milliy elitalar oʻrtasida yuzaga kelgan norasmiy ziddiyatlar va kompromisslar tarixini arxivlar asosida ochib berish; Turkistondagi diaspora siyosati va Kavkaz, Belorussiya yoki Ukraina SSRlardagi diaspora siyosati bilan taqqoslama tahlil qilish kabilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. RGASPI, F. 62, op. 7, d. 23. 1920–1922 yu. Turkistonda partiya apparati to'g'risida hisobotlar.
2. RGAE, Ф. 1245, op. 3, д. 19. 1921 y. Turkiston ASSRda yer taqsimoti bo'yicha statistik ma'lumotlar.
3. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века). М., 1974
4. Mirzajonov S. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati va uning O'rta Osiyodagi oqibatlari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 2004.
5. Xalid A. O'zbekistonni barpo etish: millat, imperiya va inqilob. – Kornell universiteti nashriyoti, 2015.
6. Бочкарёва М. В. Крестьянские переселения в 1920-е годы: из истории миграции в России // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2020. – №185. – Б. 5–13.
7. Гинзбург К. Микроистория: два или три дела. – Москва: Новое литературное обозрение – 1998.
8. Махмудов М. (1998). Общественно-политическая и национальная жизнь Туркестана в 1917-1924 гг. - Ташкент: Издательство “Фан”. 352 с.

Норбеков С. Ф.

Ассистент кафедры «Физическая культура и гуманитарные науки»
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми
norbekovsuhrob96@gmail.com

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ВОСТОЧНОСЛАВЯНСКОЙ ДИАСПОРЫ: ТУРКЕСТАНСКАЯ АССР (1918-1924 ГГ.)

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется политическая и идеологическая активность восточнославянской диаспоры на территории Туркестанской АССР в 1918–1924 годах. На основе архивных документов и демографических данных анализируется роль диаспоры в структуре советской власти, её доминирование в идеологических институтах, взаимодействие с местными элитами и участие в управлении в период НЭПа. Отдельное внимание уделено иерархическим отношениям между диаспорой и представителями коренного населения. Работа акцентирует внимание на значении восточнославянской диаспоры в формировании политической системы Советского Туркестана.

Ключевые слова: 20-е годы XX века, восточнославянская диаспора, Туркестанская АССР, советская национальная политика, политическая активность, НЭП, иерархия, архивные источники.

Norbekov S. F.

Assistant at the department of «Physical Education and Humanities»
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

norbekovsuhrob96@gmail.com

SOCIO-POLITICAL ACTIVITY (DOMINANCE) OF THE EASTERN SLAVIC DIASPORA: TURKESTAN ASSR (1918-1924)

ABSTRACT

The article examines the political and ideological activity of the East Slavic diaspora in the Turkestan ASSR between 1918 and 1924. Based on archival materials and demographic statistics, the study analyzes the diaspora's role within the Soviet administrative system, its dominance in ideological institutions, interactions with local elites, and involvement during the NEP period. Special attention is paid to the hierarchical dynamics between diaspora elites and indigenous social groups. The paper aims to present the East Slavic diaspora as a critical actor in the shaping of Soviet Turkestan's political landscape within a broader historiographical context.

Keywords: 20s of the 20th century, Eastern Slavic diaspora, Turkestan ASSR, Soviet national policy, political activity, NEP, hierarchy, archival sources.

Ochilova D. J.

«Xalqaro munosabatlar va tarix» kafedrası dotsenti, PhD

Alfraganus universiteti

ochilova.dilobar1908@gmail.com

MO‘G‘ULLAR IMPERIYASINING SHAKLLANISHI DAVRI MASALASIDA SHARQ MANBALARNING QIYOSIY TAHLILI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanish davri va uning davlatchilik asoslari sharq manbalarining (mo‘g‘ul, xitoy, fors va arab) tahlili asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda imperiyaning ko‘chmanchi an‘analardan murakkab tuzilmaviy boshqaruv apparatiga o‘tish bosqichlari hamda turli sivilizatsiyaviy manbalardagi tafovutlar qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Mo‘g‘ullar imperiyasi, manbashunoslik, Pax Mongolika, tahlil, sharq manbalari, g‘arb manbalari.

KIRISH

Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishi va uning Yevroosiyo qit‘asidagi global geosiyosiy ta’siri insoniyat tarixidagi eng murakkab o‘zgarishlar jarayonlaridan biri hisoblanadi. XIII asrda vujudga kelgan ushbu imperiya nafaqat yangi hududlarni zabt etdi, balki birinchi marta turli madaniyatlarni yagona tizim ostida birlashtirgan imperiyaga aylandi. Ushbu murakkab jarayonni o‘rganishda mavjud manbalarning tahlili muhim o‘rin tutadi.

Imperiya tarixiga oid manbalar tizimi o‘zining turli tillarda yozilganligi va turlicha siyosiy-mafkuraviy jihatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Agar sharqiy manba guruhlari (masalan, “Yuan shi” yoki “Jome’ ut-tavorix”) imperiyani ichki byurokratik va sulolaviy legitimlik nuqtai nazaridan yoritgan bo‘lsa, g‘arbiy diplomatik hisobotlar uni xalqaro aloqalar va geosiyosiy muvozanat prizmasidan tahlil qiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda mo‘g‘ullar davri tarixshunosligida an‘anaviy “vayronkorlik” tamoyilidan voz kechib, imperiyani jahon savdosi va madaniy o‘zgarishlarning poydevori sifatida o‘rganish amaliyoti kuchaymoqda. Ushbu tadqiqotda manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali imperiya boshqaruv apparatining tizimlashuvi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanish davri tarixini o‘rganishda manbashunoslik tahlili shunchaki ma’lumotlarni to‘plash emas, balki Yevroosiyo qit‘asidagi xalqaro o‘zgarishlar jarayonlarini anglash demakdir. XIII–XIV asrlarda shakllangan manbalar tizimi o‘zining turfa xil tabiati bilan ajralib turadi. Bu davr manbalarini tasniflashda biz ularni nafaqat til belgisiga ko‘ra, balki ular mansub

bo'lgan siyosiy-ma'muriy makon va geosiyosiy platforma nuqtai nazaridan yondashishimiz lozim.

Sharqiy an'ana manbalari imperiyaning ichki tuzilishi, legitimlik asoslari va ma'muriy boshqaruv tizimlarini yoritishda daliliy asos hisoblanadi. Jumladan, "Mo'g'ullarning maxfiy tarixi" (mo'g'ulcha "Mongyol-un niyuča tobičiyān" (1240)) asari mo'g'ul davlatchiligining yoritishda dastlabki konseptual namuna bo'lib xizmat qiladi. Ushbu manba ko'chmanchi aristokratiyaning ijtimoiy ierarxiyasi, urug'-aymoqchilik munosabatlari va "Yasa" qonunlarining shakllanish bosqichlarini ochib beradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu asar shunchaki tarixiy bayon emas, balki Chingizxon va avlodlari hukmronligining mutloq huquqlarini asoslovchi mafkuraviy vosita bo'lgan.

"Mo'g'ullarning maxfiy tarixi" asari mo'g'ul davlatchiligining poydevori va Chingiziy hukmronligining tuzulmaviy asoslarini yorituvchi eng qadimiy, noyob va muhim yodgorlik hisoblanadi. Unda Chingizxon naslining hokimiyatga bo'lgan mutloq huquqlari ilohiy va mifologik asoslab berilgan. Asarda mo'g'ul xonlarining kelib chiqishi "Borte Chino" ("Ko'k bo'ri") afsonasi orqali muqaddaslashtiriladi. Bu esa keyinchalik Chig'atoy ulusida ham amalda bo'lgan siyosiy ierarxiya va legitimlik tushunchasining asosi bo'lib xizmat qilgan [11:21-25]. Asar mo'g'ullarning an'anaviy huquqiy tizimi – "Buyuk Yasa"ning shakllanish jarayonini faktologik jihatdan ochib beruvchi birlamchi hujjatdir. Unda davlat boshqaruvi, harbiy intizom va xizmat ko'rsatish tamoyillari (jumladan, keshikten³ – xon qo'riqchilari tizimi) bayon etilgan. Bu tartiblar keyinchalik Chig'atoy ulusi boshqaruv apparatining institutsional asosi bo'lib qoldi [3:115-120].

Asar mo'g'ul jamiyatining urug'-aymoqchilikdan markazlashgan davlatga o'tishidagi transformatsiya bosqichlarini yoritadi. Unda o'nlik, yuzlik va minglik tizimining joriy etilishi, shuningdek, "noxur" ("sodiq hamrohlar") boshqaruv tizimi tahlil qilinadi. Bu tizim Chig'atoy ulusidagi tumanlar boshqaruvining ilk ko'rinishi edi [15:58].

Manba mo'g'ullarning dunyo miqyosidagi global istilolari va xalqaro aloqalarining dastlabki bosqichlarini tasvirlaydi. Chingizxonning Mo'g'uliston dashtlaridagi qabilalarni yagona markazlashuv jarayoni ostida birlashtirishi, uning tashqi siyosiy strategik asoslarini shakllantirdi [14:450]. "Mo'g'ullarning maxfiy tarixi" – imperiyaning ko'chmanchi dala imperiyasidan global dunyo davlatiga aylanishidagi o'zgarish bosqichlarini aks ettiruvchi murakkab manbadir. Unda shakllangan boshqaruv asoslari butun Yevroosiyo tarixida yangi davlat qurilishi mezonlarini belgilab bergan [5:138].

Mavzu doirasidagi xitoy manbalarining eng asosiysi "Yuan shi" ("Yuan sulolasi tarixi") bo'lib, u Mo'g'ullar imperiyasining shakllanishi, tuzilmaviy taraqqiyoti va davlat boshqaruv mexanizmlarini o'rganishda eng yirik manba hisoblanadi. 1370-yilda Min sulolasi davrida tuzilgan ushbu yilnoma imperiyaning ko'chmanchi an'analardan murakkab byurokratik tizimga o'tishidagi o'zgarish

³Keshiktenlar keyinchalik Chig'atoy ulusining so'nggi yillari, Temuriylar davrida qavchin etnik birligiga shakllanadi. "Qavchinlar" (mo'g'ulcha "qaučīn"- "qadimiy", "ko'hna" yoki "harbiy") – Chig'atoy ulusi va keyinchalik Temuriylar davlati siyosiy jarayonlarida o'ta muhim o'rin tutgan, xon va amirlarning eng yaqin, ishonchli harbiy tabaqasini ifodalovchi guruhdir.

jarayonlarini tahlil qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi [13:580]. “Yuan shi” mo'g'ul xonlarining Xitoy imperatorlari sifatidagi huquqiy maqomini qonuniylashtirish nuqtai nazaridan yozilgan. Manba mo'g'ul boshqaruv an'alarining Xitoyning konfutsiycha byurokratiyasi bilan qorishuvini tasvirlaydi. Bu yerda imperiyaning shakllanishi shunchaki bosqin emas, balki yangi sivilizatsiyaviy makonning vujudga kelishi sifatida taqdim etiladi [12:12].

Ushbu yilnoma imperiyaning global iqtisodiy aloqalari, xalqaro savdo yo'llari va moliya tizimini yoritishda juda muhim ahamiyatga ega. “Yuan shi”ning “Iqtisodiyot bo'limi” (“Shi-xo chji”) mo'g'ullar davridagi soliq tizimi (qobchur, tamg'a) va dunyo tarixidagi ilk xalqaro qog'oz pul – chao muomalasi haqida boy ma'lumot beradi. Bu imperiyaning monetar anarxiyadan yagona moliyaviy nazoratga o'tish bosqichlarini ko'rsatadi [7:67]. Shuningdek, manbada imperiyaning boshqaruv apparati, xususan, “Markaziy kotibiyat” (“Chjun-shu sheng”) va harbiy kengashlarning (“Shu-mi yuan”) tuzulmaviy vazifalari batafsil yoritilgan. Unda turli millat vakillari (musulmonlar, xitoylar, uyg'urlar)ning davlat hokimiyatidagi qorishuvi va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni “Semu-jen” tabaqasi misolida tahlil qilingan [13:581].

“Yuan shi” mo'g'ullar imperiyasining tashqi siyosati, vassal davlatlar (jumladan, Chig'atoy ulusi) bilan munosabatlari va xalqaro munosabatlar jarayonidagi faoliyatini tavsiflaydi. Unda xalqaro elchilik missiyalari va imperiyani birlashtirib turuvchi pochta-aloha (“Yam”) tizimining faoliyati haqida muhim dalillar mavjud. Bu tizim imperiyani mustahkamlovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan [1:45]. Asar Chig'atoy ulusining Yuan imperiyasi bilan aloqalarini o'rganishda eng boy faktologik bazadir. Xitoy manbalari mo'g'ullar davridagi pul bilan bog'liq tartibsizlikka chek qo'yishga urinishlar, qog'oz va metal pullar muomalasi va qobchur solig'ining undirilishi haqida aniq raqamli ma'lumotlarni taqdim etadi [1:48]. H.F. Schurmann ta'kidlaganidek, Xitoy yilnomalari imperiya hokimiyatini qanday qilib o'troq madaniyat an'analari bilan qorishuv jarayonlarini ko'rsatadi [7:67].

Mo'g'ullar imperiyasi tarixshunosligida Fors an'anasi (XIII-XIV asrlar) shunchaki voqealar bayoni emas, balki xalqaro miqyosdagi tarixnavislik yo'nalishini shakllantirgan ma'naviy boylik hisoblanadi. Juvayniy, Rashididdin, Qoshoniy va Vassof kabi mutafakkirlar asarlari imperiyaning tuzulmaviy asosini, ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar qorishuvi hamda xalqaro aloqalarni yorituvchi asosiy manbalardandir. Jumladan, Alauddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” (“Jahon fotihi tarixi”) asari mo'g'ul istilosi va uning natijasida yuzaga kelgan xalqaro o'zgarishlarni yorituvchi dastlabki buyuk forsiy manbadir. Juvayniy mo'g'ul “Yasa”sini islomiy boshqaruv an'analari bilan qorishuv jarayonini tahlil qiladi [4:21].

Rashididdinning “Jome' ut-tavorix” (“Yilnomalar to'plami”) asari insoniyat tarixidagi ilk umumiy tarix tipidagi tadqiqotdir. Rashididdin imperiyaning barcha uluslarini (Chig'atoy, Oltin O'rda, Elxoniylar, Yuan) yagona tuzulma doirasida tahlil qilgan. Uning asarida mo'g'ul qabilalari genealogiyasi, ordo tizimi va ma'muriy noshqaruv haqida mutloq yangicha ma'lumotlar mavjud [6:12-15].

Vassofning “Tarixi Vassof” asari Rashididdin yilnomasining davomi bo‘lib, u o‘ziga xos murakkab xususiyatlari bilan ajralib turadi. Vassof imperiyaning iqtisodiy hayoti, tartibsiz pul tizimiga qarshi kurash (pul islohotlari) va xalqaro savdoning muhim strategik ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, unda Elxoniylar va Chig‘atoy ulusi o‘rtasidagi geosiyosiy muvozanatni tahlil qilingan [13:580-585].

Abulqosim Qoshoniyning “Tarixi O‘ljaytu” va Qazviniyning “Tarixi guzida” asarlari imperiyaning so‘nggi davridagi siyosiy jarayonlarni yoritadi. Ular imperiyaning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi, tumanlar tizimi va mahalliy amirlarning siyosiy jihatdan yuksalishini muhim dalillar bilan tasvirlaydi. Qazviniyning geografik asarlari esa imperiyaning xalqaro pochta-aloqa (Yam) tizimi haqida muhim ma‘lumotlar beradi [9:412-415]. Xullas, fors an‘anasi manbalari Mo‘g‘ullar imperiyasini shunchaki harbiy tuzilma emas, balki xalqaro tuzulmaviy tizim sifatida ochib beradi. Juvayniydan boshlangan tadqiqotlar jarayoni Rashididdin davrida dunyoviy o‘zgarishlarning muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi [4:23].

Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishini o‘rganishda arab manbalari (XIII–XIV asrlar) voqealarni imperiya markazidan emas, balki istiloga uchragan hududlar va unga qarshi turgan davlatlar nuqtai nazaridan yorituvchi manbalar guruhidir. Ushbu manbalar imperiyaning dastlabki davridagi ijtimoiy turg‘unlik va keyinchalik yuzaga kelgan madaniy-huquqiy qarshilik bosqichlarini tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, Ibn al-Asir (1160–1233) mo‘g‘ullar istilosining dastlabki to‘lqinini yoritgan eng yirik muallifdir. U mo‘g‘ul fenomenini mantiqdan xoli bo‘lgan, madaniyatni yo‘q qiluvchi “ilohiy jazo” deb talqin etadi [10:190-195]. Uning asarida mo‘g‘ullar davlatining shakllanishi emas, balki musulmon olamidagi boshqaruv tizimining turg‘unlashuvi asosiy o‘ringa chiqadi.

Asosan, Misr va Suriyada shakllangan arab manbalari mo‘g‘ullarni global geosiyosiy raqib va murakkab ma‘muriy tizim sifatida tahlil qiladi. Jumladan, Al-Maqriziy (1364–1442) o‘z asarlarida mo‘g‘ullarning “Yosa” qonuniyatlarini islom shariati bilan qiyoslaydi. U mo‘g‘ul davlat qurilishining muhim jihatlarini, soliq tizimi va harbiy intizomini ochib beradi [2:15-17]. Bu mo‘g‘ullar davlatining shakllanishini “begona” tizim sifatida o‘rganuvchi tarixiy manbadir.

Shuningdek, al-Umariyning “Masolik al-absar” asarida mo‘g‘ul imperiyasi va Chig‘atoy ulusi kabi davlatlarning ma‘muriy boshqaruvi, soliq (tamg‘a, qobchur) tizimi va elchilik faoliyatlarini muhim ma‘lumotlar bilan bayon [8:75]. Xullas, “arab manbalari mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishini madaniy inqirozdan (Ibn al-Asir) tizimli o‘zgarishlargacha bo‘lgan jarayonlarni tan olishgacha (al-Umariy) bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan murakkab jarayon sifatida ochib beradi. Bu manbalar imperiyaning xalqaro ta’sirini tashqaridan baholashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sharq manbalarining (mo‘g‘ul, xitoy, fors, arab) qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishi shunchaki harbiy bosqin emas, balki Yevroosiyo qit‘asida birinchi marta yagona geopolitik va murakkab ma‘muriy-byurokratik tizimning vujudga kelishidir. Tadqiqot davomida aniqlandiki, imperiyaning tuzulmaviy barqarorligi ko‘chmanchi an‘analar va o‘troq

madaniyatlar boshqaruv uslublarining qorishuvi natijasidir. Manbalardagi dalillardagi tafovutlar imperiyaning ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi: xitoy yilnomalari pul va iqtisodiy nazoratni, fors manbalari siyosiy legitimlik va boshqaruvni, arab manbalari esa madaniy qarshilik va o'zgarish jarayonlarini yoritib beradi. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, ushbu manbalar majmuasi imperiyani jahon tarixidagi ilk xalqaro imperiya sifatida baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allsen T.T. Culture and Conquest in Mongol Eurasia. – Cambridge, 2001.
2. Al-Maqrizi. Mawa'iz wa al-'I'tibar bi dhikr al-khitat. Ed. by A. Sayyid. – London, 2002.
3. Cleaves F.W. The Secret History of the Mongols. – Cambridge, 1982.
4. Juvaini Ala-ad-Din Ata-Malik. Genghis Khan: The History of the World-Conqueror. Translated by J.A. Boyle. – Manchester, 1997.
5. Rachewiltz de I. The Secret History of the Mongols: A Mongolian Epic Chronicle of the Thirteenth Century. – Leiden: Brill. 2004.
6. Rashiduddin Fazlullah. Jami' u't-tawarikh (Compendium of Chronicles). Translated by W.M. Thackston. – Harvard University, 1998.
7. Schurmann H. F. Economic Structure of the Yuan Dynasty. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1956.
8. Şihabeddib b. Fazlullah el-Ömeri. Türkler Hakkında Gördüklerim ve Duyduklarım. /Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: Selenge Yayınları. 2014.
9. The Cambridge History of Iran. Vol. 5. – Cambridge University Press, 1968.
10. The Chronicle of Ibn al-Athir for the Crusading Period. Part 3. Translated by D.S. Richards. – London: Ashgate, 2008.
11. The Secret History of the Mongols: A Mongolian Epic Chronicle of the Thirteenth Century. Trans. Igor de Rachewiltz. – Leiden: Brill, 2004.
12. Yuan Shih: The Official History of the Yuan Dynasty. Translated by H. Schurmann. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1956.
13. Бартольд В. В. Сочинения. Т. 2. Ч. 1. – М.: Наука, 1963.
14. Бартольд В. В. Сочинения. Т. 1. – М.: Наука, 1963.
15. Султанов Т. И. Чингиз-хан и чингизиды. Судьба и власть. – М., 2006.

Очилова Д. Ж.

PhD., доцент кафедры «Международных отношений и истории»

университет Альфраганус

ochilova.dilobar1908@gmail.com

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОСТОЧНЫХ ИСТОЧНИКОВ ПО ВОПРОСУ ПЕРИОДА ФОРМИРОВАНИЯ МОНГОЛЬСКОЙ ИМПЕРИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе системного анализа восточных источников (монгольских, китайских, персидских и арабских) исследуются период формирования Монгольской империи и институциональные основы её государственности. В работе изучены этапы трансформации империи от кочевых традиций к сложной структуре административного аппарата управления, а также выявлены фактографические различия в источниках разных цивилизаций. Автор раскрывает специфику имперского строительства через призму политического дискурса и сравнительного источниковедения.

Ключевые слова: Монгольская империя, источниковедение, Pax Mongolica, сравнительный анализ, восточные источники, западные источники, институциональное управление, глобальная интеграция, политическая иерархия.

Ochilova D. J.

PhD., associate professor at the department of «International relations and history»

Alfraganus University

ochilova.dilobar1908@gmail.com

COMPARATIVE ANALYSIS OF EASTERN SOURCES ON THE ISSUE OF THE PERIOD OF THE FORMATION OF THE MONGOLIAN EMPIRE.

ABSTRACT

This article investigates the formation period of the Mongol Empire and the institutional foundations of its statehood, based on a comprehensive analysis of Eastern sources (Mongolian, Chinese, Persian, and Arabic). The research explores the stages of the empire's transformation from nomadic traditions to a complex bureaucratic administrative apparatus, while identifying factographic variations across diverse civilizational sources. The author elucidates the peculiarities of imperial governance through the prism of political discourse and comparative source studies.

Keywords: Mongol Empire, source studies, Pax Mongolica, comparative analysis, Eastern sources, Western sources, institutional governance, global integration, political hierarchy.

Qitaybekov A. K.

«O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi» kafedrası assistent-o‘qituvchi
Qoraqalpoq davlat universiteti
azizbekqitaybekov@gmail.com

1970-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTON FUQARO AVIATSIYASINING XALQ XO‘JALIGIDAGI O‘RNI: ARXIV HUJJATLARI TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqolada 1960–1970-yillarda O‘zbekiston, xususan Qoraqalpog‘istonda fuqaro aviatsiyasining rivojlanishi, uning xalq xo‘jaligidagi ko‘p tarmoqli ahamiyati tahlil qilingan. Statistika ma’lumotlar asosida aviatsiya transporti qishloq xo‘jaligi, geologiya, neft-gaz qidiruv ishlari, tibbiy xizmat, pochta va yo‘lovchi tashishda keng qo‘llangani ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari fuqaro aviatsiyasining hududiy iqtisodiy taraqqiyotdagi muhim o‘rnini ilmiy asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Fuqaro aviatsiyasi, Qoraqalpog‘iston, xalq xo‘jaligi, transport, qishloq xo‘jaligi, aeroport, samolyot, iqtisodiy rivojlanish.

KIRISH

Mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasi xalq xo‘jaligining ko‘p maqsadli, tez rivojlanayotgan tarmog‘idir.

Havo transporti mamlakatning iqtisodiy hayotida va hozirgi vaqtda mamlakatning barcha hududlarida ommaviy transport turi sifatida, magistral yo‘nalishlarda esa yo‘lovchi transportining asosiy turi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tezkor aloqada havo transportining ulkan afzalliklari uning rivojlanish sur‘atlarini ham belgilab berdi.

1970-yillarda havo transportining texnik rekonstruksiya aloqa tezligi, yuk ko‘tarish qobiliyati, yo‘lovchi sig‘imi va xalq xo‘jaligida qo‘llanilishining xilma-xilligini keskin oshirishni ta’minlamoqda.

Havo transportining boshqa transport turlariga nisbatan asosiy ustunligi yuk tashish tezligining yuqoriligi bo‘lib, bu jamiyat vaqtini sezilarli darajada tejashni ta’minlaydi. Ushbu tejamkorlik havo transportining xalq xo‘jaligi samaradorligidagi eng muhim mezondir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Fuqaro aviatsiyasi har yili yuz minglab tonna pochta va yuklarni tashiydi. Yuklarning o‘z vaqtida va but holda yetkazib berilishi ta’minot va tovar aylanmasi bo‘yicha davlat rejasining bajarilishini, pochta esa mamlakatdagi ishbilarmonlik, madaniy va shaxsiy aloqalarni ta’minlaydi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmidagi ulushi uncha katta bo‘lmasa-da, havo transportida yuk tashishning o‘ziga xos xususiyatlari uni xalq xo‘jaligi uchun iqtisodiy jihatdan samarali qiladi [1, B-91].

1970-yillardan boshlab havo liniyalariga yangi avlod reaktiv samolyotlari chiqarildi: Il-62, Tu-134, Tu-154, Yak-40, Tu-144 reyslarini amalga oshiradi. Il-86 va Il-76 sinov reyslarini amalga oshirmoqda.

Sovet fani va texnikasining yangi yutuqlari bo'lgan gaz turbinali dvigatelli Mi-10, Mi-8, Mi-6, Mi-2, Ka-26 vertolyotlaridan keng foydalanilmoqda.

Fuqaro aviatsiyasining faoliyati transport tashuvlari bilan cheklanmaydi. Fuqaro aviatsiyasi ko'p maqsadli soha bo'lib, xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlariga xizmat ko'rsatishda faol ishtirok etadi.

Aviatsiyaning xalq xo'jaligida qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hozir uning yordamida o'n millionlab gektar ekin maydonlari, yaylovlar, bog'lar va uzumzorlarga ishlov berilmoqda, o'simliklarni zararkunandalar va kasalliklardan aviakimyoviy himoya qilish, kemiruvchilar va begona o'tlarga qarshi kurashish, mineral o'g'itlar solish, mexanizatsiyalashgan terimdagi g'o'za barglarini olib tashlash amalga oshirilmoqda.[1, B-92]

1967-yilning IV choragida boshqaruv aeroportlaridan muntazam parvozlarning amalga oshirilishi quyidagicha taqsimlandi (%):

Toshkent-71,4	Nukus-86,8	Samarqand-69,4	Qo'qon-71,5	Namangan-61,6	Buxoro-81,2
Urganch-94,2	Termiz-72,4	Farg'ona-77,4	Andijon-73,0	Qarshi-81,1	Navoiy-88,5
Tomdi-93,8	To'rtkul-95,4	Qo'ng'iro't-84,1	Muynoq-85,5	Sergeli-47,4	

1972-yildan boshlab Toshkent, Samarqand, Buxoro, Aralsk, Aqto'be, Ashxobod shaharlariga reyslarni Nukusning №162-uchish aviaotryadining ekipajlari olib boradigan bo'ldi. Bu yillari №162-uchish otryadi uchun yuqori malakali uchuvchilarni tayyorlashda Toshkentning tajribali uchuvchi-instruktorlari Lisov G. S., Shamansurov, Talibovlar sezilarli yordam berdi [2, B-23].

Misol uchun: 1977-yilda Nukus aviakorxonasi quyidagilarni amalga oshirdi:

- Qishloq xo'jaligiga aviatsiya xizmati ko'rsatish bo'yicha - 12 500 soat (648 000 gektar).
- Qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish bo'yicha - 366 ming gektar.
- Defoliatsiya - 95 ming gektar.
- Geologiya, gaz va neft sanoatiga xizmat ko'rsatish - 19 500 soat.
- Tibbiy xizmat - 700 soat.
- 2700 tonna yuk va 34 ming yo'lovchi tashildi.

Dalalarga aviatsiya yordamida kimyoviy ishlov berish qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yiliga bir necha o'n million pudga oshirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi ishlaridan tashqari, havo tasvirlari aviatsiyasi, o'rmon xo'jaligi, gaz, neft qazib olish, baliq sanoati, qurilish, geodeziya va kartografiya, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda keng qo'llaniladi. Maxsus jihozlangan samolyot va vertolyotlar

yordamida foydali qazilmalarni qidirish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Faqat kosmik stansiyalar va sun‘iy yo‘ldoshlarga aerosuratlar masshtabida raqobatlasha oladi [3, B-23].

Fuqaro aviatsiyasi ko‘plab muhim vazifalarni amalga oshiradi va xalq xo‘jaligini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Aviatsiya texnikasining gurrakab rivojlanishi bilan bir qatorda yangi aerovokzallar va qo‘nish yo‘laklari qurish masalalariga katta e‘tibor berilmoqda, bu haqda 1976-yilgi syezd qarorida alohida qayd etilgan.

Barcha ma‘lumotlarga ko‘ra, havo transporti mazkur davrda yer usti vositalari va inshootlarining rivojlanishidan ancha ilgari ketganligi, o‘sha davrda yerda xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirishni birinchi navbatdagi vazifa qilib qo‘ymoqda.

1978-yil O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrida zamonaviy aerovokzal foydalanishga topshirildi. Buxoro va Nukus shaharlarida eng zamonaviy samolyotlarni qabul qila oladigan aerovokzal majmualarini qurish ishlari olib borilmoqda.

Ko‘plab, hatto kichik shaharlarda ham beton qoplamali uchish-qo‘nish yo‘laklari qurilmoqda, yo‘lovchilar uchun aerovokzallar, pavilonlar va mehmonxonalar qurilmoqda [4, B-171].

Aloqa, radionavigatsiya va samolyotlarni boshqarish vositalari modernizatsiya qilindi, aerodrom va tijorat xizmatlarini mexanizatsiyalashning mukammal va samarali vositalari joriy etildi, hududlar obodonlashtirildi, ularga kirish yo‘llari yaxshilandi.

Mamlakatning ko‘pgina shaharlarida zamonaviy talablar darajasida jihozlangan shahar havo aloqasi agentliklari ochildi yoki kengaytirildi. Aeroflot umumiy transport tizimining barcha bo‘g‘inlarining rentabelli ishlashi aviatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash uchun jamg‘armalarni ko‘paytirishga yordam beradi.

1971-1975-yillarda fuqaro aviatsiyasi ishining asosiy natijasi shundan iborat bo‘ldiki, mamlakat aholisi va xalq xo‘jaligining aviatashuvlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish yo‘lida oldinga muhim qadam qo‘yildi. To‘qqizinchi besh yillik ish hajmi, samolyot va vertolyotlarni xalq xo‘jaligida qo‘llash ko‘lami, kapital qurilish hajmi va aviatorlar farovonligini oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo‘yicha misli ko‘rilmagan bo‘ldi.

Havo transporti haqiqatan ham ommaviy bo‘lib qoldi. XX asrning 70-yillarida undan mamlakatimizning deyarli har uchinchi aholisi, olis magistral yo‘nalishlarda esa har to‘qqiz yo‘lovchidan sakkiztasi foydalanmoqda.

Har yili yarim milliardga yaqin odam havo transportidan foydalanadi. Umumiy yo‘lovchilar oqimida (mintaqalararo tashuvlarda) aviatsiyaning ulushi qariyb 27 foizni tashkil etadi. Bu avtomobil transporti ulushidan taxminan 1,5 barobar, daryo transportidan qariyb 19 barobar, dengiz transportidan 54 barobar ko‘pdir [4, B-172].

Bundan tashqari, yangi texnologiyalardan foydalanish, tashishlarni boshqarish jarayonlarini va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi, bu esa o‘ninchi besh yillikda transport ishining samaradorligini oshiradi.

transport vositalaridan foydalanishni yaxshilash, vagonlar, kemalar va avtomobillarning yuk va texnik operatsiyalarda turib qolishini kamaytirish, ularning yuk ko'tarish va sig'imidan to'laroq foydalanish, bo'sh yurishlarni qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

transport vositalarining yuk ko'tarish va sig'imini oshirish, bo'sh yurishlarni qisqartirish;

noratsional tashishlarni bartaraf etish, har bir transport turidan yaxshiroq foydalanish zarurligini hisobga olgan holda yuk tashishning optimal sxemalarini ishlab chiqishni davom ettirish. ta'minot va sotish organlarining, shuningdek yuk jo'natuvchilarning yuk oqimlari normativ yo'nalishlari sxemalariga rioya qilishlari uchun javobgarligini oshirish [4, B-9].

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va oblast partiya komiteti, Respublika hukumatining doimiy yordami tufayli. O'zbekistonda Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligi va aholisiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha to'qqizinchi besh yillikda fuqaro aviatsiyasi yanada rivojlandi.

•Shu vaqt ichida Toshkentda yangi aerovokzal majmuasi foydalanishga topshirildi;

•Namangan, Qo'qon, Urganch, Termiz va Qo'ng'iro't shaharlarida uchish-qo'nish yo'laklari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

•Samarqand, Urganch va Mo'ynoqda yangi aerovokzallar ishga tushirildi, Andijon, Termiz va Jizzaxda yangi aerovokzallar qurilmoqda.

•Toshkent aviatsiya otryadida Il-62, Samarqandda An-24, Nukusda Yak-40 samolyotlari, Qo'qonda Ka-26 vertolyotlaridan foydalanilmoqda.

• "Sirena" avtomatlashtirilgan joylarni band qilish tizimi joriy etildi, barcha aviakorxonalarda aviateknika nuqsonsiz xizmat ko'rsatish tizimi amalga oshirildi [5, B-10].

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1975-yil 9-noyabrda "Xalq xo'jaligi va aholining yuk tashishga ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun O'zbekiston grajdan aviatsiyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilinishi aviatorlarga ko'rsatilayotgan doimiy g'amxo'rlik va e'tiborning yana bir dalilidir.

Ushbu Qarorda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

- aviakorxonalarni birinchi darajali aviatsiya texnikasi bilan jihozlash;
- aeroportlarni qurish va rekonstruksiya qilish;
- aviatsiya xodimlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Chunonchi, To'rtko'lda 1977-1978-yillar davomida soatiga 50 yo'lovchi o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan yangi aerovokzal quriladi. Qo'ng'iro't aeroportida qo'nish tizimi va aerovokzal quriladi. Shuningdek, Gaz sanoati vazirligi kuchlari bilan Qoraqalpog'iston, To'le va Qoraqalpog'iston posyolkasida "Yak-40" samolyotlarini qabul qilish uchun sun'iy uchish-qo'nish yo'lagini qurish masalasi hal qilinmoqda.

Parvozlarning to'liq xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, har bir reys, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, qurilish, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ilmiy ishlanmalar sifatiga e'tibor qaratish zarur.

Nukus aviakorxonasida to‘qqizinchi besh yillikda samaradorlik va sifatni oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy Il-14 va Yak-40 samolyotlarining joriy etilishi tashish tuzilmasini sezilarli darajada yaxshiladi, ularning o‘rtacha uzoqligini oshirdi [6, B-11].

XULOSA

1970-yillarda O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi transport tizimining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Uning tezligi, ko‘p tarmoqli qo‘llanilishi va infratuzilma rivoji mamlakat iqtisodiy hayotida strategik ahamiyat kasb etdi. Davlat siyosati, yangi samolyot va vertolyotlarning joriy etilishi, aerovokzal va aeroportlarning kengayishi aviatsiyani xalq xo‘jaligining asosiy tayanch sohalaridan biriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi markaziy davlat arxivi. P-551-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 3472-yig‘ma jild, 91-92-varaq.
2. Елмуратов Ы., Гришанович А. “Қарақалпақстанда ҳаёа транспортынын пайда болыуы хэм раўажланыуы тарийхынан”. Нукус., «Билим», 1998, 23-б.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi. P-2172-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 1722-yig‘ma jild, 23-24-varaq.
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi markaziy davlat arxivi. P-551-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 3550-yig‘ma jild, 171-172-varaq.
5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi markaziy davlat arxivi. P-551-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 3411-yig‘ma jild, 9-10-varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-2172-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 1722-yig‘ma jild, 354-varaq

Кытайбеков А. К.

Стажёр-преподаватель кафедры «История Узбекистана и Каракалпакстана»

Каракалпакский государственный университет

azizbekqitaybekov@gmail.com

РОЛЬ ГРАЖДАНСКОЙ АВИАЦИИ КАРАКАЛПАКСТАНА В НАРОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ В 1970-Е ГОДЫ: АНАЛИЗ АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается развитие гражданской авиации в Узбекистане и Каракалпакстане в 1960–1970-е годы и её многоотраслевая роль в народном хозяйстве. На основе статистических данных показано широкое применение авиации в сельском хозяйстве, геологии, нефтегазовой разведке, медицинских услугах, почтовой связи и пассажирских перевозках. Полученные результаты подтверждают важное значение гражданской авиации в региональном экономическом развитии.

Ключевые слова: Гражданская авиация, Каракалпакстан, народное хозяйство, транспорт, сельское хозяйство, аэропорт, самолёт, экономическое развитие.

Kitaybekov A. K.

Trainee-teacher at the department of «History of Uzbekistan and Karakalpakstan»

Karakalpak state university

azizbekqitaybekov@gmail.com

THE ROLE OF CIVIL AVIATION IN THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAKSTAN IN THE 1970S: ANALYSIS OF ARCHIVAL DOCUMENTS

ABSTRACT

The article analyzes the development of civil aviation in Uzbekistan, particularly in Karakalpakstan, during the 1960s–1970s, and its multifunctional role in the national economy. Based on statistical data, it highlights the wide use of aviation in agriculture, geology, oil and gas exploration, medical services, postal communication, and passenger transportation. The findings demonstrate the crucial role of civil aviation in regional economic development.

Keywords: Civil aviation, Karakalpakstan, national economy, transport, agriculture, airport, aircraft, economic development.

Qodirova M. M.

«O'zbekiston tarixi» kafedrası 1-bosqich magistranti

Farg'ona davlat universiteti

kodirovamavluda1988@gmail.com**QURBONJON DODXOHNING IQTISODIY SIYOSATI****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola Qurbonjon dodxohning iqtisodiy siyosatini tahlil qiladi. Ishda uning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy strategiyalari, soliq tizimi, yer-suv siyosati, hunarmandchilik va savdo aloqalari orqali amalga oshirilgan islohotlar o'rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy adolat, moliya barqarorligi, ichki bozorni himoya qilish va aholi turmush darajasi kabi jihatlar kengaytirilgan ilmiy izohlar bilan ko'rsatildi. Maqola tarixiy manbalar, adabiy asarlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlangan.

Kalit so'zlar: Qurbonjon dodxoh, Olimbek dodxoh, Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Markaziy Osiyo, harbiy, siyosiy, iqtisodiy, siyosat, ijtimoiy, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, soliq tizimi, yer-suv, savdo, resurs.

KIRISH

Tarixda ko'plab davlat siyosatida katta obro'ga va siyosiy kuchga ega bo'lgan ayollar bo'lgan. Ular sirasiga Qurbonjon dodxohni ham kiritish mumkin. U 1811-yilda O'sh yaqinidagi Modi, ba'zi manbalarda O'roq (O'rka) qishlog'ida tug'ilgan. Qirg'iz tilida "*Kurmanjan Datka*" nomi bilan yuritilgan. Shuningdek, xalq orasida "Oloy malikasi", "Xalq onasi" kabi nomlar bilan tanilgan. Qurbonjon dodxoh 1907-yilda 1-fevral kuni vafot etgan [1]. Rus mustamlakachiligiga qarshi kurash olib borgan va qo'zg'alon raxbari edi. Undan tashqari, Buxoroda dodxoh (malika) unvoniga ega bo'lgan. Qo'qon xonligida yuqori siyosiy mavqega erishgan vazir Olimbek Hasanboy o'g'li (1800-1863)ning rafiqasi va 5 o'g'il va 2 qizning onasi bo'lgan [2]. U mungush qabilasidan bo'lgan qirg'iz ko'chmanchilari oilasidan edi. Qurbonjon dodxoh XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy murakkabliklar davrida faoliyat ko'rsatgan. Uning iqtisodiy siyosati o'z davri uchun ilg'or bo'lib, davlat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni saqlash va iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu maqola uning soliq tizimi, yer-suv munosabatlari, savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish, ichki bozorni himoya qilish va iqtisodiy adolatni ta'minlash yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qurbonjon dodxoh faoliyati haqida ilmiy manbalar ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, mavjud tarixiy va adabiy manbalar uning iqtisodiy siyosatini tahlil qilish imkonini beradi. Tarixiy solnomalarda ko'proq siyosiy voqealar tasvirlangan bo'lsa-da, iqtisodiy boshqaruvga oid bilvosita ma'lumotlar uchraydi. Ayrim mahalliy

tarixnavislar va zamondoshlarining asarlarida Qurbonjon dodxohning iqtisodiy islohotlaridagi qat'iyati, ayniqsa, soliq tizimini tartibga solish va yer-suv munosabatlarini yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlari yoritilgan [3]. Adabiy manbalar esa ko'proq xalqning undan roziligi, iqtisodiy bosimlarning kamayishi haqidagi tasvirlar orqali uning siyosatini bilvosita yoritadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu davr Markaziy Osiyo iqtisodiyoti dehqonchilik, chorvachilik va savdoga tayanib kelgan tizim sifatida ko'riladi. Tadqiqotchilar Qurbonjon dodxoh olib borgan iqtisodiy tartibotni pragmatik deb baholaydilar [4]. Uning joriy etgan siyosati beqaror siyosiy sharoitda iqtisodiy tanazzulni sekinlashtirishga xizmat qilgan.

Qurbonjon dodxoh XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitida faoliyat ko'rsatgan, davlat boshqaruvi va iqtisodiy strategiya masalalarida o'ziga xos yondashuvga ega bo'lgan siyosiy arboblardan biridir. Uning iqtisodiy siyosati asosan amaliy tajribaga tayangan, mavjud imkoniyatlarni maksimal darajada safarbar qilish, xo'jalik tizimini barqarorlashtirish, soliq boshqaruvini tartibga solish va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslangan [5]. Ushbu kengaytirilgan tezis Qurbonjon dodxohning iqtisodiy siyosatini tarixiy, iqtisodiy va adabiy manbalar asosida chuqur tahlil qiladi, uning iqtisodiy qarashlari Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixidagi tutgan o'rnini ochib beradi.

Qurbonjon dodxoh faoliyat yuritgan davrda iqtisodiyotning asosiy tayanchi dehqonchilik, chorvachilik, mayda hunarmandchilik va ichki-savdo tizimidan iborat edi. Xonliklararo nizolar, tashqi bosqinlar, ichki beqarorliklar iqtisodiy taraqqiyotni jiddiy sekinlashtirgan. Bunday sharoitda Qurbonjon dodxoh iqtisodiy siyosatni kuchaytirish, ayniqsa xo'jalik boshqaruvi, moliya barqarorligi va aholi turmush darajasini saqlab qolish borasida qat'iy choralar ko'rgan [6]. Uning iqtisodiy siyosatining asosiy ustunlari quyidagilardan iborat: resurslarni konsolidatsiya qilish, soliq tizimini optimallashtirish, yer-suv munosabatlarida tartib o'rnatish, mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, savdo aloqalarini tiklash va harbiy-siyosiy bosimlarga qaramay iqtisodiy mustaqillikni saqlab qolishga intilish.

Qurbonjon dodxoh soliq tizimini tartibga solish orqali davlat xo'jaligini mustahkamlashga harakat qilgan. Soliqlarni haddan tashqari oshirish emas, balki ularni real iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish siyosatini olib borgan. Bu orqali aholini iqtisodiy jihatdan ezilishdan saqlash, ularning ishlab chiqarishga rag'batini oshirish maqsad qilingan. U tomonidan joriy etilgan tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqaruvchilar, yer egalari va savdogarlar manfaatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan bo'lib, buning natijasida hududda iqtisodiy faoliyatning pasayishi oldi olingan [7]. Yer-suv iqtisodi Qurbonjon dodxoh davridagi iqtisodiy siyosatning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lgan. U suv taqsimoti, yer mulkchiligidagi tartibsizliklar, qishloq xo'jaligi unumdorligini pasaytirayotgan omillarni bartaraf etishga intilgan. Sug'orish inshootlarini ta'mirlash, suv kanallarini kengaytirish va suv resurslaridan adolatli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar uning siyosatida alohida o'rin tutgan [8].

Sugʻorish tizimining yaxshilanishi dehqonchilik samaradorligini oshirgan, aholi farovonligini tiklashga xizmat qilgan.

Qurbonjon dodxoh iqtisodiy siyosatining yana bir muhim jihati – ichki savdoni jonlantirish va bozor munosabatlarini tiklashga boʻlgan intilishdir. U savdo yoʻllarining xavfsizligini taʼminlash, qaroqchilar va ichki beqarorliklar tufayli izdan chiqqan savdo oqimini barqarorlashtirish uchun choralar koʻrgan. Savdo bozorlarida narxlarning sunʼiy oshishining oldini olish, savdogarlar oʻrtasidagi raqobatni adolatli saqlash va ichki bozorlarda barqaror taʼminotni yoʻlga qoʻyish kabi chora-tadbirlar koʻrilgan. Bu esa savdo kapitalining hududdan chiqib ketishini kamaytirgan hamda iqtisodiy muvozanatni tiklashga yordam bergan. Qurbonjon dodxoh mahalliy hunarmandchilik va kichik ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratgan [9]. Bu jarayonda mahalliy ustalar, hunarmandlar va kichik xoʻjalik egalari bilan yaqin aloqa oʻrnatilgan. Ularning mahsulotlarini ichki bozorda himoya qilish, ayrim hollarda maʼmuriy koʻmak koʻrsatish, soliq imtiyozlari bilan ragʻbatlantirish orqali iqtisodiy faoliyatni jonlantirgan. Mahalliy ishlab chiqarishning rivoji nafaqat iqtisodiy mustahkamlikni oshirgan, balki ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita taʼsir koʻrsatgan. Qurbonjon dodxohning iqtisodiy siyosatida harbiy xarajatlar bilan xoʻjalik mablagʻlari oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash ham asosiy vazifa boʻlgan [10]. Ichki va tashqi bosimlar kuchaygan davrda harbiy xarajatlarni toʻgʻri boshqarish, ularni iqtisodiy faoliyatni izdan chiqarmaydigan tarzda taqsimlash zarur edi. Qurbonjon dodxoh mazkur muvozanatni saqlash orqali iqtisodiy tanazzulning chuqurlashuviga yoʻl qoʻymagan.

XULOSA

Shuningdek, u ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni yumshatishga intilgan. Boylar va kambagʻallar oʻrtasidagi tafovutning ortishi ijtimoiy keskinlikni kuchaytirgan bir davrda iqtisodiy tengsizliklarni jilovlashga qaratilgan choralar amalga oshirilgan. Bu esa aholi kayfiyatida barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan. Eng muhim natija shundaki, Qurbonjon dodxohning iqtisodiy siyosati oʻz davri uchun nisbatan barqaror iqtisodiy tizim yaratishga qaratilgan boʻlib, uning qarashlari iqtisodiy pragmatizm, ehtiyotkorlik, resurslarni aniq va hisob-kitobli boshqarish bilan ajralib turadi. U iqtisodiyotni harbiy-siyosiy bosimlarga qaramasdan qaerda imkon boʻlsa, mustahkamlashga, aholi turmush darajasini tushirib yubormaslikka intilgan. Bu siyosatning natijalari uning davri iqtisodiy hayotida yaqqol sezilgan.

Qurbonjon dodxohning iqtisodiy siyosati oʻz davri uchun pragmatik va ilgʻor boʻlib, u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki siyosiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilgan. Uning soliq, yer-suv, hunarmandchilik va savdo siyosatlari, ichki bozorni himoya qilish va ijtimoiy adolat tamoyillari hududning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Ushbu maqola Qurbonjon dodxohning iqtisodiy qarashlari va amaliy faoliyatini tarixiy va zamonaviy tahlil orqali yoritadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov N. XIX asr Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
2. Rajabov A. Qo'qon xonligi boshqaruvi va iqtisodiy siyosat masalalari. Samarqand davlat universiteti ilmiy to'plami, 2015.
3. Muhammadsolih, M. Turkiston tarixi manzaralari. Istanbul: Turk dunyosi nashriyoti, 1998.
4. Vohidov Sh. Markaziy Osiyo yer-suv tizimi va dehqonchilik madaniyati. Toshkent, 2007.
5. Bobobekov, A. Qo'qon xonligi va uning so'nggi davlat arboblari. Toshkent, 1992.
6. Holmirzaev O. Markaziy Osiyo savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalari. O'zbekiston tarixi jurnali, 2018.
7. Ahmedov B. Turkistonning siyosiy va iqtisodiy hayoti. Toshkent, 1989.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], T., 2000; Chorategin T., Omurbekov T., Qirg'iziston tarixi (XIX asr boshi-1917-yil), Jalolobod, 2000.
9. Saul Abramzon. Qirg'iz xalqi va ularning etnogen va tarixiy-madaniy aloqalari.-Leningrad, 1971-yil.
10. Asqar Akayev. Taniqli shaxslar haqida. – Bishkek, 1999-yil.
11. V.V Bartold. Qirg'iz va Qirg'iziston tarixiga oid tanlangan asarlar. – Bishkek, 1998-yil.
12. Gaziev A. Qurbonjon dodxoh – Oloy tojisiz malikasi. – Bishkek, 1991-yil.
13. Qirg'iziston – Rossiya: munosabatlar tarixi. Hujjatlar va materiallar to'plami. – Bishkek, 1998-yil.
14. Mokrynin V. P. O'tmish izidan. – Bishkek, 1986-yil.
15. Ploskix V. Qirg'iz. Qo'qon xonligi. – Bishkek, 1977-yil.
16. Ploskix V. Qirg'izlar va Qirg'iziston tarixi. – Bishkek, 2000-yil
17. Bababekov X. N. Narodnie dvijeniya v Kokandskom xanstve i ix sotsialno-ekonomicheskiye i politicheskiye predposilki, T., 1990; Narodnie dvijeniya Sredney Azii v XXveke (Po materialam Kirgizstana). Bishkek-Osh, 1998.

Кодирова М. М.

Магистрант 1 курса кафедры «История Узбекистана»

Ферганский государственный университет

kodiromovavluda1988@gmail.com

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА КУРБАНЖОНА ДАДДОХА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется экономическая политика Курбанжона Доддоха. В работе рассматриваются его экономические стратегии в государственном

управлении, налоговой системе, земельно-водной политике, реформах, проводимых посредством ремесленных и торговых отношений. Также с подробным научным обоснованием освещаются такие аспекты, как экономическая справедливость, финансовая стабильность, защита внутреннего рынка и уровень жизни населения. Статья подготовлена. На основе исторических источников, литературных произведений и современных научных исследований.

Ключевые слова: Курбанжон Додхох, Олимбек Додхох, Кокандское ханство, Бухарский эмират, Центральная Азия, военная, политическая, экономическая, социальная, сельское хозяйство, животноводство, ремесла, налоговая система, земля и вода, торговля, ресурсы.

Kodirova M. M.

1st year master's student at the department of «History of Uzbekistan»

Fergana State University

kodirovamavluda1988@gmail.com

ECONOMIC POLICY OF KURBANJON DADKHOX

ABSTRACT

The article describes the economic policy of Qurbanjon Dodkhoh. The work studies his economic strategies in state administration, tax system, land and water policy, reforms implemented through crafts and trade relations. Also, aspects such as economic justice, financial stability, protection of the domestic market and the standard of living of the population are shown with extended scientific explanations and prepared on the basis of historical sources, literary works and modern scientific research.

Keywords: Qurbanjon Dodkhoh, Olimbek Dodkhoh, Kokand Khanate, Bukhara Emirate, Central Asia, military, political, economic, politics, social, agriculture, livestock, crafts, tax system, land and water, trade, resources.

Qoraboyev Sh. R.

«Ijtimoiy iqtisodiy» kafedra katta o'qituvchisi
Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
sherzodbekqoraboyev79@gmail.com

MASJIDLAR FAOLIYATIDA MILLIY URF-ODATLAR VA DINIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI (FARG'ONA VODIYSI TAJRIBASI ASOSIDA)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi masjidlarining faoliyatida milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlarning uyg'unligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy an'analar va islom dini tamoyillarining jamiyat hayotidagi o'zaro ta'siri, ularning masjid faoliyatiga ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Farg'ona vodiysida masjidlar nafaqat diniy ibodat joyi, balki milliy madaniyat va urf-odatlarni saqlash hamda rivojlantirish markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Maqola milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlarning uyg'unligining jamiyatning ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy birdamligiga qo'shayotgan hissasini yoritadi. Muallif masjidlarning faqat ibodat maskani emas, balki milliy qadriyatlarni saqlovchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy institut sifatidagi o'rnini yoritadi va zamonaviy O'zbekistonda diniy va milliy madaniyatning uyg'unligini mustahkamlash zaruriyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: masjid, milliy an'ana, diniy qadriyat, urf-odat, Farg'ona vodiysi, uyg'unlik, islom.

KIRISH

Islom dini O'zbekiston xalqining tarixiy-ma'naviy hayotida chuqur ildiz otgan bo'lib, u yurtimizning ko'plab urf-odatlari, marosimlari va qadriyatlari bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. Ayniqsa, masjidlar bu jarayonda muhim ijtimoiy-ma'naviy markaz sifatida shakllangan. Farg'ona vodiysi – diniy qadriyatlar bilan birga o'ziga xos urf-odatlari saqlanib qolgan hudud sifatida ajralib turadi[1]. Mazkur maqolada aynan ushbu mintaqadagi masjidlarda milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlar qanday uyg'unlashayotgani, bu uyg'unlikning ijtimoiy hayotdagi roli ko'rib chiqiladi.

Biz masjidlarning nafaqat diniy muqaddas joy sifatida, balki jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy va ma'naviy markaz sifatidagi o'rnini muhokama qilamiz. Masjidlar – musulmonlarning ibodat qiladigan joyi, shuningdek, ta'lim, tarbiya va jamiyatni birlashtirish markazlari hisoblanadi. O'zbekiston kabi diniy-ma'naviy qadriyatlarni qadrlaydigan mamlakatda masjidlarning ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Milliy urf-odatlar – bu xalq tomonidan asrab shakllangan, avloddan avlodga o'tkazilgan ijtimoiy normalar, marosimlar, hayot tarzi va odatlardir. Ular ko'pincha madaniyat va tarixga chuqur bog'liq bo'lib, xalqning o'zligini ifodalaydi.

Diniy qadriyatlar – insonning axloqiy, ruhiy, ma'naviy asoslarini tashkil etuvchi tamoyillar, e'tiqodlar va ibodat amallari. Islom dini doirasida bu Allohga ibodat qilish, adolat, rahm-shafqat, poklik kabi tushunchalar[2].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Masjidlar islom dinining muhim ibodat joyi bo'lish bilan birga, xalq ma'naviyatining tarbiyaviy, ruhiy markazlaridir. Farg'ona vodiysi masjidlarida jamoaviy ibodatlar (bomdod, juma, tarovih), diniy bayramlar (Xayit namozlari, Qurbon hayiti), ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (hadis darslari, axloqiy suhbatlar), vafot etganlarga bag'ishlangan Qur'on tilovatlar, nikoh, sunnat to'ylari va boshqa marosimlar bilan bog'liq diniy maslahatlar beriladi. Bu faoliyatlar milliy marosimlar bilan chambarchas bog'liq[3]. Masjid eng avvalo namoz o'qish, Qur'on o'qish, duo qilish kabi ibodatlar markazi. Bu joyda musulmonlar o'zlarining Allohga bo'lgan e'tiqodini ifoda etadi. Masjidlarda Qur'on saboqlari, hadis darslari, islom ta'limotlari o'rgatiladi. Bu orqali jamoa a'zolari diniy bilim va ma'rifat oladi. Masjidlar aholining ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Imom-xatiblar yordamida axloqiy va diniy qadriyatlar yuksak darajada targ'ib qilinadi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi bayramlarda masjidlar markaziy yig'ilish joyi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlarning uyg'unligi O'zbekiston jamiyatining mustahkamligi va ma'naviy salomatligi uchun zarur. Bu uyg'unlik nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omildir. Farg'ona vodiysi tajribasi bu uyg'unlikning yorqin namunalarini ko'rsatadi, u yerda xalqimizning boy madaniyati va islom dini bir-birini to'ldirgan holda rivojlanmoqda. Andijon viloyatidagi "Xo'ja Ahrori Vali" masjidi – yoshlar tarbiyasi va urf-odatlar asosida ishlovchi markaz, Namangan viloyatidagi "Sulton Uvays Qaroniy" jome masjidi – Qur'on o'qish an'alarini milliy xotira marosimlari bilan uyg'unlashtirgan, Farg'ona shahridagi "Jome" masjidi – "hayitlik ulashish", "mahallaviy xayr-sadaqa" an'alarini faol ilgari surmoqda[4].

Masjidlar turli qatlam va yoshdagi odamlarni bir joyga jamlab, ularning o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni shakllantiradi. Masjidlarda o'tkaziladigan marosimlar va tadbirlar xalqimizning milliy urf-odatlari va diniy qadriyatlarini uyg'unlashtiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda masjidlar muhim rol o'ynaydi[5]. Diniy ta'lim, sport, madaniy tadbirlar yoshlarni yomon odatlardan saqlaydi. Masjidlar kam ta'minlangan, nogiron yoki yolg'iz qariyalar uchun ijtimoiy yordam tashkil etishda faol ishtirok etadi. Masjidlar tarixiy an'analarning davomchilari sifatida, avlodlar o'rtasida ma'naviy uzviylikni ta'minlaydi.

Farg'ona vodiysi – o'ziga xos diniy va madaniy an'analarga boy mintaq. Bu yerda masjidlar qur'on kurslari va ma'rifiy uchrashuvlar faol tashkil etiladi, bayramlar va marosimlarda milliy urf-odatlar va diniy marosimlar uyg'un olib boriladi. masjidlar ijtimoiy muammolarni hal qilishda yetakchidir[6]. Masjidlar nafaqat diniy ibodatlar uchun, balki ma'naviy tarbiya, ijtimoiy birdamlik va milliy qadriyatlarni saqlashda markaziy rol o'ynaydi. Ularning faoliyati jamiyatimizning barqarorligi va ruhiy salomatligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuning

uchun ham, masjidlarning ijtimoiy va diniy ahamiyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlar insoniyat tarixida ma'naviy hayotning ikki asosiy omili hisoblanadi. Har bir xalqning madaniyati uning an'analari, urf-odatlari, marosimlari bilan ifodalanadi, shu bilan birga diniy qadriyatlar esa insonning ruhiy va axloqiy kamoloti uchun asosiy yo'naltiruvchi kuchdir. O'zbek xalqining ma'naviyati ana shunday milliy va diniy elementlarning uyg'unligida shakllangan. Ayniqsa, islom dini O'zbekistonga kirib kelgandan so'ng, u yerdagi milliy urf-odatlar bilan o'zaro moslashib, yangi ijtimoiy-ma'naviy qatlam yaratdi.

Masjidlarda o'tkaziladigan nikoh darslarida islomiy shariat talablariga amal qilish bilan birga milliy to'y marosimlariga xos jihatlar – kelin salom, kuyov libosi, ota-onaning duosi singari urf-odatlar bilan uyg'un tarzda o'tkaziladi[7]. Hayit namozidan so'ng bayram dasturxoniga borish, qo'ni-qo'shnilar bilan salomlashish, ota-onani ziyorat qilish kabi amallar – islomning ijtimoiy birdamlik qadriyatlari bilan milliy mehmondo'stlik urfini uyg'unlashtiradi. Islomda marhumga Qur'on o'qish, duo qilish odati bor. Shu bilan birga, xalq orasida "duoxonlik", "xatna Qur'on", "tosh qo'yish marosimi" kabi urflar masjidlarda diniy asos bilan birga xalqona shaklda o'tkazilmoqda. Masjidlardagi imomlar darslarida o'zbek xalq maqollari, tarixiy qahramonlar (Temur, Alisher Navoiy) misolida saboqlar berilishi – milliylik va diniylikni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlar jamiyatning birligiga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stligi va ulug'lash urf-odatlari diniy marosimlar (nikoh, Qurbon hayiti) bilan uyg'un keladi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Milliy marosimlar (nikoh, to'y, dafn) ko'pincha diniy rasm-rusumlarga asoslanadi, ammo ular milliy odatlarga ham moslashtiriladi. Masalan, nikoh marosimida islomiy nikoh o'qiladi, lekin unga xos milliy liboslar, musiqalar va an'analar saqlanadi. Milliy odatlar va diniy e'tiqodlar insonning axloqiy kamolotida birgalikda rol o'ynaydi[8]. Masalan, ota-onaga hurmat qilish, halollik, mehr-muhabbat kabi qadriyatlar islom ta'limoti bilan hamohang. Bolalarni tarbiyalashda milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldiradi. Oilaviy an'analar, ota-bobo ibratlari diniy ta'lim bilan uyg'unlashib, yosh avlodning kamoloti uchun zamin yaratadi.

Milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlar uyg'unligi xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Farg'ona vodiysi masjidlarida bu uyg'unlik amalda keng qo'llanilmoqda va bu jarayon nafaqat diniy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlamoqda, balki ijtimoiy birdamlik, axloqiy poklik va milliy birlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu tajriba butun respublika miqyosida targ'ib etilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlarning uyg'unligi – har qanday jamiyatning ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy uyg'unligini ta'minlovchi muhim omildir. Farg'ona vodiysi misolida ko'rish mumkinki, milliy an'analar va diniy tamoyillar bir-birini to'ldirib, xalqning kundalik hayoti, bayramlari, marosimlari va tarbiyasida uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Bu uyg'unlik nafaqat insonlarning

ruhiy kamolotiga xizmat qiladi, balki jamiyat ichida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, milliy o'zlikni saqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Diniy qadriyatlar milliy urf-odatlarining ma'naviy zaminini mustahkamlaydi, milliy urf-odatlar esa diniy qadriyatlarning amaliy hayotda ifodasini boyitadi. Shunday qilib, ular o'zaro uyg'unlashib, xalq madaniyatining boy merosini yaratadi va avloddan-avlodga uzluksiz ravishda yetib boradi. Farg'ona vodiysi tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy urf-odatlar va diniy qadriyatlarning uyg'unligi jamiyatning ma'naviy yuksalishi, ijtimoiy barqarorligi va milliy birdamligi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Shu sababli, bu uyg'unlikni asrash va rivojlantirish har bir jamiyat a'zosi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun. – T.: Adolat, 1998.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Qosimov B. Islom dini va urf-odatlar o'zaro ta'siri. – T.: Ma'naviyat, 2015.
5. Jo'rayev S. Masjid va milliy qadriyatlar uyg'unligi // Islomshunoslik, 2020, №2.
6. Mamajonov H. Milliylik va diniylik: o'zaro bog'liqlik masalalari. – T.: Din va jamiyat, 2019.
7. Farg'ona viloyati bosh imomlarining yillik ma'ruzalar to'plami, 2021.
8. Saidov A.X. Diniy bag'rikenglik va an'ana. – T.: O'zbekiston, 2017.
9. To'rayev M. Mahalla va masjid: qadriyatlar uyg'unligi // Ijtimoiy fikr, 2021, №4.

Карабоев Ш. Р.

Старший преподаватель «Социально-экономической» кафедры
Ферганский областной центр педагогического мастерства
shezodbekqoraboyev79@gmail.com

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕЧЕТЕЙ (На опыте Ферганской долины)

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется гармония национальных традиций и религиозных ценностей в деятельности мечетей Ферганской долины. В исследовании показано взаимодействие национальных традиций и исламских принципов в общественной жизни, а также их влияние на деятельность мечети. В Ферганской долине мечети выполняют функцию не только мест религиозного поклонения, но и центров сохранения и развития национальной культуры и традиций. В статье подчеркивается вклад гармонии национальных традиций и религиозных ценностей в духовную стабильность и социальную

сплоченность общества. Автор выделяет роль мечетей не только как мест поклонения, но и как социальных институтов, сохраняющих и развивающих национальные ценности, а также подчеркивает необходимость укрепления гармонии религиозной и национальной культуры в современном Узбекистане.

Ключевые слова: мечеть, национальная традиция, религиозная ценность, обычаи, Ферганская долина, гармония, ислам.

Qaraboyev Sh. R.

Senior teacher at the department of «Social-economical»

Fergana regional pedagogical skills Center

sherzodbekqoraboyev79@gmail.com

HARMONY OF NATIONAL TRADITIONS AND RELIGIOUS VALUES IN THE ACTIVITIES OF MOSQUES (Based on the experience of the Fergana Valley)

ABSTRACT

This article analyzes the harmony of national traditions and religious values in the activities of mosques in the Fergana Valley. The study shows the interaction of national traditions and Islamic principles in the life of society, their influence on the activities of mosques. In the Fergana Valley, mosques function not only as places of religious worship, but also as centers for the preservation and development of national culture and traditions. The article highlights the contribution of the harmony of national traditions and religious values To the spiritual stability and social cohesion of society. The author highlights the role of mosques not only as places of worship, but also as social institutions that preserve and develop national values, and emphasizes the need to strengthen the harmony of religious and national culture in modern Uzbekistan.

Keywords: mosque, national tradition, religious value, customs, Fergana Valley, harmony, Islam.

Tolibjonov A. T.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası tadqiqotchisi

O‘zbekiston Milliy universiteti

tolibjonovaziz895@gmail.com

SULTON TAKASHNING IROQ SALJUQIYLARI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI BILAN SIYOSIY MUNOSABATLARI TARIXI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XII asrning so‘nggi choragida Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida yuzaga kelgan murakkab harbiy-siyosiy vaziyat, xususan, Iroq Saljuqiylari davlatining tanazzuli va Anushteginiy-Xorazmshohlar davlatining mintaqaviy gegemonga aylanish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Sulton Arslon va Sulton To‘g‘rul III davridagi markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, Ozarbayjon otabeklari (Ildeniziylar) va Abbosiylar xalifasi an-Nosirning siyosiy ambitsiyalari hamda ushbu ziddiyatlardan Xorazmshoh Takashning Iroqi Ajamni zabt etishda qanday foydalanganligi ochib berilgan. Muallif Iroq Saljuqiylarining so‘nggi vakili Sulton To‘g‘rul III ning mustaqillik uchun kurashi, uning fojiali yakuni va Xorazmshohlar imperiyasining g‘arbiy chegaralarini kengaytirishdagi strategik va diplomatik manyovrlarini ilmiy baholagan.

Kalit so‘zlar: Anushteginiylar, Xorazmshoh Takash, Iroq Saljuqiylari, Sulton To‘g‘rul III, Abbosiylar xalifaligi, Xalifa an-Nosir, Ildeniziylar (Ozarbayjon otabeklari), Qutlug‘ Inonch, Ray jangi, Iroqi Ajam, geosiyosiy ekspansiya, harbiy diplomatiya.

KIRISH

XII asrning so‘nggi choragi Islom olami siyosiy xaritasida tub o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu jarayon Buyuk Saljuqiylar imperiyasining parchalanishi fonida yangi kuch markazlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, bir tomondan, Bag‘dod xalifaligining yo‘qotilgan dunyoviy hokimiyatni qayta tiklashga bo‘lgan urinishlari, ikkinchi tomondan, harbiy-siyosiy qudrati yuksalib borayotgan Anushteginiy-Xorazmshohlar davlatining g‘arbiy yo‘nalishdagi ekspansionistik siyosati natijasida yuzaga kelgan edi. Mazkur tarixiy jarayonda Iroq Saljuqiylari davlati bufer hudud va asosiy kurash maydoniga aylanib, uning taqdiri mintaqaviy kuchlar muvozanatining qayta taqsimlanishini belgilab berdi.

Xususan, Xorazmshoh Alovuddin Takash (1172–1200) hukmronligi davrida davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi Xuroson va Movarounnahr chegaralaridan chiqib, G‘arbiy Eron – Iroqi Ajam hududlariga ko‘chdi. Bu strategik burilish nafaqat hududiy kengayishni, balki Islom olamidagi qonuniy (legitim) siyosiy yetakchilik maqomini qo‘lga kiritishni maqsad qilgan edi. Iroq Saljuqiylarining so‘nggi sultonlari va ularning amaldagi hukmdorlari bo‘lgan Ozarbayjon otabeklari (Ildeniziylar) o‘rtasidagi ichki nizolar Xorazmshohlarga ushbu hududlarga kirib borish uchun qulay siyosiy zamin yaratdi.

Ushbu maqolada Iroq Saljuqiylari davlatining soʻnggi yillaridagi ichki siyosiy inqiroz, Sulton Toʻgʻrul III ning mustaqil hokimiyat uchun olib borgan kurashi hamda Xorazmshoh Takashning ushbu vaziyatdan foydalanib, Iroqi Ajamda oʻz hukmronligini oʻrnatish jarayonlari tahlil etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Ildeniziylar, Abbosiylar xalifaligi va Xorazmshohlar oʻrtasidagi uch tomonlama murakkab diplomatik va harbiy munosabatlar tizimi tanlab olingan boʻlib, bu davr tarixshunosligidagi ayrim bahsli masalalarga oydinlik kiritish imkonini beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Iroq Saljuqiylari davlatining soʻnggi davri markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va mintaqaviy kuchlar – Ozarbayjon otabeklari (Ildeniziylar), Abbosiylar xalifaligi hamda yuksalib borayotgan Xorazmshohlar davlati oʻrtasidagi keskin geosiyosiy kurashlar bilan tavsiflanadi. Sulton Arslonning vafotidan soʻng taxtga oʻtirgan uning oʻgʻli Sulton Toʻgʻrul III davri ushbu murakkab jarayonlarning markaziy nuqtasi boʻldi. Sulton Arslon hukmronligi yillarida davlat boshqaruvi amalda Otabek Ildeniz qoʻlida boʻlgan boʻlsa, uning vafotidan keyin bu vakolat oʻgʻli Jahon Pahlavonga oʻtdi. Aynan u oʻsha vaqtda endigina yetti yoshda boʻlgan Toʻgʻrul IIIning taxtga chiqishida hal qiluvchi rol oʻynagan edi. 1185-yilda Jahon Pahlavon vafot etgach, uning oʻrnini ukasi Muzaffariddin Qizil Arslon egalladi. Biroq, bu davrga kelib voyaga yetgan Sulton Toʻgʻrul III otabeklar vasiyligidan qutulish va oʻzining mustaqil hukmronligini tiklash istagini namoyon eta boshladi [1; 119-b.].

Sultonning mustaqillikka intilishi amaldagi hokimiyat egasi boʻlgan Qizil Arslon bilan ochiq toʻqnashuvga olib keldi. Mustaqil siyosat yuritish maqsadida Sulton Toʻgʻrul III bir kechada saroydan qochishga muvaffaq boʻldi va unga marhum Jahon Pahlavonning sodiq amirlari yordam koʻrsatdilar. Vaziyatni nazorat ostiga olishga uringan Qizil Arslon Sultonni taʼqib qilib Domgʻongacha borgan boʻlsa-da, harbiy toʻqnashuvda magʻlubiyatga uchrab, ortga qaytishga majbur boʻldi. Iroq Saljuqiylari va ularning nominal vassallari oʻrtasida boshlangan bu ochiq kurashga Saljuqiylar vasiyligidan xalos boʻlishni va oʻz dunyoviy hokimiyatini tiklashni koʻzlagan Abbosiy Xalifa an-Nosir ham faol aralashdi. Oʻz mavqeyini mustahkamlashga intilgan Qizil Arslon 1187-yilda Bagʻdodga elchi yuborib, Xalifadan harbiy va siyosiy koʻmak soʻradi [1; 120-b.]. Xalifa an-Nosir bu taklifni oʻz manfaatlari yoʻlida ayni muddao deb bilib, Qizil Arslonga saltanat yorligʻi va maktub yoʻlladi. Xalifa Qizil Arslonni nafaqat qonuniy Sulton Toʻgʻrul IIIga qarshi kurashga undadi, balki unga vazir Jaloliddin Ubaydulloh qoʻmondonligidagi qoʻshinni ham yubordi.

Rejaga koʻra, Bagʻdod askarlari va Qizil Arslon kuchlari birlashib, Hamadonga yurish qilishi va Toʻgʻrul IIIni hokimiyatdan chetlatishi kerak edi. Biroq voqealar rivoji kutilmagan tus oldi. Sulton Toʻgʻrul III yonida Qutlugʻ Inonch va Amiri amiron Umar kabi nufuzli shaxslar bor edi. Toʻgʻrul IIIning qoʻshini ittifoqchilar birlashishidan avval, Hamadon atrofida Xalifa qoʻshinini qarshi olib, ularni tormor etdi va 1188-yilning may oyida vazir Ubaydullohni asirga oldi. Gʻalabadan soʻng Sulton Toʻgʻrul III strategik chekinish qilib, Ozarbayjon hududiga yoʻl oldi. Magʻlub boʻlgan Abbosiylar ordusi qoldiqlari bilan Hamadonga kirib kelgan Qizil

Arslon esa, Saljuqiy xonadoniga mansub Sulaymonning o'g'li Sanjarni taxtga chiqarib, xutbani uning nomiga o'qitirdi (1188-yil sentabr) [2; 79-b.].

Qizil Arslon o'z mavqeyini qonuniylashtirish va mustahkamlash maqsadida marhum akasi Otabek Jahon Pahlavonning bevasi Inonch Xotunga uylandi [3; 85-b.]. Ayni paytda, Ozarbayjonda bo'lgan Sulton To'g'ul IIIning shubhaga berilib, o'z atrofidagi ishonchsiz deb bilgan shaxslarni qatl ettirishi uning obro'siga putur yetkazdi. Xususan, Sultonning o'z vaziri Izzaddin ibn Roziyuddinni xiyonatda ayblab, uni va ukasini qatl ettirishi, shuningdek, Hamadon raisi Faxriddinni zaharlab o'ldirtirishi unga nisbatan dushmanlik kayfiyatini kuchaytirdi. Vaziyatdan unumli foydalangan Qizil Arslon Sulton qo'shiniga to'satdan hujum qilib, uni butunlay tor-mor keltirdi. Hamadonga qochgan Sultonni ta'qib etgan Qizil Arslon, 1190-yil oktabr oyida To'g'ul III ni va uning o'g'li Malikshohni asirga olib, Tabriz yaqinidagi Kehron qal'asiga qamab qo'ydi [3; 86-b.]. Shu tariqa Qizil Arslon Iroq hududini to'liq o'z nazoratiga oldi.

Bu davrda Iroq Saljuqiy taxtida qo'g'irchoq hukmdor Sanjar o'tirgan edi. Biroq Bag'doddan Xalifaning Qizil Arslonning o'zi bevosita taxtga o'tirishini ma'qullashi to'g'risidagi xabar kelgach, Qizil Arslon Saljuqiy an'alariga zid ravishda o'zini Sulton deb e'lon qildi. Lekin uning yuritgan qattiqqo'l siyosati va shafqatsizligi amirlar orasida xavotir uyg'otdi. O'z hayotidan xavfsiragan ayrim qo'mondonlar va o'z o'g'lining taxtga chiqishini istagan Inonch Xotun o'zaro til biriktirib, 1191-yil sentabr oyida Qizil Arslonni uxlab yotgan joyida o'ldirdilar [4; 70–71-b.]. Uning o'limidan so'ng Iroq boshqaruvi Inonch Xotunning o'g'li Mahmud Qutlug' Inonch qo'liga o'tdi va mahalliy amirlar unga bay'at qildilar.

Kehron qal'asida taxminan bir yarim yil hibsda qolgan Sulton To'g'ul III turkman amiri Mahmud va Badriddin Dizmoriy yordamida ozodlikka chiqdi. Taxtni qaytarib olishga kirishgan To'g'ul III, 1192-yil 28-iyunda Qazvin tekisligida Mahmud Qutlug' Inonch qo'shinini og'ir mag'lubiyatga uchratdi va g'alabadan so'ng Hamadonga kirib, qaytadan sultonlik taxtini egalladi [5; 83-b.]. Mag'lub bo'lgan Qutlug' Inonch onasi joylashgan Ray shahriga qochib, Sulton To'g'ul III ga qarshi kurashish uchun qudratli Xorazmshoh Alauddin Takashdan yordam so'radi. Sulton To'g'ul III bilan munosabatlari buzilgan Xalifa an-Nosir ham xuddi shu mazmunda Xorazmshohga murojaat qildi.

Inqirozga yuz tutgan Iroq Saljuqiylari hududlarini o'z davlati tarkibiga qo'shishni maqsad qilgan Xorazmshoh Takash ushbu chaqiriqlarni qabul qilib, 1192-yilda Iroq Saljuqiylari hududiga bostirib kirdi [6; 447-b.]. Takash dastlab To'g'ul III ga vassallikni qabul qilish talabi bilan elchilar yubordi, ammo To'g'ul III bu taklifni qat'iyan rad etdi. Xorazm qo'shinining Rayga yaqinlashishi vaziyatni o'zgartirdi: o'z qilmishidan pushaymon bo'lgan va Xorazmshohdan hayiqqan Qutlug' Inonch qal'alardan biriga yashirindi. Rayga yetib kelgan Takash shaharni va Taborak qal'asini ikki kunlik qamal natijasida egalladi. Xorazm istilosining oldini olish maqsadida Sulton To'g'ul III diplomatik yo'l bilan Takashga qimmatbaho sovg'alar yuborib, sulh tuzishga erishdi. Kelishuvga binoan, To'g'ul III o'z hududlarida Takash nomiga xutba o'qitishi va tanga zarb qilishi, Ray shahri esa Xorazmshohlar davlati tarkibida qolishi belgilandi [2; 80-b.].

Biroq Xorazmshoh Takash o'z ukasi Sultonshohning Xorazmga hujum qilgani haqidagi xabarni eshitgach, Rayda o'zining yirik amirlaridan biri Tamg'achni qoldirib, shoshilinch ravishda ortga qaytdi. Bu vaziyatdan foydalangan Sulton To'g'ul III sulhni buzdi va qo'shini bilan Rayga yurish qilib, Taborak qal'asini qamal qildi va egalladi [7; 294-b.]. Xorazmliklarni shahardan quvib chiqargan Sulton, qal'ani buzdirib tashladi va amir Tamg'achning boshini tanasidan judo qilib, Xorazmga jo'natdi.

To'g'ul III Xorazmshohlar xavfiga qarshi keng ko'lamli koalitsiya tuzishga harakat qildi. U Tabaristondagi Bovandiylar hukmdori Isfahbad Husamuddavla Ardasher (1172–1210), G'uriylar hukmdori G'iyosiddin Muhammad (1163–1203) va Takashning raqibi bo'lgan Shimoliy Xuroson hukmdori Sultonshoh (1172–1193) bilan muzokaralar olib bordi. Natijada o'zaro manfaatlarga asoslangan qarshi shartnoma imzolanib, unga ko'ra Sultonshoh Nishopurni, Isfahbad Jurjon va uning atrofini, To'g'ul III esa Bistom va Domg'onni o'z nazoratiga olishi belgilandi.

Ushbu ittifoqqa tayangan Sulton To'g'ul III 1193-yilning noyabr-dekabr oylarida katta qo'shin bilan Rayga hujum qildi. Bu vaqtda Mahmud Qutlug' Inonch Xorazmshoh Takash tomonidan yordamga yuborilgan 7 ming nafar suvoriy bilan birga To'g'ul IIIga qarshi chiqdi. Hori Ray darasida bo'lib o'tgan shiddatli jangda (1193-yil 30-dekabr) Sulton To'g'ul III Qutlug' Inonch va Xorazm qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi [8; 257-b.]. Ushbu muvaffaqiyatdan so'ng butun Iroqi Ajam hududida o'z hokimiyatini mustahkamlagan To'g'ul III, afsuski, davlat boshqaruvini e'tiborsiz qoldirib, maishat va o'yin-kulgiga berilib ketdi.

To'g'ul IIIning Rayga hujumini o'zi uchun imkoniyat deb bilgan Qutlug' Inonch yana Xorazmshoh Takashdan yordam so'radi. Ayni vaqtda Abbosiy Xalifa ham Takashga maktub va yorliq yo'llab, To'g'ul IIIning barcha yerlarini Xorazmshohga iqto sifatida in'om etganini ma'lum qildi. Bu qonuniy asosga ega bo'lgan Takash 1194-yilda katta qo'shin bilan yurish boshladi. Tarixchi Ibn al-Asirning yozishicha, Sulton To'g'ul III o'zining tarqoq qo'shinini to'liq yig'masdan, oz sonli kuch bilan dushmanga qarshi chiqish xatosiga yo'l qo'yan; maslahatchilarining ogohlantirishlariga qaramay, u o'z qarorida qat'iy turgan [9; 281-b.]. Natijada, 1194-yil 19-martda Ray yaqinida bo'lib o'tgan hal qiluvchi jangda To'g'ul III mag'lubiyatga uchradi. Takash uni asir olib, qatl ettirdi va boshini Bag'dodga yubordi. Sulton To'g'ul IIIning o'limi bilan Iroq Saljuqiylari davlati rasman barham topdi [10; 411-b.].

G'alabadan so'ng Sulton Takash Ray va Hamadonni to'liq bo'ysundirib, Saljuqiylarga tegishli barcha qal'alarni zabt etdi va o'zini "Sulton" deb e'lon qildi. U Hamadon yaqinidagi Dejj va Qosimodod oraliq'ida o'zi uchun maxsus qarorgoh qurdirib, shahardagi qimmatbaho boyliklarni u yerga ko'chirtirdi.

Saljuqiylar xavfidan qutulgan Abbosiy Xalifa an-Nosir tez orada Xorazmshoh Takashning undan-da xavfli raqib ekanligini anglab yetdi. Xalifa o'z vaziri Muayyiddin ibn al-Qassobni qimmatbaho sovg'alar va hil'atlar bilan Takash huzuriga yubordi. Biroq, bu elchilikning asl maqsadi Xalifaning ustunligini ta'kidlash edi: vazirga Sulton To'g'ul IIIning sobiq yerlari Xalifa farmoni bilan Xorazmshohga berilayotganini (go'yoki bu Xalifaning marhamati ekanligini)

bildirish va unga hil'at kiydirish buyurilgan edi. Asadobodga yetib kelgan vazir Ibn al-Qassob, o'z qo'shini va unga qo'shilgan 10 mingdan ortiq mahalliy askarlarga ishonib, takabburlik bilan Xorazmshohga shunday xabar yubordi: "Xorazmshoh o'z taxti uchun Bag'dod xilofatidan qarzidor ekanligini tan olib, men bilan uchrashish uchun piyoda kelishi lozim". [2; 82-b.]

Bu talabni o'z mustaqilligiga tahdid deb bilgan Takash g'azablanib, 1196-yilda vazir qo'shiniga hujum qildi. Kutilmagan hujumdan sarosimaga tushgan vazir Bag'dodga qochdi va Xalifadan uzr so'radi. Xorazm qo'shini esa vazirni Dinovargacha ta'qib qilib, hududni talon-toroj etgach, Hamadonga qaytdi [7; 296-b.].

Iroqi Ajamni boshqarish uchun Sulton Takash hududlarni o'z amirlari va qarindoshlariga taqsimladi. Isfahonni Qutlug' Inonchga, Rayni o'g'li Yunusxonga berdi va amir Mayajiqni o'g'liga otabek etib tayinladi. Takash Xorazmga qaytishi bilan, vaziyatdan foydalanishga uringan Qutlug' Inonch yana siyosiy sahnaga chiqdi. Uning asl maqsadi Iroqi Ajamda otasi Jahon Pahlavon davridagi qudratni tiklash edi. U avval Takashdan foydalanib To'g'ul III ni yo'q qilgan bo'lsa, endi eski saljuqiylar amirlarni yig'ib, mustaqil hokimiyat uchun harakat boshladi.

Qutlug' Inonchning harakatlari Xorazmshoh noiblari tomonidan darhol javobsiz qoldirilmadi. Malik Yunusxon va Otabek Mayajiq Raydan katta qo'shin bilan unga qarshi yurdilar. Qutlug' Inonch Bag'dod tomon chekindi, ammo Mayajiq uni Zanjon yaqinidagi Muhammadiy qishlog'i va Somin oralig'ida quvib yetdi. 1195-yilda bo'lib o'tgan jangda mag'lub bo'lgan Qutlug' Inonch bor-budini tashlab qochdi va Xuzistonni egallab turgan Abbosiy vaziri Ibn al-Qassob panohiga bordi.

Vazir Ibn al-Qassob Qutlug' Inonchni izzat-ikrom bilan kutib oldi va u bilan birgalikda Iroqi Ajamni Xorazmshohlardan tozalash uchun yurish boshladi. 1195-yil sentabr-oktabr oylarida ular 5 ming suvoriy bilan Hamadonni egallab, yana bir necha hududlarni zabt etgach Rayga yuzlandilar [1; 142-b.]. Vazir Rayni qamal qilganda, shahar himoyachilari qarshilik ko'rsatdi, ammo Xalifa qo'shini shaharga kirib, talonchilikni boshlab yubordi. Vaziyatning og'irligini ko'rgan Qutlug' Inonch ittifoqchilikdan naf chiqmasligini anglab, bu yerdan ketishga majbur bo'ldi. Bu orada Mayajiq va Yunusxon ayyorlik ishlatib, Qutlug' Inonch bilan go'yoki hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirdilar va uni aldab Sovaga olib borib, o'sha yerda boshini tanasidan judo qildilar hamda boshini Xorazmga yubordilar.

Xalifa an-Nosir va Xorazmshoh o'rtasidagi diplomatik yozishmalar natijasiz tugadi. Xalifa Takashdan G'arbiy Eronni tark etishni talab qilsa, Takash aksincha, qo'shin ta'minoti uchun Xuzistonni ham so'radi va Bag'dodda o'z nomiga xutba o'qilishini talab qildi [11; 530–531-b.]. Ziddiyat kuchayib, Iroqi Ajamda beqarorlik avj oldi. Takash Abbosiy vaziri Ibn al-Qassobdan bosib olingan shaharlarni (Hamadon, Ray va boshqalar) qaytarishni talab qildi. Rad javobini olgach, Takash 1196-yilda katta qo'shin bilan yana Iroqqa kirdi. Ayni shu vaqtda, 1196-yil 14-iyulda vazir Ibn al-Qassob kasallikdan Hamadonda vafot etdi [2; 85-b.]. Vazirning o'limidan bexabar bo'lgan Takash Mazdagon yaqinida boshsiz qolgan Xalifa qo'shinini shafqatsizlarcha tor-mor etdi (1196-yil 14-iyul). Bu voqea

Xorazmshohlar va Abbosiylar oʻrtasidagi ilk yirik ochiq harbiy toʻqnashuv sifatida tarixda qoldi.

Magʻlubiyatdan soʻng tarqalib ketgan Xalifa askarlarini Amir Mayajiq Dinovargacha quvib bordi. Mayajiq gʻalabadan soʻng Hamadonga qaytib, shaharni qamal qildi. Shahar aholisi faqat Sulton Takashning oʻziga taslim boʻlishlarini bildirdilar. 1196-yil 18-iyulda Hamadonga yetib kelgan Takash shahar vakillarini qabul qildi va ularning iltimosiga koʻra shaharni talonchilikdan saqlab qoldi. Takash vazir Ibn al-Qassobning jasadini qabrdan qazib olib, yoqib yuborishni buyurdi, bu esa uning Xalifalik siyosatiga nisbatan nafratini ifodalardi [12; 76-b.].

Takashning gʻalabalari va qoʻllab-quvvatlovi Amir Mayajiqda haddan tashqari oʻziga ishonch va mustaqillikka intilish hissini uygʻotdi. Bu vaziyatni sezgan Xalifa an-Nosir Mayajiqni Takashga qarshi qayrash maqsadida unga maktub yoʻllab, uni “Jahon Pahlavoni, ikkinchi Rustam” deya ulugʻladi va mustaqil hukmdor sifatida tan olishini bildirdi. Xalifaning fitnasiga uchgan Mayajiq isyon koʻtarib, Iroq soliqlarini Takashga yuborishni toʻxtatdi va Hamadondan to Zanjongacha boʻlgan hududlarni talon-toroj qila boshladi.

Ushbu xavfni bartaraf etish uchun dastlab Ildeniziylardan Otabek Abubakr va Jamoliddin Oy-Abo 1199-yilda 4 ming kishilik qoʻshin bilan Mayajiqqa qarshi chiqib, uni Qiho hududida magʻlub etdilar [13; 367–368-b.]. 1199-yil yanvar oyida esa Sulton Takashning oʻzi shaxsan Iroqi Ajamga yurish qilib, Ray xalqining shikoyatlariga sabab boʻlgan va oʻzini sulton deb hisoblay boshlagan Mayajiqni batamom yoʻq qilishga kirishdi. Mozandaronga qochgan Mayajiq Xorazm askarlari tomonidan tutilib, Sulton huzuriga keltirildi. Faqatgina ukasi Malik Aqchaning iltimosi bilan uning joni saqlab qolindi va u bir yillik qamoq jazosiga hukm qilindi [9; 286-6.].

Xalifa an-Nosir soʻnggi chora sifatida Gʻuriylar sultoni Gʻiyosiddin bilan ittifoq tuzib, Xorazmshohga qarshi kurashishga urindi. Bu jarayonga Qoraxitoylar ham aralashib, mintaqaviy mojaro kengayib ketdi. Qoraxitoylar qoʻshini Amudaryoni kechib oʻtgan boʻlsa-da, Gʻuriylar tomonidan magʻlub etildi. Pirovardida, diplomatik muzokaralar natijasida Takash Qoraxitoylar talab qilgan tovon pulini Gʻuriylar orqali toʻlashga rozi boʻldi, buning evaziga esa Gʻuriylar Takashning Xalifa bilan munosabatlarini tartibga solish kafolatini oldilar. Yakunda Xalifa an-Nosir Xorazmshoh Takash va uning oʻgʻli Qutbiddin Muhammadga qimmatbaho sovgʻalar va rasmiy yorliq yuborib, ularni Xuroson, Turkiston va Iroqning qonuniy Sultoni deb tan oldi [9; 286-b.]. Shu tariqa, uzoq davom etgan qonli kurashlardan soʻng Iroqi Ajamda Xorazmshohlar hukmronligi uzil-kesil oʻrnatildi va mintaqada nisbiy barqarorlik taʼminlandi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot va tarixiy voqealar tahlili shuni koʻrsatadiki, Iroq Saljuqiylari davlatining qulashi va bu hududlarda Xorazmshohlar hukmronligining oʻrnatilishi tasodifiy jarayon emas, balki mintaqadagi chuqur tizimli siyosiy inqirozning qonuniy natijasi edi. Birinchidan, Saljuqiy sultonlari (xususan, Toʻgʻrul III) va real hokimiyatga egalik qilgan Otabeklar (Ildeniziylar) oʻrtasidagi doimiy ziddiyatlar markaziy boshqaruvni falaj holatiga keltirib, davlatning harbiy

salohiyatini zaiflashtirdi. Qutlug' Inonch kabi mahalliy elita vakillarining shaxsiy ambitsiyalari va xiyonatlari tashqi dushman – Xorazmshohlarga ichki eshiklarni ochib berishda hal qiluvchi omil bo'ldi.

Ikkinchidan, Abbosiylar xalifasi an-Nosirning “bo'lib tashla va hukmronlik qil” tamoyiliga asoslangan makkorona diplomatiyasi kutilgan natijani bermadi. Xalifalik Saljuqiylarni zaiflashtirish uchun Xorazmshoh Takashdan foydalanishga urindi, biroq pirovardida o'z chegaralarida yanada qudratli va xavfliroq raqib – Xorazmshohlar imperiyasining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Vazir Ibn al-Qassobning takabburona siyosati va Xorazmshohga nisbatan vassallik talablari Bag'dod va Gurganch o'rtasidagi munosabatlarni uzil-kesil buzib, qurolli to'qnashuvlarga va xalifalik obro'sining to'kilishiga olib keldi.

Uchinchidan, Sulton Takashning Iroqi Ajamdagi g'alabasi Xorazmshohlar davlatini mintaqaviy davlatdan ulkan imperiyaga aylantirdi. Sulton To'g'rul III ning mag'lubiyati va qatl etilishi bilan Buyuk Saljuqiylar sulolasining Iroq tarmog'i barham topdi va Eronning g'arbiy viloyatlari (Ray, Hamadon, Isfahon) Xorazmshohlar nazoratiga o'tdi. Garchi amir Mayajiq kabi Xorazm noiblarining isyonlari vaqtinchalik beqarorlikni keltirib chiqargan bo'lsa-da, Takashning qat'iy harbiy choralari va diplomatik manyovrlari (G'uriylar va Qoraxitoylar omilini neytrallashtirish) mintaqada Xorazmshohlar gegemonligini mustahkamladi.

Yakuniy xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, XII asr oxiridagi ushbu geosiyosiy jarayonlar Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatining harbiy-siyosiy qudratini namoyish etish bilan birga, uning ichki zaif nuqtalarini ham ko'rsatib berdi. Mahalliy aholi va zodagonlar bilan munosabatlardagi ziddiyatlar, hududlarni boshqarishda ishonchli noiblar masalasi va Xalifalik bilan davom etgan antagonizm keyinchalik imperiyaning mo'g'ullar istilosi oldidagi bardoshlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan bo'ldi. Shunga qaramay, Sulton Takashning g'arbiy yurishlari o'zbek davlatchiligi tarixida harbiy strategiya va diplomatiyaning yuksak namunasi sifatida o'rganilishga loyiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи / Туркчадан Назарбек Раҳим таржимаси. – Тошкент: Navro'z, 2016. – 316 б.
2. Vurgun N. Hârezmşah Devleti'nin dış politikası: doktora tezi / danışman Ayşe Dudu Kuşçu; T.C. Necmettin Erbakan Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Tarih Anabilim Dalı. – Konya, 2021. – 257 s.
3. Буниятов З.М. Государство Атабеков Азербайджана (1136–1225 годы). – Баку: Элм, 1978. – 272 с.
4. Чернявский С.Н. Империя хорезмшахов. – Москва: Вече, 2018. – 368 с.
5. Бунёдов З. Марказий Осиёга доир тақиқотлар. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати / масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев; таржимонлар А.Аҳмедов, М.Маҳмудов, М.Қўшмоқов. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2012. – 372 б.
6. Материалы по истории туркмен и туркмении. Том I. VII – XV вв. Арабские и персидские источники / Под редакцией С.Л.Волина,

А.А.Ромаскевича, А.Ю.Якубовского. – Москва–Ленинград: Издательство академии наук СССР, 1939. – 616 с.

7. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жахонгушо (Жахон фотиҳи тарихи) / Н.Раҳим таржимаси; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.

8. Mîrhând. Ravzatu’s-Safâ fi Sireti’l Enbiyâ ve’l-Mülûk ve’l-Hulefa / Trc: Erkan Göksu. TTK Yayınları. – Ankara, 2018.

9. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих (Полный свод истории). Избранные отрывки / Пер. с араб. яз., прим. и коммент. П.Г. Булгакова; Доп. к пер., прим. и коммент., введ. и указ. Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 560 с.

10. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Том 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 762 с.

11. Бартольд В.В. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии // Сочинения. Том 2. Часть 2. – Москва: Наука, 1964. – 660 с.

12. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231) / А.Аҳмад ва М.Маҳмуд тарж.; Масъул муҳаррир: Х.Содиқов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 256 б.

13. Ravendî. Râhatu’s-Sudûr ve Âyeti’s-Surûr (Gönüllerin Rahatı Sevinç Alameti). C. II. / çev: Ahmed Ateş, TTK Yayınları. – Ankara, 1960.

Толибжонов А. Т.

Самостоятельный исследователь кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

tolibjonovaziz895@gmail.com

ИСТОРИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ СУЛТАНА ТЕКЕША С ИРАКСКИМИ СЕЛЬДЖУКАМИ И АББАСИДСКИМ ХАЛИФАТОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется сложная военно-политическая обстановка, сложившаяся на Ближнем и Среднем Востоке в последней четверти XII века, в частности, процессы упадка государства Иракских Сельджуков и трансформации государства Ануштегинидов-Хорезмшахов в регионального гегемона. В исследовании раскрыты факторы ослабления центральной власти в период правления султанов Арслана и Тогрула III, политические амбиции атабеков Азербайджана (Ильденизидов) и аббасидского халифа ан-Насира, а также то, каким образом Хорезмшах Текеш использовал эти противоречия для завоевания Ирака Аджама (Персидского Ирака). Автор дает научную оценку борьбе за независимость последнего представителя династии Иракских Сельджуков – Султана Тогрула III, его трагическому финалу, а также стратегическим и дипломатическим маневрам Хорезмшаха по расширению западных границ империи.

Ключевые слова: Ануштегиниды, Хорезмшах Текеш, Иракские Сельджуки, Султан Тогрул III, Аббасидский халифат, Халиф ан-Насир, Ильденизиды (атабеки Азербайджана), Кутлуг Инанч, битва при Рее, Ирак Аджам, геополитическая экспансия, военная дипломатия.

Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich

Independent researcher at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

tolibjonovaziz895@gmail.com

THE HISTORY OF POLITICAL RELATIONS OF SULTAN TAKASH WITH THE SELJUQS OF IRAQ AND THE ABBASID CALIPHATE

ABSTRACT

This article analyzes the complex military-political situation that emerged in the Near and Middle East during the last quarter of the 12th century, specifically focusing on the decline of the Iraq Seljuq state and the transformation of the Anushteginid-Khwarazmian state into a regional hegemon. The research elucidates the weakening of central authority during the reigns of Sultan Arslan and Sultan Tughril III, the political ambitions of the Atabegs of Azerbaijan (Ildenizids) and the Abbasid Caliph al-Nasir, and demonstrates how Khwarazmshah Takash capitalized on these conflicts to subjugate Persian Iraq (al-Iraq al-Ajam). The author provides a scholarly assessment of the struggle for independence by the last representative of the Iraq Seljuqs, Sultan Tughril III, his tragic demise, and the strategic and diplomatic maneuvers employed by the Khwarazmshah to expand the western frontiers of the empire.

Keywords: Anushteginids, Khwarazmshah Takash, Seljuqs of Iraq, Sultan Tughril III, Abbasid Caliphate, Caliph al-Nasir, Ildenizids (Atabegs of Azerbaijan), Qutlugh Inanch, Battle of Rayy, Persian Iraq (al-Iraq al-Ajam), geopolitical expansion, military diplomacy.

Turdaliyev A. Z.

«O‘zbekiston tarixi» mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Farg‘ona davlat universiteti

turdaliyevabduhilol@gmail.com**CHIG‘ATOY ULUSI VA ELXONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI
SIYOSIY KURASHLAR****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Chig‘atoy ulusi hukmdorlari va Elxoniylar o‘rtasidagi siyosiy kurashlar hamda ulusdagi taxt uchun siyosiy kurashlar borasida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Mo‘g‘ullarning Movarounnahrdagi hukmronligi davri tarixga doir ma’lumotlar nisbatan kam uchraydi. Aynan shu sababli bu davri o‘rganishda ba’zi chalkashliklar mavjud. Rashididdin, Abulg‘oziy Bahodirxon, shuningdek, Mustafa Kafali, V.V.Bartold va boshqalarning asarlarida Chig‘atoy ulusi, hukmdorlari va ularning olib borgan siyosati haqida atroflicha fikr mulohazalar mavjud. Jumladan, V.V.Bartold Elxoniylar va Chig‘atoy ulusi hukmdorlarining o‘zaro kurashlarini manbalar asosida yoritgan. Elxoniylar saroyida xizmat qilgan Rashididdin esa siyosiy kurashlarga to‘xtalib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: xon, elxoniylar, Abaqa, Baroqxon, Qaydu, qurultoy, Buyuk xon, yorliq.

KIRISH

O‘zbek tarixshunosligida Chig‘atoy ulusi va undagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, Elxoniylar Abaqa va Chig‘atoy ulusi hukmdori Baroqxon davrida o‘zaro nizolar kuchaygan va shaharlarning vayron qilinishiga olib kelgan.

Xubilayxon 1264-yilda Ariqbug‘aning kuchini yo‘qotib, uni siyosiy maydondan chetlashtirgandan so‘ng qisqa muddat ichida katta qudratga ega bo‘ldi. Olg‘uxonning vafotidan keyin Muborakshohning Chig‘atoy ulusida taxtga chiqishi unga ma’qul kelmadi. Bunga asosiy sabab sifatida Muborakshohning musulmon bo‘lgani hamda undan yorliq olmagan holda taxtga chiqqanidir. Buddist hukmdor bo‘lgan Xubilay Pekindan Baroq ismli shahzodani jo‘natib, bir tomondan islomlashuvning yo‘lini to‘smoqchi, ikkinchi tomondan o‘zidan yorliq olmasdan taxtga chiqqan Muborakshohni taxtidan ag‘darishni maqsad qilgan edi[1:346]. Bu holatni Yisun-Tuving o‘g‘li Baroqqa yorliq berib, uni Chig‘atoy ulusiga yuborganidan anglash mumkin[2:100].

Baroq Chig‘atoy ulusi hukmronligi ostidagi ostidagi hududlarga yetib borganda, bu yerda Muborakshoh hokimiyatining kuchli ekanligidan kelib chiqib, Buyuk xon tomonidan berilgan yorlig‘ni oshkor etishni ma’qul ko‘rmadi. Shu sababli Baroq ukalari Mu‘min va Basar bilan birga Yesun-Tukaning o‘g‘illarining yurti bo‘lgan Chag‘oniyon viloyatiga chekinadi. Baroqning Chag‘aniyonga kelishi ortidan ko‘p o‘tmay, Muborakshohning bir necha amirlari uni tark etib, Baroq tomoniga o‘tib ketdilar. Xatto Muborakshohning o‘g‘li ham Baroqqa taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. Amirlarning taraf o‘zgartirishida Chingiziy an‘analarga

zid tarzda siyosat yuritilishi va hukmdorlikdagi musulmonlarning kuchli roli sabab bo'lgan. Baroq yetarli kuch to'plagach, Muborakshoh ustiga yurish qilib, uni Xo'jand shahri yaqinida taslim bo'lishga majbur etdi[3:320]. Bunga qaramasdan, Muborakshohning hukmronligi olti oy davom etdi. Yumshoq tabiatli hukmdor bo'lgan Muborakshoh raqibi Baroqqa bo'ysunib, uning xizmatiga kirgan va ayniqsa Baroqning Elxoniy Abaqa ustiga uyushtirgan yurishlarida muhim vazifalar bajargan. Muborakshohning besh nafar o'g'li mavjud bo'lib, ular: Olchay-Bug'a, Buralgay, Hur-Qaday, Isen-Fulad va Kadakdir. Muborakshoh Chig'atoy xonlari orasida birinchilardan bo'lib islomni qabul qilgan va natijada taxtdan ayrilgan shaxsdir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1264-yilda Baroq O'zgandda taxtga o'tirib, Olg'u va Organa xotunning barcha xazinasini qo'lga kiritdi[4:520]. Xonlikka chiqqan Baroq davlatdan yig'ilgan soliqni yorliq olgan Xubilayxonga yuborishi kerak edi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun u Mahmud Yalovochning o'g'li Mas'udni hokim sifatida tayinladi. Chingizxon davridan beri Chig'atoy ulusi tomonidan yig'ilgan soliqlarning Buyuk xonga yuborilishi an'anaga aylangan bo'lsa-da, bu masala tarix davomida katta muammoga aylangan. Chunki daromadning muayyan qismi tashqariga yuborilgani harbiy qudratning zaiflashuviga sabab bo'lgan. Taxtga chiqqanidan ikki yil o'tgach Baroq islomni qabul qilib, "Sulton G'iyosiddin" laqabini oldi. Groussetning ma'lumotiga ko'ra, Baroq Elxoniy Abaqa bilan 1270-yilgi jangda mag'lubiyatga uchraganidan so'ng qo'l ostidagi askarlar bilan Movarounnahrga qaytib, otidan yiqilib jarohat olgani sababli qishni Buxoroda o'tkazgan va aynan shu yerda "G'iyosiddin" laqabini olgan[5:372]. Muborakshoh bilan boshlangan islomiy harakat Baroq davrida davom etgan bo'lsa-da, keyingi voqealar natijasida uning rivoji to'xtagan. Abulg'oz Bahodirxon Baroqxonning umri davomida islomni yoyishga intilganini, ko'plab mo'g'ullarni islomga kirgizganini, ammo u vafotidan so'ng aksariyat mo'g'ullar yana avvalgi dinlariga qaytganini bildiradi[6:131].

Baroqxon Chig'atoyxonning o'g'li Mutigenning nabirasi, Yesu-Munggening o'g'lidir. Otasi Yesu-Mungge 1251-yilda Mo'ngge xonning taxtga chiqishiga qarshi bo'lgan va fitna ishlari sabab o'zaro hamtovoq shahzodalar bilan birga qatl etilgan. Shundan so'ng shahzodalar avlodi Qoraqurumga tarbiyaga jo'natilgan va Baroq ham shu shahzodalar safida bo'lgan. Ular ulusga qaytgach u qisqa muddat ichida hokimiyatni qo'lga oldi, oldingi xon Muborakshohni o'z tasarrufiga kiritib, uni ov amiri lavozimiga tayin etdi[4:520]. Baroq hukmron bo'lgan davrda Qayduxon, Elxoniy Abaqa va Xubilayxonga qarshi turib, o'z ulusini himoya qilishga majbur bo'ldi. Xubilay Baroqning itoatkor bo'lmasligini anglagach, Turkiston kabi muhim hudud ustidan hukmronlikni mustahkamlash uchun qat'iy siyosiy choralar ko'rishi zarurligini bildi. Shu bilan Baroq singari harbiy faol shaxsni va Oriqbug'aning tarafdori Qayduni siyosiy maydondan chetlashtirmoqchi bo'ldi. Bu holat Chig'atoy ulusi bilan Yuan sulolasi o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi.

Shuningdek, Chig'atoylar Elxoniylar va Yuan sulolasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qo'shma harbiy bosimdan xavotirda edilar. Shu tariqa

ikki kuch o'rtasidagi siyosiy raqobat ochiq tus oldi. O'qtoy avlodining yetakchisi bo'lgan Qaydu ham Buyuk xonlik huquqlaridan voz kechishni istamasdi. U ittifoq izlab Baroqdan o'zini qonuniy hukmdor sifatida tan olishini, unga bo'ysunishini talab qildi, ammo Baroq bu taklifni rad etdi. Rad etishining asosiy sababi Qaydu qo'l ostida muntazam va kuchli qo'shin yo'qligi edi.

Bu davrda Oltin O'rda hukmdori Mangu Temur ham Buyuk xonlik masalasida noaniq pozitsiyada bo'lgan bo'lsa-da, Xubilayga xayrixoh emas edi. Shu bois Qaydu qo'shinini kuchaytirish yo'lida unga qo'shin yuborib, u bilan ittifoq tuzdi. Natijada Qaydu Talas vohasini taladi, Baroq esa qiyin vaziyatda Movarounnahrda chekinishga majbur bo'ldi. Baroq qo'shin to'plash uchun o'z aholisi ustiga mashaqqatli soliqlar yukladi, hunarmandlarni tunu-kun qurol yasashga majbur qildi, ammo baribir yetarli manba topa olmadi[7:83-84]. 1269-yilda uch ulus hukmdorlari birgalik siyosatni belgilash maqsadida yig'ildilar. Yetti kun ziyofat uyushtirilgach, sakkizinchi kuni Qaydu raisligida qurultoy o'tkazildi. Qurultoyda Baroqning aytgan so'zlari uning maqsadlarini aks ettiradi. U Chig'atoy ulusining o'ziga tegishli hududlarda mustaqil hokimiyatni to'liq tiklashni talab qiladi. Aynan shu masala Baroq bilan Elxoniy Abaqa o'rtasida yuzaga kelgan urushning asosiy sabablaridan biri sifatida ilgari surilgan.

Baroq o'z xonligidagi og'ir vaziyatni tushuntirib, barcha qarindoshlari keng yer-mulkka ega ekanini, atrofni qarindoshlari va Qaydu tomonidan tahdid ostida ekanligini qurultoy ishtirokchilariga izohlamochi bo'ldi. Xonlik a'zolari qurultoy davomida bir-birlariga doimo "anda" deb murojaat qilardilar, kiyimlarini o'zgartirardilar va turk-mo'g'ol an'analariga binoan qasamyod qilardilar; ya'ni ichimlik stakanlarini almashtirib, bir-birlariga sodiq bo'lishga qasam ichardilar. Vassafning yozishicha, bu qurultoy 1267-yillarda Samarqandning shimolidagi Qatvon yerlarida, Rashiduddin ma'lumotlariga ko'ra esa 1269-yilda Talasda bo'lib o'tgan. Natijada Mavarounnahrning uchdan ikki qismi Baroqqa, uchdan biri esa Qaydu va Mangu Temurga taqsimlanishi belgilandi. Bundan tashqari, Baroqning mulkini kengaytirishi uchun Abaqa yerlariga hujum qilishiga qurultoyda ruxsat berildi. Shahzodalar bundan buyon shaharlar va ekin maydonlarida zo'ravonlik qilmasliklari, chorvalarini o'tloqlarda boqmasliklari va hududlarga zarar yetkazmasliklari, qabul qilingan qarorlardan voz kechmasliklarini kelishib oldilar. Shu qaror qabul qilingach, qurultoy yakunlandi.

Bundan tashqari, Baroqxon qurultoydan so'ng qishloqlar va dehqonchilikni rivojlantirish, ijtimoiy hayotni mustahkamlashga hissa qo'shdi. Belgilangan siyosat bilan Chig'atoylar va O'qtoylar Tuluning Xitoy va Erondagi vorislariga qarshi ittifoq tuzdilar. Ular uchun bir-birlariga qasam orqali bog'lanish oilaviy aloqalardan muhimroq edi. Xonlar tomonidan yaxshi tashkil etilgan va jozibali katta savdo markazlarini yaratish chorasini tez buziladigan ittifoqlardan samaraliroq bo'ldi. Ammo ushbu ittifoq Chig'atoy ulusini keyinchalik chiqish yo'q bo'lgan murakkab vaziyatga solishi mumkin edi. Ushbu qurultoy Chig'atoy ulusi tarixida sezilarli o'zgarishlar keltirdi. Zaki Validining ta'kidlashicha, "To'rt buyuk ulusdan uchinchisi bo'lgan O'qtoylar janubga qarab kengaydi, Talas va Toshkent hududlari ularning nazoratiga o'tdi. Chig'atoy xonligi bilan ushbu viloyatlar ustidan nazorat va boshqaruv masalalari yuzasidan urushlar sodir bo'ldi. Nihoyat, 1268-yilda

Samarqand shimolida Qatvonda, 1269-yil bahorida Talas va Kenchekda Jo'ji xonligi ishtirokida qurultoy o'tkazildi. Qurultoyda uluslarning egallagan hududlari o'zgartirildi, Oltoy va Jung'ariya hududiga ko'chib o'tgan O'qtoy xonligi qabilalari yuz minglab, ehtimol millionlab insonlarni O'rta Tyanshanga, Chig'atoy aholisini Sharqiy Buxoro va Hisor atrofiga ko'chirishga olib keldi. Natijada Mo'g'ullar Tyanshan hududini zabt etib, eski vohalarga tushib "Kent Turku" bo'ldilar va bu ulkan ko'chish Temur davrigacha davom etdi. Shu tariqa, jiddiy sotsiologik o'zgarishlar va aholining aralashishiga sabab bo'ladigan muhim qarorlar qabul qilindi, va harakat maydoni cheklangan Chig'atoy xoni Baroq Elxoniy hududlariga hujum qilish imkoniyatini oldi. Baroq bu imkoniyatni qo'lga kiritib tezda tayyorgarliklarni boshladi. Shu tayyorgarliklar davomida u xalqni turli talablar soliqlar bilan qiyin ahvolga tushirdi. Bundan tashqari Movarounnahrda barcha chorvani haydab yubordi, xalqning mol-mulkini majburan oldi va bosqinchilik siyosatini amalga oshirishga harakat boshladi. Ma'sudning keltirgan ayg'oqchilik ma'lumotlaridan so'ng Baroq yurish rejasidan voz kechdi[7:522].

Baroqxon, xonlik uchun Xubilayga qarshi urush ochgan Qaydu bilan Buyuk xon o'rtasida muvozanatli siyosat qo'llashga harakat qilgan bo'lsa-da, bir muddatdan keyin Qaydu hukmronligini tan olishga majbur bo'ldi. Qayduxonning Baroqxon va Chig'atoy xonligi ustidagi barcha vakolatlari uning qo'lga o'tganligi Tarozi shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda rasmiylashdi. Ikki ittifoqchi o'rtasida kelishuvga ko'ra, Qaydu xoqon sifatida Ili havzasi va Turfonga ega bo'ldi, Movarounnahrning katta qismi va Xuroson esa Baroqga berildi. 1269-yilda Talasda bo'lib o'tgan qurultoydan keyin amalga oshirilgan muhim o'zgarishlar bilan Chig'atoy ulusi endi Buyuk xonga bo'ysunmay, Qaydu ulusi boshqaruvi ostiga kiradi. Shu tariqa Ma'sud Yalovoch Qayduxon nomidan umumiy vali unvoni bilan shaharlarni boshqaradi. Chig'atoy ulusi, Olg'u tomonidan boshlangan mustaqillik harakatini shu tariqa yo'qotdi. Michal Biran esa Qaydu ko'tarilishini shunday tushuntiradi: Baroq 1270-yilda Hirotdagi jangda mag'lub bo'lishida Qaydu bilvosita hissa qo'shgan. Qayduxon yaxshi qo'mondon, urush strategiyalarini yaxshi bilgan, Mo'g'ul an'anasiga qat'iy rioya qilgan va hukmronligi davomida musulmonlar va islomni qabul qilganlarga nisbatan hech qachon ortiqcha munosabatda bo'lmagan. Shu sababli Jamol Qarshiy uni adolatli, saxiy, halim, donolik bilan ish tutadigan, musulmonlarni himoya qiluvchi xon sifatida ta'riflaydi.

Xubilay Xitoy va Yaponiya bilan shug'ullangan bir paytda bu vaziyatlarga darhol javob berishni istamadi. Keyinchalik Xubilay eng yaxshi generali Nomoganni yuborib, ushbu ittifoqni yo'q qilishga harakat qildi. Nomogan urushlarda muvaffaqiyat qozonib, O'qtoy va Chig'atoylarning birligi buzildi, xiyonatlar yuzaga keldi va ko'plar Xubilay tarafiga o'tishdi. Shu urushlar davomida Qayduxonning Xitoydagi eng katta homiylaridan biri Nayan vafot etdi[8:240]. Baroq xonlikning dastlabki yillarida Xubilayxon 6 000 kishilik kuch bilan Mo'gultay nomli qo'mondoni yubordi, Baroq esa uni mag'lub etib, Xo'tan shahriga qadar yurdi. Abaqa Elxoniy taxtiga o'tganidan keyin chegaralarda to'qnashuvlar yuz berdi. Shu davrda Elxon Abaqa Oltin Orda va Chig'atoylar bilan kurashishga majbur bo'ldi. Elxoniyalar, Berkaxon boshchiligidagi Oltin Orda

shimoldan hujum qilishi mumkinligidan xavotirda edi. Bu davrda Oltin Orda bilan bo'lgan mojaro natijasida Elxoniylar va Vizantiya o'rtasida yaqinlashuv yuz berdi.

Abaqa Vizantiya bilan aloqalarni mustahkamlash uchun imperator qizi Despina bilan turmush qildi. Bu malika bilan birga Antakya patriarxi va bir qator ruhoniylar ham hamrohlik qildi. Vizantiya ushbu yaqinlashuvdan foyda ko'rdi, u Sharqiy savdo yo'llarini, ya'ni Turkistondan boshlab Elxoniy hududidan o'tib, Anqara orqali Istanbulga boruvchi yo'lni xavfsizlashtirdi[9:21]. Shu tariqa Elxoniylar Oltin Orda ustidan ustunlikka ega bo'ldi va Chig'atoylarga qarshi osonroq kurash imkonini qo'lga kiritdi. Oltin O'rda va Elxoniylar orasidagi asosiy mojaro manbai Ozarbayjon hududi bo'ldi, chunki Abaqa otasi Hulagu kabi bu hududning o'tloqlari, shahar va qishloqlarining rivojlanishi, xususan to'qimachilik sanoatiga katta e'tibor qaratdi. Berkaxon esa Ozarbayjon hududini Oltin Orda chegarasiga kiritishga harakat qilgan va o'z qo'shinlari Eronni ishg'ol qilishda va Bag'dodni egallashda qatnashgani uchun bu hududni mukofot yoki ulush sifatida talab qilishi ikki tomon o'rtasida urushga sabab bo'ldi.

1269-yilda bo'lib o'tgan qurultoydan keyin Qaydu va Baroq o'z muammolarini chetga surib, tinchlik o'rnatdilar. Shu tinchlik bilan Qaydu 1301 yoki 1303-yilgacha Chig'atoy xonligi taxtida hukmronlik qildi[10:356]. Ushbu tinchlik siyosiy yaqinlashuvning kuchini namoyon qilish maqsadida ishlatilgan bo'lishi mumkin. Qurultoy qarorlariga ko'ra, Baroqxon Elxon Abaqa yerlarini egallash uchun harakatga o'tdi. Shu sababli, bu tinchlikdan keyin vali Mahmud Yalovochning o'g'li Ma'sud Yalovoch Qayduxon va Movarounnahr hukmdori Baroqxon nomidan Abaqa huzuriga elchi sifatida yuborildi. Ma'sud Abaqa huzuriga yetib borgach, Baroqning do'stona so'zlarini yetkazdi. Ammo Ma'sudning yomon niyati Juvayniy bilan qilgan yomon muomalasi orqali sezildi. Juvayniy uni mehmondo'stona kutib oldi, lekin Ma'sud uni haqorat qildi. Ma'sud Yalovoch Elxoniylar saroyiga yuborilishining asl sababi do'stlik emas, balki Elxoniylar ahvoli haqida axborot to'plash edi. Ma'sud Elxoniylar saroyini tark etishi bilan Baroqning qo'shinlari Amudaryoni kesib hujum qilgani haqida xabar yetkazildi. Bu xabar Baroqning Movarounnahrda e'tiborini boshqa tomonga qaratish strategiyasi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Baroq, Movarounnahrda qo'llagan qattiq soliqlar orqali armiyani tashkil qilib, hujumlarni boshladi. Natijada u Xurosonning barcha hududlarini muvaffaqiyat bilan egalladi. Baroq o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida Elxoniylarning sharqqa yurishini oldini olish uchun, Abaqa xizmatida bo'lgan qarindoshi Nikudarni Abaqaga qarshi qo'zg'atdi. Nikudar bilan bog'lanish uchun elchilar yuborildi va unga maxfiy xatlar yetkazildi, jumladan ichida maxfiy yozuv joylashtirilgan o'qlar ham bor edi. Nikudar ushbu xatlarni o'qib, Baroqning harakatlariga qarshi kurashishga urinmadi va o'z hududiga qaytdi. Nikudar o'z hududida qo'shinini ko'paytirib, boyligini oshirdi. Uning qo'shinlari va mulki katta edi: 150 ta arava, ko'plab ot va chorva hayvonlari, shuningdek 40 000 jangchi otliq. Nikudar va qo'shinlari tunda yo'l to'sib, karvonlarni talashdi, qishloqlarni bosib, odamlarni o'ldirdi, ruhoniylarni qiynadi va vahshiylik qildi. Bu qonun tanimaydigan harakatlar manastrlar va qishloqlarga zarar yetkazdi.

Buni eshitgan Arman va Gruziya hukmdorlari Abaqa huzuriga shikoyat qildilar. Abaqa Nikudarga qarshi qo'shin yubordi. Nikudar esa Abaqa qo'shinlariga qarshi hujum qildi va Darband orqali Baroq qo'shiniga qo'shilmoqchi bo'ldi. Bu haqida xabar olgan Abaqa qo'mondon Shiremun no'yon Nikudar ustiga yubordi. Nikudarning qo'shinlari va Shiremun qo'shinlari orasida kuchli to'qnashuv yuz berdi. Nikudar to'qnashuvdan qochib, Darband orqali yashirilib, Gruziya tog'larida yo'lini yo'qotdi. Ko'plab askarlari halok bo'ldi. Nikudar oxir-oqibat Qutaisi shahriga yashirindi. Lekin Baroqqa yordam berish fikridan qaytmadi. Buni eshitgan Abaqa Nikudar yordamini to'xtatish uchun elchilar yubordi. Nikudar qo'shinlari bilan Darband orqali Baroqqa qo'shilish niyatida bo'lganda, Shiremun uni ushladi. Nikudar mag'lub bo'lib, barcha boyliklari va xotini bilan 1281-yil dekabrda Abaqa huzuriga yetkazildi[11:69]. Xuroson voqealari tugagach, u ozod qilindi va keyinchalik vafot etdi. Nikudarning qochib ketgan qo'shinlarining bir qismi uzoq vaqt davomida talonchilik qilib bordi.

Shu sharoitda Baroqning Xurosonni egallash harakati ham muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Yurish quyidagicha tashkil qilingan edi. Baroqxon qo'shinlarida Qayduxon tomonidan yuborilgan Qipchoq-O'g'uz qo'shinlaridan tashqari, Chig'atoy shahzodalaridan Ahmad Bo'ru, Nikbay O'g'ul, Taligu va Muborakshoh ham o'z qo'shinlari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga, uning aka-ukalari Mumin va Yasar Bayli ham Baroq yonida edilar. Ushbu qo'shinlar ikki yo'l bilan Sirdaryo (Jayhun)ni kesib o'tdilar. Biri Termiz yaqinidan Badaxshon, Toliqon, Shibirg'on orqali, ikkinchisi Amu yaqinidan Marv hududlarini egalladi. Keyin ikki qo'shin Nishaburga yetib, birlashdi va Abaqa qo'shinlarini mag'lub etib, Nishabur ham egallandi. Hirotga yetib kelganlarida Abaqaxonning ukasi va Xuroson voliysi Bochinni mag'lub etishdi. Hirot shahriga yetganda Ma'sud shahar devorlariga borib, lekin shahar eshigi yopiq ekanini ko'rdi. Shahar qozisi devorlarga chiqib, Abaqa shahri ularga topshirganini va dushmanlarga eshikni ochmaslikni va'dalashganini aytdi. Ma'sud Baroqqa bu holatni xabar qildi, Baroqxon esa g'azablendi, ayni shu paytda Abaqa qo'shinlari shaharni tark etdi. Qutlug' Temur vositachiligida Baroq Hirotlik Shamsiddin kurd bilan aloqalarni o'rnatdi. Bu istilolardan so'ng Hirot maligi Shamsiddin kurd unga bo'ysunishga va soliq to'lashga majbur bo'ldi. Shunga ko'ra, Baroq uni turli sovg'alar bilan mukofotladi va Xuroson hududlarini unga topshirdi. Baroq shunday dedi: "Bundan keyin men nimani egallasam, xuddi shu tarzda senga ham taqsimlanadi." Malik Shamsiddin kurd juda hushyor va hiyla-nayrang qiluvchi odam edi. U Baroqning so'zlaridan ta'sirlanib, xalqidan ortiqcha soliq undira boshladi va hududdagi aholiga zulm qildi.

Biroq Baroqxon mag'lub bo'lgach, Abaqaxon undan o'ch olishga harakat qildi. Vazir Juvayniy taklifiga binoan saroyga kelgan Shamsiddin kurd surgunga haydaldi va Oltin Orda tasarrufidagi Kavkaz chegarasida, vataniga qayta olmasdan, 1278-yilda vafot etdi[7:100]. Shu davrda Abaqaxon Mamluklar masalasi bilan ham shug'ullanmoqda edi. Ushbu masaladan qutulish maqsadida u G'arb bilan aloqalarni o'rnatdi. Natijada Angliya shahzodasi Eduard bilan ittifoq tuzildi. Biroq kutilmagan tarzda, Chig'atoylar va Elxoniylar sharqiy chegaralarni tahdid qilishi

va Xurosonni egallashi sababli Abaqa Mamluklarga qarshi rejalangan yurishdan voz kechdi. Bu istilolardan keyin Abaqa tezda Ozarbayjondan qaytdi. Abaqa sharqqa yuborgan qo'shini mag'lubiyatga uchraganligi sababli, Baroq Nikudarni isyon ko'tarishga undaganda Elxoniylar uchun jiddiy xavf yuzaga kelayotgan edi. Ammo bu xavf bartaraf etilgach, Abaqa 1270-yil 27-aprelda Xurosonga yurishni rejalashtirdi.

Ozarbayjon va Kavkaz hududlarida Elxoniylar va Oltin O'rda o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganidek, Xuroson hududida ham Elxoniylar bilan Chig'atoylar bu mintaqani nazorat qilish uchun kurash boshladilar. Elxon Abaqa Hirot hududida uchta josusni ushlaganida, Oltin O'rda yana Darband orqali hujum qilganini bildi. Abaqa darhol bu hududga yo'l oldi. Josuslardan ikkitasi qatl qilindi, uchinchisi esa Abaqa rejasiga binoan ozod qilindi. Shu josus ot topib unga minib, Baroq tomon qochdi va unga Abaqaxonning holatini xabar berdi. U aytdiki, jang maydonida faqat chodir, kiyim-kechak, kuloh va kamar bor. Baroq bu xabardan juda xursand bo'ldi va Abaqaxonning buyruqlari, qo'shini va kuchi haqida so'radi. Josus shunday dedi: "Ularning hayvonlari va qurollari ko'p, ammo ularning qo'mondonlari shijoatli emas va qo'shini G'arbga hujumga tayyorlanmoqda"[7:100]. Bu Baroqga kuch bag'ishladi. Josus ozod qilinishidan so'ng, Abaqaxon barcha qo'shinlari bilan Baroq bilan yuzlashdi. Baroq Abaqa G'arbga yurayotganini o'ylagan bo'lsa-da, uning o'rniga Abaqa qo'shin bilan harakat qilayotganini ko'rib, bularning barchasi oldindan tayyorlangan tuzoq ekanligini anglab etdi. Shu vaqtda Baroqning qarorgohini tark qilgan bir munajjim qo'y suyagi ustida qilgan kuzatuviga asoslanib, Abaqaning g'alabasini bashorat qildi.

Abaqaxonning rejasi muvaffaqiyatli bo'ldi va Baroq Abaqa G'arbga yurmoqda deb ishonib qoldi. Har ikki qo'shin yuzma-yuz kelganda, kechikmasdan jang boshlandi. 1271-yil yozida bo'lib o'tgan jangda Qayduxon yordamga yuborgan qo'shinlar Baroqni jangning eng issiq pallalarida tark etdi va natijada bashorat qilinganidek Baroq to'liq mag'lub bo'ldi. Abaqaxon qo'shinining o'ng qanoti Tobshin O'g'ul bilan birga Samagar va Hindu no'yonlarga, chap qanoti Yoshmut, Suntay, Argun Aka Shiktur no'yon, Burultay va Abdulloh Akaga topshirildi. Baroqning eng kuchli jangchilari Mergavul va Jelayirtay ham ushbu jangda halok bo'ldi. 22-iyul 1271-yilda Hirot yaqinida sodir bo'lgan va juda qattiq bo'lgan jangdan so'ng Elxoniylar qiyin bo'lsa-da g'alaba qozondi. Baroq mag'lubiyatdan keyin Buxoraga qaytib, ukasi Yasar orqali Qayduxonga vaziyatni bildirdi. Bu voqealar Qaydu Xonning manfaati yo'lga mos keldi, chunki u qarshisida kuchli Baroqni ko'rishni istamadi va Elxoniylarni zaiflashtirdi. Shu sababli Qayduxon oldindan yordamga yuborgan qo'shinlar Baroqni tark etgan. Baroqning qaytish jarayoni davomida Elxoniylar qo'shinlari Jayhun daryosini kesib, Chig'atoy hududiga kirib, Baroqni qiyin ahvolga solishdi. Elxoniylar Buxorani egallab, talan-taroj qilishdi. Shu tariqa Abaqa Xuroson yurishi bilan Baroqning Xurosondagi orzulariga chek qo'ydi.

Movarounnahrqa qaytgan Baroq ot yiqilib olgan jarohati sababli qish mavsumini Buxorada o'tkazdi. Qayduxon Baroqga yordam berish uchun Movarounnahrqa yetib keldi. Shu sababli Elxoniylar qo'shinlari tezda Jayhun

janubiga tortildi[2:351]. Qayduxon barcha ishlarning o'z xohishiga ko'ra ketganini ko'rib, qasamini bahona qilib Chig'atoy hududiga kirib keldi. Baroqning qarargohiga yetganda esa Baroq allaqachon vafot etgan edi. Qayduxon Baroqni zahar bilan o'ldirtirdi va shunday qilib Chig'atoy xonligi ustida to'liq hukmronlik o'rnatdi. Baroqxon vafotidan oldin Islomni qabul qilgan yoki qilmaganligi manbalar orasida farq qiladi. Rashiduddin uni musulmon kabi dafn etilmagan, Mo'g'ul uslubida baland tepalikka dafn qilganini aytsa, Vassaf esa Islomni qabul qilganini yozib qoldirgan. Shunga qaramay, Qayduxon uni Mo'g'ul odatiga ko'ra tog'da dafn ettirdi. Baroq Xon vafot etganda besh o'g'lini qoldirdi: Bek-Temur, Duva, Tokta, Uladay va Bozma[2:113].

Elxoniy hukmdori Abaqa Chig'atoylarning holatidan foyda olish maqsadida Suriya yurishini kechiktirdi. Keyinchalik, Halabga hujum boshladi. Hududni taladi. Abaqa Baroqning vafoti va Chig'atoylar boshsiz qolganini bilib, bu hududda endi muammo bo'lmasligini hisoblagan. Shu bilan birga, u Chig'atoylardan qasos olish va ulus ustidan to'liq nazorat o'rnatish, yoki kamida sharqiy chegaralarda tinchlikni ta'minlash maqsadida buni imkoniyat sifatida ko'rdi. Elxon Abaqa Suriya safaridan qaytgan zahoti Xiva va Urganchga ham hujum qildi.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, Abaqa va Baroq orasidagi nizolar hech kimga siyosiy ustunlik bermaganini ayta olamiz. Bu kurashdan Qaydu foydalandi va Chig'atoy ulusidagi ta'sirini kuchaytirib oldi. Abaqa esa Xurasonni tassarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cahun L., Asya Tarihine Giriş Türkler Ve Moğollar, çev. İ. Kaya, Toplumsal Dönüşüm yay. – İstanbul, 2013.
2. Kafali M., “Çağatay Hanlığı”, Türkler Ansiklopedisi, Yeni Türkiye yay. – Ankara, 2002.
3. Roux J. P., Moğol İmparatorluğu Tarihi, çev. A. Kazancıgil, A. Bereket, Kabalcı yay. – İstanbul, 2001.
4. Barthold V. V., Moğol İstilasına Kadar Türkistan, çev. H. D. Yıldız, Kronik yay. – İstanbul, 2017.
5. Grousset R., Stepler İmparatorluğu Attila, Cengiz Han, Timur, çev., H. İnalçık, TTK yay. – Ankara, 2011.
6. Ebu'l Gazi Bahadır Han, Türk'ün Soyağacı Türk Şeceresi, çev., Y. Yiğit, İlgi Kültür Sanat yay. – İstanbul, 2009.
7. Hamedani R. F., Camiü't Tevarih (İlhanlılar Kısım), çev. İ. Aka, M. Ersan, A. H. Khelejani TTK yay. – Ankara, 2013.
8. D'ohsson. A., Moğol Tarihi, çev. E. Kalan, IQ Kültür Sanat yay. – İstanbul, 2014.
9. Haykiran K. R., Moğollar Zamanında Yakın Doğu, Ötüken yay. – İstanbul, 2016.
10. Hizmetli S., “Çağatay Devleti”, Türkler Ansiklopedisi, Yeni Türkiye yay. – Ankara, 2002.

11. Galstyan, A. G., Ermeni Kaynaklarına Göre Moğollar, çev. İ. Kemaloğlu, Yeditep yay. – İstanbul, 2017.

Турдалиев А. З.

Студент 1 курса магистратуры по специальности «История Узбекистана»

Ферганский государственный университет

turdaliyevabduhilol@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКАЯ БОРЬБА МЕЖДУ ЧАГАТАЙСКИМ УЛУСОМ И ГОСУДАРСТВОМ ИЛЬХАНОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются политические противостояния между правителями Чагатайского улуса и государством Ильханов, а также внутренние борьбы за престол и власть внутри улуса. Сведения по истории периода господства монголов в Мавераннахре встречаются сравнительно редко. Именно по этой причине в изучении данного этапа сохраняются определённые разночтения и дискуссионные моменты. В трудах Рашид ад-Дина, Абулгази Бахадур-хана, а также Мустафы Кафали, В. В. Бартольда и других исследователей содержатся обстоятельные рассуждения о Чагатайском улусе, его правителях и проводимой ими политике. В частности, В. В. Бартольд на основе источников осветил взаимную борьбу между правителями государства Ильханов и Чагатайского улуса. Рашид ад-Дин, находившийся на службе при дворе ильханов, уделяет особое внимание вопросам политической борьбы.

Ключевые слова: хан, ильханы, Абака, Барак-хан, Кайду, курултай, Великий хан, ярлык.

Turdaliyev A. Z.

1st year master's student on specialty «History of Uzbekistan»

Fergana State University

turdaliyevabduhilol@gmail.com

POLITICAL STRUGGLES BETWEEN THE CHAGATAI ULUS AND THE ILKHANATE STATE

ABSTRACT

This article analyzes the political confrontations between the rulers of the Chagatai Ulus and the Ilkhanate, as well as the internal struggles for succession and authority within the ulus. Information on the history of the period of Mongol rule in Mawarannahr is relatively scarce. For this reason, certain ambiguities and debatable issues persist in the study of this era. The works of Rashid al-Din, Abulgazi Bahadur Khan, as well as Mustafa Kafali, V. V. Barthold, and other scholars contain detailed analyses of the Chagatai Ulus, its rulers, and the policies

they pursued. In particular, V. V. Barthold, drawing on primary sources, examined the conflicts between the rulers of the Ilkhanate and the Chagatai Ulus. Rashid al-Din, who served at the court of the Ilkhans, devoted special attention to issues of political struggle.

Keywords: khan, Ilkhanate, Abaqa, Baraq Khan, Qaidu, qurultai, Great Khan, yarligh.

Худойкулов У. К.

«Ўзбекистон тарихи» кафедраси доценти, т.ф.н.

Ўзбекистон Миллий университети

Ural_karimovich@mail.ru

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДА ЕНГИЛ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА МУАММОЛАР

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада XX асрнинг 70 – 80 йиллар даврида СССР иқтисодиётининг ишлаб чиқаришдаги бир томонлама тараққиёти натижасида ишлаб чиқариш воситаларини ишлаб чиқарувчи янги саноат объектларини қуриш, шунингдек, ишлаб турган саноат объектларини қайта қуриш ва кенгайтиришга эътибор берилиши ва ундаги камчиликлар, ушбу йўналишдаги иқтисодий сиёсат саноат қувватларини оширишда экстенсив усуллардан далолат бўлиб, охириги йиллардаги иқтисодий инқирозни, ҳатто аҳоли турмуш даражасининг пасайиши, саноатнинг истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқарадиган тармоқларда топилган даромад ва маблағлар енгил саноат тармоқларига оқиб ўтишига асосланган иқтисодий ўсиш тури йилдан йилга енгил саноат тармоқлари пасайишига сабаб бўлиши. Енгил саноат катта куч-қудратга, моддий ва молиявий имкониятларга эга бўлсада, истеъмол маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи тармоқларни замонавий техника ва технологик ускуналар билан таъминлай олмаганлиги туфайли ички бозорга сифатсиз халқ истеъмоли моллари кўпайиб кетишини таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Саноат комплекси, қурилиш саноати, иқтисодиёт, енгил саноат, даромад ишлаб чиқариш, истеъмол маҳсулотлар, маъмурий-маиший, транспорт, алоқа, темир йўллар, совет ҳукумати, енгил ва озиқ-овқат саноати.

КИРИШ

Қайд этиш лозимки, СССР иқтисодиётининг ишлаб чиқаришдаги бир томонлама тараққиёти натижасида ишлаб чиқариш воситаларини ишлаб чиқарувчи янги саноат объектларини қуриш, шунингдек, ишлаб турган саноат объектларини қайта қуриш ва кенгайтиришга эътибор берилди. Ижтимоий ишлаб чиқаришнинг 2-бўлинмаси, яъни истеъмол эҳтиёжларини қондириш кўрсаткичи йилдан йилга пасайиб борди. Масалан, бу кўрсаткич 1970 йилдаги 41.1 фоиздан 1975 йилга келиб 36.0 фоизга тушиб қолди. Ўз навбатида 1-бўлинма кўрсаткичлари мос равишда 58.9 фоиздан 64.0 фоизгача етди. Саноатнинг “В” ва “Б” гуруҳ тармоқларининг таҳлили ҳам ушбу жараёнга янада аниқлик киритади. Расмий кўрсаткичларга қараганда, “А” гуруҳи тармоқлари салмоғи 1928 йилги 40 фоиздан 1990 йилга келиб, 73 фоизга етди, ўз навбатида бу йилларда истеъмол комплексининг салмоғи 27 фоизга тушиб қолди. Ушбу рақамларга аниқлик киритганда, иттифоқнинг

сўнгги йилларда ишлаб чиқариш потенциалининг 5/4 қисми ишлаб чиқариш эҳтиёжлари учун, 5/1 қисми эса аҳоли эҳтиёжлари учун хизмат қилган [1].

КПСС МК Бош котиби ва СССР Президенти М.С. Горбачёв ўз вақтида “Шпигель” журнаliga берган интервьюсида қуйидаги рақамларни келтирган эди: “Бизда ишлаб чиқариш фондларининг фақат 6-8 фоизи халқ истеъмол маҳсулотлари учун ишлайди”[2].

Ушбу йўналишдаги иқтисодий сиёсат саноат қувватларини оширишда экстенсив усуллардан далолат бўлиб, охириги йиллардаги иқтисодий инқирозни, ҳатто аҳоли турмуш даражасининг пасайишини олдиндан белгилаб берган эди.

Саноатнинг истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқарадиган тармоқларда топилган даромад ва маблағлар енгил саноат тармоқларига оқиб ўтишига асосланган иқтисодий ўсиш тури йилдан йилга енгил саноат тармоқлари пасайишига сабаб бўлди. Енгил саноат катта куч-қудратга, моддий ва молиявий имкониятларга эга бўлсада, истеъмол маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи тармоқларни замонавий техника ва технологик ускуналар билан таъминлай олмаганлиги туфайли ички бозорга сифатсиз халқ истеъмоли моллари қўпайиб кетишига сабаб бўлди.

Узоқ йиллар давомида иқтисодиётнинг барча соҳаларида яширин тарзда тўпланиб келган ва ўз ечимини топмаган муаммолар ўзини ошкор этиши, ишлаб чиқариш ва истеъмол ўртасидаги жиддий тафовутлар аҳолининг пул даромади ва унинг товар билан қопланишида ўзини намоён қилиб, пул муомаласи ва хўжалик алоқаларининг издан чиқишига ҳамда инфляциянинг ўсиши ва гиперинфляциянинг кучайишига олиб келди.

Маълумки, мустабид тузумнинг кулаши арафасида социалистик лагерь таркибига кирувчи давлатлар, айниқса СССР иқтисодиёти чуқур таназул даврини бошидан кечирди. Асосан XX асрнинг 70-80-йилларидаги иқтисодий-ижтимоий жараёнлар совет давлатининг емирилишини тезлаштириб юборди. Шу давр ичида халқ хўжалигининг аксарият соҳаларида эришилган бир қатор ижобий ютуқларга, юксак иқтисодий кўрсаткичларга қарамай, мамлакат чуқур сиёсий, ижтимоий-иқтисодий турғунлик қаърига юз тутган эди. Турғунлик айниқса XX аср 80-йиллари охирига келиб, бутун мамлакат ҳаётининг чуқур инқирозга юз тутишига сабаб бўлди.

СССРда кўп йиллар давомида шаклланган хўжалик алоқаларининг узилиши ишлаб чиқариш даражасининг ниҳоятда пасайиб кетишига олиб келди. Иттифоқ таркибидаги республикалар ичида айниқса Ўзбекистон ўзининг бир ёқлама ривожланган иқтисодиёти билан бунга дош бериши, мавжуд вазиятдан чиқиб кетиши анча қийин эди. Чунки республикада кўп йиллар давомида шаклланган халқ хўжалиги тартиби, унда пахта якка ҳокимлигининг ўрнатилганлиги, хомашёнинг Иттифоқ эҳтиёжлари учун аёвсиз ишлатилиши, технологик жиҳатдан охирига етказилмаган ва хомашё ёки ярим тайёр маҳсулотни тайёрлашга қаратилган ишлаб чиқаришнинг шаклланиши, аксарият саноат, ҳатто енгил саноат маҳсулотларининг четдан келтирилиши ва бошқа бир қатор сабаблар республиканинг Марказга

карамлигини мустаҳкамлаб, импорт маҳсулотларга эҳтиёжнинг ортишига олиб келди.

СССРда совет ҳокимиятининг мустаҳкамланганлиги, халқ хўжалигидаги жараёнларга ҳам ғоявий-мафкуравий жиҳатдан ёндашиш, иқтисодиётдаги объектив қонуниятларнинг инкор этилиши, мамлакат иқтисодиётининг ривожланишига, шу жумладан ишлаб чиқаришнинг ўсишига салбий таъсир қилиб, халқ хўжалигида тангликка етакловчи омилларнинг зўрайиб боришига шароит туғдирди. Мулкка нисбатан давлат монополиясининг ўрнатилиши, эркин бозор муносабатларидан фойдалана билмаслик, унинг ўрнига маъмурий тақсимлашга асосланган партия-давлат бошқарув тизимининг чексиз ҳукмронлиги халқнинг бунёдкорлик ҳислатларига тўғаноқ бўлди.

Шу билан бирга – мустабид тузум раҳбарияти иқтисодиётдаги хато ва камчиликларни бартараф қилишга уринмасин текисчилик ва тенг тақсимлаш принциплари исканжасида қолган ва Марказдан туриб бошқариладиган иқтисодиёт ўзини ўзи ривожлантириш имкониятларидан маҳрум эди.

Ушбу ҳолатга баҳо бериб, Ўзбекистоннинг биринчи Президент И.Каримов шундай деб таъкидлаган эди: “Бугун биз совет давридаги эски статистиканинг сохта услубларини ёдга олишимиз мумкин. Унга кўра ялпи ижтимоий маҳсулотнинг, саноат, қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқариш, қурилиш-пудрат ишлари ҳажмининг ўсиш суръатлари ва бошқа умумий кўрсаткичлар бош мезон ҳисобланар эди.

Лекин кўп жиҳатдан пуфлаб ясалган бундай сохта суръатлар амалда иқтисодиёт ривожига барқарорлик ва аҳоли ҳаёт даражасининг ўсишига таъсири ҳақидаги маълумотларни бермас эди”[3].

Юқоридаги мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда ҳам шуни таъкидлаш жоизки, тадқиқ қилинаётган йилларда Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари иқтисодиётида кўплаб қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш билан боғлиқ бўлган корхоналар бунёд этилди. Айниқса, пахта тозалаш саноатида муҳим ўзгаришлар рўй берди. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, иқтисодий қийинчиликлар ва мавжуд муаммоларга қарамадан Ўзбекистонда енгил саноат соҳасида амалга оширилган тадбирлар натижасида саноат маҳсулотлари 1960 йилга нисбатан ўсиш суръатига эга бўлганлигини қуйидаги таҳлилларда кўриш мумкин.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Хусусан, 1970 йилда республикада саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш 1966 йилга нисбатан 6,25 фоизга, жумладан, Сурхондарё вилоятида 7,5 фоизга, Қашқадарё вилоятида 8,2 фоизга ўсди. Асосан пахта толаси ишлаб чиқариш 113 фоизга, шойи-ипак маҳсулотлари ишлаб чиқариш 133 фоизга ўсди [4].

Саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш жанубий вилоятларда 1970 йилларда маълум ижобий силжишларга эга бўлиб, маҳсулот тури ва сифати бўйича амалий тадбирлар бажарилди. Натижада саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми йилдан йилга кўпайди. Қашқадарё вилоятида 1970 йил саноат корхоналари янги технологик жиҳатдан жиҳозланиши ва қайта

таъмирланиши натижасида маҳсулотлар ишлаб чиқариш кўпайиб, буни кўйидаги манбалар орқали таҳлил этиш мумкин. Қашқадарё вилоятида саноат асосида пахта толаси ишлаб чиқариш 1970 йилда 76.4 минг тоннага, 1973 йилда 104.9 минг тоннага етди [5].

Ўзбекистонда енгил саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришга алоҳида эътибор берилиб, енгил саноат маҳсулотлари Марказ манфаатларини қондиришга тўлиқ мослаштирилиб, хом-ашё маҳсулотларини тайёр маҳсулотга келтириб, марказий шаҳарлардаги завод ва фабрикаларга жўнатилар эди. Республикада 1970 йилга келиб, енгил саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш 1965 йилга нисбатан 120 фоизга, шунингдек тўқимачилик саноати 112 фоизга, пахта тозалаш саноати 111 фоизга, пойафзал саноати 158 фоизга, тери-галантерия саноати 138 фоизга, тери маҳсулотлари ишлаб чиқариш саноати 165 фоизга ўсди [6].

Республика жанубий вилоятларида енгил саноат маҳсулотлари секин ривожланиб, фақатгина маҳсулотларга бирламчи ишлов берилишига мослаштирилган корхоналар фаолият кўрсатган эди. Жанубий вилоятларда 1970 йилда пахта толаси ишлаб чиқаришга жиддий эътибор берилиб, янги ерларни ўзлаштириш эвазига пахта толаси тайёрлаш кўрсатгичи ўсди. 1970 йилга пахта толаси тайёрлаш Қашқадарё вилоятида 76,4 минг тонна, Сурхондарё вилоятида 115,8 минг тоннага етди [7].

Саноат корхоналарининг ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш қуввати Ўзбекистонда 1985 йилга келиб 1980 йилга нисбатан 241 фоизга, Қашқадарё вилоятида эса 379 фоизга, Сурхондарё вилояти бўйича 226 фоизга ўсишга эришилди [8].

Чунки ушбу йилларда саноат маҳсулотларининг тури ва сифати учун эмас, балки режани бажариш одатий ҳолга айланиб, кўрсатгичларни қўшиб ёзиш орқали, тайёр бўлмаган маҳсулотларни қоғозда бажарилди, деб асос қилиниб олинганлик ҳолати ҳам ушбу кўрсатгичларда қайд этилган фоизларни сохта ва қўшиб ёзилганлигидан далолат беради. Саноатни янги техник асбоб-ускуналар билан таъминлаш, маҳсулотларни замонавий жиҳозлашга умуман эътибор қаратилмади. Саноатни такомиллаштириш ва янги техника ускуналарини яратишга етарли маблағ ажратилмаганлиги туфайли саноат корхоналарида ишчиларга “социалистик мусобақа” тушунчаси кенг сингдирилиб, баландпарвоз чақириқларга катта эътибор берилган эди.

Саноат корхоналарида меҳнат унумдорлигининг ўсиш суръати Сурхондарёда 1985 йил 119 фоизга, Қашқадарё вилоятида 107 фоизга ошди. Шунга қарамасдан саноат корхоналарида иқтисодий қийинчиликлар пайдо бўлиб, корхоналарда хом ашё таъминотида қийинчиликлар юзага келди [9].

Ўзбекистонда, жумладан, жанубий ҳудудларда енгил саноатнинг асосий тараққиёти пахтани қайта ишлаш саноатига асосланганлиги туфайли ишлаб чиқарилган пахта хом ашёсидан олинган тайёр маҳсулотлар эвазига 1989 йилда даромат солиғи суммаси 5,5 миллиард рублни ташкил этган, яъни бир сўмлик маҳсулотларга 1,6 сўмлик даромад солиғи тўғри келган. Ўзбекистонда пахта толасининг 90 фоизи Ўзбекистондан ташқарида қайта ишланганлиги

туфайли ҳар йили 5 млрд. рубл даромад республика хазинасига тушмас эди[10].

ХУЛОСА

Масалага хулоса ясаган ҳолда қуйидагиларни таъкидлаш мақсадга мувофиқдир. Ўзбекистон енгил саноат тармоғи ходимлари қандай қийинчилик ва оғирликлар бўлишига қарамасдан имкон даражасида меҳнат қилдилар. Аммо XX аср 80-йилларидаги маъмурий-буйруқбозлик тизими меҳнаткашларнинг ижодкорлигига маълум даражада салбий таъсир кўрсатувчи омиллар пайдо қилди. Бундай ҳолатда давлат ягона мулк эгаси бўлиб, у иш билан таъминловчига, халқ эса ёлланган хизматчиларга айланиб қолдилар. Бу эса ишчи ва хизматчиларнинг иш натижаларига бўлган манфаатлари ва қизиқишларини сусайтирди. Давлат корхоналарида ишчилар худди бозордаги мардикорларга ўхшаб ишлайдиган бўлдилар. Бундай бошқарув меҳнат жамоалари ва корхоналарнинг қўлоғини боғлаб қўйиб, бу ҳолат енгил саноат корхоналарининг иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида салбий таъсир этмаслиги мумкин эмас эди. Айниқса, 1984-1989 йиллар енгил саноат учун ҳам ғоят қийин ва мураккаб давр бўлди. Узоқ йиллар давомида не-не заҳматлар эвазига босқичма-босқич вужудга келтирилган тармоқ пароканда қилинди, уни ташкилий-иқтисодий жиҳатдан бошқариш тизимига жуда катта зарар келтирилди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

- 1.Первушин С. Об одной из глубинных причин кризисного состояния советской экономики. // Вопросы экономики. 1991, №8. С.3-4.
2. Известия, 1991, 25 март.
3. Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Том 9. – Т.: Ўзбекистон, 2001. 227-бет.
- 4.Узбекистан за годы восьмой пятилетки (1966-1970 гг.) – Т.: Изд. ЦК КП Узбекистана, 1971. – С.20,22, 23.
- 5.Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Т.: “Узбекистан”, 1974. – С.91.
- 6.Мирзаев З., Қобилов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш
7. Народное хозяйство Узбекской ССР. – Т.: «Узбекистан», 1971. – С.57.
- 8.Народное хозяйство Узбекской ССР. –Т.: “Узбекистан”, 1986. – С.52.
- 9.Народное хозяйство Узбекской ССР. –Т.: “Узбекистан”, 1986. – С.52.
10. Ҳаёт ва иқтисод”, 1991, №8, 6-бет.

Худойкулов У. К.

К.и.н., доцент кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

Ural_karimovich@mail.ru

ИЗМЕНЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ В РАЗВИТИИ ЛЁГКОЙ И ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЮЖНЫХ ОБЛАСТЯХ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно описано отношение работников промышленных предприятий к жилью в 70-80-е годы 20 века. Также на основе государственного плана проводились практические работы по совершенствованию строительства жилищных, административно-бытовых и служебных зданий, созданию новых строек, вовлечению их в производство. Однако жилищно-строительные организации поручили из-за низкого качества вновь построенных жилых домов, отсутствия внутреннего оборудования, отсутствия водоснабжения и газоснабжения, несоответствия железобетонных зданий местным условиям анализировались как не приспособленные к современным потребностям.

Ключевые слова: Промышленный комплекс, строительная индустрия, жилищный, административно-бытовой, транспорт, связь, железные дороги, Советская власть.

Xudoyqulov U. K.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National university of Uzbekistan

Ural_karimovich@mail.ru

CHANGES AND CHALLENGES IN THE DEVELOPMENT OF LIGHT AND FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article describes in detail the relationship of workers of industrial enterprises to housing in the 70s-80s of the 20th century. Also, practical works were carried out on the basis of the state plan in order to improve the construction of housing, administrative-household, and service buildings, to create new construction projects, and to involve them in production. However, housing construction organizations commissioned due to the poor quality of newly built residential buildings, lack of internal equipment, water and gas supply failure,

nonconformity of reinforced concrete buildings to local conditions were analyzed as not adapted to modern needs.

Keywords: Industrial complex, construction industry, residential, administrative-household, transport, communications, railways, Soviet government.

Xo'jamberdiyev M. M.
«O'zbekiston tarixi» mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Farg'ona davlat universiteti
mamurjonxojamberdiyev0157@gmail.com

TEMURIYLAR DAVRI TABIBLARI VA ULARNING KUNDALIK HAYOTI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada temuriylar davrida faoliyat ko'rsatgan mashhur tabiblar va ularning kundalik hayoti ishonchli manbalar va adabiyotlarga tayangan holda yoritilgan. Mazkur davrdagi tabiblar haqida yangi ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Abdulhay tabib, Mavlono Darvesh Ali, Hakim Kermoniy, Hakimiy, Baxouddavla, Mavlono Nafis, "Baxr ul-xavoss", Mavlono To'tiy, Muhammad Husayniy Nurbaxshiy, "Xulosat at-tajrib".

KIRISH

Amir Temur va uning vorislari davrida nafaqat harbiy soha va davlatchilik rivojlandi, balki tibbiyot sohasidagi muhim yutiqlar davri ham bo'ldi. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar ilmiy va tibbiy markazlarga aylandi. Amir Temurning shaxsiy homiyligi va temuriylar sulolasi davrida tabiblar faoliyati rag'batlantirilib, saroy tabobati, jamoat salomatligi rivojlandi. Amir Temur tabiblar bilan yaqin va do'stona munosabat o'rnatgan. Mazkur davr tibbiyot sohasi va unda faoliyat olib borgan tabiblarning kundalik hayoti, jamiyatda tutgan o'rnini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Temuriylar davri tabobati Samarqandning "Dor ush-shifo" davolash muassasasi kabi shifoxonalar bilan gullab-yashnagan. Bu yerda mohir shifokorlar bemorlarni islom va Markaziy Osiyo an'analari ta'sirida an'anaviy usullar, tabiiy dorilar bilan davolashgan. Ushbu davrda yashagan qator mashhur tabiblardan biri, Amir Temurning shaxsiy tabibi, uning yurishlarida ishtirok etgan Mavlono Fayzulloh Tabriziy hisoblanadi. Bundan tashqari, "Abu Zayn Kahhol" nomi bilan ma'lum bo'lgan, asl ismi, tug'ilgan joyi va vafot etgan sanasi noma'lum bo'lgan eronlik tabib va jarroh Amir Temur va Shohruh hukmronligi davrida yashab o'tgan. U mashhur oftalmolog ham hisoblangan. 10 ta maqoladan iborat "Jarrohlik holatlari" nomli kitob yozgan.

Abu Zayn Kahhol jarroh qanday xususiyat va xarakterga ega bo'lishi kerakligi haqida ham yozib qoldirgan. U Jarroh bemorlarga do'stona munosabatda bo'lishi kerakligini, jarroh solih bo'lishi, ochko'z va buzuq bo'lmasligi kerakligini, erta tongda uyg'onishi kerakligini, bemor kambag'al va nochor bo'lsa ham hech qanday yordamini ayamasligini, yetim va bevalarga mehr-muhabbatda bo'lish kerakligini ta'kidlagan.

Tabiblar kunini erta tongdan boshlaganlar. Avvalo, bomdod namozini ado etishgan. Badanni uygʻotish uchun yengil harakatlar qilishgan. Tonggi payt tabobatda eng qulay vaqt hisoblangan, chunki inson tanasi bu vaqtda sokin va muvozanatda boʻladi. Quyosh chiqqandan peshin vaqtigacha tabiblarning eng sarmahsul payti boʻlgan. Bu vaqt oraligʻida ular bemorlarni qabul qilish, kasallik sababini aniqlash, dorilar yozib berish va shogirtlarga taʼlim berish bilan shugʻullanishgan. Baʼzan tabiblar qon olish yoki yengil jarrohlik amaliyotlarini ham shu vaqtda bajarishgan. Peshin vaqtida peshin namozini oʻqib, yengil tushlik qilishgan va qisqa dam olishgan. Kunning ikkinchi yarmida mansabdor bemorlarning uyiga borib koʻrishgan, dorixonada dorilar tayyorlashgan, tibbiy risolalar yozishgan. Shomdan keyin shogirtlari bilan suhbat oʻtkazishgan, ilmiy va ahloqiy masalalarni muhokama qilishgan. Yengil ovqat tanovul qilishgan. Erta uyquga yotishga harakat qilingan. Uzoq tunlab ishlash tavsiya etilmagan. Tabiblar ruhiy sokinlikni sogʻliqning muhim qismi deb bilishgan. Ovqat yeyishda ham katta eʼtibor berilgan. Toʻyib yeyish zararli hisoblangan.

Taʼkidlash kerakki, tabib operatsiya qilmoqchi boʻlsa, operatsiyadan oldin jarrohlik asboblarini oʻt (olov)da qizdirib olib, soʻng ishlatgan. Operatsiya vaqtida esa qoʻlini tez-tez mayda qilib toʻgʻralgan piyozga botirib oladi. Baʼzi manbalarda esa, piyozning suvidan foydalanilganli haqida yozilgan.

Temuriylar davrida aynan shahzodalarning piyola va idishlari qanday metallardan yasashiga ham eʼtibor qaratilgan. Ana shunday buyumlar sirasiga nefritni kiritish joizdir. Bu idishlarning yana bir oʻziga xos xususiyati shundaki, ularga zahar solingudek boʻlsa, ularning rangi oʻzgargan. Mavlono Hisomiddin Ibrohimshoh Kirmoniy Amir Temur zamonida yashab oʻtgan. U tib va kasalni muolaja qilish ilmida musosifat, yaʼni moʻjizakor edi. U ham nard va shatranj bobida komil mahorat sohibi edi. U hazrat Sohirqiron dargohida mulozim edi. Oliy martabadagi yigʻinlarga qatnashardi. Xoja Abdulvahob Tabriziy, Xoja Yusuf Buxoriy va ustoz Shamsiddin Kozeruniylar ham Sohirqiron shatranjchilaridan boʻlib, doim saltanat oshiyoni ostonasida mulozimlik qilardilar[1:312]. Ibrohimshoh Kirmoniy, shubhasiz, Amir Temurning yaqin kishilaridan biri boʻlgan. Oliy martabadagi yigʻinlarda qatnashgani buning isbotidir.

Mirzo Abulqosim Bobur davridagi tib ilmi vakili Mir Islom Gʻazzoliy boʻlib, u hujjat ul-islom imom Muhammad Gʻazzoliyning avlodidan edi. Tib va hikmat ilmida katta mahorat hosil qilgan edi. Gohida sheʼr nazmi bilan ham shugʻullanardi va qasidalar yaratishda shirin tillik va soʻzamollikni oʻz oʻrniga qoʻyardi[1:573].

Mavlono Nafis Mirzo Ulugʻbek zamonidagi tabiblarning eng yaxshisi boʻlib, kasalliklarni davolashda Iso paygʻambarning qutlugʻ nafasini namoyish etardi. Ul janob yozgan kitoblar jumladan “Sharhi mujaz”, “Sharhi asbob va alomot” asarlari mashhurdir. “Sharhi asbob va alomot” asari debochasida Mirzo Ulugʻbekka madhu sano yozilgan[1:521].

Abusaid mirzo davrida yashagan Mavlono Qutbiddin an-Nasafiy tabobat ilmida zamonning koʻpchilik tabiblaridan koʻproq mahoratga ega edi va said sulton saroyining xoslari qatoridan oʻrin olgan boʻlib, yaqinlik tugʻini baland koʻtargan edi. Bir necha muddat muhrdorlik mansabida ham turdi va oliy farmonlarga muhr bosish uchun har tongda davlat ustunlarining koʻpchiligidan oldinroq Sulton

Abusaid Mirzo bilan uchrashardi. U sohib saodat podshohning shahidligidan keyin bir necha vaqt Amir Hasanbek oqqo'yunlining qamog'ida o'tirdi. Ul tutqunlikdan qutulgach, Runga ketib Sulton Muhammad Rumiyning inoyatiga erishdi va bir necha muddat Qaysar saroyida davlat va iqbol bilan umr kechirdi. Ajal elchisi yetishgach, hayot xazinasini ruhlarni oluvchiga topshirdi[1:658].

Alisher Navoiy uzoq vaqt davomida haj ziyoratiga borishni orzu qilgan, har safar Husayn Boyqarodan bu haqda so'raganda, uning iltimosi bilan bu safardan qolardi. 1499-yil Husayn Boyqaro Marv shahri tashqarisidagi qarorgohida bo'lib turgan payt Alisher Navoiy uning oldiga Mavloni Nizomiddin Abdulhay Tabibni haj safariga ketishga ruxsat so'rash uchun yuboradi. Abdulhay Tabib 1499-yil 22-fevralda Husayn Boyqaro oldiga yetib boradi. Husayn Boyqarodan kelgan maktubga ko'ra, Alisher Navoiyning hajga ketish niyati to'g'risida turli kishilar orqali eshitganini, ammo ishonchli kishilaridan eshitmagani uchun ishonchli xabar sifatida qaramaganini ta'kidlaydi. Keyin Abdulhay Tabib yetkazgan xatdan so'ng, bu xabarga to'la ishonch bildirganini aytib o'tadi. Bundan kelib chiqadiki, Abdulhay Tabib ham Alisher Navoiyning, ham Husayn Boyqaroning eng ishonchli kishilaridan bo'lgan [2:86].

Husayn Boyqaro Ashxoboddan qaytishida Alisher Navoiy uning istiqboliga shoshiladi. Ikki-uch kunlab otda yo'l bosgan Alisher Navoiy Husayn Boyqaro oldiga yetib borganida ahvoli yomonlashadi. Uni taxti ravonga yotqizib, shaharga qaytadilar. Yo'lda ketayotgan chog'larida Mavloni Nizomiddin Abdulhay va Mavloni Shamsiddin Muhammad Giloniy donishmandlarcha maslahat bilan Alisher Navoiydan qiynalmaydigan bir usulda bir man qon olishadi. Biroq bu ish hech qanday foyda bermaydi [2:157].

Mavloni Nizomiddin Abdulhay Tabib haqida Xondamir "Xulosat ul-axbor" asarida shunday yozadi: "Boshida hidoyat belgilariga ega bo'lgan Amirning shifoxonasida kasallarni davolash bilan mashg'ul bo'lgan. Xoja Nosiriddin Ubaydulloh kasallikka chalinganligi sababli o'z odamlaridan birini Hirotga yuborib, Hazrati sultonning yaqin kishisi bo'lmish ul hazratdan tajribali bir tabibni uning oldiga jo'natishlarini so'raganida, tabobat xazinasini bo'lmish ul janob olijanob Amirning buyrug'iga ko'ra Samarqandga bordi. Zimmasiga yuklatilgan vazifani a'lo darajada bajarib, yorug' yuz bilan Hirotga qaytib kelgach, yanada ko'proq e'tiborga tushib, yanada kattaroq inoyatlarga erishdi. Kun sayin mavqe va darajasi yanada oshib, lahza sayin baxt va tole yulduzi yanada yorug'roq charaqlay boshladi. Nihoyat maqtalgan sifatarga ega bo'lgan Sohibqiron Sultonning iltifotli nazariga tushdi. Saroyda ham kattalar va kichiklarning sirdoshiga aylandi. Hozirgi vaqtda mansab va martaba bosqichlarining eng yuqori darajalariga erishgan vaqti bo'lib, aksariyat vaqtini a'lo hazratlarining xizmatida o'tkazadi"[2:203].

Mavloni Darvesh Ali (Tabib) to'g'risida Xondamir o'zining "Xulosat ul-axbor" asarida shunday ma'lumot beradi: "Kasalliklarning davosini topish va kasallikka chalingan g'ariblarni davolashda katta g'ayratlar ko'rsatgan bo'lib, haqiqatdan ham tabobat ilmida yuksak cho'qqilarga erishgan. Har doim oliy hazratning shifoxonasida kasallarni davolashga mashg'uldir. O'sha maskanga tegishli bo'lgan vaqf mulklardan katta foyda oladi". Bu ma'lumotlar temuriylar davrida shifoxonalar ixtiyoriga katta-katta vaqf mulklari berilganligini yana bir bor

tasdiqlaydi. Bu mulklarning ortidan tushadigan daromaddan, shubhasiz, Mavlono Darvesh Ali katta foyda ko'rgan.

Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Darvesh Ali Tabib to'g'risida shunday yozadi: "Otasi sham quyuvchi edi, biroq o'zi tabobatga mashg'ul bo'ldi. Bu ishda mahoratga ega bo'lgan tabiblar uni judayam maqtashadi. Tab'i ham yaxshi bo'lib, muammoga e'tibori kattadir"[2:212].

Mavlono To'tiy go'zal xulqqa va yaxshi fazilatlarga ega kishi bo'lib, shoirligiga qaramasdan, boshqa ilmlarni ham yaxshi o'zlashtirgandi. Tibbiyotga oid kitoblarga sharhlar ham yozgan. Taxminan, 1462-1463-yillarda saltanat poytaxti Hirotda vafot etgan[2:214].

Hirotda Dorushshifoning ochilishi va bu yerda o'sha davr mohir tabiblarining to'planishi qo'shni yerlardagi, jumladan Erondagi tabiblarni ham jalb etdi. Husayn Boyqaroning xizmatida bo'lgan Eronning ko'zga ko'ringan tabiblaridan biri kermontlik Ne'matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Hakim Kermoniydir. Hakim Kermoniy bilim doirasi keng tabib, faylasuf va shoir edi. Uning Hakimiy taxallusi bilan yozgan she'rlari qo'lyozma kitoblarda uchrab turadi. Xusayn Boyqaro taxtga o'tirgan paytda, bir necha muddat uning xizmatida bo'lgan va 1477-yilda vafot qilgan. Hindistonlik Xusaynkullixon ibn Ofo Alixon o'zining "Nashrari ishq" nomli tazkirasida Hakim Kermoniyni she'riyatda buyuk shoir, tabobatda esa ikkinchi Ibn Sinodir, deb yozadi.

Hakim Kermoniy 1463-1464-yillarda bizga noma'lum bo'lgan ulug' bir kishining taklifi bilan "Baxr ul-xavoss" ("Xosiyatlar dengizi") nomli asar yozgan. U asarni yaratish davomida Sharqning ulug' tabiblari yozgan asarlarni o'qib, tekshirib, solishtirib chiqadi. So'ng o'zi topgan yangilikni bayon qiladi. U biror o'simlik ustida gapirarkan, o'zidan oldingi tabiblarning fikrini bayon qiladi. So'ng o'z fikrini aytib, ularning fikriga qo'shilganini yoki rad qilganini yoxud hali ularga ma'lum bo'lmagan boshqa xoslarini topganligini yozadi. "Baxr ul-xavoss"ni varaqlar ekanmiz, uning sahifalarida Galeniy, Abu Bakr Roziy, al-Xosib, Mosarjavayh, Isxoq ibn Husayn, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd, yunon olimlaridan Jolinus, Suqrot, Arastu, Arabiesis, Balinus va Bayquris nomlarini ko'ramiz.

"Baxr ul-xavoss" bir muqaddima, uch maqola va xotimadan iborat. Muqaddimada tabobatda foydalaniladigan o'simlik va qimmatbaho toshlar hamda parranda, hayvonlarning nomlari alifbo tartibida bayon qilinib, ularning yunon, arab, fors, hind va turk tillarida qanday nom bilan atalishi ko'rsatib berilgan.

Birinchi maqola mufrad, ya'ni yakka holda ishlatiladigan dorilarni tushuntirishga bag'ishlangan. Ikkinchi maqolada murakkab, ya'ni bir necha xil sodda dorilarni qo'shib tayyorlanadigan dorilar zikr qilinadi. Bu maqolada murakkab dorilarni tayyorlash yo'llari, ulardan foydalanish va hayvonlarni davolash uchun ham ishlatiladigan dorilar mufassal bayon qilingan. Uchinchi maqolada sodda va murakkab dorilarning qaysi kasallikda qanday berilishi, kasalliklarning xiliga qarab beriladigan ovqatlar, parhez taomlar bayon etiladi. Xotima qismida tabobatda ishlatiladigan tibbiy atamalar berilgan[3:9].

Eronlik mashhur tabiblardan yana biri raylik Muhammad Husayniy Nurbaxshiy Baxouddavla ibn Mirquvomuiddin (1507-yili vafot qilgan) tabobatdan avval Rayda, so'ng Hirotda tahsil ko'rgan. Hirotda u bir necha vaqt Husayn Mirzo xizmatida

bo'lgan. Umrining oxirlarida u Rayga qaytadi va shu yerda 1501-yilda o'zining yagona kitobi -"Xulosat at-tajrib" ("Tajribalar xulosasi") asarini yozadi. U haqiqatan ham muallifning ko'p yillik kuzatishlari to'plami bo'lib, darslik shaklida tuzilgan. Unda Buqrot, Jolinus, Roziy, Ibn al-Baytor va o'tmishning boshqa buyuk hakimlari tajribasidan misollar keltirilgan. Muallifning bayon qilgan shaxsiy kuzatishlari esa o'sha davr uchun mutlaqo yangi bo'lgan kasalliklarni u tomonidan birinchi bor tasvirlanganligi haqida gapirishga asos bo'la oladi. Masalan, Baxouddavla isitmalar haqida gapirganda bahorda, daraxtlar gullagan vaqtda qo'zg'aydigan kasallik "xumm al-qashshi" (allergiya) ustida alohida to'xtab, uni boshqa isitma (xumm) kasalliklaridan farqlash zarurligini ta'kidlaydi. Bu kasallik Yevropada faqat XIX asrga kelib ochilgan.

Baxouddavla Hirotda ishlab yurgan davrida u yerda ko'kyo'tal epidemiyasini ko'rgan va uning hamma belgilarini kitobida batafsil tasvirlab, davolash yo'llarini bayon qilgan. Bu ma'lumotlar tabobat tarixiga ko'kyo'tal haqidagi birinchi ma'lumot sifatida kirgan[3:11].

XVI asr sharq tabobatiga katta hissa qo'shgan tabiblar qatoriga Imomuddin Mahmud ibn Ma'sud Sheroziyni (1515-1592-yillar) ham qo'shish mumkin. U Eronda shoh Tahmasp (1524-1576-yillar) va shoh Ismoil Safaviy (1576-1578-yillar)lar xizmatida bo'lgan. O'z davrining taniqli tabiblaridan bo'lgani uchunmi, uning qo'lida Hindiston va Eronning yirik tabiblari, jumladan Dehlidagi Sharifiy tabiblar oilasiga mansub bo'lgan Xoja Xovand Mahmud, Shoh Akbarning (1556-1605-yillar) mashhur tabibi Abul Fath Giloniylar (1588-yili vafot qilgan) tahsil ko'rgan. Hozirgi kunda Imomuddinning ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan 20 ga yaqin asari ma'lum bo'lib, ular Hindistonning turli kutubxonalaridan joy olgan [3:12].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida yashab o'tgan va hukmdorlar xizmatida bo'lgan tabiblar o'ziga to'q holda kun kechirgan. Ular kun tartibini aniq reja asosida olib borishgan. Ular tabiatga mos yashashga, sog'lom ovqatlanishga, ilm va amaliyotni birlashtirishga katta ahamiyat berishgan. Hukumat tomonidan ularning turmush-tarzini yaxshilanishiga, doimiy faoliyat olib borishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratilishiga alohida e'tibor qaratgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar. – B. 659.
2. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-ahloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.
3. Hasaniy M., Karimova S. Navoiy davri tabobati. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991. – 126 b.
4. Ghassemlou F, Shams-Ardekani MR, Mokhber Dezfooli MR. Taghvim Tarikh: Farhang va Tamadon Islam va Iran. Vol. 1. Tehran: Amirkabir; 2013. p. 1306.

5. Vol. 2. Tehran: Amirkabir; 2011. A Group of Writers in the Iranian Academy of Medical Sciences. [Dayer al-Maaref Islam va Iran] pp. 471–473.
6. <https://ishonch.uz/oz/news/amir-temur-davrida-tibbit-ilmi-zadal-ri>
7. Муджмал-и Фасихи// Пер. Предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 5-29.
8. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. 2-jild 2-3- K. - 6.52-56.
9. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. 2-jild 2-3- K, -6.386-387.
10. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – B. 179-182.
11. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент: Фан, 2006. – Б. 34-44.
12. Yusupova D. Xondamir va uning ilmiy merosi. //G'iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar axbori afrodi bashar // fors tilidan tarj. Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov I. Izohlar mualliflari – Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov. – Toshkent, 2013. – B. 16-23.
13. Qodirov A. O'zbekiston tibbiyoti. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 104 b.
14. Saidqosimov S. (raxbar), Axmedov A., Axmedov B. va boshq. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: Sharq, 2001. – 304 b.
15. Xurshid Jumanazarov. Turkistonda tibbiyot tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2024. – 288 b.

Хужамбердиев М. М.

Магистрант 1 курса по специальности «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
mamurjonxojamberdiyev0157@gmail.com

ВРАЧИ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ И ИХ ПОВСЕДНЕВНАЯ ЖИЗНЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе достоверных источников и научной литературы освещаются известные врачи, жившие в эпоху Тимуридов, а также их повседневная жизнь. Представлены анализ и научные рассуждения о врачах рассматриваемого периода.

Ключевые слова: Абдулхай Табиб, Мавлоно Дарвеш Али, Хаким Кермани, Хакими, Баха ад-Давла, Мавлоно Нафис, «Бахр аль-хавасс», Мавлоно Тути, Мухаммад Хусайни Нурбахши, «Хуласат ат-таджриб».

Xojamberdiyev M. M.

1st year master's student on specialty «History of Uzbekistan»

Fergana State University

mamurjonxojamberdiyev0157@gmail.com

PHYSICIANS OF THE TIMURID PERIOD AND THEIR DAILY LIFE

ABSTRACT

This article highlights renowned physicians who lived during the Timurid period and examines their daily lives on the basis of reliable sources and scholarly literature. Analytical assessments and reflections on the physicians of the period under study are also presented.

Keywords: Abdulhay Tabib, Mawlana Darvesh Ali, Hakim Kermani, Hakimi, Baha al-Dawla, Mawlana Nafis, Bahr al-Khawass, Mawlana Tuti, Muhammad Husayni Nurbakhshi, Khulasat al-Tajrib.

G'ulomov I. K.

«Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar» kafedrası dotsenti, PhD

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

ikgulamov@mail.ru

1920-YILDA O'TKAZILGAN AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRINING ROSSIYA UCHUN IQTISODIY AXAMIYATI (TURKISTON ASSR MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Maqolada 1920-yilda Turkiston ASSRda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri va undan ko'zlangan iqtisodiy masalalar yoritilgan. Shuningdek, mazkur yilda Markaziy Statistika Boshqarmasi tomonidan hududlar kesimida aholi ro'yxati shakllantirilgani hamda bu tadbirning yakuniy natijalari birlamchi statistik manbalar asosida atroflicha tahlil etilgan. Maqolada ushbu tadbir natijasiga asoslangan holda, kelgusi yillarda o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ishlar rejalashtirilgani to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Aholi ro'yxati, ro'yxatga olish dasturi, aholi soni hisoboti, migratsiya, tabiiy o'sish, statistika, doimiy aholi, aholi zichligi, shahar, qishloq, uyezd.

KIRISH

O'zbekistondagi demografik jarayonlar tarixini va ularning istiqbollarini o'rganish juda muhimdir. Bu borada o'lkamiz hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarini tarixiy nuqtai-nazardan kelib chiqib, holisona yoritish va uning istiqbollarini tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan bugungi kunda o'tgan asrning turli yillarida Turkiston o'lkasida keyinchalik esa O'zbekiston SSR hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsadlarni hamda ushbu tadbirlarni tashkil etish kabi masalalarni birlamchi manbalar asosida holisona tadqiq etish tarixchilar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Milliy arxividagi R-1619 fondida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, O'zbekiston Milliy kutubxonasidagi davriy matbuot materiallari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlilida Turkiston ASSRda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlari to'g'risida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona hududlari bo'yicha birlamchi statistik ma'lumotlar keltirilgan to'plam natijalari orqali mazkur davrda aholi soni to'g'risida aniq ma'lumotlar olish imkonini bergan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad mohiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Sovet ittifoqida ilk marotaba o'tkazigan aholini ro'yxatga olish tadbiri 1920-yili o'tkazigan Butunrossiya VII Sovetlar syezdida qabul qilingan "Butunrossiya aholisini ro'yxatga olish" to'g'risidagi qarorga muvofiq amalga oshirildi[1:19]. Mazkur yilgi tadbirda 1897-yili ilk bor o'tkazilgan tadbirdan farqli o'laroq nafaqat aholining ro'yxati, balki, sanoat korxonalarini, aholi qo'lidagi moddiy daromadigacha ro'yxatga olish ishlari ham olib borildi[2:13]. V.I.Lenin bu tadbirga katta ahamiyat bergan va ularning davlat miqyosida muhim ekanligini alohida ta'kidagan. U mazkur tadbirning yakuniy natijalari to'g'risida "Sovet respublikasini sotsialistik qurilishi uchun bu tadbirlarning yakuniy natijalari birlamchi va boshqaruvchi ahamiyatga ega" deb yozgan edi[3:4].

1920-yili Butunrossiya aholini ro'yxatga olish tadbiri V.I.Lenin tashabbusi bilan mazkur yilning avgust oyida o'tkazilishi belgilanadi[4:5]. Ushbu jarayonga katta ahamiyat berilib, tadbirni o'tkazish uchun sovet hokimiyatining turli yo'nalishlardagi boshqaruv idoralariga hamda Markaziy Statistika Boshqarmasi (keyingi o'rinlarda MSB deb keltiriladi) va uning mahalliy organlariga ushbu tadbirga har tomonlama so'zsiz yordam berishlari talabi qo'yiladi. Hususan, V.I.Lenin o'zining 1920-yil 28-iyulda MSB va uning hududiy bo'linmalariga yuborgan telegrammasida shunday so'zlar bitilgan edi: "Aholini ro'yxatga olish bu faqatgina ro'yxatchining ishi emas, balki, u butun respublikaning ishi, barcha sovet idoralarining ishidir. Ushbu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o'tkazishda Rossiyaning guberniyalarida va mustamlaka hududlarida mavjud bo'lgan barcha kuchlar va vositalardan foydalanish shart" degan so'zlar bilan aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga topshiriq beradi[5:6-7].

Hududlardagi barcha boshqaruv xokimiyati organlariga yuborilgan ushbu telegramma quyidagicha ogohlantirish bilan yakunlangan edi: "Sovet respublikasini qurilishi uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan aholini ro'yxatga olish tadbiri ishlarida yetarlicha yordam ko'rsatilmasa, aybdorlar zudlik bilan mansabidan qat'iy nazar revolyutsion tribunalga tortiladilar. Aholini ro'yxatga olishdek davlat ahamiyatidagi muhim ishda bir kun ham kechikish mumkin emas"[6:9]. Lekin mazkur yilgi tadbir ham o'ziga yarasha bir qator kamchiliklar bilan yakunlanadi. 1920-yidagi aholini ro'yxatga olish tadbirini inqilobgacha bo'lgan davrda yani 1897 va 1917-yillarda o'tkazilgan Butunrossiya aholisini ro'yxatdan o'tkazish tadbirlari, horijiy davlatlarda o'tkazilgan mazkur yo'nalishdagi shu kabi tadbirlar, aholini ro'yxatga oluvchi va ularning yakuniy natijalarini tahlil qiluvchi hamda chop etishga tayyorlovchi statistlarning ishlarini tanqidiy baholagan holda mukammal o'tkazishga topshiriq berilgandi[7:20]. Turkiston ASSRdagi aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalarini tahrir etish va ro'yxatga olish ishlarga umumiy rahbarlik qilish Turkiston ASSR MSB boshlig'i D.Krasnovskiy tomonidan amalga oshirilishi belgilanadi[8:142].

1920-yilgi aholini ro'yxatga olish dasturini tuzish vaqtida V.I. Leninning ushbu dastur bo'yicha bir qator bergan ko'rsatmalari, xususan, aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalarini qayta ishlash orqali barcha hududlardagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi to'g'risidagi ko'rsatkichlarini yani aholining kundalik turmush tarzi to'g'risida ma'lumotlarni olish imkoni bo'lishi to'g'risidagi ko'rsatmalari inobatga olinadi. Mazkur yilgi tadbirni

o'tkazishda alohida e'tibor aholining sinfiy tarkibini o'rganishga va uni mashg'ulotlariga, xalq xo'jaligi sohalariga qarab hamda kundalik yashash tarzi manbalariga ko'ra taqsimlanishiga qaratiladi. Turkiston ASSRda aholining sinfiy tarkibini aniqlash uchun aholining kundalik mashg'ulotdagi xolatlari aniqlandi yani (yollanma ishchisi bor xo'jayin, yordamchi oila a'zosi, xizmatchilar soni, ishchilar soni, o'quvchilar soni, oliy ma'lumotli aholi soni kabi)[9:8-9]. 1920-yili sovet xokimiyati tomonidan Turkiston ASSR hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari asosida o'lkada birinchi marta aholini va mehnat resurslarini istiqbolli hisoblari ishlab chiqildi.

1920-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalarini tahlil qilar ekanmiz Turkiston ASSRda istiqomat qiluvchi hamda mahalliy bo'lmagan turli millat vakillarining miqdori dastlabki o'tkazilgan (1897-yil fevral) aholini ro'yxatga olish tadbiri yakuniy natijalarida keltirilgan sonidan deyarli to'rt baravar o'sib, o'lkadagi umumiy aholi miqdoridagi ulushi 9,5 foizni tashkil etgan[10:17]. Turkiston ASSR hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri orqali to'plangan statistik ma'lumotlarning tahliliga asoslangan holda asosan bu tadbirdan ko'zlangan maqsadlar mintaqa iqtisodiyotini oldindan rejalashtirish, o'lkadagi mehnat resurslarini Rossiya manfaatlarini yo'lida taqsimlash hamda demografik vaziyatni o'rganish kabi bir qator masalalarni hal etishda foydalanildi.

Mazkur yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri Turkiston ASSRning shahar va shahar tipidagi hududlarida bir hafta, qishloq hududlarida esa ikki hafta muddatda o'tkazilishi belgilandi[11:8]. 1920-yil o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri horijiy harbiy intervensiyaning og'ir sharoitlarida, ko'plab guberniya va mustamlaka hududlarida fuqarolar urushi va xo'jalik vayronagarchiligi qolaversa ushbu yillarda juda ko'plab hududlarda kechayotgan ocharchilik jarayoni sharoitida o'tkazildi. Mazkur yilgi tadbirni o'tkazishda ham savodxon kadrlar etishmasligi kuzatildi. Rossiyaning ba'zi guberniyalarida hamda Turkiston ASSRda ham "quloqlar va oqbanditlar" tomonidan mazkur tadbir bo'yicha to'plangan materiallar yoqib yuborilgani to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi[12:339-340].

1920-yilgi ushbu tadbir ma'lumotlariga ko'ra butun Turkiston ASSRning aholisi 5 221 963 nafarni tashkil etgan[13:53]. Shu yillarga oid yana bir manbada keltirilishicha 1920-yili hudud aholisi soni 5 664 500 nafarni tashkil etgan degan ma'lumotlar uchraydi[14:27]. Aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari chop etilgan ko'plab manbalarda hamda demografik yo'nalishda chop etilgan bir qator adabiyotlarda ham 1920-yili hududning umumiy aholisi to'g'risida turlicha raqamlar keltiriladi. Shu bois ham arxiv ma'lumotlarini va ushbu tadbir natijalari chop etilgan birlamchi statistik to'plamlarni har tomonlama atroflicha tahlil qilgan holda o'rganish va ilmiy xulosalar hamda ushbu tadbirlarni O'zbekiston Respublikasida kelgusida o'tkazilishi belgilangan aholini ro'yhatga olish tadbirlarida foydalanish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

1920-yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri natijasiga ko'ra aholisi soni ko'pligi bo'yicha Farg'ona viloyati birinchi o'rinda turgan – 2 112 000 nafar (37,3%), ikkinchi o'rinda Sirdaryo viloyati – 1 305 000 nafar (23.1%), so'ng Yettisuv viloyati – 959 700 nafar (16.9%) va Samarqand viloyati – 792 800

(14%)nafar kishini tashkil etgan. Eng kam aholi hozirgi Turkmaniston hududi aholisi – 333 900 (5,9%) nafarni tashkil etgan[15:171].

1920-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri ma'lumotlariga ko'ra Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv va Farg'ona viloyatlarining uncha katta bo'lmagan (asosan aholi soni kam bo'lgan kichik qishloqlar va tog'li) hududlari aholisi ro'yxatdan o'tmagan[16:23]. Fikrimizcha ko'plab kichik-kichik aholi istiqomat qiluvchi manzilgohlar ro'yxatga olish tadbiriga jalb etilmaganiga sabablardan biri tadbir oldi targ'ibot ishlarining yetarli darajada olib borilmagani hamda aholiga ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsadlar yetarlicha tushuntirilmagan. Bundan tashqari, bu yilgi tadbirda ham aholi orasida ushbu tadbirga nisbatan shubha va qo'rquvlar yo'qolmagan edi.

1920-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida o'lka hududida istiqomat qiluvchi aholi soni, milliy tarkibi, tili, shahar va qishloq aholisining kundalik turmush tarzi hamda migratsiya kabi masalalar to'g'risida statistik ma'lumotlar olindi va 1897 va 1917-yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlariga nisbatan aniqroq ma'lumotlar to'plandi. Mazkur yilgi tadbir davomida o'lkadagi har bir qurilgan inshootlar soni, o'lkaga Rossiya va yevropa davlatlaridan kirib keluvchi turli hildagi hom-ashyo buyumlari, markazga yuboriladigan mahsulotlar to'g'risida, aholi istiqomat qiladigan uylar soni, turli tashkilot va zavodlarga qarashli alohida binolar va ularning soni va shu kabi aholini ro'yxatga olish tadbiriga mutlaqo aloqasi bo'lmagan moddiy va nomoddiy buyumlargacha barchasining ro'yxati hududlar kesimidagi statistik ro'yxati tuzildi. Bu esa sovet hokimiyatining hukmron doira vakillariga o'lkani boshqarishda yanada ko'proq qulayliklar berishi tabiiy edi.

1920-yilgi ro'yxatga olish tadbiriga jalb etilgan turli soha vakillarining aholini ro'yxatga olish bo'yicha na tajribasi, na yetarli tayyorgarligi bo'lmaganligi sababli aholi istiqomat qiluvchi manzilgohlarning nomiga jiddiy ahamiyat berilmagan. 1920-yili viloyatlar kesimida chop etilgan statistik to'plamlarni bir-biri bilan taqqoslab tahlil qilganimizda aksariyat hududlar aholisi soni tahminiy ekanligi aytilib, buning asosiy sababi qilib esa tog'li hududlardagi aholi istiqomat qiluvchi manzilgohlar uzoqligi va ushbu hududlarda kamsonli aholi istiqomat qilishi bois mazkur hududlar aholisi ro'yxatga olinmagani ta'kidlanadi. Buning birgina sababi qilib viloyatlarning chekka-chekka tog'li hududlarida istiqomat qiluvchi aholi manzilgohlari madaniy markazlardan uzoqda bo'lganligi, temir yo'llar bo'lmaganligi va ro'yxatga oluvchi xodimlar yetishmagan. Mazkur tadbirga ajratilgan vaqt chegaralangani tufayli viloyatning ko'plab uездlari aholisi ro'yxatga olinmagani to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur davrga oid aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari chop etilgan birlamchi manbalarda ta'kidlanadi[17:278].

1920-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri davomida Rossiyaning turli hududlaridan ko'chirib keltirilgan ruslar, ukrainlar, belaruslar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladigan shahar hamda shaharcha tipidagi uyezdlar aholisi to'liq ro'yxatga olingan. Mazkur davrga oid birlamchi manbalarni tahlil qilish va o'zaro solishtirish natijasida shuni qayd etish lozimki, aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari asosida Rossiyaning bironta ham tuzilmasi o'lka

hududi iqtisodiyotini rivojlantirishni emas, aksincha, o'lkadagi barcha imkoniyatlar (tabiiy boyliklar, mo'ynalar, baliq va mahalliy aholi kuchidan aksariyat hollarda tekin foydalanish)ni shakllanib kelayotgan kapitalizm maqsadlaridan biriga aylantirishni maqsad qilgan edilar va shunday qilindi ham.

Sovet xokimiyati hukmronligi dastlabki yilida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri asosan:

- birinchidan, Rossiyaning o'lkadagi hukmronligini namoyish qilish;
- ikkinchidan, o'lkadagi barcha moddiy, madaniy va tabiiy boyliklarga ega bo'lish hamda mahalliy aholining arzon mehnatidan Rossiya manfaatlari yo'lida foydalanish;
- uchinchidan unumdor yerlarga markazning turli hududlarida milliy nizolarga sababchi bo'layotgan rus millati va boshqa millat vakillarini tobora ko'proq ko'chirib kelish;
- to'rtinchidan esa o'lkadagi boshqaruv muhitini mustahkamlash kabi maqsadlardan kelib chiqdi.

Aholi ro'yxati bilan bog'liq bo'lgan birlamchi manbalarni o'rganish va tahlili qilishda yana shunday hulosa kelib chiqadiki, aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'lkaning tub aholisi istiqomat qiladigan ko'plab shahar hamda qishloqlarga nisbatan rejali amalga oshirilmagan. Turli yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati tadbirlari jarayonlarida yana bir ahamiyatli narsa borki, u ham bo'lsa mahalliy tilni bilmaydigan ko'plab statistlarni va ro'yxatga oluvchilarni ushbu tadbirlarga jalb etilganligidir.

Sovet hokimiyatining eng kata mustamlakasi hisoblangan Turkiston ASSRning tabiiy boyliklari, hududdagi barcha unumdor yerlar hisobi hamda eng muhimi qancha aholi istiqomat qilishini bilish va shu asosda o'lka hududiga va aholisiga nisbatan kelgusida rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirish juda muhim edi.

XULOSA

Mazkur maqolaga xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'tgan asrning turli yillarida O'zbekiston hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarini tarixiy jihatdan yoritish hamda mazkur tadbirlardan ko'zlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy maqsadlarni qiyosiy tahlil etish orqali ushbu tadbirlarning mustamlakachilik mohiyatini holisona ochib berish bugungi kunda tarixchilar oldida turgan dolzarb mavzulardan biridir. O'lkamiz hududida bugungi kunga qadar rasman o'tkazilgan aholini ro'yxatga o'lish tadbirlarining yakuniy natijalarini mazkur davrga oid birlamchi manbalar hamda arxiv ma'lumotlari va mazkur tadbirining yakuniy natijalari chop etilgan statistik to'plamlarda keltirilgan aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil etish va mazkur tadqiqot yuzasidan ilmiy hulosalarni berish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotdan olingan natijalar asosida berilgan ilmiy taklif va hulosalar bugungi kunda aholisi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan O'zbekistonning demografik taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashda hamda kelgusida kutilayotgan muhim o'zgarishlarni aniqlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Центральное статистическое управление при совете министров СССР Всесоюзная перепись населения – всенородное дело. Москва. 1978 г. – С.19.
2. O'z MA, fond №R 1619, ro'uxat №11, 53-yig'ma jild. 13-varaq.
3. O'z MA, fond №R 1619, ro'uxat №11, 53-yig'ma jild. 4-varaq.
4. O'z MA, fond №R 1619, ro'uxat №11, 53-yig'ma jild. 5-varaq.
5. Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Поселенные итоги. Выпуск III. Поселенные итоги Сыр-Дарьинской области. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1923 г. – С.6-7.
6. Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Поселенные итоги. Выпуск III. Поселенные итоги Сыр-Дарьинской области. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1923 г. – С.9.
7. Центральное статистическое управление при совете министров СССР Всесоюзная перепись населения – всенородное дело. Москва. 1978 г. – С.20.
8. Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Поселенные итоги. Выпуск III. Поселенные итоги Сыр-Дарьинской области. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1923 г. – С.142.
9. O'z MA, fond №R 1619, ro'uxat № 11, 53-yig'ma jild. 8-9 varaqlar.
10. Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть I. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1923 г. – С.17.
11. Убайдуллаева Р. Ўзбекистон аҳолиси ва меҳнат ресурслари. Тошкент. Ўзбекистон. 1977 й. 8-бет.
12. В.И.Ленин. Полное собрание сочинений. Т.51. – С.339-340.
13. Отчет о деятельности Совета Народных Комиссаров и Экономического Совета Туркестанской Республики на 1 октября 1922 года. Ташкент. 1922 г. – С.53.
14. Статистический ежегодник 1917-1923 гг. Том I. Ташкент. 1924 г. Издание ТЭС. – С.27.
15. Исмоилов А. Динамика численности сельского населения и населенных пунктов Аму-даринского области. Проблемы народонаселения: Труды всесоюзной межвузовской научной конференции, посвященной проблемам народонаселения Средней Азии (Ташкент, сентябрь 1965 г). Москва. Масковского университета. 1970 г. – С.171.
16. Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть I. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1923 г. – С.23.
17. Материалы всероссийских переписей 1920 г. Поселение итогов Самаркандской области. Ташкент. Издания ЦСУ Турккеспуублики. 1924 г. – С.278.

Гуломов И. К.

PhD., доцент кафедры «Физическая культура и гуманитарные науки»
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми
ikgulamov@mail.ru

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕР ПО РЕГИСТРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ, ПРОВЕДЕННЫХ В 1920 ГОДУ В РОССИИ (НА ПРИМЕРЕ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается перепись населения, проведенная в Туркестанской АССР в 1920 году, и экономические вопросы, возникшие в связи с ней. Также Центральное статистическое управление провело в этом году перепись населения в регионах, и окончательные результаты этого мероприятия были подробно проанализированы на основе первичных статистических источников. В статье обсуждаются социально-экономические и политические планы, запланированные в стране на ближайшие годы, исходя из результатов этого мероприятия.

Ключевые слова: перепись населения, программа переписи, отчет о населении, миграция, естественный прирост, статистика, постоянное население, плотность населения, город, село, уезд.

Gulomov I. K.

PhD., associate professor at the department of «Physical Culture and Humanities»
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
ikgulamov@mail.ru

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF THE POPULATION REGISTRATION MEASURE HELD IN 1920 FOR RUSSIA (ON THE EXAMPLE OF THE TURKESTAN ASSR)6

ABSTRACT

The article discusses the population census held in the Turkestan ASSR in 1920 and the economic issues arising from it. Also, the Central Statistical Office conducted a population census in the regions in this year and the final results of this event were analyzed in detail based on primary statistical sources. The article discusses the socio-economic and political work planned in the country in the coming years based on the results of this event.

Keywords: Population census, census program, population report, migration, natural growth, statistics, permanent population, population density, city, village, uyezd.